

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMLI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**FALSAFA KAFEDRASI**

**DINSHUNOSLIK**

**FANIDAN  
MA'RUZALAR MATNI**

**Tuzuvchilar:**

**Katta o'qituvchi: Z.Suyarov  
Assistent: D.Sobirov  
Assistent: D.Samarov**

**Andijon -2015**

*Dinning xalqimiz ma'naviyatiga, ruhiyatiga o'tkazayotgan hayotbaxsh ta'sirini ko'rib turibmiz. Dinning tarbiyaviy ahamiyati yanada ko'proq bo'lishi lozim. Har bir inson o'z e'tiqodiga va diniga amal qilish yoki hech qaysi dinga etiqod qilmaslik huquqiga ega....*

I.A.Karimov

## K I R I S h

### **O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining Konstitutsiyada ta'minlanishi fuqarolarda din va diniy qadriyatlarga nisbatan adolatli va xolisona munosabatni belgilash imkoniyatini yaratdi.**

Yangi tahrirdagi qonun Respublikamiz Konstitutsiyasi tamoyillariga asoslanib, vijdon erkinligini amalga oshirishning oqilona demokratik echimini topdi. Qonun fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan Konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlamoqda.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan ma'naviy omillar tobora birinchi o'ringa chiqib borayotgan hozirgi sharoitda xalqimizda, xususan yoshlarda din va undagi real qadriyatlarga ma'naviy madaniyatning bir qismi sifatida qarash shakllanmoqda. Yoshlarda milliy va diniy qadriyatlar hamda dinlar tarixini o'rganishga qiziqish ehtiyoji ortmoqda. Hozirgi zamon fani va ilg'or qarashlari asosida tayyorlangan ushbu «Dinshunoslik» ma'ruzalar matni talabalarga ibtidoiy dindan tortib jahon dinlarigacha, ularning kelib chiqishi, mohiyati, tarixi, evolyustiyasi, hozirgi holati, insoniyat hayotidagi tutgan o'rni haqida umumiy ilmiy ma'lumot berishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi an'anaviy islom dini keng tarqalgan xududlardan ekanligini hisobga olib, bu mintaqada VIII asrdan boshlab islom yagona hukmron dinga aylanganligi sababli uning shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyati va ma'naviyatni boyitishga qo'shgan xissasi xususida yoshlarni ilmiy, falsafiy, binobarin dunyoviy bilimlar bilan kengroq, batafsil qurollantirish ko'zda tutiladi. Talabalarga islom ma'naviyati, milliy va diniy qadriyatlarni tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlarga uyg'unlashishi, hozirgi mustaqil O'zbekiston sharoitidagi ahamiyatini tushuntirish tavsifa etiladi.

Milliy va islomiy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashishi kabi muammolarga ko'proq e'tibor qaratilgan.

«Dinshunoslik» ma'ruzalar matnini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida din va vijdon erkinligiga doir fikrlardan, A.S.Vasilevning «Istoriya Religni Vostoka» (M.;1998), I.N.Yablokovning «Osnovm religiovedeniya» (M.:1998), «Dinshunoslik» (A.Mo'minov va boshqalar - T.: 2004); A.Abdusamedovning «Dinlar tarixi» (T.:2002) va boshqa adabiyotlardan foydalanildi.

## 1-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish. Ibtidoiy din shakllari

Reja:

1. Dinshunoslik fanining predmeti maqsadi va vazifalari.
2. Dinning funksiyalari.
3. Dinning ibtidoiy shakllari.

### Tayanch so'zlar

*Din, dinshunos, din funksiyalari, fenomen, kompensatorlik, to'ldiruvchilik, integrativ (birashtiruvchilik), regulyativ (nazorat qiluvchilik), kommunikativ (aloqa bog'lovchilik), legitimlik (qonunlashtiruvchilik), dinshunoslik fani predmeti.*

**1. Dinshunoslik fanining predmeti.** «Dinshunoslik» dinning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini, uning ijtimoiy, gnoseologik, psixologik ildizlarini, turli xil dinlar ta'limotining vujudga kelishi va shakllanishini o'rgatuvchi fan, ta'limot va o'quv predmetidir. U dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lishidan urug'-qabila, milliy va jahon dinlari paydo bo'lgan davrda yuz bergan jarayonni hamda jamiyat taraqqiyotida din bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy, hodisalarni, ma'naviy omillarni - mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganish, taxlil qilishni ko'zda tutadi.

Din muammolariga xos dastlabki g'oyalar Markaziy Osiyoda -deizm, panteizm va boshqalar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' allomalar Muhammad Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'limotida olg'a surilgan edi. XVII asrda Boburning nabirasi Shoh Akbar, so'ngra XVIII asrda franstuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabatlari XIX asrda ilmiy dinshunoslik doirasida yangi oqim, yo'nalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan. Binobarin, XIX asrda mifologik maktab (aka-uka Grimm, M.Myuller); antropologik maktab (L.Feyerbax) va boshqa maktablar paydo bo'lgan. XX asrda dinshunoslik yanada yangi nazariyalar bilan boyigan. Bunda shveystariyalik psixolog K.Yung va ayniqsa, franstuz sostiologi E.Dyurkgeymning "kollektiv ong" haqidagi ta'limoti diqqatga sazovordir.

Ammo o'sha davr dinshunosligi dinga o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon etar ekan, bu qarashlari diniy tashkilotlar manfaatlari bilan bog'lanmagan, mafkuraviy jihatdan betaraf qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan. Bu urinishlarni "asoslash" da turli falsafiy hamda ijtimoiy nazariyalardan foydalangan. Amalda esa ilohiyotga ko'proq yondashgan.

Olimlarning dinshunoslik sohasidagi izlanishlari muhim xulosalar chiqarishga olib kelgan: birinchidan, har kandy din ijtimoiy hodisa fenomen hisoblanib, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir; ikkinchidan, diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta'sirida turli-tuman shakl kasb etgan; uchinchidan, ibtidoiy diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bo'lgan dinlar evolyustiyasini e'tirof etish dinshunoslik haqida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, "Dinshunoslik" predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin: **Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotdagi mavqei va ijtimoiy funkstiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandır.**

**Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari.** Dinshunoslik kursini o'qitishdan birinchi maqsad talabalarni din va diniy ta'limotlarning diniy talqinidan tashqari ilmiy tushuncha, ta'limot, nazariya, falsafiy xulosalar bilan qurollantirishdan iborat. Buning uchun hozirgi zamon fani yutuqlari asosida dinning kelib chiqishi, evolyustiyasi, hozirgi holati, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni haqida ilmiy-nazariy ta'limotlar bilan qurollantirish ko'zda tutiladi.

Ikkinchidan, O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda VIII asrdan boshlab islom yagona hukmron dinga aylanganligi, xalqimiz turmush tarziga chuqur kirib borganligini hisobga olib, uning

shaxs, oila, jamiyat hayotida tutgan o'rni, madaniyat va ma'naviyat, san'at va adabiyotni boyitishga ko'shgan hissasi xususida talabalarni ilmiy-falsafiy bilimlar asosida fikr yuritishga o'rgatilishdan iborat.

Uchinchidan, ibtidoiy dinlardan tortib to jahon dinlarigacha bo'lgan dinlarning shakllari, ta'limotlari, yo'nalish va oqimlari mazhab va sektalari haqida umumiy ilmiy tasavvur hosil qilish orqali mustaqil falsafiy xulosalar chiqara olish malakasini hosil qilishdan iborat.

Yuqoridagi maqsadlarga erishishda I.A.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi yangi tahrirdagi qonun, Jinoyat, Fuqorolik, Oila, Yoshlar kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

### **"Dinshunoslik» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:**

*birinchidan*, Oliy o'quv yurti talabalariga shu sohada chuqur bilim berish orqali kurs doirasiga kirgan masalalarni tahlil etishda ilmiylik va ob'ektivlik uslubini qo'llanib, ularga diniy qarashlar taraqqiyotiga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan dunyoviy imon va e'tiqodni shakllantirish;

*ikkinchidan*, ibtidoiy din shakllaridan tortib to urug`, qabila va milliy dinlargacha, ularda jahon dinlarining paydo bo'lishi va rivojlannshining ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini tarixiy dalillar asosida har tomonlama ilmiy taxlil qilish va umumlashtirish;

*uchinchidan*, kursni o'rganish jarayonida dinning ta'rifi, tavsifi, diniy va ilmiy kategoriya (asosiy tushunchalar), dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati tarakqiyotidagi turli bosqichlarda tutgan o'rni; jamiyatni, shaxsni ma'naviy kamol toptirishda milliy va diniy qadriyatlarining ahamiyati; islomning Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston xalqlari madaniyati va ma'naviyatiga ta'siri kabi masalalarni falsafiy taxlil qilish;

*to'rtinchidan*, talabalarga islom manbalari - Qur'oni karim, hadis, shariat haqida umumiy ilmiy tushunchalar berish, uni rivojlantirishga ulkan hissa ko'shgan vatandosh bobokalonlarimiz hayoti va ijodi bilan tanishtirish; hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini keng yoritish; tasavvuf ta'limotini takomillashtirishda hamyurtlarimiz ijodini bayon etish;

*beshinchidan*, hozirgi davrda mustaqil mamlakatimizda vijdon erkinligining to'liq kafolatlanganligi isbotlab berish, islomdagi real qadriyatlarni tiklash yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlarni tavsiflash, nihoyat, milliy va diniy qadriyatlarining sog'lom avlodni, jumladan talabalarni kamol toptirishga bag'ishlash, ularda din haqida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

**Dinning funkstiyalari.** Umuman din, xususan islom dini 5 asosiy funkstiyani boshqaradi. Bular qatoriga kompensatorlik, to'ldiruvchilik, integrativ (birashtiruvchilik), regulativ (nazorat qiluvchilik), kommunikativ (aloqa bog'lovchilik), legitimlik (qonunlashtiruvchilik) funkstiyalar kiradi.

Jamiyat shakllanishining dastlabki davrlarida paydo bo'lgan din xalqlar hayoti bilan bog'liq holda rivojlangan, moslashgan, sekin-asta diniy tizimni vujudga keltirgan. Natijada muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, tarbiyaviy vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga olgan. Bunday vazifalar jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichlarida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanib muayyan qolipga tushib, har biri maxsus qoida, g'oya, mafkura, dastur sistemasiga aylangan.

### **Dinning yuqorida qayd qilingan besh funkstiyasining qisqacha ta'rifi va tavsiflari quyidagilardan iborat:**

*Birinchidan*, har qanday din o'z dinidagilar uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda diniy ehtiyoj hosil bo'lishini olib qaraylik. U o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, maqsadlarga etishishi qiyin, ilojsiz bo'lib ko'ringanda bunday ma'naviy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli yoki tashvishli onlarda, orzular ro'yobga chiqishi ilojsiz bo'lgan paytda insoniyatning dinga zhtiyoji jamiyat bo'lib yashash talablarida boshlangan; din bu o'rinda ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan.

*Ikkinchidan*, dinlar o'z ta'limot tizimini vujudga keltirib, unga e'tiqod qiluvchi shaxs va jamoani shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning birlashtiruvchilik (integrativlik) funkstiyasi deyiladi. Bunda din muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'siri doirasida bo'lishini ko'zda tutadi. Masalan, islom o'tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti, axloqiy munosabatlari, hattoki adabiyot va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bular orqali elat va xalqdarda turli xil birlashtiruvchi munosabatlar qaror topgan.

*Uchinchidan*, din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyativlik) funkstiyasini ham bajaradi. Har qanday dinlarning muayyan urf-odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'lim va talab asosida bajarilishi shart qilib qo'yiladi.

*To'rtinchidan*, din dindorlarning birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat - aloqa bog'lashlik vazifasiga ham egadir. Bunda konkret bir dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'liq bo'lish, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib ado etish ko'zda tutiladi. Cherkov, masjid va diniy tashkilotlar dinning bu funkstiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda, bu holatni nazorat qiladi.

Beshinchidan, har qanday din ijtimoiy tizim sifatida muayyan cheklovlarsiz bo'la olmaydi. Shuning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqadi. Bu bilan u legitimlovchilik-qonunlashtiruvchilik funkstiyasini bajaradi.

Har qanday dinning muayyan tarixiy sharoitda bajaradigan funkstiyalari yig'indisi uning ijtimoiy rolini belgilaydi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir xil bo'lgan emas. U vaqtga, o'ringa, sharoitga qarab sezilarli darajada o'zgarib boradi.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda islomning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun muayyan-tarixiy sharoit, xalqning o'tmishi, turmush tarzi, ishlab chikarish usullari, etnik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Islom va Qur'onning vujudga kelishi tarixi bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularning echimlari XIX asrning o'rtalaridan boshlab avvalo, Sharq so'ngra Evropa islomshunosligida o'rganila boshlangan. Evropa, Amerika islomshunosligi va Qur'onshunosligida olib borilgan tadqiqotlarning ko'pchiligi, aniq dalillarga boyligidan qat'i nazar, ularning barchasi uslubiy jihatdan cheklangan.

Din tarixida dinshunoslar dinning paydo bo'lishini turlicha izoxlab kelganlar. Uning paydo bo'lish sabablari qadimgi dunyo dinshunoslarini qiziqtirgan, binobarin, unga javob topishga harakat qilishgan. qadimgi Xitoy, Hindiston va xususan, qadimgi grek faylasuflari borliq to'g'risida fikr yuritganlarida din, uning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida ham ayrim g'oyalarni olg'a surganlar.

Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy asoslarda o'rganish quyidagi: **a) ob'ektivlik; b) muayyan tarixiy sharoitni hisobga olish; v) ilmiylik; g) qiyosiylik; d) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqliq, e) din mavjudligini, umuman gnoseologik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sabablarni hisobga olishni taqozo etadi.**

Hozirgi zamon voqeligining xarakterli xususiyati shundaki, jamiyatning hamma tomonlariga ilmiy tafakkurning ta'siri keskin kuchaymoqda; uning ijtimoiy taraqqiyot omili sifatidagi roli tobora ortmoqda. Fanning XX asrdagi muvaffaqiyatlari chindan ham g'oyat buyukdir. Ular bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylanib, insonga tabiat sirlarini tobora chuqur anglash imkonini bermoqda. Bu yo'nalishdagi eng muhim bosqich - inson omili va uning ma'naviy qadriyatlariga bo'lgan ijobiy munosabatlardir. Talabalar bu imkoniyatlardan to'la foydalanish uchun har xil uydirmalarga, buzg'unchilik g'oyalari mutlaqo ishonmay, ilm-fangagina ishonishlari, uni chuqur egallab, shaxsiy va ijtimoiy hayotga tatbiq etishlari lozim.

Hozirgi vaziyatda ilmiy dinshunoslikning nazariy yutuqlari va mamlakatimizdagi diniy tashkilotlarning g'oyaviy va amaliy ish faoliyatini hisobga olganda, din va dindorlarga O'zbekiston davlatining adolatli munosabati o'rnatildi. Bu hol diniy tashkilotlarning hozirgi ijtimoiy tuzumga bo'lgan xolisona, do'stona munosabatlariga ob'ektiv baho berishni talab etadi.

Bularning hammasi davr talabidan va kelajakdagi mas'uliyatni his etgan holda respublikamizda aholi dindorligi darajasini aniqlash, dindorlar va diniy uyushmalarning jamiyatda tutgan o'rnini oshirmay-toshirmay to'g'ri talqin etish hamda din bilan davlat o'rtasidagi

munosabatlarning umuminsoniylik tamoyillarini tiklash va hokazolar din va diniy muassasalarga doir muammolarga bo'lgan xolisona yondashishdir. Bu yondashuv ko'pyoqlama xususiyatga ega bo'lib, mustaqil respublikamizning ichki va tashqi siyosatida ham o'z aksini topmoqda. Mamlakatimiz Sharq va G'arbdagi barcha tinchliksevar davlatlar bilan ularning ijtimoiy tuzumi, dinga munosabatidan qati nazar, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy aloqalarni keng yo'lga qo'ymokda. Ijtimoiy, siyosiy hayotda diniy tashkilotlar faolligining ortib borishini demokratik jarayonda ular o'rning mustahkamlanishi deb qarash mumkin. Avvalo diniy tashkilotlarni davlatdan ajratish, ularning siyosatdan uzoqlashuviga olib keladi; ammo bu tashkilotlarning faoliyati muayyan ma'noda siyosiy xarakterga ega bo'lib kelgan. Diniy tashkilotlarga xos ijtimoiy, siyosiy faollikning tobora ortayotganini e'tiborga olib, uni ikki yo'nalishda - ijtimoiy hayotda va dunyoqarashda shaxsning faolligini talablarning oshirish talab etiladi. Diniy tashkilotlarning ijtimoiy, siyosiy yo'nalishlarda ob'ektiv voqelikka oshkora va ijobiy yondashishlari kengayib borayotganligi an'ana tusiga kirib bormoqda. Bunga respublikamiz hayotiga hozirgi kunda diniy tashkilot va ruhoniylarning xolisona munosabatlari, berayotgan ijobiy baholari jonli shohid bo'la oladi. Bunda ayrim diniy tashkilotlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari muayyan ahamiyatga molikdir. Shuning uchun hozirgi davrda ularga nisbatan bo'lgan munosabatlarda umuminsoniylik, demokratik xolislik tamoyillari tiklanmoqda. Dinga e'tiqod qiluvchilarga sho'rolar davridagidek ma'muriy-buyruqbozlik tazyiqi o'tkazishdan voz kechildi.

Tabiat va jamiyatdagi kuzatilayotgan hodisalar moxiyatiga ko'ra nihoyatda murakkabdir. Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarda buyuk muvaffaqiyatlarga erishilgan hozirgi zamonda ham hali bilib etilmagan sirli jarayonlar mavjud. Tabiat va jamiyatda hamma narsa va hodisalar doim o'zgarib va rivojlanib boradi.

Fan ham doim o'zgarib va rivojlanib borar ekan, unda hali echilmagan yangi-yangi jumboqlar, muammolar yuzaga kelib turadi. Fanning rivojlanishi yo'li ham shundan iboratki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tobora boyib boradi. Kuzatilayotgan hodisalarning mohiyatiga yanada chuqur kirib boraveradi. Odanzod aqli tabiatda ko'p ajoyib-g'aroyib narsalarni kashf etgan, shu bilan tabiat sirlarini o'rganib boradi. Bu jarayon hozir intensiv tarzda davom etmoqda.

«Dinshunoslik» fani dinning gnoseologik va ijtimoiy ildizlarini, uning mohiyatini, kelib chiqishi va rivojlanib borishini mufassal taxlil etib bergan. Dinning psixologik ildizi inson psixikasining xususiyatlariga bog'liq bo'lib, u olamning odam ongida in'ikos etishi uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Dinga ishonuvchining rastional va hissiy elementlarini o'z ichiga oluvchi bu ruhiy (psixik) holatlari diniy o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi his etish vujudga kelishi uchun shart-sharoit va imkoniyat yaratadi. Bunda muayyan ijtimoiy, avvalo salbiy sub'ektiv omillarning ta'sirida ro'yobga chiqishi, amalga oshishi mumkin. Bu omillar turli xil salbiy hislar paydo bo'lishi uchun sababdir. Dinshunoslikning vazifasi talabalarga ana shu sabablarning salbiy oqibatlari oldini olish, ularni bartaraf etish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Ilmiy falsafaning inson ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan qoidasiga asoslanadigan bo'lsak, jamiyatdagi birliklarni, hamkorliklarni shakllantirishda ijtimoiy omillar hal kiluvchi rol o'ynashi, shaxs bu omillarning qonuniy mahsuli ekanligi ayon bo'ladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotchini jamiyatga xos bo'lgan asosiy hodisalar xususiyatlarini, ularning paydo bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishini aniqlashga undaydi va anglashga yordam beradi. Tarixiy, ijtimoiy usul deb atalmish bunday yondashuv tarixiy etnografik tadqiqotlarni olib borishda va ularning natijalaridan talabalarni xabardor qilishda ayniqsa yaxshi samara beradi. U yosh avlodda, jumladan talabalarda diniy e'tiqod va an'analarning saqlanishi va takrorlanishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq etishda to'g'ri yo'nalishni belgilab olish imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ijtimoiy-psixologik hodisalarning xususiyatlarini hisobga olmay turib dinni tushunish, izoxdash, tavsiflash mumkin emas. Din ma'naviy, aniqrog'i, g'oyaviy-madaniy omil bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, ko'pgina jihatlardan ijtimoiy-ruhiy hodisa hamdir.

Din ijtimoiy birliklar va guruhlar mafkurasi va psixologiyasining tarkibiy qismi, bayram, urf-odat va marosimdarning manbai bo'lib, jamoa va guruxlar fikrini shakllantiradi, shaxs va ijtimoiy

guruxlarning dasturlarini, qadriyat yo'nalishlarini belgilaydi. Shu bilan birga, dinning paydo bo'lishi va evolyustiyasi, muayyan jamiyatdagi shart-sharoitni va uning dastlabki shakllari - totemizm, fetishizm, animizm, sehrarglik, zardushtiyliklarni o'rganish, turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda dinning paydo bo'lish, mavjud bo'lib turish sabablari va ildizlarini o'rganishni ham taqozo etadi.

**Dinshunoslik fanining amaliy ahamiyati.** "Dinshunoslik" kursining amaliy ahamiyati, oliy maktab talabalarining shu sohadagi bilim doiralarini kengaytirish ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidan erkin fikr yuritish hamda ilmiy va diniy ta'limotlarni hozirgi fanlar va talablar nuqtai nazaridan turib o'rganishdan iborat.

Falsafaning boshqa tarkibiy qismlari kabi "Dinshunoslik" ham dunyoqarash bilan bog'liq masalalarni echib berishga qaratilgan. Bunda u fan-texnika taraqqiyotining ulkan yutuqlariga, olam va uning rivojlanish qonuniyatlariga suyanadi.

«Dinshunoslik» o'zining o'rganish va ilmiy tekshirish ob'ektiga ega. U dinning paydo bo'lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi va yashashi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyustiyasini ilmiy jihatdan o'rganadi. "Dinshunoslik" kursining vazifasi dinni falsafiy, tabiiy-ilmiy, tarixiy va psixologik nuqtai nazarlardan har tomonlama taxlil qilishdan va bu taxlil bergan dalillarni umumlashtirishdan iborat. Ilmiy falsafa dinning mohiyatini, uning ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini ochib beradi; diniy qarashlar va tasavvurlarni tarixiy nuqtai nazardan tavsiflaydi, baholaydi. "Dinshunoslik"ning tabiiy-ilmiy, insonshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Uning etika, estetika, tarix, etnografiya, arxeologiya, psixologiya, hurfikrlilik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan mustahkam bog'liqligi dinshunoslik nazariyasini boyitadi.

«Dinshunoslik» kursining O'zbekiston xalqlari tarixi bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlash zarur. Zero, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi umuman din, xususan islom tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, fan va madaniyat tarixiy taraqqiyotida keyingi ming yillikda islom ta'limotining ta'siri kuchli bo'lgan. O'zbekiston xalqlari tarixi predmeti qadimgi zamonlardan hozirgi davrgacha jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanish bosqichlarini o'rgansa, bu jarayonning barcha jihatlarida mavjud dinlarning aralashuvi, yohud kuchli ta'siri bo'lgan, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida islomning kirib kelishi va hukmron mafkuraga aylanishi bu xalqlar tarixida katta iz qoldirgan.

Oliy maktab talabalari uchun o'quv predmeti sifatida o'qitilayotgan madaniyatshunoslik, madaniyat tarixi va nazariyasi bilan dinshunoslik asoslari kursi o'zaro uzviy bog'liqdir. Chunki madaniyat tarixi bilan din tarixi bir-biridan ajralmagan, aksincha o'zaro ta'sir o'tkazib kelayotgan jarayondir. Bu tarixiy taraqqiyot hodisalarning ob'ektivligini, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish xar ikkala o'quv predmeti uchun ham ahamiyatlidir. Bir-birini to'ldiruvchi O'zbekiston xalqlari tarixi bilan «Dinshunoslik» o'quv predmetlari yoshlarni bu sohadagi zarur bilimlar bilan qurollantiradi.

«Dinshunoslik» kursi o'qitishning yana bir amaliy ahamiyati shundaki, mustaqillik tufayli mamlakatimizda boshlangan ijobiy o'zgarishlar din tarixiga, u bilan bog'lik bo'lgan madaniy merosga xolisona ob'ektiv munosabatni o'rnatish imkoniyatini yaratdi. Jumladan, yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi hozirgi sharoitda demokratik va insonparvar jamiyat qurayotgan O'zbekiston xalqlari hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'z natijasini ko'rsatmoqda.

Dinga, diniy tashkilotlarga va dindorlarga nisbatan to'g'ri munosabatning qayta tiklanishi haqiqiy vijdon erkinligini amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Mustaqillikning o'tgan yillarida urushdan keyingi davrga nisbatan bu sohada ko'p ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, qonun doirasida diniy tashkilotlar va jamoalar uchun to'liq erkinlik, yangi diniy jamoalarni, jumladan masjid va madrasalarni ruyxatdan o'tkazish, diniy ibodatlarini bemalol ado etish, diniy adabiyotlar nashr etish, diniy arboblarning va tashkilotlar faoliyatiga munosabatda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Diniy tashkilotlarning jamoat tashkilotlari, tinchlik va xayriya ishlarida faol qatnashishdan iborat huquq kafolatlandi va ro'yobga chiqarildi.

Madaniy va ma'naviy marosimlarni, diniy qadriyatlarimizni tiklash, ilm toliblariga o'rgatishga qaratilgan chora-tadbirlarni xalqimiz keng quvvatladi. Mustaqilligimiz sharofati bilan ilm-fan, din sohasida katta iz qoldirgan olimu-fozillar, ulomalardan iborat vatandoshlarimiz Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Hakim Termiziy, Axmad Farg'oniy, Navoiy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarning o'tkazilgan va bo'lajak yubileylarini tantanali nishonlash va meroslarini o'rganishga keng yo'l ochildi.

«Dinshunoslik» kursining falsafa, tarix, etika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligidan tashqari bu kurs din sostiologiyasi bilan ham bog'liq, bo'lib, uning natijalari muhim amaliy ahamiyatga ega.

Din va sostiologiyada muayyan aholi o'rtasida dinga, uning qadriyatlariga hamda ijtimoiy rolini aniqlash maqsadida sostiologik tadqiqotlar o'tkaziladi. Bu tadbir sostiologik tadqiqot metodikasi, so'rov varaqalari ishlab chiqilgandan so'ng ishga solinadi. Olingan natijalar muayyan hududda diniy vaziyatni, diniy ong darajasini, ijtimoiy hayotdagi rolini aniqlashga yordam beradi.

Bulardan tashqari «Dinshunoslik» din antrapslogiyasi, din fenomenologiyasi, din aksiologiyasi kabi fan tarmoqlari yutuqlaridan ham foydalanishning muayyan amaliy ahamiyati mavjuddir.

**Totemizm.** «Totem» so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «uning urug'i» ma'nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor», deb e'tiqod qilishlik ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy ozuqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlarga bunday e'tiqod uzoq o'tmishga tegishlidir, ularning mavjud bo'lganligini faqat qadimgi rivoyatlarga tasdiqlaydi. Masalan, hozirgacha Avstraliya aborijenlari orasidan bu xususda afsonalar saqlanib qolgan.

Urug'dosh jamiyatning shakllanishida jarayonida totemizm muhim rol o'ynadi, ayniqsa, qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga, «o'zimizniki», ya'ni «bir totemga tegishli» degan aniq taassurot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar va me'yorlar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Ayni totemga xos bo'lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va me'yorlaridan chetda hisoblangan. Totemizmning bunday ijtimoiy roli tabiiyki, totemistik ko'rinishlarning evolyutsion xarakteriga ham ta'sir kuchini o'tkazmay qolmadi. Vaqt o'tishi bilan qarindoshlik tizimining mustahkamlanib borishi jarayonida birinchi darajali totem tartibi haqida tasavvur ilgari surildi. Zooantropomorf ko'rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar, ya'ni odam vafot etgach uning o'z totemiga aylanishi yoki, aksincha, qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Bular hammasi o'tgan ota bobolar ruhlariga sig'inishning, umuman, kuchayishiga va ilohiy kuchlarga bir tomondan ishonchning oshishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan *totemga* bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi, misol uchun *totemni* ozuqa sifatida iste'mol qilishni taqiqlanishiga olib keldi. *Tabu* (ta'qiqlash) tizimi paydo bo'ldi. Bunda eng muhimi *totemni* ovqat sifatida iste'mol qilishni taqiqlash edi. Faqat ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoxud qabila boshliqlarigagina *totemni* yeyishga ruxsat etilardi. Shunday qilib, totemizm urug'chilik jamoasida diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari, yuqorida aytib o'tilganidek birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi sanalsa-da, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

**Animizm** (lotin tilida «anima» – «ruh», «jon» ma'nolarini anglatadi). Animizm – ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy



shakllardan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllanganicha vujudga kelgandir.

Animizm totemizmdan farqli jihatlari bor. Albatta, totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga, uni boshqalardan farqlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy xarakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini – osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momoqaldiroq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki rel efning ayrim alohida qismlari – tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar. Hattoki, ko'p yillik daraxt, kattaroq harsang tosh, jarliklarga o'xshash narsalar ham ibtidoiy odamlar tasavvurida jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shunday bo'lgach, har qanday voqea-hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish taqazo etilgan, qurbonliklar qilingan, ruhlar haqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilgan.

Animizm zamonaviy dinlarning barchasida asosiy aqidaviy qismni tashkil etadi. Jumladan, jahon dinlari sanalmish buddizm, xristianlik va islomda ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

**Shamanizm** («shaman» so'zining tungus tilidagi ma'nosi – «sehrgar»). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, unga ko'ra uning vositasida kishilar o'z *totemlari*, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. Shamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar, afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'la olishlariga, ularga jamoaning orzu niyatlarini ruhlarga yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda, ma'lum harakatlar: ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga yetish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zlarini yo'qotar darajaga yetib, marosim ishtirokchisiga aylanib qolishar edi. Marosim oxirida shaman hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar, uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Umuman olganda, turli diniy marosimlarni o'z ichiga olgan afsungarlik jamiyatning haqiqiy talablaridan kelib chiqqan holda hayotda amalga oshirilgan. Ilohiy kuchlar dunyosi bilan bunday bog'lanish yo'li hayotda noma'lum, oldindan bilib bo'lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Shuning barobarida afsungarlik odamlarning fikrlash qobiliyatining o'sib borishi, ongining mustahkamlanishida katta rol o'ynadi, diniy ongning shakllanish jarayonida muhim o'rin tutdi. Afsungarlik fikr yuritish rivojlangan sari odamga o'z o'zidan bo'ladigan, faqatgina maqsadli yo'nalishdagi harakatlar natijasida olinadigan emas, balki ilohiy kuchlar afsuni bilan bog'liq bo'lgan sharoitlardan kelib chiqadigan ko'rinish deb hisoblangan. Natijada ko'pgina aniq hodisalar, hattoki alohida buyumlar sehrlil kuch egasi sifatida qabul qilina boshlandi.

Sehrgarlik marosimlari ikki usul: yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshiriladi edi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) zarar keltiruvchi – yovuz afsungarlik. Bundan kimgadir zarar yetkazish niyat qilinadi; 2) harbiy afsungarlik. Bunday afsungarlik dushmanga qarshi qo'llaniladi (masalan, qurol aslahalarni sehrlash); 3) sevgi afsungarligi, boshqacha aytganda, «issiq» yoki «sovuq» qilish; 4) tibbiy afsungarlik. Davolashda ishlatiladi; 5) ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash ob-havoni o'zgartirish maqsadlarda foydalanilgan.

Sehrgarlik hozirda ham mavjud dinlarda, turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

**Fetishizm** («fetish» soʻzi fr. *fetich* – «but», «sanam», «tumor» maʼnosidagi soʻzni anglatadi). Mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sigʻinishdir. Unga koʻra alohida buyumlar kishini oʻz maqsadiga erishtirish, maʼlum voqea-hodisalarni oʻzgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy, ham salbiy taʼsir etish kuchiga ega.

Fetishizm yogʻoch, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo boʻlishi bilan bir paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar gʻayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini koʻrdilar.

Bunday *fetishga* odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik yoʻli bilan buyumlarga taʼsir koʻrsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich boʻlib qoldi. Haqiqatda, ajdodlarni va tabiatni jonlantirish bilan bogʻliq boʻlgan animizm, turli *totemlar* hamda oʻlib ketgan avlodlar shaxsiga bogʻliq totemizm orqali ibtidoiy odamlar ongida real buyumlar bilan birga ilohiy va xayolot dunyosi borligi haqidagi tushuncha paydo boʻldi. Natijada ularning ongida afsonaviy fikr yuritish qobiliyati mustahkamlandi. Va, nihoyat, *fetishlarning* paydo boʻlishi shuni koʻrsatadiki, afsonaviy qudrat faqatgina vaqt va boʻshliqda koʻchib yurish xususiyatiga ega boʻlib qolmasdan, balki voqeyi dunyodagi buyumlarda ham mavjud boʻlishi mumkin.

Shunday qilib, urugʻchilik jamiyatining tashkil topish jarayonida ibtidoiy odamlarning ongida dastlabki diniy koʻrinishlarning keng, aniq, tartibli majmuasi ishlab chiqildi. Demakki, diniy tasavvurlar odam hayotining boʻlinmas, hattoki asosiy qismi boʻlib qoldi. Jamiyat va tabiat qonunlarini, albatta, oʻsha dunyo kuchlari boshqaradi. Shuning uchun jamoa yaxshi yashayman desa, ozuqalar bilan taʼminlangan, kimningdir tomonidan himoyalangan boʻlishni istasa, birinchi vazifasi u oʻsha gʻayritabiiy kuchlarni juda ham hurmat qilishi kerak edi. Dunyo haqidagi bu tasavvurlar vaqt oʻtishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt oʻz taʼsirini oʻtkazib keldi.

Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va eʼtiqodlarida saqlanib qolgan. Masalan, turli haykallar, suratlar, tumor, koʻzmunchoq va turli ramzlar bunga yorqin misoldir.

**Ibtidoiy mifologiya** *Mifologiya* (yun. rivoyat, afsona; soʻz, tushuncha, taʼlimot) 1) miflar majmui; 2) miflarni oʻrganuvchi fan. Mifologiya ijtimoiy ong shakllaridan biri va kishilarning tabiiy va ijtimoiy xodisalarning mohiyatini anglashda ilk bosqich hisoblanadi.<sup>1</sup> Ibtidoiy jamoa davrlarida, asosan, Dunyo mifologik obrazlar orqali tasavvur qilingan. Mifologik obrazlar orqali dunyoni anglash jarayoni oʻz oldiga dunyoning ibtidosi va intihosi toʻgʻrisidagi tasavvurlarning tub asosida esa kishilarning tevarak atrofdagi narsa va xodisalar toʻgʻrisidagi bilimlarining oʻta sayozligi va oʻzlarining tor manfaatlaridan kelib chiqqan holda tabiiy muhitdan ajratib tushunmaganliklari yotadi. Mifologik tasavvur dunyoni mifologik obrazlar orqali anglash jarayoni sifatida obʼekt oʻrtasidagi munosabatlarning oʻta soda ifodasi boʻlib, oʻz navbatida totemizm, fetishizm, animizm, shomonizm, afsungarlik va boshqa qator shakllarda namoyon boʻladi. Miflarda ajdodlari tomonidan oʻzlashgan tajribalar oʻz ifodasini topadi va sajda qilish obʼektiga aylanadi. Miflar va marosimlar ibtidoiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanib, dunyoni gʻayritabiiy obrazlar orqali tasavvur etadigan diniy dunyoqarashning ham dastlabki koʻrinishi boʻlib, u esa kishilarda abstrakt tafakkurning, fantaziyaning shakllanayotganligidan darak beradi.<sup>2</sup>

Mifologik dunyoqarash falsafiy dunyoqarashning dastlabki shaklidir.

Mifologik dunyoqarashning xususiyati shuki, unda fazo, tabiat va jamiyatdagi barcha jonli va jonsiz narsalar va xodisalar biri ikkinchisida ishtirokchi sifatida idrok etiladi. Buning natijasida tabiat kuchlari jonlantiriladi, ularga insondagi xususiyatlar beriladi.

Mifologik dunyoqarashda tabiat va jamiyatning, olam va tashqi aloqadorligi, insonning ichki dunyosining manzarasi oʻzining dastlabki ifodasini beradi.

<sup>1</sup> Falsafa qomusiy lugʻat. T.: “Oʻzbekiston Faylasuflari milliy jamiyati” 2004, 275-6.

<sup>2</sup> Qaralsin: Falsafa qomusiy lugʻat. T.: “Oʻzbekiston Faylasuflari milliy jamiyati” 2004, 275-6.

Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, undagi voqealar badiiy obrazli tarzda tasvirlangan.

Afsonalarda dunyoning kelib chiqishi, uning taraqqiy etish qonuniyatlari, jamiyatdagi narsa va xodisalarning o'zaro aloqadorligi, abadiyligi haqida so'z yuritiladi. Ularda olamning kelib chiqishi tajrijiy yo'l bilan nomalum kuch tufayli yaratilgan degan g'oya ilgari suriladi.

Mifologik dunyoqarashning Yana bir xususiyati shundan iboratki, undagi voqealar, turli xodisalar, afsonaviy xudolar, qahramonlar obrazlari jonli tarzda beriladi. Yunon mifologiyasidagi xudolarning xudosi Zevs, barcha dengiz, daryolarning xudosi Poseydon, uning o'g'li Antey, hosildorlik Xudosi Demetra, muxabbat va go'zallikning xudosi Afrodita va boshqalar shular jumlasidandir.

Dastlabki afsonalar ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismini tashkil etgan bo'lsa, ular diniy dunyoqarashni rivojlanishiga asos solgan. Keyinchalik mifologik qarashlarda kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy, badiiy va boshqa qarashlar rivojlandi.

Afsonalar xalqlarning dastlabki ma'naviy madaniyatining shakli bo'lib, ularda dastlabki bilimlarning kurtaklari falsafiy, diniy, siyosiy, badiiy qarashlar o'z aksini topgan. Afsonalar ijtimoiy ongning umumiy shakli sifatida namoyon bo'lgan. Unda o'z davri kishilarining dunyoni xis qilishi, dunyoqarashlari mujassamlashgan. Ularda xalqning madaniy boyligi, tafakkuri, donoligi, xayotiy tajribalari aks etgan.

Mifologik dunyoqarashda diniy dunyoqarashning ham ko'rinishlari mavjud.

Zardushtiylik mil.av. 8-7 asr. quyi Amudaryo hududlarida vujudga kelgan yakkahudolik dini bo'lib, bu davrda turli hudolarga sajda qiluvchi qabilalar o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida jamiyat parchalanib ketayotgan ichki qarama-qarshiliklar kuchaygan davr edi. Mamlakat inqirozining oldini olish uchun, qabilalar o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, umumiy manfaatlarni targ'ib qiluvchi g'oyalar yaratish zaruriyati vujudga keldi. Bu ta'limot 1-chidan, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini saqlab qolish uchun hizmat qilish, 2-chidan, urug` va qabila dinlaridan ustun turuvchi, barcha qabilalar manfaatiga mos tushadigan e'tiqod shaklini yaratish, 3-chidan, har qanday qonli urushlarga chek qo'yish, 4-chidan, mamlakat ichkarisidagi kuchlarni jipslashtiruvchi g'oyalar tizimini shakllantirish zarur edi.

Bu ta'limot birinchidan, ko'phudolikka (politeizm) qarama-qarshi yakka hudolik (monoteizm), ya'ni diniy e'tiqodning yuqori bosqichiga qadam qo'ydi, 2-chidan, ilgari odamlar hudolar qahridan, ularning dahshatli vayron qiluvchi qudratlari, dahshati ostida sig'ingan bo'lsa, endilikda Zardusht odamlarga mehr-shavqat bilan to'lgan, yahshilikka undovchi, o'lgandan so'ng mangu farovon hayot va'da qiluvchi Ahura Mazdaga ibodat qilishga chaqirdi.

Zardushtiylik diniy e'tiqodida dualizm (ikki hudolik)ni emas, yakka hudolik (monoteizm)ni targ'ib qilgan. Zardusht dunyo yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, issiqlik va sovuqlik va h.z.o kabi kuchlar o'rtasida kechadigan kurash maydoni sifatida tasavvur qilinadi. Olamdagi barcha yahshilik, ezgulik, yorug'lik kuchlarini Ahura Mazda yaratadi va boshqaradi. U o'zining 6ta yordamchilari muqaddas ruhlari orqali insonlar, chorva, olov, er, osmon, suv, o'simliklar dunyosiga homiylik qiladi. Anhra Manyu barcha yovuzlik va zulmat kuchlarining timsoli sifatida Jin, Shayton, Iblis, Alvasti, Jodugar, dev, ajdaho, ilon kabilarni yaratib ular yordamida odamlar qalbiga qo'rquv, dahshat solib, ularni o'ziga tobe qilishga urinadi.

Zardushtiylikning harakterli hususiyatlaridan biri ko'pgina ahloqiy tushunchalar insoniy tus berilgan mavhum shaklda bayon etiladi. Kishilar tasavvuridagi yovuzlik va ezgulik kuchlari badiiy obrazli ifodalanadi, insoniy tus beriladi. Odamlar ikki qudrat o'rtasida hayot kechiradilar. Yahshilik va yomonlik kuchlari doimo bir-birlariga qarshi kurashadilar. Kishilar o'z amaliy ishlari bilan, ahloqiy sifatleri bilan yovuz kuchlarga qarshi ezgu ruhlarga ko'maklashuvi lozim.

Avestoda uchta so'z muqaddas hisoblanadi. Yahshi fikr, yahshi so'z, yahshi amal. Avestoda sahovatli inson 1-chi galdga mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz ne'matlar yaratishi zarur deydi. Don ekkani kishi taqvodorlik urug'ini ekadi-deydi. Bu qonunni bajarishi 10 ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng, ekin ekish erdagi yovuzlikni yo'qotishdir.

Muxtaram prezidentimiz I.Karimov aytib o'tganlaridiki, «Eng mo'tabar qo'lyozmamiz Avestoning yaratilganiga 3000 y bo'lyapti. Avesto o'lkamizda buyuk davlat, buyuk ma'naviyat,

buyuk madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi.

Mifologiy dunyoqarashga asoslangan Zardushtiylik ta'limotining markaziy muammosi odam bilan olam o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik jarayonini tahliliga qaratilgan. Bu ta'limotga ko'ra, odam borlig'i olam borlig'i bilan bevosita aloqador. Ushbu ta'limotga muvofiq o' butun olam borlig'i tuproq, suv, xavo, olovdan iborat. Odam borlig'i xam shu to'rt unsur dan iborat. Shuning uchun ushbu to'rt unsur muqaddas hisoblanadi.

Odamzod tuproqda vujudga kelib, tuproqqa qaytishi lozim degan nuqtai nazar zardo'shtiylik ta'limotining eng muhim g'oyalariidan biridir. Odam o'lgandan keyin uni muqaddas tuproqqa qaytarmoq uchun, avvalo, tanani go'shtdan ajratmoq lozim deb hisoblagan. Chunki, odam go'shti xarom bo'lganligi bois muqaddas tuproqni bulg'ashi mumkin. Shuning chun ham murdaning go'shti suyagidan ajralib qolgandan so'ng suyagi maxsus moslamaga solib ko'milgan. Tabiatdan olingan odamzod tanasi Yana o'ziga qaytarilgan.

Zardushtiylik ta'limotda insonning barkamolligini belgilashda nafaqat tashqi qiyofasi, balki ma'naviy dunyosi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Insonning eng muhim savob ishlaridan biri erga sog'lom urug` sepishdir. Erga urug` qadan 10 ming marta ibodat qilishdan ham afzal.

Vatanimizda Zardushtiylikning g'oyaviy merosxo'rlari sifatida Moniylik, Mazdakiylik ta'limoti ham tarqalgan. Moniy Ibn Fatak Moniy ta'limotining asoschisi, naqqosh va rassom. Moniy o'zining mustaqil ta'limotini Eronda targ'ib qila boshlaydi. Biroq Zardushtiy kohinlari qarshi chiqadilar. Shundan so'ng Markaziy Osiyo erlarida faoliyat ko'rsatadi. Ammo u Eronga qaytgach qatl etiladi.

Moniy ta'limotiga ko'ra, jamiyat kishilarning 2-kategoriyaasidan iborat bo'lib, 1-chisi, mumtoz zodagonlar ya'ni, qashshoqlikda yashovchi aslzodalar ular zo hidlikda hayot kechirishlari lozim. 2-chi kategoriya mehnatkashlar jamoasi va savdogarlar bo'lib, ular yuksak ahloqiy hayot kechirishlari lozim. Ammo Moniylik islom ta'qibiga uchraydi.

Mazdakiylik-diniy falsafiy ta'limot bo'lib, asoschisi Mazdak (470-529) Mazdak halq ommasining Zardushtiylik kohinlari va zodagonlariga qarshi kurashini boshqargan. Mazdakizm da yovuzlik, boylikka hirs qo'yish va o'ta kambag'allik qoralanadi. Mazdakizm g'oyasi halq e'tiborini qozongan, bu halq harakati 529 y bostiriladi va Mazdak qatl etiladi.

- Xulosa qiladigan bo'lsak, har bir halqning o'ziga xos dunyoni anglash jarayoni, aynan mifologik obrazlar orqali dunyoning aks ettirilishidan boshlanishi haqidagi xulosalar keng e'tirof etilmoqda. O'zbek halqi ham o'zining qadimiy mifologik obrazlari orqali dunyoni anglash jarayonidagi o'ziga xoslik milliy tafakkurimizning shakllanishida muhim asos bo'lib xizmat qilayotganligini inkor etib bo'lmaydi

- Markaziy Osiyoning islomgacha bo'lgan davrdagi ma'naviy madaniyatini rivojlanishiga bebaho manba bu Avestodir. Avesto tadqiqotchilarining barchasi uning aslida diniy karakterda bo'lishi bilan bir qatorda unda falsafa, siyosat, ahloq, turmush, adabiyot masalalari keng ifodalanganini ta'kidlaydilar. U bilan tanishib chiqib Markaziy Osiyo halqlarining falsafiy-siyosiy, fikrlari shakllanishi haqida juda boy material beradi.

Markaziy Osiyo halqlari tarixida Avesto muqaddas kitobi kishilarni o'limidan keyin jannat rohatiyu, do'zah azoblari bilan ham mustahkamlanadi. Bu ta'limotlar azaldan inson kamoloti, uning pokligi, uning iymon-e'tiqodi, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, insonparvarlik g'oyalari olg'a suriladi. Bu esa zardushtiylik ta'limotining qadimgi Turon jahon stivilizastiyasining yirik markazlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

*Diniy dunyoqarash* mifologiya negizida shakllangan va rivojlangan. Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o'zidan emas, balki xudoning qudrati deb tushuntiradi.

Ibtidoiy odamning tasavvuri va e'tiqodlari majmuasi, ularning real hayotdagi qiyinchiliklari, muammolari va yutuqlari og'zaki ijodda aks etgan. Bu narsa odamlarning ongida qolib, turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy mifologiyani tashkil etgan ijod doim odamlarning ma'naviy hayoti, ibodati, hissiyotlari va diniy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq

edi. Buni tushunish oson: agar ibtidoiy odamning asosiy ma'naviy hayotida totemlarga, marhum ajdodlarga ibodat qilish, ular bilan sirli qarindoshligi bo'lsa, mifologiyaning markazida zooantropomorfik ajdodlar yoki har xil mo'jizaviy kuchga ega bo'lgan ilohiylashtirilgan qahramonlar turardi. «Madaniy qahramon»larning ismlari afsonalarda biron bir ixtiro yoki yangilikda mujassam bo'lgan. Masalan, olovni topish, oila va nikohlar shaklini o'rnatish, mehnat va ov qurollarini yasash hamda boshqa jasoratlarga oid aqidalarni tashkil qilish. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan, ya'ni yer va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot, nihoyat, odamning yaratilishi to'g'risidagi rivoyatlar, afsonalarda diniy tasavvurlarning ta'siri yaqqol ifodalangan. Ruhlarining yangi shaklga kirish sehrli xususiyatiga, ya'ni o'z qiyofasini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan, bir vaqtning o'zida odam va hayvon shakliga kira olishini *monstrlik* deb hisoblashardi.

Ibtidoiy mifologiyada hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi muhim aloqalar tasvirlangan edi. Mifologiyaning bunday qarama-qarshiliklarini tahlil qilish inson tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklash uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalar taraqqiyotida borishida diniy tasavvurlarning rolini aniqlashga imkon yaratadi.

**Neolit davridagi diniy tasavvurlar.** Neolit revolyutsiyasi odamlarning turmush tarzini, tubdan o'zgartirdi. Odam asta-sekin o'simliklarni o'stirish, ozuqa zahiralarni hosil etishni o'rgandi, bu esa odamni o'troq hayot kechirishga majbur etdi. Yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatdi hamda ular berayotgan mahsulot: go'sht, sut va teridan foydalanishni o'rgandi. Ovqat pishirishni o'rganish, idishlar yasash kabi yangi muhim materiallarni o'zgartirdi. U ovqat va ichimliklar saqlash uchun mo'ljallangan idishlar, uy qurish uchun foydalaniladigan loyni tayyorlashga o'rgandi. Neolit davri yuqori paleolitdan shunisi bilan farqlanadiki, unda odamzod tosh buyumlarni silliqlash va sayqal berishni o'rgandi va shu farq mazkur davrga nom berdi (*neolit* – yangi tosh davri, yangi tosh ishlash, yangi usullar davri).

Neolit davrida dehqonlarga yangicha ishlab chiqarish usullarini topdilar, zich va guruh-guruh bo'lib yashay boshladilar. Dushmanlardan hamda yovvoyi hayvonlardan himoyalangan qishloqlar kengayib, atroflarida kichik qishloqchalar o'mashar edi. Aholining keskin ko'payishi yangi yerlarni o'zlashtirishga ehtiyoj tug'dirsa, hayot tarzini o'zgarishi diniy tasavvurlarning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Dehqonchilikning muntazam tirikchilik tashvishlari: hosilni, yig'im-terimni kutish, aniq vaqtni belgilash, yil fasllarining tsikllarini bilish kabilarning hammasi dehqonning osmonu yerga, quyoshu oyga, yomg'iru shamolga yangi qiziqishi paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, yangi ruhlar qudratiga ishonch sezilarli va ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. O'z navbatida, iltijo va qurbonlik ruhlarga atala boshlandi. Ammo, tabiiy imkoniyatlar to'g'risidagi tasavvurlar keskin o'zgardi. Natijada qadimgi ruhlar – animistik sig'inish ob'ekti asta-sekin o'ta qudratli xudolarga aylandilar. Ular uchun mehrob hamda cherkovlar tashkil etilib, bunday joyda, odatda, dehqonlar jamoasidan maxsus ajratilgan alohida xizmatkorlar – kelajakdagi kohinlar – kechayu-kunduz xizmat qilar edilar. Qadimgi totemistik tasavvurlar ham o'zgardi, dehqonlar hayoti ov natijasiga bog'liq bo'lmagani bois, hayvonlar qadrlana boshladi, ammo totemistik tasavvurlar avlodlar xotirasida saqlanib qolaverdi. Bu esa zoomorfik tashqi qiyofani biron-bir sig'iniladigan ilohiyatda aks etishiga olib keldi. Aksar ilohiyatlarning ko'rinishi hayvon, qush, baliqlarning yo boshi, yo tanasi shaklida bo'lar edi. Bu mifologik qahramonlarning yuqorida aytib o'tilgan ilohiyatiga qarindoshligi saqlanib qolgan.

Fetishizmning sokin xarakteri o'zgardi, ilohiyatlarning qudratli butlari, mehroblar yoki cherkovlar yoniga o'rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi.

Ba'zan butlar o'rniga ramziy haykalchalar, turli shakldagi toshlardan foydalanildi. Fetishizmning rivojlanishida bu haykal va qurilmalar ibodatxonalarining ramzi bo'lib xizmat qildi.

Afsun ham o'zgardi. Afsungarlarning dushmanlarga ziyon yetkazish va omadli ov bilan ta'minlash, ruhlar yordamida o'z maqsadiga yetishishning ibtidoiy usullari o'rniga

yangi, puxta o'ylangan ilohlar bilan aloqa marosimlari, boshqa diniy marosimlar, ibodat va qurbonlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Tabiiyki, bular asosida qadimgi afsunlar yotar edi. Ammo bir qancha yangiliklar: fol va bashorat yuzaga keldi, bular afsunga yaqin bo'lgan hamda unga asoslangan afsun usullari bo'lsa-da, maqsad boshqa edi: bunda istakni amalga oshirish emas, balki uni bilish ko'zda tutiladi. Folbinlikning ilk shakllari neolit davridan ilgari ham amalda bo'lgan. Ammo tizim sifatida neolit davrida yakunlandi. Neolit davridagi dehqonlar qudratli tangridan qo'rqan holda uning yaxshi niyat munosabatlariga juda qiziqar edilar. Buning uchun tabiat kuchlari ilohiyatlariga yoki ilohiylashtirilgan ajdodlarga ibodat qilishar edi. Ular xayolan qurbonliklar va ibodatlar ilohiyatlar ko'ngliga yo'l topadi, bizga yordam keladi deb ishonar edilar, ammo buni bilsa bo'ladimi? Mana shu yerda fol ochish kelar edi. Har bir jamoa uchun xos bo'lgan ibtidoiy shakldagi afsun marosimlaridan farqli o'laroq, folbinlik yuqori saviyadagi madaniyatni talab etardi. Marosimlarni olib boruvchi folbin kiyimi shartli belgilar tizimiga rioya qilishi shart edi. Bu shartli belgilar sig'inilayotgan ilohiyatining qoniqganligini hamda ularning iltijolariga aniq javob berishga tayyorligini anglatardi. Belgilar tizimi har xil: elementar qur'a tashlashdan to murakkab chiziq, yorug' nuqta va chiziq larni qo'shilishigacha bo'lar edi.

***Kishilarning jamiyatga, diniy, ilmiy, falsafiy yondashishlari.*** Avvalo falsafa insonning tafakkurlash madaniyatini, dunyoqarashini shakllantiruvchi fan. Dunyoqarash esa, kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va xokazo qarashlari va majmuasidan iboratdir. Demak, dunyoqarash bu olam haqidag yaxlit umumlashgan bilimlar to'plamidir. Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shuki, insonni qurshab turgan olamni tushunishi, anglashi, baholashi hamdir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, maqsadlari, ideallari, orzu umidlari, ularning faoliyatiga yo'nalish beruvchi qadriyatlar tizimi xam kiradi. Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjuddir. Uning, birinchisi kishilarning xayotiy tajribasi, kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar, ikkinchisi esa bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ular bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'ladi.

Dunyoqarash borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi.

Dunyoqarash qotib qolgan, hech qachon o'zgarmaydigan o'lik g'oyalar yig'indisi emas. Jamiyatning o'zgarishi bilan bir qatorda u ham doimo rivojlanib, mazmunan boyib turadi.

Inson uchun qayg'urish, komil insonning dunyoqarashini shakllantirish, uning erkin bo'lishi, ozod va xur yashashi, ma'naviy-madaniy, axloqiy jihatdin kamol topishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining yuksak darajada e'zozlanishi va hurmat qilshi zarurligi haqidagi g'oya falsafaning xech qachon eskirmaydigan va ahamiyatini yo'qotmaydigan asosiy masalasidir.

Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti haqidagi fikr-mulohazalarni eslatib o'tishdan muddao, barcha zamonlarda ham inson muammosi falsafaning asosiy mavzusi ekanligini e'tirof etishdir. Lekin inson muammosi faqat falsafaning tadqiqot ob'ekti bo'libgina qolmay, balki boshqa fanlarning ham diqqat markazida bo'ldi. Boshqa fanlar insonning ma'lum bir qismini, ayrim xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa, falsafa insonni bir butun, yaxlit o'rganishga xarakat qildi. Boshqacha aytganimizda, falsafa insonning tabiiy-ijtimoiy mohiyatini, uning olamdagi tirik mahluqotlar orasidagi o'rnini, boshqa jonzotlardan farqini tushuntirishga urindi. Insonning jismi, ruhiyati, ma'naviyati orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmi mohiyatini ifoda etuvchi qonuniyatlarini aniqlashga xarakat qildi. Insonning olamga bo'lgan munosabatini, uning atrof muhitni, xatto o'zini-o'zi o'zgartira olish yo'lari va uslublarini, o'z taqdirini o'zi belgilovchi buyuk mavjudot ekanligini har tomonlama tahlili qildi. O'zi haqida, o'zining ruhiy-ma'naviy kamoloti haqida turli g'oyalar yaratgan g'oyalari ham zamonlar o'tishi bilan o'zgarib, boyib yoki eskirib borverdi. Shunday ekan insoniyat dunyoqarashining ilk boshlang'ich asosi mifologik dunyoqarashdan boshlangan.

“Din” (arab.-ishonch, ishonmoq)-borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida

tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni xudoga munosabat, tasavvur, urf odat va marosimlar majmuidir.”<sup>1</sup>

Ibodot ob'ektlariga ko'ra-jonivorlarga, ruhlarga, jin-alvasti, butlarga, turli ilohlarga va Allohga sig'inuvchi diniy ta'limotlar bir-biridan farqlanadi. Genezisi va tarqalishiga ko'ra dinning eng qadimgi milliy va jahon dinlari kabi shakllari mavjud. Har bir aniq din o'ziga xos sig'inish ob'ekti va rasm-rusum, ibodat, urf-odat va aqidalarga ega. Din va diniy ta'limotlar ilohiyotchilar, ateistlar va dinshunoslar tomonidan o'rganilgan. Dinning paydo bo'lishi to'g'risida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, Ayni vaqtda, insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir. Din-ijtimoiy tarixiy xodisa, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biridir, umuminsoniy qadriyatdir degan yondashuvga ko'ra, u muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatida namoyon bo'ladigan olam, hayot yaratilishining tasavvur qilishning alohida usulidir. Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Insoniyat tarixida din turli shakllarda namoyon bo'lgan.

Prezidentimiz I.Karimov mamlakatni modernizastiya va isloh etishda turli aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlariga qarshimiz. Biz tadrijiy, ya'ni evolyutsion izchillikka ega bo'lgan islohotlar tarafdorimiz. Faqat bu yangilanishlar qadriyatlarni mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilishi darkor dedilar.<sup>2</sup>

Din va din bilan bog'liq muammolar, ularning mohiyatini o'rganish va chuqur anglab etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Insoniyat tarixida ko'plab mutafakkirlar, olimu ulamolar din va din bilan bog'liq masalalarni o'z davri mezonlaridan kelib chiqib talqin etganlar.

Din haqida qarashlarimizni bayon etishdan oldin umumiy ijtimoiy ong haqida to'xtalishni lozim topdik. Negakim, dinning o'zi ijtimoiy hayotning bir bo'lagi bo'lib, uning mavjudligi ham bevosita ijtimoiy borliq bilan belgilanadi.

Ijtimoiy ong-bu axloq, e'tiqod, qadriyatlar va huquqiy normalar turli ko'rinishlarining yig'indisidir. Ijtimoiy ongning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy va boshqa turlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan o'zining ichki qonunlari bilan farqlanadi.

Demak, din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning insonlar ongida qanday tamoyillar asosida shaxs yoki guruhlarda shakllangan diniy tafakkurning umuminsoniy, milliy, o'z shaxsi yoki bo'lmasa, muayyan guruxlar manfaati uchun qaratilganligini aniqlab beradi. Chunki mazkur tamoyillar shaxs yoki guruhlarda shakllangan diniy tafakkurning umuminsoniy, milliy, o'z shaxsi yoki bo'lmasa, muayyan guruxlar manfaati uchun qaratilganligini aniqlab beradi. Insonlar diniy ongning qay yo'sinda shakllanganligi bilan bog'liq. O'z navbatida diniy ongning umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishi uchun odamlar dinning mohiyatini chuqur anglab etmoqliklari lozim.

Yuqorida dinning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligi ta'kidlandi. To'g'ri, bu umumiy falsafiy bir ta'rifning o'zi xolos. Biroq dinning o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi bosh omil bu uning murakkab bir ma'naviy borliq bilan hamda ko'p qirrali ma'naviy muhitdagi bevosita axloqiy-ruhiy kechinmalar va ularni his qilish bilan bog'liqdir. Shu jihatdan qaraganimizda, din va diniy ta'limotlar faqat nazariy asoslardangina iborat emas ekan. Ijtimoiy hayotda din avvalo o'zining Amaliy-ruhiy asoslariga egaligi bilan har qanday ilmiy nazariy ta'limotlardan ajralib turadi. O'z navbatida dinning axloqiy xususiyatlarga egaligi ilmiy nazariy ta'limotlar bilan uyg'unlashib ketishiga imkon yaratadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar ular o'rtasidagi farqni birgina ob'ektga nisbatan uslubiy yondashularda deb biladilar. Ya'ni diniy bilim (din) isbotsiz e'tiqodga, ilmiy bilim (Fan) esa asoslanishni ta'kidlaydilar. Ilm bilan e'tiqodning o'rtasida deyarli farq yo'q. Chunki ayni vaqtda e'tiqodning o'zi ilmdir.

<sup>1</sup> Falsafa qomusiy lug'at . «O'zbekiston faylasulari milliy jamiyati» 2004, 112-6.

<sup>2</sup> Qaralsin: I.A.Karimov. Bizni bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O, «O'zbekiston», 2005, 43-ââ.

Ijtimoiy borliqni tadqiq etish borasidagi uslubiy yondashuvlar qanchalik ko'p bo'lmasin (diniymi yoki ilmiy), baribir ijtimoiy hayotdagi aqiqatga erishish yo'li (uslubiy yondashuvlar) bitta umumiy mezonga asoslanadi. Bu sog'lom aql va ruhiy olamning o'zaro uyg'unlashuvidan iboratdir. Ijtimoiy hayotda sog'lom aql bilan ruhiy olamning xaqiqatga erishish yo'llari (yondashuvlari) bir-biridan ajralgan xolda emas. Negaki, odil xaqiqat xamisha yakayu-yagona bo'lib, u sog'lom aql va ruhiy olamni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Din-ijtimoiy xayotning murakkab va ko'pqirrali sohalaridan biri bo'lib, insoniyat tafakkurining ajralmas bir bo'lagi hamdir.

Dinni tadqiqi etish uch yo'nalishda olib boriladi. Bular:

- 1) ilohiyot (teologiyaga oid);
- 2) falsafiy yo'nalishga oid;
- 3) ilmiy qarashlarga oid.

Ilohiyot (teologiya)- bu muayyan bir dinning aqida va axkomlari sistemalarining majmuasidir. Teologiya-xudo haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi. Dinni ilohiy asosda tasnif etishda Tangrining insonlar turmush tarzidagi roliga kata e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy hayotdagi axloqiy masalalarda ilohiyot Tangrining bilishni bosh omil deb tushuntiradi, ya'ni unda axloq manbai-Tangridir. Biroq dunyoda yagona dinning mavjud emasligi barchaga ma'lum bo'lib, har bir din o'zining ilohiy axloq normalari (teologik etika)ga ega ekan."<sup>1</sup>

Dinni falsafiy asosda tadqiq etish haqida gap ketganda bir qator falsafiy ta'limotlarni sanab o'tishimiz mumkin. Bular Deizm, panteizm, markstizm va boshqalar.

*Deizm*-lotincha-xudo demakdir. Deizm xudoni olamning shaxssiz birinchi sababchisi demakdir. Deizm xudoni olamning shaxssiz birinchi sababchisi sifatida mavjudligini e'tirof qiluvchi ta'limot bo'lib, u ilk marotaba Angliyada paydo bo'lgan. Unga ko'ra olam yaratilgach, o'z qonunlariga tashlab qo'yilgan.

*Panteizm* (yunoncha barisi xudo demakdir). Xamda dmin falsafasiga oid ta'limotlardan biri bo'lib, bu ta'limotga ko'ra, xudo shaxssiz ibtidodir. Panteizm borliq va xudoni bir deb qaraydi, ya'ni unga ko'ra xudo tabiatdan tashqarida turmaydi.

Dinni ilmiy jihatdan tadqiq etishda bir qator uslubiy yondashuvlar mavjuddir. Bular tarixiy, sostsiologik hamda ruhiy (psixologik) uslubiy yondashuvlardir. Diniy e'tiqod insonlarning ijtimoiy hayotda nimalar qilishi mumkin yoki ta'qiqlanganligini axloqiy normalar orqali tushuntirib beradi.

Xullas, har qanday diniy ta'limot muayyan bir qonuniyatlar tizimiga asoslanadi. O'sha qonuniyatlardagi tamoyillar bir-biridan farq qilishi mumkin. Lekin har bir dinda o'ziga xos qonuniyatlar mavjud bo'lib, ular bu tuzilishi jihatidan diniy ta'limotlardagi ummiylikdan iborat. Ikkinchidan, diniy munosabatlar (qaysi dinga qarashli bo'lmasin) aloxida mavjud bo'lmasdan, jamiyatdagi siyosiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa munosabatlar bilan bevosita bog'langan bo'ladi.

Din ijtimoiy hayotning bir bo'lagi bo'lib, u butun boshli ijtimoiy hayotda yagona xukmron bo'la olmaydi. Ular quyidagi sabablarga ko'ra izohlanadi; , ya'ni makoniy sabablar;

-yer yuzidagi barcha mintaqalarda turmush tarzi bir davrning yuzaga kelmaganligi;

-ma'lum bir mintaqada yashayotgan insonlar boshqalarnikidan tubdan farq qiladigan o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lganligi;

-geografik muhitning odamlar turmush tarziga nisbatan ta'sir etishi kabilar.

*Funksional sabablar:*

-muayyan muhitdagi dinning (gnoseologik jihatdan qaraganimizda) avvalo o'ziga xos tartib qoidalarni o'rnatish maqsadida yuzaga kelganligi;

-katta kichikligidan qat'iy nazar diniy ta'limotlardagi urf-odatlar, rasm rusumlarning bir biridan u yoki bu darajada farqlanishi;

-dinning paydo bo'lishiga nisbatan yagona qarashning yo'qligi;

-hayot doimo o'zgarishda, o'zgarish esa dinga va dinga e'tiqod qiluvchilarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Eng asosiysi o'zgarishlarning barcha dinlarda bir xil bo'lmaslidir.

---

<sup>1</sup> Jumaboyev R.Z. Ubaydullyev U. A. Jo'janov B.A. Konfliktologiya asoslari . T.: T.: Akademiya, 2000, 79-b.



Shu jihatdan qaraganimizda dinning xususiyati va darajasi jamiyat va uning rivojlanish bosqichlari bilan bir xilda kechmaydi.

O'tmishda ma'naviy omillarning inson aqliy salohiyati, ijodiy imkoniyatlari kamsitildi. Falsafa tarixida minglab yillar davomida shakllangan va rivojlangan, bir-biri bilan uzviy bog'langan ta'limotlar materializm va idealizmga ya'ni (ijobiy, salbiy) g'oyalarga bo'lib yuborildi. Xolbuki din bu taraqqiyot muammolariga turlicha yondoshishning belgisidir. Ijtimoiy ong shaklidir.

**Xulosa qiladigan bo'lsak, milliy istiqlol mafkurasida muqaddas dinimizning mohiyati, uning insonparvarlik g'oyalari, dinga sog'lom munosabat masalalari ham o'zining oqilona ifodasini topishi zarur. Toki, har bir vatandoshimiz, ayniqsa yoshlar faqat islom dini to'g'risida emas, umuman, dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin. Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy xayot masalalarini, bular o'rtasidagi mo'tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak <sup>1</sup>.**

Xususan xar bir din inson ma'naviyatining bir shakli, falsafiy tafakkur taraqqiyotining bosqichlari ekan, har bir dinda Xristian, Buddizm va islom falsafasida ham insonning mohiyati, ma'naviyatini ifodalovchi g'oyalar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ko'pchilik mamlakatlarda mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya mexanizmi dunyoviy ta'lim-tarbiya muassasalarida yoshlarga din haqida ilmiy asoslangan bilimlar berish va diniy muassasalarda masalan, masjidlarda nafaqat ibodatgoh, balki diniy- ma'naviy tarbiyaning muhim o'chog'i sifatida foydalanishdek jihatlarni qamrab oladi. Diniy-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning oxirgi yillardagi xalqaro tajribasida dinlararo bag'rikenglik g'oyasi targ'iboti alohida o'rin tutadi. Bu g'oya bugun mamlakatimizda amalga oshirilmoqda. Jumladan Konstitutsiyamizda, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi qonuni» fikrimizning dalilidir.

O'tmishda ma'naviy omillarning inson aqliy salohiyati, ijodiy imkoniyatlari kamsitildi. Falsafa tarixida minglab yillar davomida shakllangan va rivojlangan, bir-biri bilan uzviy bog'langan ta'limotlar materializm va idealizmga ya'ni (ijobiy, salbiy) g'oyalarga bo'lib yuborildi. Xolbuki din bu taraqqiyot muammolariga turlicha yondoshishning belgisidir. Ijtimoiy ong shaklidir.

Din va falsafaning o'zaro xamkorligini ta'minlash uchun har bir inson ma'naviy hayotining asoslari, tomonlari, madaniyatining shakllari ekanligini tan olish kerak. Ularning qaysi biri ahamiyatli degan savol qo'ymay, har birining o'rni va vazifasi bor ekanligini, ularning birisiz ikkinchisi yashashi mumkin emasligini ko'rsatish kerak.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

- 1. “Dinshunoslik” fanining predmeti nimani o'rgatadi?**
2. Kursning nazariy va amaliy ahamiyati nimada?
3. Bu kurs bilan boshqa o'quv predmetlari o'zaro aloqaligining qanday ahamiyati bor?

#### **Adabiyotlar:**

---

<sup>1</sup> Qàràlsin: I.Êarimov. Xàlq so`zi. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. 2000 é, 10 iyun.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2011.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda yuragimizda. –T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Jo'raev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. O'quv qo'llanmasi.-T.: 1998.
6. A.Mo'minov, H.Yo'ldoshxo'jaev, B.Rahimjonov, M.Komilov, A.Abdusattorov, A.Oripov «Dinshunoslik» (darslik). - T.: 2002.
7. Mustaqillik izohli lug'ati. - T.: «Fan» 1998.
8. Falsafadan qomusiy lug'at. T.: "Sharq" 2004.
9. Qur'oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimai. Mas'ul muharrir Hamidulla Karomatov.-T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.
10. Ismoil Mahmud. Toshkent «Mushafi Usmoniy» tarixi.-T.: 1996.
11. Uvatov U. Muhaddislar imomi.-T.: «Ma'naviyat», 1998.
12. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti-matbaa birlashmasi.-T. 2005.

## 2-mavzu: Milliy dinlar.

### Reja:

1. Milliy dinlarning xususiyatlari
2. Yahudiylik, hinduiylik, konfutsiylik, daosizm ta'limotlari.
3. Zardushtiylik ta'limoti

### Tayanch so'zlar

*Milliy dinlar, mumtoz xalq, iudaizm, ierusalim, Yaxve, mahdiy, xaloskorlik, MUso, Tavrot, vedalar, vedizm, Konfutsiylik. Zardusht, Axuramazda, Axriman, Avesto, mifologiya, Maks Myuller, Yasna, Yasht, Visparad, Vadevdat, chin vot.*

**Milliy dinlarning xususiyatlari.** Din insonning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo'ldi. Shuning uchun ham dinni o'rganish – bu insoniyatni o'rganish demakdir. Dinni insoniyatdan, insoniyatni dindan ajratib bo'lmashligini tarixning o'zi isbotladi. «Kommunitik jamiyatda din yo'q bo'lib ketadi» deyilgan gapning aksicha kommunizm xayoliy narsa-yu, din doimiy ekanligi amalda isbotlandi. Demak, din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan.

Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik etuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab olmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagicha tasniflari mavjud:

Tarixiy-geografik jihatga ko'ra;  
 Etnik jihatga ko'ra;  
 E'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;  
 Hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar)

I. Tarixiy-geografik tasnif.

1) O'rta er dengizi havzasi dinlari:

- a) grek;
- b) Rim;
- v) ellinistik;

2) Qadimiy Yaqin va O'rta Sharq dinlari:

- a) Misr;
- b) Shumer;
- v) Akkad;
- g) g`arbiy-somiy;
- d) islomgacha arablar dinlari;

3) Yaqin va O`rta Sharqning payg`ambarli dinlari:

- a) zardushtiylik;
- b) yahudiylik;
- v) Xristianlik;
- g) manixeizm;
- d) islom;

4) Hindiston dinlari:

- a) vedalar dinlari;
- b) hinduizm;
- v) hind buddizmi (teravada, maxayana);
- g) jaynizm;

5) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari:

- a) Shri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;
- b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);
- v) Koreya va Yaponiya dinlari;

6) Amerika hindulari dinlari:

- a) toltek va atsteklar dinlari;
- b) inklar dinlari;
- v) mayyalar dinlari.

## II. Etnik tasnif.

Urug`-qabila dinlari – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o`z urug`idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig`inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo`lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba`zi qabilalarda saqlanib qolgan;

Millat dinlari – ma`lum millatga xos bo`lib, boshqa millat vakillari o`ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

Jahon dinlari – dunyoda eng ko`p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat`inazar unga e`tiqod qilishlari mumkin bo`lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, Xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta`limotiga ko`ra monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko`pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo`linadi.

**Yahudiylik** - Yahudiylik dunyoda keng tarqalgan dinlardan biridir. Shu kunda Isroilda 4,7 mln. (aholining 80 %), AQShda 6 mln. (40 % Nyu Yorkda), Rossiyada 1,5 mln., G`arbiy Evropa davlatlaridan Franstiyada 0,6 mln., Buyuk Britaniyada 0,4 mln. va boshqa mamlakatlarda yashaydilar.

Paydo bo`lishi. Yahudiylik miloddan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan, yakkaxudolik g`oyasini targ`ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo`lib, faqatgina yahudiy xalqiga xos. Yahudiy so`zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Abu Rayhon Beruniy o`zining «qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yozishicha, yahudiylar bu so`zni somiy tillaridagi hoda – «tavba qilmoq, tavba qilganlar» so`zidan kelib chiqqan deb da`vo

qilsalar-da, aslida bu fikr noto'g'ri, «yahudiy» so'zi Banu Isroil xalqi ustidan hukmronlik qilgan Ya'qub Payg`ambarning o'g'li Yahudo nomiga nisbat berilgan.

Yahudiy xalqining yana bir nomi Banu Isroil bo'lib, Isroil – Ya'qub payg`ambarning ikkinchi ismi, banu – «bolalar» ma'nosini beradi, ya'ni – «Isroil avlodlari».

Yahudiy xalqiga nisbatan ishlatiladigan yana bir atama evrey so'zi zamonaviy adabiyotlarda «yahudiy» so'zining aynan tarjimasida ishlatiladi. Ammo bu ikki so'zning etimologiyasi turlicha: evrey qadimiy somiy tillardagi ibriy so'zining o'zgargan shaklidir. Ibriy so'zi (arab. 'abara-ya'buru – «kechib o'tmoq» fe'lidan) «kechib o'tganlar» ma'nosini beradi. Tarixdan ma'lumki, yahudiy qabilalari Urdun (Jordan) daryosini kechib, hozirgi Falastin hududiga kelganlar. Shuning uchun ularga ibriylar yoki ibroniylar («kechib o'tuvchilar») nomi berilgan.

**Yahudiylik ta'limoti.** Yahudiylik ta'limoti to'rt asosga tayanadi:

1. Olamlarni yaratuvchi yagona xudo – Yahvega imon keltirish. Yahve so'zi «rabb, parvardigor» ma'nosini bildiradi. Tavrotning «Chiqish» kitobida Xudoning Musoga aytgan ushbu so'zi keltiriladi: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Ishoq, Ya'qublarning parvardigori, u meni sizga yubordi» (Chiqish: 3). Mil. av. VI asr oxirlarida yahudiy ruhoniylari oddiy xalq hurmatini pasaytirib qo'ymasliklari uchun Yahve so'zini ishlatishni man etib, uning o'rniga murojaat uchun «Adonay» («Rabb, Xoja») so'zini qo'llashni buyurganlar. Shundan so'ng faqat ruhoniylargagina ibodat vaqtida Yahve nomini tilga olishlariga ijozat berilgan.

Yahudiylik ta'limotiga ko'ra, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shu sabab yahudiylik dinida shanba kuni ulug` kun hisoblanib, hech bir ishga qo'l urilmaydi.

2. Yahudiylar er yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va u «dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi» ekanligi. Ular o'zlarini Xudo tomonidan saylangan, muqaddas xalq ekanini, yahudiyning ruhi Xudoning bir qismi hisoblanishini da'vo qiladilar.

3. Messiya – xaloskorning kelishi haqida. Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni isloh qilgan holda qaytadan quradi; 2) butun yahudiylarni Sinion atrofida to'playdi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.

4. Oxirat kuniga ishonish. Yahudiylikda oxirat haqidagi tasavvurlar, asosan Talmudda bayon etilgan. Unga ko'ra, Yahvega chin e'tiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar. Aksincha, uning qonunlarini buzganlar shafqastiz jazo oladilar.

Yahudiylik ta'limoti bo'yicha Muso payg`ambar Tur tog`ida Yahve bilan uchrashganda Yagona Xudo tomonidan 10 ta lavha tushirilgan. Ushbu lavhalarda mazkur din asosini tashkil etgan 10 ta nasihat bor edi. Bu nasihatlar Tavrotning «Ikkinchi qonun» kitobidan o'rin olgan bo'lib, yahudiylar ularga qat'iy rioya qilishlari shart. Ular quyidagilardir:

1. Yahvedan boshqani iloh deb bilmaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag`ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g`rilik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.

Yahudiylarning muqaddas diniy manbalaridan hisoblangan Talmudda yahudiylik marosimlari tizimi ishlab chiqilgan. Unda yahudiylar amal qilishi va bajarishi lozim bo'lgan 248 ta buyruq, 365 ta taqiq mavjud. Ular yahudiyning ovqatlanishi, kiyinishi, ozodaligi, kun tartibi, ibodatlari, marosimlar va bayramlariga taalluqli masalalarni o'z ichiga oladi.

Har bir yahudiy ushbu buyruq va taqiqlarga umri davomida rioya qilishi shart. Masalan, har bir yahudiy farzandi tug`ilganining sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Shuningdek, yahudiylar o'zlarining maxsus qassoblari – shoyixet tomonidan diniy qoidalariga muvofiq so'yilgan

go'shtlarnigina (to'ng'iz go'shti yahudiylikda harom hisoblanadi) iste'mol qiladilar. Kiyinish masalasidagi qoidalar, asosan, erkaklarga tegishli. Ularning kiyimlari bir rangdagi (sidirg'a) matodan uzun qilib tikilgan bo'lishi, cho'ntaklari beldan pastda joylashishi lozim. Boshlari esa, doimo, hatto uyquda ham yopilgan bo'lishi kerak. Ibodat paytida yahudiylar maxsus ibodat choyshabi – «tales»ni elkalariga tashlab oladilar. Uning qirg'oqlarida olti yuz o'n uchta tugun tugilgan bo'lib, bu narsa yahudiy tomonidan yuqorida aytib o'tilgan «248 ta buyruq va 365 ta taqiqqa amal qilishni elkamga olaman, degan ma'noni anglatadi».

**Tavrot manbalari.** Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri – mil. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketilishiga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot; Torah of Moses; Totah shebikhtav), ikkinchisi Tavrotdan keyinroq paydo bo'lgan yozma manba Talmuddir. Yahudiylikdagi bu ikki muqaddas sanaladigan manba Xristian Bibliyasining tarkibiy qismlarini (aynan emas) tashkil etadi. Xristianlar va Yahudiylar Bibliya so'zini turli tushunadilar. Yahudiylar uchun Ibriy Bibliyasi (Hebrev Bible) Xristianlarning qadimiy Ahdi (Old Testament). Yahudiylar Bibliya so'zi ostida ko'pincha o'zlarining Tanaxlarini (Tanakh) tushunadilar. Musoga tegishli bo'lgan besh kitob «Tavrot» deb ataladi va quyidagi kitoblarga bo'linadi: 1) «Borliq» yoki «Ibtido»; 2) «Chiqish»; 3) «Levit»; 4) «Sonlar»; 5) «Ikkinchi qonun».

Qadimiy Ahdning ichidagi diniy ta'limot va aqidaga bag'ishlangan eng asosiy va obro'li qismi Tavrotdir. U Xristianlik an'anasiga ko'ra «Besh kitob», yahudiylar an'anasiga ko'ra «Tora» (ta'limot) hisoblanadi.

Qadimiy Ahddagi «ahd» so'zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini bildiradi. qadimiy Ahd matni ibriy (eski yahudiy) va oromiy tillarida yozilgan. U qadimgi payg'ambarlarning kitoblari (Ketuvim), Sulaymon payg'ambarning matallari (Nevi'im) va (Torah) nomli kitoblardan iborat. Unda «Xudo yarlaqagan» Isroil xalqining tarixi haqida hikoyalar beriladi.

**Talmud.** Milodning I-IV asrlarida yahudiy davlati boshdan kechirgan iqtisodiy va ijtimoiy tanazzuli xalq orasida ruhoniylar obro'yining benihoya oshib ketishiga sabab bo'ldi. Ular o'zlarini ravvinlar (hazrat, janob) deb atadilar. 66-70 yillardagi qo'zg'olonda Isroil xalqini halokatdan qutqarib qolgan Ioann ben Zakkai nomli shaxs yashirincha O'rta er dengizi bo'yida Yavne (Yavneh) degan joyda diniy maktab (akademiya) tashkil qildi. Bu maktab ravvinlar ta'limotini tarqatish markazi bo'lib qoldi. Natijada Lidda, Sepforis, Ush, Tiveriada degan joylarda shunga o'xshash maktab – «akademiya»lar tashkil etildi. Bu akademiylarning rahbarlari «nasi» (knyaz) yoki patriarx deb ataldi. Ular bu maktablarga rahbarlik qilish bilan bir qatorda o'z hududlarida fuqarolik ishlari bo'yicha hakamlik vazifalarini bajardilar hamda jamoaning barcha ishlarida rahbar, barcha yahudiylarning diniy rahnamosi hisoblanar edilar.

Mazkur patriarxlar boshqargan maktablarda «Talmid-xoxomlar», ya'ni yahudiy diniy qonunchilari avvalgi «Galaxa» (yahudiy diniy qonunlari)ni sharhlash va yangilarini ishlab chiqish bilan shug'ullandilar. Shu davrdan boshlab Galaxalarni sistemalashtirish ishlari boshlandi. Galaxalar uzoq davr og'zaki ravishda avloddan-avlodga o'tib kelgan edi. Bizgacha etib kelgan «Mishna» (Mishnah) nomli Galaxalar to'plami 210 yil atrofida III asrda yashagan Yuda Ha-Nasi (Judah Ha-Nasi) ismli patriarx tomonidan yozilgan. Keyinchalik Mishnaga ko'p o'zgartirishlar kiritilgan va unga turli shaxslar tomonidan sharhlar bitilgan. Unga yozilgan sharhlar «Gemara» (Gemara) deb atalgan. Mishna va Gemaraning, ya'ni Galaxalar va ularning keyingi sharhlarining to'plami birgalikda Talmudni tashkil etadi.

Talmud (qad. yahud. «lameyd» – «o'rganish») mil. av. IV asrlarda vujudga kelgan va yozma Toradan farqli o'laroq, avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib borgan. Shuning uchun Tora «yozma qonun» (Torah shebikhtav), Talmud esa «og'zaki qonun» (Torah shebe'al peh) deb yuritilgan. Talmudning Falastin (Erushalmi) va Vavilon (Bavli) nusxalari mavjud. Erushalmi Talmudi milodning 390 yili atrofida, Bavli Talmudi milodning 499 yili atrofida tahrir qilingan.

Unda yahudiylarning esxatologik (oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo haqidagi) tasavvurlari o'z aksini topgan. Talmudda yahudiylikning marosimlari, urf-odatlari aniq bayon etilgan bo'lib, ular 248 ta vasiyat va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yahudiylar orasida din, firqa, guruhlar (sadduqiylar, farziylar, esseylar)ning kelib chiqishi

haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar yahudiy dinining asosini tashkil etadi.

Yahudiylarning Talmud qatoriga kiruvchi yana bir diniy manbasi Midrashlar (tafsir) hisoblanadi. Ular ham Talmud singari diniy qonun qoidalar to'plami bo'lib, yahudiy ravvinlarining Toraga yozgan sharh-tafsirlari hisoblanadi. Ular Midrashlardan ko'proq sinagoga targ'ibotlarida foydalanadilar.

**Yahudiylikdagi oqimlar.** Yahudiylikdagi oqimlar haqida so'z yuritganda ularni qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo'lish kerak. qadimiy oqimlarga saduqiylar, farziylar, esseylar kiradi. Zamonaviy oqimlarga esa sionizm kiradi.

Saduqiy nomi podshoh Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniylar Saduq ismi bilan bog'liq. Ko'plab mansabdor ruhoniylar saduqiy bo'lganlar. Ular diniy ishlarda faqat qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so'z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun saduqiylar qiyomatda o'lganlarning qayta tirilishiga ishonmaydilar.

Farziy nomi qadimiy yahudiy tilidagi «tushuntirish», «ajratib ko'rsatish» so'zidan olingan bo'lib, ular Musoning qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o'rgatganlar. Farziylar Muso zamonidan beri og'zaki an'ana davom etib kelyapti deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o'z ehtiyojlarini qondirish uchun qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.

Ular muqaddas manba sifatida nafaqat Musoning qonunini, balki boshqa payg'ambarlarning ham muqaddas yozuvlarini, hatto o'zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va bularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Shuning uchun ular taomga, kiyimga va boshqa narsalarga juda ehtiyotkor bo'lganlar. qo'l va badanlarining ozodaligiga katta e'tibor berganlar. Farziylar qiyomatga, o'lganlarning qayta tirilishiga ishonganlar.

Esseylar quddusdagi ko'pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba'zi diniy mansablarga Musoning qonuniga nomuvofiq munosib bo'lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko'rgan bir guruh ruhoniylar quddusda ibodat qilish va qurbonlik qilish qonunga to'g'ri kelmay qoldi, deb hisobladilar va quddusni tashlab, yahudiy sahrolariga chiqib ketib, o'sha erda o'z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni esseylar deb atashdi. Esseylar Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor – Messiyaning kelishi va quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Sionizm (Zionism) nomi quddusdagi Sion (Zion) tog'i bilan bog'liq. Bu oqim avstriyalik yahudiy jurnalist T. Herstlning (Theoder Herzl; 1860-1904) nemis tilidagi «Yahudiylar davlati» (Der Judenstaat) risolasi asosida XIX asr oxirlarida tuzilgan. Sionizm ilk davrda ravvinlar tomonidan qo'llab quvvatlangan.

Bu oqimning maqsadi – yahudiylarning xudo tomonidan tanlangan mumtoz xalq ekanini targ'ib etish va ularning o'zlari yashab turgan turli o'lkalardan chiqib, Falastinda «milliy birlashishi»ga erishishdir. Sionizm «jahon yahudiy millati» – «oliy millat» kabi g'oyalarni ilgari suradi. g'oyasiga ko'ra sionizm siyosiy oqim bo'lib, maqsadiga erishish yo'lida yahudiy dinidan foydalanadi.

Qayta quruvchilar. Yahudiy ilohiyotchilari orasida yahudiy dinini isloh qilish va uni o'rta asrlardagi holatiga qaytarish tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning fikricha, dinni qaysidir bir jihatdan tanqid qilish uning ta'sir kuchini kamaytiradi. Shuning uchun dinning o'zi qanday bo'lsa, uni shundayligicha qabul qilish kerak. Bu fikr tarafdorlari yahudiy ruhoniylari orasida va Isroil davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Ular o'zlarini «qayta quruvchilar» deb ataydilar. qayta quruvchilar yahudiylikni sionizmning millatchilik g'oyalari bilan qayta ishlab, uni o'rta asrlardagi ravvinchilik holatiga qaytarishga urinadilar.

**Yahudiy marosimlari va bayramlari.** Yahudiylar o'zlarining Yahvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro etadilar. Ular yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat. Ibodat uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Yahudiylar sinagogasining sharqiy tomonida Toraning nusxalari saqlanadigan sandiq va ravvin uchun minbar qo'yilgan. Ayollar erkaklardan alohida ibodat qiladilar. Sinagogada ibodat xor shaklida olib boriladi.

Yangi tugʻilgan oʻgʻil bolalar sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylikda bir necha xil oziq-ovqatlar, asosan, choʻchqa, quyon, qoʻshoyoq, tuya, yaxlit tuyoqlilar, oʻlaksaxoʻr qushlar kabi baʼzi hayvon goʻshtlarini eyish taqiqlanadi.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng eʼtiborlisi Peysax (Pessah; Pasxa) bayramidir. Bu bayram Xristianlarning pasxasidan farqli oʻlaroq, yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. qadimiy yahudiylarda Pasxa deb qoʻzichoq goʻshti va sharobdan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi yahudiy boʻlmagan goʻdaklarni qirib tashlashga qaror qilganda, ular oʻz uylarining peshtoqini qon bilan boʻyab oʻzlarining yahudiy ekanliklarini bildirganlar.

Yahudiylar Pasxa bayramidan keyingi etti kun davomida tuzsiz, xamirturushsiz patir – masta tanovul etadilar. Mastani tanovul qilish bilan har bir yahudiy Muso boshchiligidagi oʻz otabobolarining chekkan mashaqqatlarini his etadilar. Bu bayram yahudiylarning quyosh-oy kalendari boʻyicha nison oyining 14 kuni nishonlanadi (bu sana aprel oyining oʻrtalariga toʻgʻri keladi).

Pasxadan keyingi 50-kuni yahudiylar Shabuot, yoki Shevuot bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami boʻlgan, keyinchalik Sinay togʻida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab oʻtkaziladigan bayramga aylangan. U yahudiylarning kalendari boʻyicha sivona oyining 6- va 7-kunlari nishonlanadi.

Kuzda yahudiy kalendaridagi tishri oyining 1- va 2-kunlari (sentyabr oxiri-oktyabr boshlari) yangi yil bayrami – Rosh-Ashona nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qoʻchqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, choʻntaklarini toʻntarib yaxshilab qoqadilar.

Tishri oyining 9 kuni gunohlardan poklanish bayrami – Yom-Kippur nishonlanadi. Rosh-Ashona va Yom-Kipur bayramlari oʻrtasida yahudiylar roʻza tutadilar. Roʻza kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski-tuski kiyimlarga oʻranib yuradilar, sinagogada nadomatlar bilan yigʻlab tavba qiladilar.

Purim (qurʼa) bayrami yahudiy bayramlarining ichida eng quvnogʻi hisoblanadi. Bu bayram yahudiylarni qirib tashlamoqchi boʻlgan fors podshohi Homon zulmidan qutilganliklari sharafiga bahorda nishonlanadi. Ularni Homondan oʻz amakisi Mordexay tarbiyalagan Esfir ismli qizcha qutqargan. Shuning uchun bu kuni yahudiylar «Homonga laʼnatlar boʻlsin», «Mordexayga Xudoning rahmatlari yogʻilsin», deb qichqiradilar.

**Oʻrta Osiyodagi yahudiylar.** Maʼlumki, yahudiylar Oʻrta Osiyoga qadim zamonlardan koʻchib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Ularning ichida umum eʼtirof etilganlaridan biri shuki, yahudiylar bu mintaqaga Eron orqali kirib kelganlar. Bu xalqning Oʻrta Osiyoga hijrati koʻp asrlar mobaynida davom etdi. Taxminlarga koʻra, ular Assuriya quvgʻinlari paytida – mil. av. V-VI asrlarda Eronga koʻchib kela boshlaganlar. Hatto mil. av. VIII asrlarda baʼzi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi oʻlkalarda boshpana topganliklari haqida ham xabarlar bor. Fors davlati maʼlum muddat Oʻrta Osiyoni oʻz hukmi ostida tutib turgan va xuddi shu davrda yahudiylarning koʻchib kelishi amalga oshgan. Yahudiylar Oʻrta Osiyoda Soʻgʻdiyona davlati davrida, yaʼni milodning II asrida paydo boʻldilar. Ular Eron orqali Marvga kelib, soʻng u erdan Buxoro, Samarqand, Shahrizabz va boshqa shaharlarga tarqaldilar. Bu fikrni mahalliy yahudiylarning fors lahjalarining birida gaplashishlari ham quvvatlaydi.

Ispaniyalik yahudiy sayohatchisi Beniamin de Tudelning maʼlumotiga koʻra, 1165 yilda Samarqandda 30 mingga yaqin yahudiylar yashagan. Maʼlumki, bu sayyoh sharqda Bagʻdodgacha safar qilib, Samarqandda boʻlgan emas. Bu raqam mahalliy Bagʻdod yahudiylarining afsonaviy maʼlumotlariga asoslangan holda keltirilgan boʻlsa, ajab emas.

Yahudiylarning turmush tarzlari, urf-odatlari qadimiy yahudiy, fors va mahalliy madaniyatlarining qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan baʼzilarining taʼsiri kuchayishi yoki aksincha, susayishi kuzatilgan. XVIII asrning boshlarida Oʻrta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afgʻoniston, Xiva, Qoʻqon va Buxoro jamoalariga boʻlinib ketdi. Yahudiylarning asosiy qismi Buxoro shahri va uning atroflarida yashaganligi tufayli Oʻrta Osiyo yahudiylari «Buxoro yahudiylari» nomi bilan tanildilar.

Yahudiylar yagona millatga xos din bo'lganligi sababli ular qaerda bo'lmasin, biri ikkinchisidan qancha uzoq bo'lmasin, muqaddas kitobi va e'tiqodi yagona bo'lib qolaverdi. XVIII asrda O'rta Osiyo yahudiylari tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili asli g'arbiy Afrikadan bo'lib, Falastinning Tsfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag'ribiy o'z shahri yahudiylari uchun moddiy yordam to'plash maqsadida Buxoroga keladi. U mahalliy yahudiylarning o'z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko'rib, shu erda qolishga va millatdoshlariga diniy ta'lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar. Garchand o'rta osiyolik yahudiylarni Buxoro yahudiylari deyilsa-da, ular ko'proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o'rtalarida Nodirshoh (1736-1747) Samarqandni bosib olganda uning lashkarlari orasida turklar, lezginlar, afg'onlar, ironiylar, shuningdek, yahudiylar bo'lganlar. Ular Samarqandning Shoh-Kash, Chor-Raga, Novadon, qo'shhovuz kabi guzarlarida yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodirshoh davrida yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo'lgan.

Son jihatdan ko'paygan yahudiylar barchalari bir mavzega jam bo'lib yashashni xohlardilar. Biroq, Buxoroda ham, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana kabi viloyatlarida ham yahudiylar musulmonlardan ajralgan holda yashar edilar. 1843 yilning bahorida mahalliy yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2,5 gektar joyni 10 ming kumush tangaga sotish haqidagi shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudiylardan 32 kishi imzoladi, davlat uning haqiqiylikini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, yahudiylar o'zlarining birinchi mahallalariga ega bo'ldilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yahudiylarning milliy, diniy erkinliklariga yo'l ochib berildi. Hozirda Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida buxorolik hamda ashkenazi (evropalik) yahudiylarining milliy madaniy markazlari, shuningdek, sinagogalari faoliyat ko'rsatib kelmokda.

Yahudiy jamoalari mamlakatning uchta ma'muriy hududida o'zining ibodatxonalariga ega bo'lib, jami sakkizta sinagoga ro'yxatdan o'tgan.

**Hinduizm.** Hozirgi Hindistonda tarqalgan din shaklidir. U eramizdan oldingi dinlar - braxmanizm va vedizmning evolyustiyasi natijasida eramizning birinchi ming yilligi o'rtalariga kelib shakllangan. Shu davrdan boshlab hinduizm hukmron dinga aylangan. Hozirgi vaqtda Hindiston aholisining o'rta hisobda 80 dan ortiqroq foizi hinduizmga e'tiqod qiladi. Hinduizm sinkretik din bo'lib, turli e'tiqodlar, urf-odat va marosimlar, mahalliy diniy e'tiqod va qarashlarning murakkab kompleksi sifatida voqe bo'lib, urug'-qabila dinlari elementlarini, braxmanizm, buddizm va jaynizmning asosiy g'oyalarini qamrab olgan. Hinduizm o'zining yagona tashkilotiga ega emas.

Hinduizm insonning tug'ilganidan to'vafot etishigacha bo'lgan huquq va vazifalarini belgilab va cheklab qo'yadi. Shuning uchun unda marosimchilikka keng o'rin berilgan. Hinduizm kishilarning ijtimoiy tengsizligini oqlaydi va abadiylashtiradi, ruhning bo'lmasligi va ko'chib aylanib yurishi (sansara ta'limoti), qayta tug'ilishi (karma ta'limoti), gunoh ishlar uchun javob berishi, jannat va do'zax kabi aqidalarni o'z ichiga oladi.

Hinduizm politeistik din bo'lib, unda ko'p xudolilik elementlari saqlangan. Dindorlar tasavvurida bosh xudo Braxman koinotning ijodkori va yaratuvchisidir. Bundan tashqari hindlar Vishnu va Shiva xudolariga ham e'tiqod qiladilar. Hinduizm ta'limotida xudoning uch xil ko'rinishda tasavvur etilishi (trimurti) eng oliy, ilohiy, yakka xudoning uch xususiyati, deb talqin qilinadi. Bu xristianlikdagi uch yuzli xudoga o'xshaydi.

Hinduizm ta'limoticha, olam paydo bo'lib, emirilib, yo'q bo'lib turadi, ya'ni olamning yashashi progressiv emas, aksincha, regressiv xarakterga ega; har bir davr olamning yuksak rivojlangan cho'qqisidan boshlanib, uning inqirozga uchrashi bilan tugaydi, insonlar gunohga botib ketgach, olam yo'qoladi.

Hinduizm jamiyatning tabaqalarga bo'linishini aks ettiruvchi savob va jazo (karma) g'oyasiga asosan, inson hayotida 4 ta asosiy maqsad bor, deb da'vo kilinadi: 1) dxarma - oila va jamiyatda diniy talablarni bajarish; 2) artxa - foydali ishlar qilish, zarur materiallarga ega bo'lish; 3) kama - muhabbat tuyg'ulariga erishish, his-tuyg'ularni qondirish; 4) moksha - o'zgarish zanjiridan butunlay xalos bo'lish.

Vishnuizm va shivaizm oqimlarining vakillari o'z xudolariga bag'ishlab minglab katta-kichik ibodatxonalar kurganlar. Bu dinga e'tiqod kiluvchilar "muqaddas joylar", daryolar va boshqa har xil



narsalarga sig'inadilar. Hind xalqi orasida yovuz ruhlarga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Ular turli hayvonlar - ho'kiz, sigir, maymun va ilon kabilarga ham sig'inadilar, ularni muqaddaslashtiradilar. Masalan, hinduizm tarafdorlari sigirni sahiylik manbai va go'zal ayol timsoli deb hisoblaydilar. Ruhoniylar sigirlarni so'ymaslik va go'shtini emaslikni targ'ib qiladilar. Ammo hinduizm sigir sutini ichishni va undan xo'jalikda ish hayvoni sifatida foydalanishni taqiqlamaydi.

Hind xalqi uchun Gang daryosi muqaddas hisoblanadi. Hinduizm diniga e'tiqod qiluvchilar Banoras shahrini ham muqaddaslashtirishgan. Rivoyatlarga ko'ra, go'yo Gang daryosi qirg'og'ida kishi hayotdan ko'z yumsa, narigi dunyodagi hayoti ancha engillashar, jannatga yo'l olar degan diniy fikr bor.

Hinduizmning xarakterli xususiyatlari, yuqorida qayd kilingandek, jamiyatdagi kishilarni tabaqalarga - kastalarga\* ajratishdir. Hozirgi paytda kishilarni tabaqalarga bo'lish taqiqlangan. Ammo tabaqalarga bo'linish minglab yillar davom etganligi va kishilarning ongiga chuqur singab ketganligi uchun bu masalada muayyan kiyinchiliklar yuz bermoqda. Hinduizmning "muqaddas" yozuvlariga Veda†, Upanishadlar‡ kiradi. Keyinchalik "Maxabxarata" va "Ramayana" dostoniga o'xshash, diniy marosimlar va urf-odatlar singdirilgan har xil afsona, rivoyat, hikmatli so'zlar, epik dostonlar paydo bo'la boshladi.

XIX asrning boshlarida hinduizm milliy-ozodlik harakati g'oyalari katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan hinduizmda shovinistik diniy e'tiqodlarni targ'ib qilgan bir qator o'ng teskarichi oqimlar ham paydo bo'lgan.

Hozirgi vaqtda hinduizm Hindistondan tashqari Nepal, Shri Lanka, Bangladesh, Gavana va hindlar yashaydigan boshka hududlarda tarqalgan.

**Jayнизм** - dinning asoschisi sifatida e'tiqod qilinadigan yarim afsonaviy payg'ambar - Jina nomi bilan atalgan bo'lib, eramizdan oldingi VI asrda paydo bo'lgan. Jayнизм braxmanizmdagi kishilarni tabaqalarga ajratish sistemasiga qarshi paydo bo'lgan. Uning ta'limotida 24 payg'ambarga, ayniqsa oxirgi payg'ambar - Vardxamana Maxaviraga siganish talab etiladi. Jayнизмda jonning o'lmasligiga, uning bir moddiy shakldan ikkinchisiga ko'chib yurishiga ishonish markaziy o'rinni egallaydi.

Inson er yuzida qiladigan har qanday harakat va ish ana shu jon bilan tan birligida sodir bo'ladi deb qarash. Jonni gunohdan saqlash uchun hayotda to'g'ri yo'lni tutmoq, ya'ni din targ'ib qiladigan barcha ta'limotlarga, talablarga so'zsiz itoat etish va e'tiqod qilish zarur. Jayнизмda digambarlar va shvetambarlar nomli yo'nalishi ham mavjud.

**Sikxizm** - (sikx - o'quvchi demakdir) XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Shimoliy-g'arbiy Hindistonda hinduizmga qarshi yo'nalish sifatida paydo bo'lgan. U mayda hunarmand va savdogarlarning feodal zulm va jamiyatning tabaqalanishiga qarshiligini o'zida aks ettirgan.

XVI asrga kelib sikxlar jamoasiga dehqonlar ham qo'shila boshlaganlar va bu antifeodal harakatni kuvvatlaganlar. Sikxizm monoteistik din hisoblanib, jamoa bo'lib birgalikda ibodat qilishni inkor etadi, ruhoniylarni tan olmaydi. Moddiy olamdagi barcha hodisalar sikxizm ta'limoticha, yagona xudo - oliy kuchning ijodi, insonlar esa xudo oldida teng, deb hisoblanadi. Bu din ta'limoti "Grantx Sohob" (Janob kitob) nomli kitobda izohlangan. Sikxizm ta'limotiga e'tiqod qiladiganlar hozirgi kunda kam uchraydi.

**Daosizm** falsafiy ta'limot sifatida Xitoyda mil. av. birinchi ming yillikning o'rtalarida Konfutsiychilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ldi. Bu ta'limot dastavval bir muncha mavhum xarakterga ega bo'lib, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan. Ushbu ta'limot tarafdorlari ham

---

\* Хиндистонда кишиларни бир-бирига аралашмайдиган табақаларга; брахман (кохин)лар, кшатрий (ҳарбий)лар, вайший (савдогар), хунарманд, ўрта табақалар), шудрийларга, яъни бошқа табақаларга хизмат қилувчи энг паст табақа ҳисобланган хизматкорга бўлишдан иборат қатъий диний таълимотга асосланган.

† Ведаиар эрамиздан илгариги 11 минг йиллик ўрталаридан бошлаб пайдо бўлган. "Веда" - қадимги ҳинд тили - санскритда "билим" демакдир. Улар 4 тўпладан иборат: 1) гимнлар ва дуолар; 2) маросимчиликда ижро этиладиган гимнлар; 3) қурбонликка оид қоидалар ва дуолар; 4) ёвуз кучларга қарши дуо ва афсоналар.

‡ Упанишадлар эрамиздан олдинги минг йилликлар бошларида пайдо бўлган. Упанишадлар - санскритча, "сирли таълимот" деган маънони англатувчи, ведаларни шарҳлаш жараёнида юзага келган ахлоқни ва бошқа хarakterдага рисолалар бўлиб 250 га яқиндир.

Konfutsiychilar kabi o'z zamonalaridagi harakatlarga qarshi bo'lganlar. Daosizm targ'ibotchilari ham hukmdorlar orasidagi tinimsiz urushlarni qoralari edilar. Ular ham boshqa bir qator falsafiy ta'limotlar qatori orqaga – «Oltin asr»ga – qaytishga chaqirar edilar.

Daosizm o'zining ilk ko'rinishida nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga aloqador edi. Bu shamanizm, folbinlik, tabiblik bilan bog'liq edi. Chunonchi qadimgi davolash uslublari falsafa, ayniqsa, daosizm falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shamanlar davolash uslublari inson tanasidagi jarayonlarni tashqi fazoviy kuchlar, har xil ruhlar ta'siri bilan bog'lab, jodugarlik va sehrdan keng foydalanganlar.

Daosizm mil. av. IV-III asrlarga kelib nazariy asarlar paydo bo'la boshladi. Bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy va axloq masalalari daosizm uchun unchalik muhim sanalmadi. Biroq daosizm vakillari ilk bor borliq, tabiat, koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqa boshladilar. Xitoydagi Stzis faylasuflar akademiyasida daosizm nazariyotchilari: Tyan Pen, Sun Tszyan, In Ven, Shen Dao, Xuan Yuan va boshqalar to'plangan bo'lib, ular inson va uni o'rab turgan borliq xususida beto'xtov munozaralar olib bordilar va risolalar yozdilar. Bunday asarlar hozirgi kungacha saqlanmagan, biroq daosizmning asosiy manbasi sanaladigan «DaodeIqzin» risolasida o'z aksini topgan. Mazkur risola muallifi Lao-Iqzi hisoblanadi. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar kam, borlari ham noaniq. Afsonalarga qaraganda, Lao-Iqzi onasining qornida bir necha o'n yillar yashab, keksa donishmand holida dunyoga kelgan. Shuning uchun uni «Lao-Iqzi» – «Keksa donishmand», «qari bola» deb atadilar.

Lao-Iqzi mil. av. VII da tug'ilgan, Konfutsiyning zamondoshi hisoblanadi. qadimgi Xitoy yodgorliklarida Konfutsiyning Lao-Iqzi bilan uchrashganligi, uning donoligidan hayratga tushgani va uni ajdaho deb atagani haqida rivoyat keltiriladi.

Lao-Iqzi ta'limotiga ko'ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi «Ulug` Dao» hisoblanadi (dao, tao «yo'l», «haqiqat», «tartib» demakdir). Dao haqidagi ta'limot Konfutsiychilikda bo'lgan. Chunki dao to'g'risidagi fikrlar Konfutsiychilik va daosizm shakllanishidan ancha oldin mavjud edi, shuning uchun ham har ikki ta'limotning o'xshash jihatlari ko'p. Konfutsiy daoni jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar tajassumi deb hisoblagan. Boshqacha aytganda, dao – ijtimoiy me'yorlar, intizom va axloqning yig'indisidir. Daosizm vakillari uchun dao o'zgacha mazmunga ega: dao umumiy tabiat qonuni va ibtido intihoning o'zagidir. Umumiy mazmunda dao – butun borliq demakdir. Daoni hech kim yaratmagan, barcha narsalar daodan kelib chiqqan va unga qaytadi. Dao hech kimga ko'rinmaydi, sezgi a'zolari uni ilg'ay olmaydi. Nimani ko'rish, eshitish, sezish, anglash mumkin bo'lsa, u dao emas.

Daosizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri bu dao va u bilan aloqador tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o'limning nisbiyligi va shunga bog'liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir. Milodning birinchi asrlari – Xan asriga kelib, abadiy hayot masalasi daosizm olimlarining asosiy muammosiga aylandi. Uchinchi va so'nggi masala uvey printsipidir. Daosizm falsafasining mana shu uch ta'limoti Xan asriga kelib daosizm dinining shakllanishiga asos bo'ldi.

Milodiy ikkinchi asrga kelib daosizm dinida yangi sektalar paydo bo'ldi. Ulardan biri «Taypindao» («Buyuk tenglik ta'limoti») bo'lib, uning asoschisi Chjan Tszue hisoblanadi. U xalq orasida sehr-jodu orqali barcha kasalliklarni tuzatuvchi hamda kishi umrini uzaytiruvchi shaxs sifatida shuhrat topdi. Uning atrofiga ko'plab odamlar yig'ildilar. Chjan Tszue odamlarni 36 jangovor guruhga bo'lgan. Katta guruhlarga «da fan» katta sehrgarlar, kichik guruhlarga «syao fan» kichik sehrgarlar boshliq etib tayinlanganlar. Sektada yuqori boshliq Chjan Tszue («Buyuk osmon rahnamosi») sanaladi. Uning ikki ukasi «Buyuk er rahnamosi» va «Buyuk inson rahnamosi» deb talqin qilinadi. Bu uchta daosizmning uchta ta'limoti – osmon, er va inson birligining ramziy timsoli edi. «Taypindao» sektasi ta'limoti «TaypinIqzin» kitobiga asoslanadi.

«Taypindao» sektasi bilan birga yana bir «Udoudao» («Besh dou guruch ta'limoti») sektasi ham mavjud bo'lib, qadimgi Xitoy jamiyatida katta ta'sir doirasiga ega bo'lgan. Uning asoschisi mashhur daochi Chjan Dao Lin bo'lib, u ushbu sektaninggina emas, balki butun daosizm ibodatxonasining asoschisi hisoblanadi.

Ushbu sektalar tarixda hukmron tabaqalarning adolatsizligiga qarshi ko'plab siyosiy kurashlarga, qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan.

Daosizm birinchi ming yillikda buddizm va Konfutsiychilik bilan raqobatlashib keldi. VI asrga kelib, daosizm Konfutsiychilikdan keyin ikkinchi o'rinni egallagan edi. XIII asrdan boshlab daosizm ta'limotining aniq asoslarga ega emasligi va ilk davrdagi yuksak ta'limotlari turli xurofotlar bilan almashgani tufayli inqirozga yuz tuta boshladi.

XX asr boshlariga kelib Xitoyda turli daosizm sektalariga qarshi kurash boshlandi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida daosizm tarafdorlari juda ozchilikni tashkil qildi. Ushbu kichik guruhlar monaxlar, targ'ibotchilar va bashoratchilarni o'z ichiga olar edi.

**Konfutsiychilik.** Konfutsiychilik falsafiy g'oya sifatida maydonga kelgan. Uning asoschisi Konfutsiy (Kun Stzi) mil. av. 551 yilda tug'ilib, mil. av. 479 yilda vafot etgan.

Konfutsiy otasidan erta ajrab, onasi qo'lida tarbiyalanadi. Onasi ham ko'p o'tmay dunyodan o'tadi. Konfutsiy ilm tahsilini olgach, 19 yoshida uylanadi. Birinchi marta u omborchi vazifasiga ishga tayinlanadi. U bir necha yillar davomida turli podshohlar qo'l ostida ishlagandan keyin yoshlarga ta'lim berishga kirishadi. Yangi ustozning ong haqidagi fikrlari, chuqur ma'noli so'zlari mamlakat bo'ylab keng tarqaladi. Shundan so'ng Konfutsiy huzuriga mamlakatning turli mintaqalaridan ilmga chanqoq yoshlar oqib kela boshlaydilar. U ilm istab keluvchilarga hech qachon rad javobini bermas edi. Konfutsiyning 3000 ga yaqin shogirdlari orasida 72 eng ko'zga ko'ringan izdoshlari orasida mamlakatning obro'li xonadonlaridan bo'lgan kishilar bilan bir qatorda kambag'al, oddiy kishilar ham bo'lgan. Konfutsiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-sekin katta ta'sir doirasiga ega bo'lib bordi. Uning ko'plab shogirdlari qadimgi Xitoy podshohliklarida e'tiborli mansablarni egalladilar. Konfutsiy yoshlar tarbiyachisi va ustoz sifatida keng shuxrat qozonib, ilk Xitoy ma'rifatparvari nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa, u tomonidan taklif qilingan islohotlarning amalga oshirilishida buning aksi bo'ldi.

Garchi Konfutsiy o'zining ish faoliyatida podshohlar xizmatida bo'lgan paytlarida ba'zi islohotlarni amalga oshirishga harakat qilgan bo'lsa-da, ammo uning ko'pchilik takliflari amaldorlar va hukmdorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Konfutsiyning asosiy e'tiborini tortgan narsa o'z zamonasining kamchiliklari va aybu nuqsonlari edi.

Oddiy xalqning nochorligi, amaldorlarning zolimligi, hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, qadimgi ma'naviy an'ana va qadriyatlardan uzoqlashish – bularning hammasi Konfutsiyning keskin tanqidiy qarashlarining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. U mavjud muammoni hal qilishda yangicha qarashlarga tayanish lozimligini anglab etdi. Biroq u o'z fikrlarining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi uchun hamma e'tirof qilgan obro'ga ega bo'lish kerak edi. Konfutsiy xuddi ana shu obro'ni uzoq o'tmishning yarim afsonaviy obrazlaridan topdi. Konfutsiy vafotidan bir necha asr o'tgach, uning ta'limoti xalq hayotining ajralmas bir qismiga aylandi.

**Konfutsiyning falsafiy qarashlari.** Konfutsiy komil inson (stzyun-stzi) haqidagi g'oyani yaratdi. Stzyun-IIzi, ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarzni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim. U buning uchun tinimsiz, o'zini ayamasdan o'z ishonchi, hukmdori, o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur.

Konfutsiychilikning ilk ko'rinishida axloq masalasi birinchi o'ringa qo'yilgan, diniy e'tiqod esa ikkinchi darajali sanalgan. Diniy masalalar, aqidalarga Konfutsiychilik ancha sovuqqon munosabatda bo'lgan, ba'zi o'rinlarda ularni inkor qilgan. Konfutsiy ham o'z vaqtida qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ruhlarga e'tiqod masalasiga shubhali munosabatda bo'lgan. «Lunyuy» (Konfutsiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi, Konfutsiychilikning asosiy manbasi)da keltirilishicha, Konfutsiy g'ayritabiiy narsalar va ruhlar to'g'risida gapirishni yoqtirmagan. Shuningdek, u taqdir, inson umri, o'lim haqida so'z yuritishdan qochgan. Undan: «O'lim nima?» – deb so'rganlarida, u: «Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o'lim nima ekanligini qaerdan bila olar edik», - deb javob bergan.

Biroq, qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlariga Konfutsiy hurmat bilan munosabatda bo'lgan.

Konfutsiyning yana bir ta'limoti – «Syao» bo'lib, u inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi g'oyani o'zida mujassam qilgan. Konfutsiy fikricha, inson uchun Syaodan muhimroq narsa yo'q. U: «Syao va Di (ukaning akaga, kichiklarning kattalarga hurmati) insoniylikning asosidir» degan. Syaoning asosiy ma'nosi nima, farzandlik xizmati qanday bo'lishi kerak, degan savolga Konfutsiy shunday javob bergan: «Aqlli va ota-onangni boqishga yaroqli bo'lishingdir. Chunonchi, odamlar uylarida itlar va otlarini ham boqadilar-ku? Agar ota-onalariga ortiq ehtirom ko'rsatmasalar, hayvonlarni boqishlaridan nima farqi qoladi?».

Syao ta'limotining «Li qonunlari»ga ko'ra, farzand ota-ona hayotlik chog'ida mutlaqo ularning ixtiyoridadir. To ular dunyodan o'tgunicha o'ziga-o'zi egalik qilishga haqli emas. Agar ota-ona vafot etsa, farzand qanday ish bilan mashg'ul bo'lishidan qat'i nazar, barcha ishni tashlab uch yil aza tutishi shart. Konfutsiychilikning Syao ta'limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy normalariga katta ta'sir o'tkazib keldi.

**Oila va nikoh tushunchasi.** Konfutsiychilik Xitoyda oila masalalariga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi. Konfutsiychilik ta'limotiga ko'ra, oila nikohdan, yoshlarning kelishuvi bilan boshlanmaydi. Balki, oila ehtiyojlari uchun nikoh amalga oshiriladi. Konfutsiychilar urf-odatlariga ko'ra, avlodlar o'z ajdodlari ruhi oldida qilishlari kerak bo'lgan barcha marosimlarni o'z o'rnida, muntazam ravishda bajarishlari lozim.

Xitoyda ilk Chjou va In davrlarida o'tganlar ruhlari tiriklar uchun madad bo'lishi kerak deb e'tiqod qilinsa, Konfutsiy ta'limoti buning aksini, ya'ni tiriklar o'tganlar oldida qarzdordirlar degan g'oyani ilgari surdi. Konfutsiy o'zidan oldin jamiyatda mavjud bo'lgan o'tganlar ruhlari haqidagi aqidalarni tamoman o'zgartirib yubordi.

Modomiki, tiriklarning asosiy vazifasi o'tganlarni rozi qilish, ularga xizmat qilish ekan, butun oila mana shu asosiy g'oyaga xizmat qiluvchi bir jihozni tashkil qiladi. Mana shuning uchun ham har bir oila boshliqlari o'z ajdodlari oldidagi qarzlarni ado etishlari uchun oila naslini davom ettirishlari kerak.

Konfutsiychilikning Xitoyda tarqalishi. Konfutsiy fikricha, dunyodan befarzand o'tish va o'zidan nasl qoldirmaslik nafaqat shu insonning yoki shu xonadonning, balki butun jamiyatning fojiasidir.

Konfutsiychilikning yoyilishi sekin kechdi. Konfutsiyning o'zi esa zamondoshlari tomonidan tan olinmay vafot etdi. Uning shogirdlariga ham oson bo'lmadi.

Garchi Konfutsiychilar o'z ta'limotlarini qadimgi Chjou aqidalariga bog'liq urf-odatlar, marosimlar, axloqiy me'yorlar asosiga qurgan bo'lsalar-da, ular mazkur aqidalar orasida o'z munosabatlari, qolaversa, har bir masala yuzasidan o'z xulosalarini ham berib bayon qilar edilar. Mana shu narsa Konfutsiychilikning muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo'ldi. Undan tashqari uning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan omillardan yana biri Konfutsiychilarning o'zlari foydalangan qadimgi kitoblar, she'rlar, risolalarni yig'ib o'quvchilariga o'rgatganliklaridir. Bu ishning asosiy qismi Konfutsiyning o'zi tomonidan bajarilgan edi. U turli podshohlklarda mavjud bo'lgan uch mingdan ortiq qadimiy qo'shiqlar, yozuvlarni jamlab, ularni qayta tahrir qilgan edi. Konfutsiy va uning shogirdlari tomonidan tahrir qilingan asarlar keyinchalik Konfutsiychilikning asosiy manbalariga aylandi.

Mil. av. IV-III asrlarga kelib Konfutsiy ta'limoti ancha keng tarqaldi va katta ta'sir doirasiga ega bo'ldi. Xan sulolasi davriga kelib (mil. av. III-II asrlar) Konfutsiychilik davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Xan podshohlari Konfutsiy ta'limotlarini to'liq qabul qilmagan bo'lsalar-da, uning kuchini, jamiyatda egallab ulgurgan mavqeini e'tirof qilgan holda undan davlat boshqaruvida foydalandilar.

Konfutsiy nomining ilohiylashtirilishi. Konfutsiy o'zi yashab ijod etgan joy – Tsuyfuda vafot etgandan keyin uning qabri yaqinida bir ibodatxona qurdilar. Ibodatxonaga Konfutsiyning shogirdlari va yaqinlari tomonidan uning barcha tabarruk narsalari va unga taalluqli ashyolar: yozgan asarlari, musiqa asboblari, ro'zg'or anjomlari, aravasi va boshqa narsalari keltirib qo'yildi. Vaqt o'tishi bilan faylasufning obro'si oshib, ta'limoti keng tarqalgani sari ushbu ibodatxona ham ziyoratgohga aylanib bordi. Stuyfu yaqinida Konfutsiy shogirdlari va izdoshlari makon tutgan kattagina qishloq barpo bo'ldi. Lu podshohligi hukmdorining o'zi Stuyfuga kelib Konfutsiy

ibodatxonasida uning xotirasiga qurbonlik qildi. Ibadatxonaning ahamiyati oshgani sayin uning er mulklari bilan boyidi. Bu joy oddiy mahalliy ibodatxona shaklidan Xan sulolasi davriga kelib butun mamlakat miqyosidagi muqaddas ziyoratgohga aylandi. Mil. av. 195 yilda birinchi Xan podshohi Lyu Ban shaxsan o'zi Konfutsiy ibodatxonasida unga atab «tay-lyao» (Xitoyda eng oliy qurbonlik – qo'y, xo'kiz va cho'chqa) uchlik qurbonligi keltiradi.

Mana shu asrdan boshlab Konfutsiy nomi Xitoyda ilohiylashtirildi va unga atab muntazam qoidalar asosida qurbonliklar qilinadigan bo'ldi.

Xan sulolasi davrida Konfutsiyga knyazlik unvoni berildi. X-XIII asrlarga kelib, Sun sulolasi davrida unga imperatorlik unvoni, otasiga esa knyazlik unvoni berildi. Keyinroq Yuan va Min sulolalari (XIII-XIV asrlar) davrida unga yana ham yuksakroq daraja – «Haqiqiy donishmand», «Millatlarning buyuk uctozi» unvonlari berildi.

Xitoyning deyarli barcha shaharlarida Konfutsiyga atab qurilgan ibodatxonalar paydo bo'ldi. Bunday ibodatxonalar soni mingga yaqin edi. Dastlabki paytda ibodatxonaning qurbonlik qilinadigan joyida oddiygina Konfutsiy nomi yozilgan lavha osilgan edi. Xitoyga buddizm kirib kelgach, lavha o'rnini endi Konfutsiyning haykali egalladi. Stuyfudagi ibodatxonadan boshqa hammasi bir xil shaklga ega edi. Unda Konfutsiy haykali yoniga 86 shogirdining nomi bitilgan lavha yoki haykallar qo'yilgan. Stuyfudagi ibodatxonada ularning soni ko'proq.

Faylasufga atab qilinadigan qurbonliklar va boshqa muhim marosimlar tartibga solingan. Har o'ning birinchi va 15-kunlarida ikki marta Konfutsiy haykali oldida odatiy qurbonliklar, yilda – bahorda va kuzda ikki marta alohida tantanali marosimlar o'tkazilar edi. Tantanaga kelgan imperator va ularning mulozimlari donishmand timsoli oldida turib, unga: «Sen buyuksan, ey mutlaq donishmand, sening fazilatlarining ko'p, ta'limoting beqiyos, o'tganlar orasida senga tengi yo'q!» – kabi hamdu sanolar bilan murojaat qilganlar.

Konfutsiy nomi o'rta asrlarga kelib Xitoyda ilohiylashtirildi. Uning timsoli podshohlar boshidagi tojlardan o'rin oldi.

**Sintoizm** Sintoizm dini qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (sinto – «xudolar yo'li»). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq, u Yaponiyada Xitoy ta'siridan xoli bir sharoitda paydo bo'lgan va rivojlangan. Yaponlar sintoizmning mohiyati va kelib chiqishini bir-biri bilan aralashtirmaslikka harakat qiladilar. Sintoizm ular uchun ham tarix, ham an'ana, ham butun hayot demakdir.

Sintoizm ta'limotiga ko'ra, mikado (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar(kama)ning vorisidir. Yaponlar kamani ajdodlar va qahramonlarning ruhlarini deb e'tiqod qiladilar. Xudojo'y yapon o'lgandan keyin o'zining ham o'sha kamalardan biri bo'lishiga ishonadi.

Sintoizm «Oliy ilohiyat» tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhiga va tabiatga sig'inishga o'rgatadi. Sintoizm umumiyl hayotiy rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar yo'q. Unda bir umumiy ma'naviy qoida – «Umumiy qonunlarga rioya qilgan holda tabiat qoidalariga mos harakat qil» g'oyasi mavjud. Yaponlar tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tabiatan bilganlar, shu tufayli, jamiyatdagi qoida va talablarga rioya qilish tabiiy. Agar shunday bo'lmaganda, ular o'rgatilmagan yovvoyi hayvonlardan ham pastroq darajada bo'lar edilar.

Sintoizm haqidagi ma'lumotlar «Kodziki» («qadimiy yozuvlar») va «Nixongi» («Yaponiya annallari») manbalarida uchraydi.

Kodziki – bu sintoizmning muqaddas kitobi. U har bir yaponning eng yaqin kitobidir, boshqacha aytganda, bu kitob Yaponiyani, yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi. Unda ikkita asosiy mazmun mujassam: qon-qabilaviy birlik va siyosiy hokimiyat g'oyasi.

Yapon yozuvlarida ta'kidlanishicha, olamda avval tartibsizlik (xaos) hukmronlik qilgan. Undan so'ng er osmondan ajralib chiqqan hamda ayol va erkak jinsi paydo bo'lgan. Ayol jinsi timsolida ayol xudo Izdanami, erkak jinsi timsolida uning eri Izdanagi yuzaga keldi. Ulardan ayol jinsidagi quyosh ilohiyati Amaterasu, erkak jinsidagi oy ilohiyati Tsukiyomi, shamol va suv ilohiyati Susanoo tug'ildi. Amaterasu g'alaba qilib osmonda qoldi, Susanoo esa erdagi Idzumo mamlakatiga quvildi. Susanooning o'g'li Okuninusi Idzumo hokimi bo'ldi. Amaterasu bu holatga

chidab tura olmay, Okuninusi hokimiyatini o'z nabirasi Ninigiga topshirishga majbur qildi. Ninigi osmondan tushib, Idzumo davlati rahbarligini qabul qildi. Unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa – ko'zgu (ilohiylik timsoli), qilich (qudrat timsoli) va yashma (sadoqat va fidoiylik timsoli) topshirildi. Ninigidan Dzimmutenno kelib chiqdi. Tinno unvoni «oliy hukmdor» ma'nosini anglatadi. Bu so'z boshqa tillarda imperator ma'nosini bildiradi. Dzimmutenno mikado – yapon imperatorlari sulolasining birinchi vakili, Yaponiyaning birinchi afsonaviy imperatori hisoblanadi. Ko'zgu, qilich, yashma o'sha qadim zamonlardan beri yapon imperatorlari xonadonining belgisi bo'lib qolgan.

Imperator-mikado yaponlar tasavvurida o'zining ilohiy kelib chiqishi sababli butun xalq bilan qon-qardosh bo'lib, u bir oiladan iborat millatning boshlig'idir. Hatto Yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan syogunlar ham o'zlarini mikado namoyandalari deb ataganlar. Sintoizm ta'limotida yoritilgan mikado g'oyasining boshqaruvchilik xususiyati hozirgi kunda kuchi anchagina zaiflashgan bo'lsa-da, yaponlar tasavvuridan o'chib ketmagan.

Hozirgi kundagi yaponlar tashqi ko'rinishdan bu ta'limotga bir oz e'tiborsiz ko'rinsalar-da, chin dildan unga ongli ravishda ehtirom bilan yondashadilar. Hozirgacha sintoizm ibodatxonalarida imperator oilasiga atab turli marosimlar o'tkazilib turadi.

Sintoizm yaponlarga mavjudot olami, tabiat bilan o'zaro munosabatlarga o'ziga xos qarashni singdirgan. Bu qarashlar besh tamoyilda namoyon bo'ladi.

Birinchi tamoyil mohiyatiga ko'ra, butun borliq dunyoning o'z-o'zicha rivojlanishi natijasidir. Dunyo o'z-o'zidan vujudga kelgan bo'lib, yaxshi va mukammaldir. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, olamni boshqaruvchi kuch xristian yoki musulmonlar e'tiqodidagidek qandaydir oliy mavjudotda emas, balki olamning o'zida mujassamdir.

Ikkinchi tamoyil hayot kuchini anglatadi. Hayotdagi har bir tabiiy holat hurmat qilinadi. Faqatgina «nopok» bo'lgan narsagina hurmat qilinmaydi. Biroq har qanday «nopok»lik tozalanishi mumkin. Shu bois sintoizm marosimlari insonda moslashishga moyillik uyg'otishga qaratilgan: yaponlar tozalab, isloh qilingan va yapon urf-odatlariga moslashtirilgan har qanday yangilikni qabul qiladilar.

Uchinchi tamoyil tabiat bilan tarixni yagona deb tushuntiradi. Sintoizm ta'limoti dunyoni jonli va jonsizga ajratmaydi. Unga e'tiqod qiluvchilar nazdida dunyodagi hayvonlar, o'simliklar, jismlar, umuman, tabiatdagi barcha narsalar tirikdir va inson vujudida kama ilohiyatlari yashaydilar. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, kamalar dunyosi odamlar dunyosidan boshqa dunyo emas, balki u odamlar bilan birikib ketgan. Shuning uchun inson najotni qandaydir boshqa dunyodan olmaydi, balki najotga kundalik hayotda kama bilan birlashib ketish natijasida erishadi.

To'rtinchi tamoyil ko'pxudolik tushunchasi bilan bog'liq. Sintoizm mahalliy tabiat, urug', qabila ilohiyatlariga bag'ishlangan marosimlardan kelib chiqqan. Sintoizmning ibtidoiy shamanizm va sehrgarlikka oid odatlari faqatgina V-VI asrlarda – imperator sinto ibodatxonalari faoliyatini o'z nazoratiga olgach, hozirgi ma'lum bo'lgan yagona shaklga kirgan. VIII asr boshlarida imperator saroyida sinto ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil etildi. X asrga kelib esa, sinto ilohiyatlarining ro'yxati tuzildi. O'shanda ularning soni 3132 ta edi, keyinchalik esa bu son yanada ortdi.

Beshinchi tamoyil milliy ruhiy asos bilan bog'liq. Bu tamoyilga ko'ra, sinto ilohiyatlari – kamalar barcha insonlarni emas, balki faqat yaponlarnigina yaratganlar. Shuning uchun ham yaponlar o'z farzandlariga yoshligidanoq «biz sintoga tegishlimiz» degan aqidani singdirib boradilar. Shu yo'l bilan axloq normalarini boshqarishning ikki muhim omili mavjud. Birinchidan, kama juda intim yo'l bilan faqat yapon millati bilan bog'liq ekanligini tasdiqlash; ikkinchidan, sintoizm nuqtai nazaradan agar chet ellik kishi sintoga e'tiqod qilib, kamaga ibodat qilsa, yapon bo'lmagan kishining bunday qilishi axloqsizlik sanaladi. Shuning bilan birga sintoizm yaponlarni boshqa dinlarga e'tiqod qilishlariga qarshilik qilmaydi: deyarli barcha yaponlar, sintoizm bilan bir qatorda, yana boshqa bir dinga e'tiqod qiladilar. Agar yaponlarni diniy e'tiqodiga ko'ra, guruhlarga ajratib, umumiy soni hisoblanadigan bo'lsa, ular soni mamlakat umumiy aholi sonidan ko'p chiqadi.

Sintoizmning o'ziga xos jihati shundaki, har bir ibodatxonaning o'z xudosi bo'lib, uning boshqa ibodatxonalarga hech qanday aloqasi yo'q.

Ibodot marosimlari. Oddiy yapon kishi uchun uning o'z ibodatxonasi, unda amalga oshiriladigan marosimlar, yilda bir marta bo'ladigan rangin bayramlar hayotining zaruriy qismi bo'lib qolgan. Uning ota-bobolari ham shunday yashaganlar, o'zi ham undan oshirmasdan shu tarzda yashaydi.

Ibodatxonalar uchun alohida o'ziga xoslik bilan birga ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud. Bu hukumatning din ishlarini tartibga solish va sintoizmni davlat diniga aylantirishga qaratilgan urinishlari natijasidir. Shunday urinishlarning biri 1868 yilda Meydzi qayta qurishidan keyin bo'lib o'tgan. O'shanda sintoizm ruhoniylarini o'qitadigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qilingan edi. Kannusi deb ataladigan bunday ruhoniylar lavozimi odatda meros sifatida uzatilar edi. 1946 yilda konstitutstiya yo'li bilan din davlatdan ajratildi.

Ibodatxonada turli amallar bajariladi. Dindorlar mehrob oldida turib, maxsus katakli qutiga biror tanga tashlaydilar, ta'zim qiladilar, bir necha chapak chalib va ibodat so'zlarini qaytaradilar. Ibodatxonada turli bayramlar ham uyushtiriladi.

Sintoizm bayramlari. Sintoizmning keng tarqalgan bayramlaridan biri Motsuridir. Bu bayram ba'zi ibodatxonalarda yilda bir marta, ba'zilarida esa ikki marta nishonlanadi. Ko'pincha bu bayram dehqonchilik ishlarining boshlanishi, hosil yig'ib olish, shuningdek, ibodatxona yoki mahalliy xudoga bag'ishlangan sana bilan bog'liq bo'ladi. Bayram ko'tarinki kayfiyatda o'tadi. Ruhoniylar bayram haqida faqatgina doimiy ibodatga keladigan kishilarni emas, barcha aholini xabardor qiladilar. Motsuri bayramida juda ko'p odam to'planib, ular katta tantanalar bilan o'yin-kulgu qiladilar. Ayrim ibodatxonalarda Motsuri rang-barang karnaval ko'rinishida o'tadi.

Xalq e'tiqodlari. Har bir ibodatxonada Sintay ilohiyati turadigan xonden (muqaddas joy) bor. Xondenning yonida xayden (ibodat qiluvchilar turadigan joy) bo'ladi. Ibodatxonalarda ilohiyatlar timsoli yo'q. Ammo ayrim ibodatxonalar sher, ba'zilar tulki, maymun yoki kiyik timsollari bilan bezatilgan. Bu hayvonlar muayyan ilohiyatlarning elchisi hisoblanadi. Bularning barchasi sintoizmning turli-tuman, o'ziga xos milliy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Xalq orasida tulki tabiatiga ega bo'lgan odamlarni sehrgar, folbin, bashoratchilik xususiyatiga ega deb hisoblaydilar. Ular tulki timsolidagi ilohiyatga sig'inadilar. qadimda yaponlar bo'riga ibodat qilganlar. Yaqin-yaqinlargacha ular bo'rini Akama tog'larining ruhi deb hisoblab kelganlar. Shuningdek, yaponlar toshbaqa, ilon, chuvalchang, baliq, ninachi, akula, qisqichbaqa kabi ko'plab turli hayvonlarni muqaddas hisoblab, ularning timsollarini yomon ruhlardan himoya qiluvchi, omad-baxt keltiruvchi narsalar sifatida uylari, ibodatxonalariga osib qo'yadilar. Yana ba'zi daraxt va gullarni, tog', buloq, tosh kabilarni ham ilohiylashtiradilar. Shunisi ham borki, ushbu urf-odatlar diniy e'tiqoddan ko'ra ko'proq xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yapon xalq e'tiqodlari juda xilma-xil. Ular bir shakldan ikkinchisiga o'tib hozirgacha yo'qolmay etib kelgan. Bu e'tiqodlar ham o'z navbatida, chetdan kirib kelgan turli dinlardan ta'sirida shakllangan.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Konfutsiylik nima asosida vujudga kelgan?
2. Konfutsiylik hozirgi Xitoyda qanday mavqega ega?
3. Konfutsiylik ta'limoti nimalardan iborat?
4. Konfutsiyning g'oyalari qaysi asarlarda ifodalangan?
5. Konfutsiy shaxsi qaysi davrdan ilohiylashtirila boshladi?
6. Daosizmning qanday asotirlarini bilasiz?
7. Daosizm axloq masalalari qanday o'rinni egallaydi?
8. Diniy marosimlar qanday tashkil etiladi?
9. Daosizm inqirozi nima bilan bog'liq?
10. Sintoizm qachon paydo bo'ldi?
11. Yaponiyada dinlarga e'tiqod qiluvchilarning soni aholi umumiy sonidan ko'p bo'lishiga sabab nima?

## 12. Sintoizmda ibodatlar qanday bajariladi?

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2010.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.
3. Karimov I.A. Oллоh qalbimizda yuragimizda. –T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Konfutsiy. Izrecheniya. M., 1994.
6. Kulakov A.E. Religii mira. M., 1996, B. 150-173.
7. Vasilev L.S. Istoriya religiy Vostoka. M., 1975.

### ZARDUSHTIYLIK

1. **Zardushtiylik dini vujudga kelishi va uning asoschisi. Zardushtiylik: ta'limoti va axloqi.** Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo'lib, bu din eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda dastavval O'rta Osiyoda-Xorazm vohasida paydo bo'lgan. Uning payg'ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdakiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi yakkaxudolik dinini ijod etgan.

Zardushtiylik - ilgari diniy tasavvurlar va ko'p xudolikka asoslangan diniy e'tiqodlarni takror Zardusht isloh qilishi oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiy din haqida bir-birini istisno etuvchi fikrlar hanuz davom etib keladi. Ko'p tadqiqotchilar Zardusht tarixiy shaxs bo'lib, milodgacha 589-512 yillarda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiyotshunos va shoir ekanini e'tirof etadilar. Bu haqiqatga yaqindir.

Zardushtiylik paydo bo'lgan vaqt quldorlik tuzumi endigina paydo bo'layotgan davr edi. U urug`-qabilach tuzumi emirilib aholi qullar va quldorlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ng Eron, Ozorbayjonda qaror topgan edi.

I.A.Karimov "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmokdamiz" degan asarida biz o'zbek xalqi mansub bo'lgan xalqning tarixi g'oyat uzun, beqiyos, betakror ekanini ta'kidlab, bunday degan edilar; "Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz xalqimiz ko'xna Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi".<sup>§</sup>

I.A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan asarida bu fikrni yanada kengaytirgan va terranlashtirib yana bunday degan edi: "Eng mo'ttabar, qadimgi qo'lezmamiz "Avesto" ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig`ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir"<sup>\*\*</sup>. Bu, ta'bir joiz bo'lsa shaklan diniy, mazmunan boshdan oyoq dunyoviy yozuvning qadr-qimmatini teran anglab, uning o'zbek yozma madaniyatining ilk sarchashmalaridan biri sifatida Xorazmda yaratilgan durdonaga yuksak baho berib, yana bunday deb ezgan edi muallif: "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi"<sup>††</sup>.

Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Bu o'rinda birinchi davlat tashkil topgandan keyingi "yozma tarix" nazarda tutilgan. Yunon, Xitoy tarixchi sayyohlari o'z xotiralarida yozib qoldirgan, keyin Zardushtiylik yozuvlarida berilgan tarixiy dalillar g'oyat o'rinli tarzda nazarda tutilgan.

Xorazmda o'troq hayot undan ham birmuncha oldin yuzaga kelgan. Davlat esa uning maxsuli tarzida tashkil topgan. Bu haqda bundan tahminan 3 ming yil avval yaratilgan "Avesto"ning qo'lyozmasi, binobarin, yozma tarixning ilk debochasi ishonchli dalolat bergan. Yuqorida qayd qilganimizdek, yurtboshimiz "Avesto" Xorazmda qadimiy o'lkada buyuk davlat, boy ma'naviyat, qimmatli madaniyat yodgorligi ekanligi hech kim inkor eta olmasligi ham ta'kidlagan.

<sup>§</sup> Каримов И.А. Ўз келажғимизни ўз қўлимиз билін қурмоқдамиз.-Т.: Ўзбекистон, 1999

<sup>\*\*</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., "Шарк." 1998.

<sup>††</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., "Шарк." 1998.



Zardushtning diniy islohotini tushunish uchun o'sha davr Turonnint ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va siyosiy vaziyatni e'tiborga olish kerak. Gap shundaki, Turon iqlimining kontinental, ya'ni nisbatan mo'tadilligi, geografik jihatdan ikki katta qit'a o'rtasida, Amu va Sir daryolari oralig'ida joylashgani sababli savdo-sotiqning kuchayishi bu mintaqada sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ertaroq vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Xuddi shu tarixiy davrda hunarmandchilik va ovchilik ham anchagina rivojlangan. Bu hududda yilqichilikning rivojlanishi, ayniqsa Farg'ona vodiysida qorabayir zotiga o'xshash otlar boqish keng ko'lam olgani ham ijtimoiy hayotda katta rol o'ynagan. Buning ustiga mis va qo'rg'oshin konlariga boy bo'lgan

Oltoyning yaqinligi bu erda temirchilik, misgarlik rivojiga asos bo'lgan.

Zardusht yashagan davrda o'troqlik hayoti afzalligini yaqqol namoyon bo'lgan. Ammo unga qabilalar o'rtasidagi qirg'inbarot urushlar raxna solayotgan edi. Urushlar ko'pincha har bir qabila va elatning o'z xudolariga ko'plab qurbonliklar qilish odatlari zaminida ham yuzaga kelardi. O'z davrining kohinlari, sexrgarlari va mo'tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardusht yuqoridagi odatlarni bartaraf etish va halkdarga tinch mehnat bilan shug'ullanish imkonini yaratish uchun ko'p xudolik e'tiqodlariga va otashparastlikka barham berib, yakkaxudolikka sig'inishni targ'ib etish deb bilgan va shu vazifani bajargan.

Shunday qilib, Zardushtiylik eradan avvalgi VII-VI asrlarga xos bo'lgan din sifatida undan oldingi urug`-qabilachilik dinlari negizida paydo bo'lgan yakka xudolik dini bo'lgan. U eramizning to VII-IX asrlargacha turli shaklda davom etib, so'ngra uning o'rmini islom egallagan. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, Yaqin va O'rta Sharqgacha tarqalib, ayrim asoratlari haligacha saqlanib kelmoqda.

**Avestoning muqaddas yozuvi.** Avesto faqat diniy manbagina emas, balki dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o'zi tarqalgan o'lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma'naviy qarashlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari xaqilagi manba hamdir. Unda bayon etilgan asosiy goyalar diniy e'tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht degan payg'ambar nomi bilan bog'langan. U "Avesto" ning eng qadimiy qismi "Gat" (xat nomi) ni ijod etgan. "Avesto" tarkibiga kirgan bilim, ma'lumotlar qariyb milloddan avval 3000-yillik oxirlari va 2000-yillik boshlaridan to milodning boshlarigacha o'tgan davrda yuzaga kelgan avloddan-avlodga og'zaki o'tib olingan, uning buqa terisiga yozilgan ko'p qismi yo'qolgan, ettidan bir qismi saqlangan. U miloddan avvalgi 3 asrda Ashrakiylar sulolasi davrida to'plangan.

Zardushtiylik dini ta'limotini quyidagi uch tarixiy qismga bo'lish mumkin;

1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3-ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug`chilik tuzumidagi e'tiqodlar, ko'p xudolik tasavvurlari tasvirlangan;

2. Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Axuramazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan;

3. Qadimiy ko'p xudolilik va keyingi yakka xudolik g'oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdakiylik dini shakllangan. "Avesto" bu dinning oxirgi va asosiy qismini bayon etgan.

Shoh Vishtasp farmoniga binoan "Zardusht 1200 bobdan iborat pandnomasi "Avesto"ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan" deb yozgandi Firdavsiy. Keyinchalik bu "Kitob" 12 ming buqa terisiga bitilgan, makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn Sharq o'lkalarining bir qismini zabt etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltib, kerakli joylarini tarjima qildirgan, kolganini yondirgan.

"Avesto" yuqorida aytilganidek, eng qadimiy yakka xudolikka asoslangan dinning birinchi muqaddas kitobigina bo'lib qolmay hozirgacha, e'tiborli tarixiy manba va madaniyat yodgorligi hisoblanadi. Unda dastlabki oddiy ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan diniy-mifologik tasavvurlar uyg'unlashib ketgan. Shu zaminda ma'naviy, jumladan axloqiy barkamol odam ezgulikni barqaror qila oladigan kurashchan, adolatparvar insonni shakllantirish g'oyasi markaziy o'rinni egallagan. "Avesto"da tabiiy bilimlar - agronomiya, meteorologiya, zootexnika, medistina, falakiyot, astronomiya, geografiyaga doir bilimlar ham mavjud.

Zardushtning diniy islohoti bo'sh joyda yuzaga kelgan emas. G'arbiy Evropa va rus tadqiqotchilarning fikricha, milodgacha bo'lgan 3-2 ming yilliklarda Markaziy Osiyoda oriy deb atalgan qabila yashagan. A.P.Primakning aytishicha, oriylar ko'chmanchi chorvadorlar bo'lishgan.

Ularda yozuv bo'lmagan, ammo hayratomuz og'zaki ijod iste'dodiga ega bo'lib, ular yaratgan o'ziga xos ashula, gimn, pand-nasihat shaklidagi qo'shiqlar avloddan avlodga o'tib borgan. Umuman Sharqda qadimdan inson ichki olamini munavvar etish, niyat bilan amal mushtarakligiga jiddiy ahamiyat berish diniy va falsafiy fikrlarning markazida turgan. Angliyadagi Oksford universitetining professori Maks Myuller Pomir atrofida yashagan Oriy qabilalarining bir kismi bundan 3,5 ming yil muqaddam Hindistonga, bir qismi Evropa va Eronga ko'chib ketganini ta'kidlagan. Ular albatta o'zlari bilan birga shu erdagi osori-atiqalarni (mifologiya) ham olib ketishgan, deb hisoblagan. Demak, Evropa va Hindistonga hamda Yaqin va O'rta Sharqqa tarqalgan ko'p xudolik asoslari avvalo Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Shu bilan birga Zardusht asos solgan yakka xudolik dini ham boshqa joyda yashayotgan xalqlar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Zardushtiylikning muqaddas yozuvlar to'plami "Avesto" mintaqada Iskandar asos solgan hokimiyat tugagach, eramizgacha bo'lgan 250-yillarda arshohiyalar sulolasi hukmronligi davrida yana tiklana boshlagan; u yangi matnlar bilan to'ldirilgan. Sosoniylar sulolasi hokimiyati davrida (milodning III-VII asrlari) Zardushtiylik davlat dini maqomini olgach, bu ish nihoyasiga etkazilgan. Ya'ni «Kichik Avesto» ham yozam tus olgan. "Avesto"ning uchta kitobi (bobi) qadimgi turon tilida va bittasi paxlaviy tilida tiklangan. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra «Avesto» Yasna, Yasht, Visparad, Kichik Avesto qismlaridan iboratdir.<sup>††</sup> Uning birinchi kitobi "Vadavdot", ya'ni devlarga karshi qonun, deb atalgan. "Yosin" va "Visparad"ni qo'shgan holda "Vadavdot-Sade" nomi bilan yuritilgan. "Vadavdot"ni poklanish qonun-qoidalari majmuasi deyish ham mumkin. "Avesto"ning ikkinchi "Yosin" kitobi bo'lib, Zardusht Xat (noma)lari uning asosiy mazmunini tashkil etgan. U 72 "ha"-bashoratdan iborat bo'lib, birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Oxuramazdaning vahiyolari haqligiga imon keltirishga doir duolar bor. 19- bashoratda olam yuzaga kelmasdan ilgari mavjud bo'lgan xudolar sha'niga shukronalar bayon etilgan.

Iymon kalimasi, poklanish (yuvinish gegienasi), yovuzlikni la'natlayotgan paytda tanani qanday maromda tutish, dev, iblisni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig' bo'lish, kechirim so'rashga doir duolar mavjud. Gunoxdan forig' bo'lish, iymonni saqlab qolish uchun masalan, mana bunday duolar o'kish tavsiya etilgan; "Ey olamning hukmdori Oxuramazda! Men barcha gunohlarimga iqorman, ularni takrorlamaslik uchun senga so'z beraman; men har qanday yomon niyat (fikir)lardan, har qanday yomon amallardan voz kechaman; so'zlarim va amaliy ishlarim orqali bundan buyon ishonchingni oqlayman; gunohlarimni keng karaming ila kechirgan, u dunyoyu bu dunyoyimni munavvar ettil, ey parvardigorim"!

Yosinlarning 7-bobida Zardusht orqali xabar berilgan bashoratlar o'z ifodasini topgan. Zardusht Oxuramazdadan o'z ahloqiy qonun-qoidalarini ma'lum etishni so'ragan. U bunga javoban butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi- ezgulik va yovuzlik haqida vahiy qilgan. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu boshlang'ich kuchlar har doim birgalikda mavjud bo'lib, ular hayot va o'lim, osmon va jahannam ma'nolarini anglatgan. Jahannam Oxuramazda vahiyida "hayotning eng yomon onlari", osmon esa ruh eng yuksak holati sifatida gavdalantirilgan. Olamdagi yovuzlik va notakomillik narsa, hodisalar va ularning mohiyatidan keltirib chiqarilgan. Ularni bartaraf etish esa istiqboldagi ish bo'lib, iymonli kishilar bu jarayonda eng katta faollik ko'rsatishga da'vat etilganlar. Ular Oxuramazda yuborgan qonunlar, o'git-nasihatlariga amal qilsalar, ezgulik yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi deb qisoblaganlar.

Olam qarama-karshiliklar kurashi asosiga qurilgan. Tirik tabiatda hayot va o'lim, ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda u o'z ifodasini topgan. Diniy soha esa ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik ruhiga, ezgulik ruhi o'rtasidagi kurashga asoslangan. Oxuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Ahriman unga qarshi tarzda odamlarni yomon ishlarga boshlayveradi deb hisoblangan. 30-bashoratda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashda oraliq yo'l yo'q, binobarin, har bir odam bu jarayonning yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur, deyilgan. Shuning uchun dindorlikda iymon-e'tiqod barkamollik nishonasi sifatida muhim bo'lib, u

<sup>††</sup> Қаралсин: Авесто». Тарихий адабий ёдгорлик. Аскар Махкам таржимаси-Шарк, 2001. -Т.: 369 б.

odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini bergan deb faraz qilganlar. Iymon-e'tiqodli odam albatta ezgulik tarafida turadi deb ta'kidlangan, yovuz ruhlar - dev, pari, iblis va boshqalar esa gunohlar, adashishlar, yolg'onlar, kasalliklar timsoli sifatida tasvirlanib, Oxuramazdaning ulardan saqlanishga qaratilgan da'vatlari yozilgan. Yosinning birinchi bashoratida xudo-"Men ezgu fikr (niyat)larni, ezgu so'zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mazdayosin qonunlariga asoslangan targ'ibotlarni ulug'layman, deb yozgan. Demak, zardushtiylik iymoni quyidagi 3 tayanchga asoslangan: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi Oxuramazda odamlarni o'z istaklarida xolis bo'lib, bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, kalondimog', dimog'dorlik, shuxratparastlik, qonunbuzarlik kabi illatlardan o'zlarini tiyib yurishga chaqirgan.

Oxuramazda bergan pand-nasihatga binoan, "Bergan so'zining ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomaga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish iymonlilik alomatlaridir". Uning fikricha, iymonli odam o'g'rilik va talonchilikdan, begonalarning mol-dunyosiga ko'z olaytirishdan, o'z-o'ziga xiyonat qilishdan, ya'ni imoniga xilof ish qilishdan o'zini saqlay biladigan komil insondir. "Tanalaringizga nisbatan, degan u, qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring", ya'ni avval ma'naviy dunyoyingiz musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi.

Bashoratlardagi Odam Ato haqidagi rivoyatlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bularda Iyim nomi bilan birinchi odam va uning faoliyati haqidagi gaplar yozilgan. Masalan u, Oxuramazda irodasiga muvofiq, odamlarni, hayvonlarni va qushlarni parvarishlagan. Er yuzida qizil shu'lali olovni ko'paytiradi va shu tarzda 300 yil yashagan. Oxuramazda unga oltin nayza bilan oltin qamchi hadya etgan. Er odamlar yashashi uchun torlik qilib kolganda, Iyim nayzani erga suqib, xudodan uni kengaytirishni iltijo qilgan va bunga erishgan. Oxuramazda Odam Atoga muzlamachilik ofati kelayotganidan xabar bergan, bu ofatning oldini olib qolish kerakligini aytgan. Iyim maxsus uy kurib, mavjud xamma xayvon va o'simliklarning eng yaxshi zoti va navidan bir juftan saqlagan; natijada dunyoda tirik tabiatni ofatlardan saqlab qolingan. Biroq Iyim o'z ishiga ortiqcha baho berib, mag'rurlanib ketgan va xudo taqiqlagan ne'mat- yirik shohli hayvon go'shtidan tanovul qilib qo'ygan. Oqibatda u xudoning kahriga uchrab, abadiylikdan maxrum bo'lib qolgan. Odamzod hayotining bu birinchi bosqichidan so'ng, ikkinchisi boshlanar ekan. Bu davr Zardusht faoliyati va uning diniy islohoti bilan bog'liq bo'lib, u din va iymon uchun beomon kurashlardan iboratdir. 3000 yillik kurashlardan so'ng Zardushtning farzandi boshchiligida dunyoda osoyishtalik va farovonlik davri yuzaga kelar ekan. Yovuzlik kuchlari timsoli bo'lgan dev - Axriman engilar ekan. 3-davrda qiyomat-qoyim boshlanar va o'liklar tirilib, xudo huzuriga o'z qilmishlari haqida hisob bergani borishar ekan. Hamma ishlardan voqif bo'lgan va hisob-kitob qilib borgan xudoni aldab bo'lmas ekan. Zardushtiylik e'tiqodicha, odam o'lgandan so'ng uning joni uch kun davomida tanada turar ekan; to'rtinchi kunda o'z mahrami - farishtasi yo'l boshchiligida narigi dunyodagi "Chinvot" degan ko'prikdan o'tishi kerak. Ezgu ishlar qilgan odamlar uchun bu ko'prik kengaygan holda turadi. Ular undan bemalol o'tib, umrlari abadiy rohat-farog'atda o'tadi. Oxiratda o'liklar tiriladigan kunda o'z tanalariga kirib yotadi. Yovuz ishlar bilan shug'ullanganlar uchun "Chinvot" qilday torayar va ular jahannam azoblariga mahkum bo'lar ekanlar.

Yoshlar va yosinlar 3 qatlamdan iborat: Birinchisi xalq dostonlarining Zardushtgacha bo'lgan qo'shiqlari (she'rlari); ikkinchisi Zardusht Xat (noma) lari va uchinchi Zardusht halok bo'lgandan keyin kitob holiga keltirilgan va Kichik Avesto nomi bilan yuritiladigan qismidir. Demak, "Avesto" ning ilk va kichik (keyingi) qismlaridan uning asosiy qismi Zardusht Nomalarini farqlash lozim. Bu Nomalar ko'p xudolikni, o'tga va tabiatning stixiyali kuchlariga sig'inishni qoralab, yakka xudolikka e'tiqod qilishni talab etgan. Hozirgacha bo'lgan ilmiy adabiyotlardagi farqlar ko'proq "Kichik Avesto" ga asoslanib bildirilgan. Bunda yakka xudolik g'oyalari ko'p xudolilik e'tiqodlari bilan qorishib ketgani uchun tadqiqotchilar zardushtiylik ko'p xudolik yoki ikki xudo dini sifatida talqin etadilar. Bunday qarashlar zardushtiylikning uchinchi yo'nalishi – ko'p xudolilik bilan yakka xudolilik qorishmasidan iborat mazdaizm bilan aralashtirish oqibatidir.

Zardushtgacha bo'lgan Oxura, Mitra, Mazda, Onaxit va boshqa xudolar haqida har xil fikrlar bo'lgan. Ammo ular odamlardek hayot kechirgan bo'lsalar, Zardusht talqinida Oxuramazda Oliy

ibtido bo'lib, uning na xotini, na bolalari bor. U hamma mavjudotlarni yaratuvchi va boshqaruvchi sifatida, ezgulikni barqaror qiluvchi, odamlar qalbini munavvar etuvchi Oliy ruh sifatida namoyon bo'ladi.

Eron shoxdari o'z impernyalarini barqaror qilishda zardushtiylikning o'rni va roliga to'g'ri baho berganlar. Biroq, bu dindagi o'rtahol dehqonchilik, mo'tadil, kamtarona hayotdan iborat turmush tarzini ilohiylashtirib, quldorlik munosabatlarini qoralash ularga yoqmaydi. Shuning uchun Eron shoxlari zardushtiylikni Zardusht payg'ambargacha bo'lgan va Yakin Sharqda ham keng tarqalgan ko'p xudolilik g'oyalari bilan aralashtiradilar. Zardusht o'rniga o'zlarini xudo vahiylarini odamlarga etkazib turuvchi payg'ambar o'rniga ko'yadilar. "Kichik Avesto"da Oxuramazda olamni yaratuvchi va tartib o'rnatuvchilikdan ko'ra ko'proq qabilaviy xudolarni boshqaruvchi Bosh xudoga aylantirib qo'ygan. Ahamoniylar Grestiyani bosib olish uchun olib borgan urushlari (bunda Markaziy Osiyodagi turk jangchilari katta rol o'ynagani uchun Iskandar Zulqarnayn ulardan qasos oladi) hamda greklarning Eron va Turonni ishg'ol etishi oqibatida Oxuramazda qadimgi Grestiyada bosh xudo Zevs, Aflotun (Platon) sifatida talqin etila boshlaganiga tadqiqotchilar e'tiborni qaratadilar. Ahamoniylar zardushtiylikni o'z e'tiqodlariga bo'ysundirgan bo'lsalar, Iskandar bu dinni butunlay yo'q qilish uchun unga oid yozuvlarni yondirib yuborgan.

Zardushtiylikning asosiy g'oyalari olamdagi barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidaga kurashga bog'liq. Dunyodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Ahriman ifodalaydi. Bu kurashda odam asosiy kuch va rolini o'ynaydi. U tanlash erkinligiga ega. U o'z g'ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta'sir eta oladigan kishidir. Demak, hozir ham kimki, o'zining irodasi, akl-zakovatiga ishonib, uni ishga solsa, o'ziga biror kasbni tanlab olsa, g'ayratli bo'lsa, adolatsizlikka duch kelsa, unga qarshi kurashsa aslo kam bo'lmaydi, adolatning tantanasiga erishadi.

Zardushtiylikning hozirgi davr kishilari, jumladan talabalar uchun ahamiyati shundaki, unda odamlar doim pokiza yurishga, badanni toza tutishga, yomon kirdikorlar qilmaslikka, har qanday yovuz niyat va haqoratli, asabbuzar so'zlarni aytmasslikka, oila tuzish va uni saqlashga, ota-ona va farzandlarga g'amxo'r bo'lishga, shaxsiy hayotda mo'tadil bo'lishga, ya'ni har bir xatti-harakatlarni buzmaslikka da'vat etuvchi qoida, nasihat, o'gitlar bayon etilgan.

"Avesto" ning muqaddas kitoblarida qadimgi dunyo falsafasining 4 asoslari (substanstiyasi) - tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilgan. Tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shilgan. Hatto marhumlarning murdalari erni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularning jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Oxuramazda "erga yaxshi, mustahkam urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q", degan. Xudoning bu aytganiga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni qurbonlikka so'yishdan afzal qisoblangan. Ekin ekish erdagi yovuzlikka barham berish, hisoblangan. "Odam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, -deyilgan bashoratlarda, - kimki erga urug' qadabdi, u odamiylikka iymon keltiradi, shu yulgina yagona haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir. Zardushtiylikning vazmin, musiqa bilan uyg'unlashib ketgan dono o'gitlari ona zaminga, dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilikka va Vatanga, xalqqa ulug' muhabbat ruhi bilan uyg'unlashib ketgan. Bu hol unda diniy mazmunga qaraganda dunyoviy elementlar ko'p bo'lganidan dalolat beradi.

Zardushtiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro'z, Mehrjon bayramlari tantanalarida bu ruh ayniqsa ulkan qudrat bilan namoyon bo'lgan. Boychechakning chiqishi, lolaqizg'aldoqning ochilishi, bodomning gullashi, umuman bahor bilan birga tabiatning go'zallashib borishi ezgulik ruhining tantanasi bo'lib, ularning har biri katta shodiyonalikka sabab bo'lgan. Odamlar tabiatning bu go'zalliklarini muqaddas bilib, ularni xalq bayramlari va sayillariga aylantirib yuborganlar.

"Avesto" ning Gat qismida odamlar halol mehnat qilishga o'z qo'li hunari bilan moddiy ne'matni yaratishga, boqimanda, tekinxo'r bo'lmaslikka, bularga yo'l qo'ymay vijdonan yashashga da'vat etilgan. Bu da'vatlarning hozir barcha kishilar, ayniqsa talabalar uchun ham foydasi katta.

Zardushtiylikda diniy dasturlar haqidagi g'oyalar bilan birga real, dunyoviy, hozir ham foydali nasihat, tavsiya, cheklash, ta'kidlash, rag'batlantirishga doir o'git va da'vatlar ko'p bo'lgan. Ulardan hozirgi mustaqilligimiz davrida ham foydalanish mumkin.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Dinning kelib chiqqi, mavjudligi sabablari, funkstiyalari haqida qanday qarashlar mavjud?
2. Qanday milliy dinlarni bilasiz?
3. Zardushtiylik qaerda shakllangan va uning asosiy g`oyalari nima?
4. Zardushtiylikning ma'naviy-axloqiy ta'limoti haqida nima bilasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda.-T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karmov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998.
3. Mustaqillik izohli lug'ati.-T.: «Fan», 1998, 53-54, 74-75, 155-157 betlar.
4. Tokarev S.A. Rannie formi religii.-M.: Politizdat, 1990.
5. Taylor E.B. Pervobgggnaya kultura.-M.: Politizdat, 1989.
6. "Avesto" tarixiy-adabiy yodgorlik. T.: Sharq, 2001.
7. Boys M., Zoroastriy: verovaniya i obychey. Izdenie 2-e Sank-Peterburg, 1998.

### **3-mavzu: Buddaviylik**

#### **Reja:**

1. Buddaviylik ta'limotining vujudga kelishi
2. Buddaviylikdagi asosiy yo'nalishlar
3. Buddaviylikning O'rta Osiyoga kirib kelishi.

#### **Tayanch so'zlar**

*Budda, nurlangan, uch savat, mxayana, xnayana, kushon podsholigi, tripitaka, bodha.*

**Buddaviylik ta'limotining vujudga kelishi.** Buddizm – dunyodagi eng yirik dinlar ichida qadimiylaridan biri hisoblanib, mil. av. VI-V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tailand, Laosda va qisman Evropa va Amerika qit'alarida, Rossiya Federastiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikiya respublikalarida istiqomat qiladilar.

Hozirgi kunda e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan buddizm xristianlik, islom va hinduizmdan so'ng to'rtinchi o'rinni egallaydi. Buddistlarning soni taxminan 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir.

Buddizm bundan 2500 yildan avvalroq Hindistonda diniy-falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab diniy manbalar va diniy yo'nalishlar mavjud.

Buddizm turli milliy va diniy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng qabul qilindi. Buddizm hayotning barcha sohalari: diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlariga kirib bordi.

Buddizmi din yoki falsafa, ideologiya yoki madaniyat qoidalari to'plami yoxud hayot tarzi deb baholash mumkin.

Ayni kunda bu dinga e'tiqod qilib kelayotgan Sharq mamlakatlaridagi buddizm ta'limotini o'rganish u erdagi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy madaniyatni tushunishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu davlatlarda ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar nazarida buddizmning qoida va an'analari markaziy hukumat qonunlaridan ko'ra usunroqdir, tabiiyki, buning zamirida uning potentsial kuchi yotadi.

**Buddizm asoschisining shaxsi.** Buddizm tarixi tadqiqotchilar mavjud manbalar asosida bu oqim asoschisi real tarixiy shaxs ekanligini ta'kidlaydilar. Bu ta'limot to'g'risida xabar beruvchi adabiyotlarda u Siddxartxa, Gautama (Gotama), Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etiladi. Bu ismlar ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa – shaxsiy ism, Gautama – urug` nomi, Shakyamuni – «Shakya qabilasidan chiqqan donishmand», Budda – «nurlangan»,

Tadxagata – «shunday qilib, shunday ketgan», Djina – «g`olib», Bxagavan – «tantana qiluvchi». Ular ichida eng mashhuri «Budda» bo`lib, shundan ushbu dinga buddizm nomi berilgan.

Bizgacha Buddaning bir necha biografiyalari etib kelgan: «Maxavostu» – milodning II asrida yozilgan, «Lalitavistara» – milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, «Buddxacharita» – buddist faylasuflardan biri Ashvagxosha tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan, «Nidanakatxa» – milodning I asrida yozilgan va «Abnixishkramansutra».

Mazkur biografiyalarda Buddaning qaysi yillarda yashaganligi turlicha berilgan. Ularda mil. av. IX-III asrlar oralig`idagi har xil muddatlar ko`rsatiladi. Rasmiy hisobga ko`ra, Goutama-Budda mil. av. 623 yilda tug`ilib, 544 yilda vafot etgan. Biroq ko`pchilik tadqiqotchilar uning tug`ilishi mil. av. 564 yilda, o`limi esa 483 yilda deb hisoblaydilar. Ba`zan 560 va 480 deb yaxlit sonlar bilan ko`rsatadilar. Aytish joizki, yuqorida zikr qilingan biografiyalarda Buddaning haqiqiy hayoti bilan uning haqidagi afsonalar o`zaro qorishib ketgan.

Siddxartxa Shakya qabilasining podshohlaridan biri Shuddxodananing o`g`li edi. Uning saroyi Ximolay tog`lari etagida Kapilavasti degan shaharda bo`lgan (hozirgi Nepal hududida). Onasi – malika Mayya. Podshoh o`g`lini orzu-havaslar og`ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxartxa ulg`ayib qo`shni hukmdorlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o`g`il ko`rib, unga Raxula deb ism qo`yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko`rmay o`sgan bola Siddxartxa bir kuni ittifoqo bir keksa chol, bir bemor hamda og`ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi, bir kishining esa vafotiga guvoh bo`ladi. Bundan qattiq ta`sirlagan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo`llarini izlash uchun saroyini tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohib bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Shu asnoda Siddxartxa bir narsaga amin bo`ldi: bu yo`l uni o`z oldiga qo`ygan maqsad, ya`ni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormaydi va u rohiblar jamoasidan ajraladi.

Birmuncha vaqt changalzor o`rmonlarda kezib, xorib charchagach, bir daraxtning tagida dam olish uchun o`tiradi, va o`zicha, to haqiqatni topmaguncha shu erdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o`tirishning 49 kuni uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Shu paytda uning ko`z oldida butun borliq namoyon bo`ladi. U hamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko`radi: hech bir joyda osudalik yo`q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko`zlab o`tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch. Trishna – yashash, mavjud bo`lish umidi barchaning tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Budda – nurlangan deb ataldi. U tagida o`tirgan daraxt esa – nurlangan daraxt (botxa) deb atala boshladi.

Budda o`zining birinchi da`vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog`ida, o`zining besh rohib do`stariga qildi va ular Buddaning birinchi shogirdlari bo`ldilar.

Shu kundan boshlab Budda o`z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib, o`ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil mobaynida Hindistonning turli joylarida bo`ladi, odamlarga o`z g`oyalarini etkazadi, singdiradi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o`tadi. Uning jasadi, hind udumiga ko`ra, kuydirilib, xoki 8 ta buddist jamoalariga bo`lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona (supa) barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli asotirlar paydo bo`ldi. Ularda aytilishicha, Budda ko`p yillar davomida er yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug`ilgan: 84 marta ruhoni, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g`oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida qayta tug`ilgan. Jami 550 marta qayta tug`ilgan. U doimo qaerda, qay qiyofada tug`ilishini o`ziga o`zi belgilagan.

So`nggi marta uni xudolar insoniyatni to`g`ri yo`lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba`zilariga ko`ra, er yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o`tgan. Shuning uchun buddizmning ba`zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Bodxa daraxti o`tkazilgan. Ba`zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o`tgan desa, ba`zilar minglab buddalar o`tgan deb da`vo qiladi.

**Buddizm ta`limoti.** Buddizm qadimiy hind diniy-falsafiy ta`limotlari asosida vujudga kelgan, o`ziga xos nazariyot va amaliyotdan iborat bo`lgan diniy tizimdir. Budda yangi diniy qonun-

qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan, balki har bir inson tug`ilish va o`lim mashaqqatlaridan qutilishi uchun amal qilishi lozim bo`lgan bir necha ko`rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta`limoti insonning xayolida, ishlarida va o`zini tutishida samimiy oliyjanoblik g`oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta`limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurbon qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda «Yaratuvchi oliy kuch»ning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir.

Budda ta`limotining asosida «hayot – bu azob, uqubat» va «najot yo`li mavjud» degan g`oyalar yotadi. Buddizm ta`limotiga ko`ra, inson o`ziga xos mavjudot bo`lib, tug`iladi, o`zini o`zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g`oyalar Buddaning ilk da`vatida ta`birlangan to`rt haqiqatda o`z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat – «azob-uqubat mavjuddir». Har bir tirik jon uni boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday dunyoviy hayot – qiynoq, azob-uqubatdir.

Tug`ilish – qiynoq, kasallik – azob, o`lim – kulfat, qiyinchilikka duch kelish – mashaqqat, ayriliq – ezilish, orzu-havasga etolmaslik – uqubat. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog`liqlik. Hech bir narsa ma`lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddizm dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddizm ta`limotiga ko`ra, har qanday narsa yoki hodisa u xoh moddiy, xoh ma`naviy bo`lsin, dharmalardan tashkil topgan. Ular, o`z xususiyatiga ko`ra, harakatsiz bo`lib, dharmalarni qo`zg`atuvchi kuch insonning xayol va so`zlaridir. Ob`ektiv haqiqat bu doimiy ravishda o`zgarib turuvchi dharmalar oqimidir. Harakatdagi dharmalar o`z mavjudligining besh shakli – tana, sezgi, his-tuyg`u, harakat, anglashni yaratadi. Mazkur besh shakl insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi, borliq bilan aloqada bo`ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Besh elementning o`zaro mavjudligi insonning o`limi bilan barham topadi. Insonni tashkil qiluvchi besh shakl (skandx) o`z navbatida qayta tug`iladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo`luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va norma. Bu jarayon «hayot g`ildiragi»ni tashkil qiladi. «Hayot g`ildiragi»da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo`ladi.

Ikkinchi haqiqat – «qiynoqlarning sabablari mavjuddir». Inson moddiy narsalar yoki ma`naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo`lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug`ilish, qaytadan qiynoqlarga duchor bo`lish davom etadi. Aksariyat buddistlar fikricha, Buddadan keyin hech kim nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat – «qiynoqlarni tugatish mumkin». Yaxshi yoki yomon niyatlardan, intilishlardan butunlay uzilish nirvana holatiga olib boradi. Bu holatda inson qayta tug`ilishdan to`xtaydi. Buddistlar fikricha, nirvana holati, «hayot g`ildiragidan» tashqariga chiqish, «men» degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg`ularini to`la tugatishdir.

To`rtinchi haqiqat – «qiynoqlardan qutilish yo`li mavjuddir». Bu yo`l sakkizta narsaga amal qilish, to`g`ri tushunish, to`g`ri harakat qilish, to`g`ri muomalada bo`lish, fikrni to`g`ri jamlashdir. Bu yo`ldan borgan inson Budda yo`lini tutadi.

Buddizm ta`limoti, asosan, uch qismdan iborat: 1) axloq; 2) meditatiya; 3) donolik.

**1. Axloq normalari** – «Pancha shila» (Buddaning besh nasihati):

- qotillikdan saqlanish;
- o`g`rilikdan saqlanish;
- gumrohlikdan saqlanish;
- yolg`on, qalbaki narsalardan saqlanish;
- mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

**2. Meditatiya.**

to`g`ri tushunish (to`g`ri e`tiqod qilish) – Buddaning birinchi da`vatida so`z yuritilgan to`rt haqiqatni bilish va unga ishonish;

to'g'ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo'lishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar etkazib qo'yishdan saqlanishga intilish;

o'zini to'g'ri tutish – o'ziniki bo'lmagan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;

to'g'ri anglash – o'z tanasi va ruhiga o'zini yo'qotib qo'ymaydigan darajada nazoratda bo'lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo'yish;

to'g'ri harakat qilish – o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va harakatlarni rivojlantirish;

to'g'ri hayot kechirish – noma'qul hayot tarzidan saqlanish;

to'g'ri fikr yuritish – kamolotning to'rt bosqichini ketma-ket bosib o'tish;

to'g'ri gapirish – yolg'ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

**3. Donishmandlik** – bu buddizmning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan uch amaliyot bosqichini o'tagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, ya'ni nirvana holatiga erishadi. Nirvana so'zining lug'aviy ma'nosi – «o'chish, so'nish». Unda hayotning har qanday ko'rinishiga intilish yo'qoladi.

**Tarqalishi.** Ushbu ta'limotning yoyilishida buddist jamoalarning (sangxa) roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi bo'lgan to'qqiz oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, aholini bu dinga da'vat qilib yurganlar. Faqatgina musson yomg'irlari tinmay quygan uch oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib meditasiya bilan shug'ullanganlar.

Mil. av. 273-232 yillarda hukmronlik qilgan imperator Ashoka davrida buddizm keng hududlarga jadal tarqaldi. U buddist monaxlarga (rohiblar), ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik bildirardi. Buddist missionerlari o'z prinstitplarida mahkam turib, yumshoqlik va kelishuvchanlik bilan harakat qildilar.

Buddizm jamoalari begona din, madaniyat va urf-odatlar ustun bo'lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o'zlarini saqlab qolish, fursat kelganda, ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlari davrida, Shri Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya Konfutsiychilari davrida mazkur hududlarga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Buddizm milodning I asrida Xitoy, IV asrda – Koreya, VI asrda – Yaponiya, VII asrda – Tibet, XIII-XIV asrlarda – Mongoliya, XVII-XVIII asrlarda – Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda esa Amerika va Evropa qit'alariga kirib borgan.

Buddizm boshqa xudolarga sig'inishni taqiqlamaydi. Budda, ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berishi mumkin, biroq ular nirvana holatiga olib bormaydi, deb ta'lim bergan. Shu sababli, buddizm ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan ilohiyatlari yoki ulug'langan shaxslari timsollari ibodatxonalarni egallagan.

Masalan, Hindistonning buddizmga mansub ilohiyatlari dunyoni yaratuvchi Braxma, chaqmoq va momoqaldiraq xudosi Indra, hunarmandchilar homiysi Xatimanu, Tibetda qahramon Baser timsoli, Mongoliyada Chingizxon kabi milliy qahramonlar buddizm ilohiyatlari timsoliga aylandi. Biroq, bu ilohiyotlar nirvana holatiga olib bormaydi. Faqatgina Budda nirvanaga boshlay oladi va shu yo'sinda insonni azoblardan xalos etadi.

**Manbalari.** Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka – «uch savat» ma'nosini anglatadi). U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular – Budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari – Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddizmga oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning ilk buddizm tarixi uchun ahamiyati ozroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan.



**Xitoyga kirib kelishi.** Buddizmning Maxayana yo'nalishi Xitoyga I asrda kirib kelgan. III-IV asrlarda buddizm Xitoy hududida keng tarqaldi. Bu vaqtda poytaxt yaqinidagi Loyana hamda Chanani kabi shaharlarda 180 ga yaqin buddizm ibodatxonalari hamda diniy markazlari faoliyat yuritgan.

Maxayananing shakllanishida Kushon davlatining ham roli katta bo'ldi. Aynan Kushon davlatidan, ayniqsa, Kanishkaning to'rt qurultoyidan so'ng buddizmning Maxayana yo'nalishi Markaziy Osiyo davlat va shaharlariga tarqala boshladi. Buyuk ipak yo'li orqali ilk buddist targ'ibotchilar mil. av. II asrdayoq Xitoyga kelgan edilar. Buddizmning Xitoyga kirib kelishi haqida keyinchalik ko'plab rivoyat va asotirlar paydo bo'ldi. Biroq, xitoy manbalarida ham, diniy rivoyatlarda ham Xitoydagi birinchi buddistlar haqida biror aniq ma'lumot mavjud emas. Ilk davrga taalluqli ma'lumotlardan biri imperator Min-Dining tushi haqidagi rivoyat hisoblanadi. Unga ko'ra, Min-Di tushida oltindan yasalgan bir but ko'rgan. U Buddaning timsoli ekanligini o'z maslahatchisi Fuidan so'rab bilgach, milodning 60-yillarida buddizm asoschisi va uning ta'limoti bo'yicha diniy matnlar keltirish uchun Hindistonga elchilar yuborgan. Shundan so'ng Xitoyga Hindistondan bir necha buddizm targ'ibotchilari kelib, ular uchun maxsus qurilgan «Baymasi» («Oq ot ibodatxonasi»)ga joylashganlar.

Buddizmning xitoylashuvi va tarqalish jarayonini o'rganish qiyin va murakkab ilmiy masaladir. Buddizm Xitoy hududida yoyilishi bilan alohida yangi shakl ham kasb etdi. IV-V asrlarda buddizm katta muvaffaqiyatga erisha boshladi. Ushbu ta'limot o'lkaning janubiy viloyatlariga yanada chuqurroq joylashdi. IV asrning o'rtalariga kelib Xitoyda ayollar ibodatxonalari, ayol monaxlar va tinglovchilar paydo bo'lgan. Shu asrning oxiriga borib, podshohlar buddizm ibodatxonalariga doimiy ravishda katta miqdordagi xayriyalar beradigan bo'lganlar. Bu davrda Sharqiy Stzin davlatining o'zidagina 1786 ta sangxa, 24 ming monax mavjud bo'lgan. Xususan, imperator Siyaou-Di 381 yil birinchi bo'lib o'zini buddist deb e'lon qildi. U saroyida ibodatxona barpo qildirib, unga monax keltirishni buyurdi. Lyao sulolasidan bo'lgan U-Di hokimligi davrida (502-549) buddizm mamlakat janubida rasmiy din sifatida tan olindi.

Shunday qilib, buddizm mil. av. birinchi ming yillik oxirlarida Markaziy Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorumizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O'ratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzellaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar va supa qoldiqlaridan Kushon imperiyasida buddizmga katta ahamiyat berilganini anglash mumkin.

**Buddaviylik yo'nalishlari.** Xinayana buddizmning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Xinayana «kichik arava» ma'nosini anglatib, u diniy yo'nalish sifatida mil. av. I asrda shakllangan. Biroq, uning asosiy qoidalari ancha avval, shu jumladan, Tripitakada bayon qilingan.

Xinayana ta'limotiga ko'ra, dxarmalar tabiatini o'rganishga va nirvanaga ma'naviy yo'l bilan erishiladi. Bu yo'l juda og'ir, shu sababli faqat monaxlargina nirvana holatiga etishi mumkin. Keyinchalik Xinayanada juda ham murakkab va dabdabali ibodatlar (masalan, «Budda tishiga sig'inish»), buddizmning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar joriy qilingan. Bu yo'nalish Sharqiy Hindistonda, Shri Lanka, Hindi-xitoy davlatlarida tarqalgan.

Maxayana Xinayana bilan bir qatorda buddizmdagi ikkinchi asosiy yo'nalish bo'lib, u ruhiy kamolot ahdigga rioya etuvchi, xudoga iltijo qiluvchi rohiblarga in'omlar berib yordam ko'rsatuvchi har qanday oddiy dindor najot topishi mumkin degan ta'limotga asoslanadi. Unga ko'ra, Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli maxluqotlar shakliga kirishi mumkin va hayot zanjirining barcha vakillari uni o'rganishi, anglashi mumkin. Bu narsa cheksiz Budda rasmlarining, xudolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu xudolarga ishonish yo'llari barcha uchun mumkin bo'lganligi sababli u «katta arava» nomini olgan.

Uzintu yo'nalishi Xitoyda vujudga kelgan va keyinchalik Yaponiyaga o'tgan. Unga Xuey-Yuan asos solgan. V-VIII asrlarda uning shogirdlari bu yo'nalishni rivojlantirganlar. Shuningdek, ushbu yo'nalish Xitoy buddizmidagi sezilarli mavqega ega bo'lgan va rasman e'tirof etilgan.

Xitoyshunos olimlarning ta'kidlashlariga qaraganda, Stzintu yo'nalishi daosizm, hatto qadimgi Xitoy «sionizm»i ta'sirida shakllangan.

**Tyantay yoki Tenday yo'nalishi.** Bu nom shunday deb atalgan bir ibodatxona nomi bilan bog'liq. Mazkur yo'nalishning ilk va ko'zga ko'ringan vakillaridan biri monax Chji-I bo'lgan. Chji-I ta'limotiga ko'ra, bu dunyodagi hamma narsa haqiqiy emas, ular faqat bo'shliqdan iborat bo'lib, vaqtinchalik mavjuddir. Mana shu asosga binoan u xulosa qiladiki, olamdagi barcha narsa yolg'iz mazmundadir. Budda hatto mayda qum zarrachalarida ham mavjud bo'lishi va oxirida esa har bir insonning hayoti Budda hayotining bir qismi bo'lishi mumkin.

Ushbu ta'limotni Chjan-Jan (711-782) maktabining 9-patriarxi rivojlantirib, shunday xulosaga keldi: Budda hamma joyda, hamma narsada, hattoki jonsiz narsalarda ham mavjud bo'lib, ularda Budda-tabi'atning bir bo'lagi mavjud.

Tyantay yo'nalishi o'z tarafdorlari orasida katta obro'ga ega bo'lgan va XIV asrga qadar mavjud bo'lgan. Xitoyda, yuqoridagilardan tashqari, ko'plab mayda sektalar ham mavjud bo'lgan. Ular orasida mamlakat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan «Chan» va «Tantrizm» yo'nalishlarini alohida qayd etish o'rinli.

**Tantrizm** Hindistonda birinchi ming yillik o'rtalarida vujudga kelib, keyinchalik Xitoyga ham o'tgan. Buddizmning ushbu yo'nalishi VIII asrga kelib juda taraqqiy topdi. Bunga mazkur yo'nalishning uch mashhur patriarxlari Hindistondan kelib faoliyat olib borishlari sabab bo'ldi. Tantrizm mustaqil hamda ta'sirchan yo'nalish sifatida Xitoyda uzoq qolmadi.

**Chan-Buddizm.** Mazkur yo'nalishning nomi sanskrit tilidagi «dxiana» (meditastiya, fikrni jamlash) so'zidan kelib chiqqan. Hindistonda vujudga kelgan dxiana buddizm maktabi tarafdorlari vaqti-vaqti bilan tashqi olamdan uzilib, ushbu abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtaga jamlash ta'limotini ilgari surganlar. Bu ishda kishi, haqiqatan ham, trans holatiga tushadigan bo'lsa, bu orqali haqiqatga erishish dxiananing oliy maqsadi hisoblanadi.

Dxiana ta'limotining Xitoydagi ilk namoyandalari Dao-An hamda Xuey-Yuanlar edilar. Ular dxiana sutralarini xitoy tiliga tarjima qilib meditastiyani amaliyotga joriy qilganlar. Meditastiya amaliyoti eng shuhrat qozongan davriga Xitoyda birmuncha kechroq erishdi. Bu narsa «Chan» sektasining muvaffaqiyatlari bilan bog'liq. Biroq, shuni aytish kerakki, Chan meditastiyasi hind dxianasidagi meditastiyaning oddiy takrori, aynan rivojlangan shakli emas. Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mazkur ta'limot hind buddizmiga qarama-qarshi ta'limot sifatida vujudga kelgan. Darhaqiqat, Chan yo'nalishi Xitoy buddizmining boshqa oqimlariga qaraganda ko'proq Xitoyga xosroq. Uning asosiy g'oyasi quyidagicha: kishi tumanli, xira nirvanaga intilishi zarur emas, faqatgina kelajak haqida qayg'urish qachondir Bodxisatva yoki Buddaga aylanishni va mana shuning uchungina o'zini hamma narsadan mahrum qilishi befoyda. Inson ayni vaqtda, shu onda yashamog'i hayotdan u bera olishi mumkin bo'lgan narsalar imkon qadar olib qolmog'i lozim.

Lamaizm buddizmning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tibet tilida «lama» – «eng ulug'» degan ma'noni anglatadi. Mazkur diniy yo'nalish rahbari shu nom bilan – lama deb ataladi.

**Lamaizm** Tibetda VII-XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon-Po (shamanizmning bir turi) unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelgan bo'lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa va mazhablarga bo'linadi. Lamaizm XVI asr oxiridan mo'g'ullar, XVI asr boshlaridan Rossiya hududida yashovchi buriyatlar, tivaliklar va qalmiqlar orasida ham tarqaldi. Buddizmning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar yordamida najot topadi. Lamalarsiz nirvanaga etishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hech narsaga erisha olmaydi, deb ta'kidlanadi.

Lamaizmning an'anaviy qonunlashgan asosi Kanjur (108 jildli) va Tanjur (225 jildli) nomli muqaddas kitoblarda bayon qilingan. Bu dinda dabdabali ibodatlar, teatrlashtirilgan muqaddas tomoshalar – misteriyalar, ko'pgina maishiy rasm-rusumlar, xudolarning g'azabini, yovuz ruhlarning ziyonlarini qaytarish uchun qilinadigan xatti-harakatlar, duo va afsunlar bor. Lamaizmga ko'ra, lamalarga va dunyoviy hokimlarga so'zsiz bo'ysunish asosiy fazilat sanaladi. Masalan, buriyat lamalari rus podshohlarini – avatara, ya'ni ma'buda Stagan-Daraexening erdagi ko'rinishi, deb e'lon qilganlar.

Lamaizm ta'limotiga ko'ra, odam o'ldirish, o'g'rilik, yolg'onchilik, tuhmat, g'iybat, bekorchi so'zlash, ochko'zlik, kek saqlash, zino qilish – o'nta «og'ir gunoh» sanaladi. Gunoh qilishdan o'zini tiyish insonga eng yaxshi qayta tug'ilishga imkon beradi.

Lamaizm yo'nalishining oliy diniy rahnamosi Dalay-Lama sanaladi. U tug'ilgan mavjudotlarning eng ulug'i, bodxisatva Avalakiteshvaraning erdagi ko'rinishi, tirik xudo hisoblanadi. Dalay – tibet tilida «dengiz» ma'nosini anglatadi. Dalay-Lama «dengizdek ulug' lama» deganidir. Bu unvon 1391 yilda joriy qilingan. Birinchi Dalay-Lama Binduidub (1391-1475) bo'lgan. Hozirgi kunda Dalay-Lama XIV Lozondantzenjantso-Igvant hisoblanadi. U 1935 yilda tug'ilgan. Uning o'limi bilan erda yangi Dalay-Lama paydo bo'ladi. Oliy lamalardan tashkil qilingan hay'at uning o'limidan so'ng bir yil mobaynida yangi tug'ilgan go'daklar orasidan yangi Dalay-Lamani qidirib topadilar. Shundan so'ng go'dak monastirda (xonaqohda) tarbiyalanadi. U voyaga etgunga qadar uning vazifasini regent – muvaqqat vakil bajarib turadi.

Lamaizm diniy hayotining markazini monastir tashkil qiladi. U erda Dalay-Lama, Lamalar diniy uyushmasi, rohiblar, talabalar faoliyat olib boradilar.

**O'rta Osiyoda buddizm.** O'rta Osiyoda dinlar tarqalganligi manzarasi rang-barang va tadqiq qilish uchun o'ta qiziqarli. Bu mintaqada boshqa qadimiy dinlar bilan bir qatorda buddizmning ham keng yoyilganligini kuzatamiz.

O'rta Osiyoda buddizm tarixini o'rganish bo'yicha tadqiqotchilardan L.I. Albaum, R.Ch. Bagchi, V.V. Bartold, T.V. Belyaeva, A.N. Bernshtam, V.A. Bulatova, V.P. Vasilev, B.V. Veymarn, V.V. Vertogradova, V.L. Vyatkin, T.V. Grek, B.P. Denike, E.P. Denisov, B.N. Zasyrkin, T.I. Zeymal, A.N. Zelinskiy, V.N. Kesaev, G.A. Koshelenko, V.A. Livhits, B.A. Litvinskiy, M.E. Masson, G.V. Parfyonov, G.A. Pugachenkova, E.G. Pchelina, E.V. Rtveladze, B.Ya. Staviskiy, A.S. Strelkov, B.A. Turg'unov, Z.I. Usmonova, V.B. Henning, V.A. Shishkin kabi O'zbekistonlik va chet ellik arxeolog olimlar izlanishlar olib borganlar. Ularning ekspedistiyalari natijasida yozilgan maqola, risola va monografiyalar ushbu mavzuni o'rganishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning barchasi buddizm tarixini O'rta Osiyodagi tarixiy-me'moriy yodgorliklarning arxeologik tadqiqotlari asosida yoritib berganlar.

Bir guruh tadqiqotchilar mazkur din O'rta Osiyoga kirib kelishini Kushonlar shohi Kanishka hukmronligi davriga taalluqli deb biladilar (I asrning oxiri-II asrning boshlari). Ikkinchi guruh esa bu jarayonning boshlanishini biroz ertaroq deb hisoblaydilar. Tadqiqotchi B.A. Litvinskiyning fikricha, buddizm Shimoli-G'arbiy Hindiston va Janubiy Afg'oniston (Qandahor) orqali taxminan mil. av. III asrda Baqtriyaga (O'zbekistonning janubiy hududlari) tarqala boshlagan.

Baqtriyaga buddizmning kirib kelishi va yoyilishi haqida boshqa fikr ham mavjud. Tadqiqotchi R.Ch.Bagchi bu jarayon podshoh Ashoka (mil. av. 273-232 yillar) hukmronligi davrida yuz bergan deb hisoblaydi. Ammo bu fikrni tasdiqlovchi arxeologik materiallar etarli emas. Shuning uchun ham buddizm bu hududga Kushonlar davrida kirib kelgan degan fikr haqiqatga yaqinroq. Chunonchi, B.Ya. Staviskiy bu fikrni Kushonlar hukumatining hind viloyatlari va buddist jamoalarning homiylari bilan aloqalari mustahkam bo'lganligi bilan isbotlaydi. Ammo shu bilan bir qatorda baqtriyaliklarning Kanishkaga qadar buddizm bilan tanish bo'lganliklarini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham mavjud.

Mil. av. I asr va milodning IV asrlari oralig'ida Kushon imperiyasida buddizmning Maxayana yo'nalishi davlat dini deb e'lon qilindi. Bungacha buddizm Hindistonda uzoq tarixga ega bo'lsa ham, u erda asosiy yo'nalish bo'lgan Xinayana ham bunday mavqega erishmagan edi. Kanishka, Vima, Kadfiz va ulardan keyingi kushon imperatorlari buddizmni keng yoydilar. Ular bu din an'analarini amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o'rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O'sh, Bolosog'un, Koshg'ar va boshqa shaharlarda buddizm takyagohlari va xonaqohlari, ibodatxonalarini qurib, buddizmning muqaddas kitoblari, sutra va pastrilarni o'rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratib berdilar.

Hozirgi Termizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Sayram, Quva va boshqa joylarda topilayotgan budda haykalchalari yoki ularning parchalari, Ayritomdagi ayvon peshtoqi parchasidagi buddist musiqachilarning tasviri va boshqa osori atiqalar, saroy va ibodatxonalar O'rta Osiyodagi buddizm haqida xabar beruvchi manbalardir. Bu dinga tegishli yozma manbalar qadimgi turkiy yozuvda, uyg'ur bitiklarida va boshqa yozuvlarda saqlanib qolgan.

O'rta Osiyoning janubida Sarvastivada maktabining ilk ko'rinishi – Vaybxashika maktabining ta'limoti yoyilgan. U buddizmning Xinayana oqimiga tegishli. Ammo Vaybxashika ta'limoti ba'zi jihatlari bilan Maxayana doirasidagi maktablarga yaqin turadi. Bunda, ayniqsa, Maxayana doirasiga kiruvchi Sarvastivadaning Vinaya maktabi muhim ahamiyatga ega. Manbalarning xabar berishicha, Xo'tanda Vaybxashika maktabi vakillari Maxayanani yoyish uchun zamin tayyorlaganlar.

O'rta Osiyoda buddizmning boshqa maktablari ham yoyilgan. Qoratepadan topilgan sopol buyumlardagi kxaroshtxi yozuvlari bu erdagi Maxasangxika ta'limotini aks ettiradi. Maxasangxika maktabi O'rta Osiyoda buddizmning tarqalishida muhim rol o'ynagan. Qoratepaning boshqa qismida braxmi yozuvidagi bitiklar esa O'rta Osiyoga keyinchalik Kanishka davrida kirib kelgan Sarvastivada buddist maktabi ta'limotining yoyilganligidan xabar beradi.

Mil. av. III-I asrlarda buddizm Hindiston hududidan chiqib janubi-sharqiy yo'nalish bo'yicha asosan Xinayana ta'limoti shaklida yoyilgan. Lekin milodning boshlarida shimolga, shimoli-g'arbga hamda shimoli-sharqqa Maxayana tarzida harakat qildi. Buning sababi bir necha asrlar mobaynida Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo hududlarining yagona Kushon saltanati bayrog'i ostida birlashtirilishi bo'ldi. Aynan Markaziy Osiyo orqali buddizm Uzoq Sharqqa kirib bordi va u erda ikkinchi hayotini boshladi.

O'rta Osiyoda buddizmga tegishli tarixiy obidalarining ko'pligi jihatidan Fayoz-tepa eng yirik yodgorlik hisoblanadi. U erdan chiqqan diniy bitiklar, haykallar bilan birga topilgan ibodatxonaning hududi ancha katta joyni egallaydi.

1926 yilda A.S.Strelkov tomonidan aniqlangan Eski Termizning sharqidagi Zurmala minorasi O'rta Osiyo territoriyasidagi birinchi ochilgan, katta ahamiyatga molik bo'lgan buddizm inshootidir.

Eski Termizdan topilgan Qoratepa buddist majmuasi milodning I asri Kushon saltanatining gullagan davriga to'g'ri keladi. Qoratepadagi har bir inshoot er ustki va g'or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, bir monax (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat.

Dalvarzintepa majmuasi 1967-1968 yillarda qazib ochilgan bo'lib, Termiz yaqinidagi Surxon vohasining o'rta qismida joylashgan. Mazkur kompleks G.A. Pugachenkova va B.A.Turg'unov boshchiligidagi O'zbekiston san'atshunoslik akademiyasi tomonidan ochildi. Dalvarzintepada topilgan buddizm majmuasi bu din ta'limoti Kushon saltanatining shimoliy viloyatlariga I asrda yoyilganligini ko'rsatadi.

Janubiy O'zbekistonda joylashgan Baqtriya-Toxaristonning shimoliy qismida 60-yillarning ikkinchi yarmidan 80-yillargacha buddizm inshootlarining ettitasi aniqlanib o'rganildi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan Janubiy Tojikistondagi Ajinatepa, Kofirqal'adagi kichik ibodatxona, qal'ai Kofirnigon ibodatxonasi, Ayritom majmuasi, Turkmanistondagi Marvdan 30 km uzoqlikda joylashgan Gur-qal'a majmuasi, Quvadagi ibodatxona va boshqa ko'plab buddizmga tegishli yodgorliklar ushbu dinning mazkur mintaqadagi tarixi haqida xabar beradi.

O'rta Osiyoning Marv, Balx, Termiz, So'g'diyona viloyati, Quva, Koson, Samarqand va Buxoro kabi shaharlari, viloyatlari buddizm ta'limoti va marosimlarini ishlab chiqishda, boshqa o'lkalar, mamlakatlarda targ'ib va tashviq etishda, eng muhimi, buddizmning hozirgi zamonning ilg'or jahon dinlaridan biriga aylanishida favqulodda ahamiyatga ega markazlari bo'lgan.

So'g'd viloyati Xitoy bilan savdo-sotiq hamda madaniy aloqalarni o'rnatishda ahamiyatli rol o'ynagan. So'g'dliklar Xitoyda buddizmni yoyishda juda muhim o'rin egallaydilar. Biroq So'g'dda buddizmning keng yoyilganligi masalasi haligacha ochiq qolmoqda. To'g'ri, hozirga qadar bu erda buddizmga oid ba'zi haykalchalar, Sanzordagi buddizm ibodatxonasi, Samarqand yaqinida budda haykalining boshi topilgani ma'lum. Ammo bu topilmalar ushbu hududda bu din keng tarqalgan degan xulosani chiqarishga hozircha etarli emas.

Surxondaryo Toxaristonidan chiqqan buddizmning yirik vakili – Tanmonanti (yoki Dxarmanandin). U yoshligidan tarkidunyochilik yo'lini tutib, uzlatga chekingan. Yosh bo'lsa-da, aqli tiniq bo'lib, sutralarni o'rgangan va yoddan aytib yurgan, bunga o'zining butun borlig'ini bag'ishlagan. U Tripitakani to'la o'zlashtirgan. Dxarmanandinning ilmdagi salohiyati chuqur va benihoya edi. U o'z vatanida ham, boshqa uzoq erlarda ham katta obro'ga ega bo'lgan. 365-385 yillarda Dxarmanandin Xitoyning Chan'an viloyatiga Budda ta'limotini targ'ib etgani va

ibodatxonalar, vag`n va vixaralar qurgani kelgan. Imperator Fu Stzyan Xitoydagi barcha avliyolarning Dxarmanadinga ko`rsatayotgan izzat-hurmatini ko`rib, uni juda oliy maqomli mehmon sifatida kutib oladi va tortiqlar qiladi. Xitoyda bu paytda buddizm ancha keng tarqalganiga qaramay, to`rt qismli Agama-Sutralardan birortasi ham hali xitoy tiliga tarjima etilmagan edi. Imperator Fu Stzyanning maslahatchisi va Uvey tumani hokimi Chjao Chjen Dxarmanandindan ana shu sutralarni tarjima qilib berishini so`rash niyatida edilar. Chjao Chjen barcha avliyolar va Dxarmanandinni o`z poytaxtiga taklif etib, Agama-Sutralarning ikkitasini – Chjun va Stzen hamda mustaqil asarlar sanalgan Pi Tan Sin, San Fa Du va boshqa asarlarni tarjima etish, sharhlab berish va e`lon etishni iltimos qiladi. Dxarmanandin bu ishga 2 yil rahbarlik qilib, uni muvafaqqiyatli yakunlaydi. So`ngra o`z vataniga qaytadi, lekin uning qachon va qaerda vafot etganligi to`g`risidagi ma`lumotlar bizgacha etib kelmagan.

Turkiy xalqlar butun Osiyoni, Xitoy va Uzoq Sharqni nafaqat qilich va ot kuchi bilan zabt etishgan, balki mavjud bo`lgan diniy-falsafiy ta`limotlar, madaniyat, insonparvarlik sohalarida ham etakchilik qilganlar. O`zlaridan boshqa xalqlarni «varvarlar» deb atagan kalondimog` qadimxitoy siyosatchilari ham bu jihatdan ularni tan olishga majbur bo`lganlar.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Ilk buddizm ta`limoti nimalardan iborat?
2. Buddizm amaliyotida meditasiya qanday o`rin tutadi?
3. Xinayana va Maxayana orasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
4. Buddizm o`zga stivilizastiyalar ichiga qanday kirib borgan?
5. Hozirgi Yaponiya hayotida buddizm qanday o`rin egallaydi?
6. Lamaizm qaysi davrda vujudga keldi?
7. Lamaizmning Rossiya Federastiyasida tutgan maqomi qanday?
8. Markaziy Osiyoda buddizm tarixini o`rganishning qanday ilmiy muammolari bor?

#### **Adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O`zbekiston», 2010.
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida” gi O`zbekiston Respublikasi qonuni.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda yuragimizda. –T.: O`zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O`zbekiston, 2011.
5. Buddizm. Slovar. M., 1992.
6. Buddiyskaya filosofiya v srednevekovoy Yaponii. M., 1998.
7. Mify narodov mira. V 2-x tomax. M., 1991.
8. Religioznye tradistii mira. Buddizm, iudaizm, xristianstvo, islam. Spravochnik shkolnika. Bishkek, 1997.
9. Staviskiy B.Ya. Sudby buddizma v Sredney Azii. Po dannym arxeologii. M., 1998.
10. Xerbatskoy F.I. Izbrannye trudy po buddizmu. M., 1988.

#### **4-mavzu: Xristianlik.**

##### **Reja:**

1. Xristianlikning vujudga kelishi va ta`limoti.
2. Xristianlik yo`nalishlari
3. Xristianlikni O`zbekistonga tarqalishi

##### **Tayanch so`zlar**

*Xristianlik, Isus Xristos, Iso alayhissalom, Tavrot, Injil, evangeliya, xushxabar, payg`ambar, katolik, provaslaviya, protestantlik.*

**1. Xristianlik dinining vujudga kelishi va ta'limoti.** Xristianlik jahon dinlaridan biri bo'lib, eramiz 1-asrining 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida ko'p xudolik dinlari o'rniga qullar va mazlum elatlarning dini sifatida yakka xudolik (monoteistik) tarzda shakllangan. Xristianlik Falastin va O'rta Er dengizi yahudiylari dinlari doirasida vujudga kelgan; o'nlab yillardan keyin esa boshqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tarqalgan. Yangi va eng yangi tarix davrlarida u mustamlakachilik siyosati va missionerlik natijasida Evropadan tashqariga ham tarqalgan. Xristianlik Evropa, Amerika, Avstraliya hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alariga tarqalib dunyo xalqlarining teyarli uchdan birini (2 milliardini) tashkil etadi.

Xristianlik vujudga kelishini Bibliyaning xabar berishicha, Iisus Xristos faoliyati bilan bog'lab tushutiriladi.

Xristianlikning vujudga kelishida sharq dinlarining ham ta'siri bo'lgan. Jumladan, misrlilarning Osiris va Isida, eronliklarning Mitra, yahudiylikning Muso haqidagi rivoyatlari, oxirat to'g'risida xikoya kiluvchi har xil rivoyatlar ham xristianlik ta'limotiga kiritilgan.

Xristianlikdagi odam-xudo to'g'risidagi tushunchani ishlab chiqishda yagona imperiyaga birlashgan Rim imperatorlarining yakka Xudolik to'g'risidagi ichki siyosati ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shu maqsadda imperatorlarga va Rim shahri xudolariga sig'inish yuzaga kelgan.

Lekin shakllanayotgan xristian mafkurasi asosida birinchi galda iudaizm monoteizmining "Qadimgi axdnoma" kitobiga kirgan barcha "muqaddas g'oyalar", ya'ni Erni Xudo yaratganligi, o'simlik va hayvonot dunssining vujudga kelishi, insonning yaratilishi, uning tili, axloqi, huquqi, oxirat rohatlari haqidagi g'oyalar katga rol o'ynagan.

1947 yili O'lik dengiz qirg'og'idagi qumron yaqinida qadimgi qo'l yozmalar topilgan edi. Bular hukmron jamoaning diniy ta'limotlari - iudaizm va xristianlik o'rtasidagi oraliq butunni tashkil kilganligani ko'rsatmokda.

Shunday kilib, xristianlik Rim imperiyasida yashagan ko'pchilik elatlarning dinlari, rivoyatlari, urf-odatlari asosida tashkil topgan. Bu din dastlab qullar, ezilgan kambag'allarning talablarini, "xoloskorlik" g'oyalarini o'ziga singdirgan din sifatida vujudga kelgan. Keyinchalik uning ijtimoiy, diniy strukturasi o'zgarishi bilan hukmron tabaqalar qo'lida mazlum xalqlarni ekspluatatsiya qilishning g'oyaviy quroliga aylangan.

O'sha davrda jamiyatda yuzaga kelgan qukmron doiralar bilan mazlum xalqlar o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan xristianlikdagi diniy g'oyalarni xisobga olgan imperator Konstantin 324 yili bu dinni davlat dini deb e'lon qilgan. 325 yilda uning ko'rsatmasi bilan Nikey saborida xristianlarning 1 - yig'ini bo'lib o'tgan. Unda episkoplar va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiklab, cherkov tashkilotini takomillashgan holga keltirganlar.

Shundan buyon, davrlar o'tishi bilan xristianlik bugun Evropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya qitalariga yoyilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo respublikalari xududlariga ham qisman etib kelgan jahon dinidir.

**Xristianlik dini ta'limoti.** Xristianlikning muqaddas diniy yozuvi - Bibliyaning ikkinchi qismi - "Yangi axdnoma" bo'lib, u eramizning I-II asrlarida grek tilida yaratilgan.

Bibliyaning xristianlik naydo bo'lmasdan birmuncha oldin yaratilgan 1 - qismi "Qadimiy axdnoma" deb atalib, u iudaizmning mukaddas **yozuvi** hisoblanadi. Bibliyaning ikkinchi qismi - "Yanga axdnoma" deb atalib, u xristianlikning muqaddas yozuvi deb hisoblanadi.

"Yangi axdnoma" 27 kitob (bob) dan tashkil topgan. Uning tarkibiga 4 ta "Injil" (Evangilie, ya'ni Xushxabar), havoriylarning (Iso shogardlari, xristianlikning dastlabki tartibotlari) amallari, 21 risola va Ioanning "Vaqiynomasi" kiritilgan.

Xristianlik boshqa jahon dinlari kabi mutlaq, abadiy, o'zgarmas karomatni, bilimni, benixoya qudratning egasi bo'lgan yakka xudo haqidagi g'oyani asoslaydi. U uch ko'rinishdagi yakka xudoni o'zida mujassamlashtirganlik aqidasi yaratgan. Uch kurinishdagi xudo haqidagi ta'limotga binoan, xudoning ichki haeti sababi o'z-o'zidan mavjud bo'lgan uchlikdagi uch asos yoki "muqaddas uchlik" bo'lgan - ota-xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruhning o'zaro munosabatidir. Ug'il Iso bayon qilingan tarjimai holiga ko'ra ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan

yaratilgan (provaslav yo'nalishi ta'limoti), (katolistizmda esa ota-xudo va o'g'il-xudo ham xudodan tug'ilgan).

Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki mohiyati - odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, "Gunohni yuvish", ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda kurbon qilishi" haqidagi ta'limot bilan mustahkamlangan. Xristianlik muqaddas ruh - ota xudo, bola xudo va mukaddas ruh - uch yuzli xudo to'g'risidagi ta'limoti, targ'iboti, tashkilotchiligi, jannat va do'zax, oxirat ya'ni dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tirilishi qaqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristianlik davlat dini deb e'lon qilingandan so'ng, 325 yili imperator Konstantin boshchiligida Nikey shahrida xristianlarning 1 jahon yig'ilishi bo'lgan. Yig'ilish xristian dinining qonun-qoidalarini ishlab chiqqan va xudoni uch shaxsning (ota xudo, o'g'il xudo) rux xudo, birlikda ifodalaiishidir deb uqtirgan. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda bo'lib o'tgan II jag'on yig'ilishida cho'qinish va tirilish haqidagi yangi aqida kabul kilingan.

Ota xudo tabiat, odam va farishtalarni yaratgan, deb hisoblanadi. Iso o'g'il xudo hisoblangan. Xudoning gavdalanishi aqidasiga ko'ra, Iso xudoligicha qolgan holda Mariya ismli qizdan tug'ilgan odam ham bo'lib kolgan. Butga parchinlangan xudo Iso tortgan azoblari va o'limi bilan o'zini odamlarning gunoxlari uchun ota xudoga qurbon qilgan va shu bilan gunohini yuvgan. Ushbu aqidaga qo'ra, Iso odamzodga gunoxlardan xalos bo'lish yo'lini ko'rsatib bergan. Isoning tirilishi aqidasi kelgusida hamma odamlar tirilishining garovi, deb e'lon qilingan. U tirilgandan so'ng osmonga - ota xudo huzuriga chiqqanligi, ya'ni osmonga chiqib tushishi (islomda me'roj) aqidasi bu dunyodagi xayot oxiratdagi mangulikka nisbatan hech narsaga arzimaydi, deb uqtiradi.

Xristianlikda nymon kalnmasi "yagona, mukaddas sobor va opostol chsrkovi" ga ishonishni, cho'qintirish zarurligini tan olnshni, qiyomatda o'liklarniig tirilishiga, shundan so'ng savob egalariga mangu roxat-farog'at ko'rish, gunohkorlarga doimiy azob-ukubat tortish davri kelnshiga ishonishni buyuradi.

Diniy g'oyalar tarkib topishi bilan bir qatorda xristian ibodat marosimlari ham shakllanib borgan. Xristian marosimchiligining eng muhim epementlari sirli ibodat (tainstvolar) deb yuritiladi. Bular qatoriga cho'qintirish (suvga sho'ng'itib olish), miropomazanie (cho'qintirilgan kimsaga xushbo'y katron-miropa surtilgach, "mukaddas ruh" ning huzur-halovati unga o'tishi); evxaristiya yoki prichishenie (non va vinoni Isoning tanasi va qoni deb tasavnur etgan holda iste'mol qilish), tavba qilish (dindorning ruhoniy vositasida xudodan kechirim so'rashi va o'z gunohlarini unga aytib berishi), nikoh, ruhoniylikka fotiha berish, soborlashtirish, ya'ni bemorni muqaddaslashtirilgan zaytun moyi - elega bo'yash kabilar kiradi.

Xristianlikning bosh ibodati liturgiya (obednya, msssa) bo'lib, u har xil afsungarliklar, muzika chalish, ashula aytish, "muqaddas" yozuvlarni o'qish, qad bukib ta'zim bajo keltirish, sham va chiroqlarni yondirish, xushbo'y narsalarni chekish bilan qo'shib olib boriladigan diniy amallardan iborat.

"Muqaddas uchlik" ning xar birnni, Bibi Maryamni ulug'lash "xudoga xush kelgan avliyolarga", xudo yarlaqaganlarga ham sig'inishni keltirib chiqargan. Xristiailikda bugga cho'qinish ham muhim o'rinni egallaydi. Unda pasxa (Isoning tirilishi), tariqa (yoki pyatidesatnista), rojdestvo (Isoning tug'ilishi) va boshqa bayramlarga katta o'rin berilgan.

Xristianlikdagi yo'nalishlar. Xristianlik shakllanib turli mamlakatlarga yoyilishi, ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, manaviy siljishlarga ham duch kela boshlagan. Boshqa jaxon dinlari kabi unda ham turli yo'nalishlar, mazhablar, sektalarga bo'linish jarayoni sodir bo'lgan.

Eng birinchi ajralish xristianlikda IV-V asrlarda ro'y bergan, ya'ni Iso masihni<sup>§§</sup> talqin qilishda farkdanadstgan ikkita diniy-aqidaviy yo'nalishlar - monofizilar va nestorianlar yuzaga kelgan.

---

§§ Исо номига қўшилган «Масих» сўзи қадимий яхудий тили – ивритдаги мешнах сўзидан олинган бўлиб, «силанган» ёки «сийланган» маъноларини билдиради.

Ko'pchilik xristianlar Isoi masihni ham xudo, ham odam tabiatiga ega deb bilsa, Konstantinopol arximandrati Evtaxiya ta'limotining tarafdorlari bo'lgan monofizilar u faqatgina xudo mohiyatining birligidan iborat deb hisoblaganlar.

Kostantinopol patriarxi Nestor qarashlari tarafdori bo'lgan nestorianlar esa u xudo insonlar hayoti kabi yashashi uchun vujudga kelgan odamdir, deb targ'ib qildilar.

Efes soborida (431 yil) iestorianchilikka bid'at deb karalib, uning tarafdorlarini ta'qib qilish boshlangan. Natijada ommaviy harakatlar boshlashlariga sabab bo'lgan.

Hozirgi kunda monofizitlikka Yaqin sharqdagi Yakobitchilar, Janubiy Hindiston va Efiopiya xristian aholisining 96 foizi amal qiladi.

471 yildan e'tiboran yuqorida qayd etilgan chsrkovlar qadimgi Sharq cherkovlari deb atala boshlangan. Nestorianlar, eng avval, Ossuriylar orasida tarqalgai. Bularning diniy jamoalari hozirda ham Suriyada, Irokda, Eronda, Hindistonda bor.

1054 yilga kelib xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo'linishi rasman tan olingai. Bu bo'linish Rim imperiyasining Sharqiy va g'arbiy qismlari orasidagi feodal munosabatlarning tafovutlarini o'zida aks ettirgan; Rim papasi bilan Konstantinopol patriarxi o'rtasidagi barcha xristian cherkovlari ustidan yakka hokimlik o'rnatish uchun shiddatli kurashlar bilan bogliq bo'lgan. Xristianlikning alog'ida va mustaqil g'arbiy tarmog'i Rim katolik cherkovi, ya'ni umumiy, jahon Rim cherkovi deb atala boshlagan. Dunyoviy hokimiyatga tobe bo'lgan Sharqiy xristianlik grek-kefilik (grekcha - butun dunyo) yoki izchil. Sobitqadam (ortodoksal) xristianlik deb atala boshlangan. Pravoslavie va katolistizm erlarida umumiylik ham, bir-biridan farklanadigan jihatlari ham bor.

XVI asrdagi reformasiya jarayonida feodalizm va kapitalizmga karshi keng quloch yozgan harakatlar Evropadagi burjua revolyustiyalariing eig birinchi ifodalari edi. Katolistizmdan bir necha Evropa cherkovlari ajralib chiqishi patijasida xristiailikda protestantlik harakatlari vujudga kelgan. Buning doirasida lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik va kalninizm cherkoshshri shakllangan. Har bir chsrkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, bular ham o'z navbatida bir necha yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

Hozirgi zamon xristianligida turli yo'nshshsh va oqimlar orasidagi kelishmovchiliklarning kamaytirilishi bugungi kun uchun xosdir. Bunga 1948 yilda tashkil topgan Jahon cherkovlari kengashining faoliyatlari va ekumenik xristianlar kumaklashmokda.

Katolistizm - bu xristianlikda eng ko'p tarkalgan yo'nalishdir. U Evropa, Osiyo, Afrika ka Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil qiladi.

Katolistizm ta'limotida jannat va do'zaxlar oralig'idagi dune, gunohkorlarning ruhi, jopi haqidagi, Isoi masihni benihoya qurmatlash, uning tanasi va jonimi ko'klarga ko'tarish sohalaridagi diniy aqidalar mavjud.

Katolistizmda Bibliyani sharxlash huquki faqatgina ruhoniylarga bsriladi; chunki ular uylanmaslik haqndagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sahnalashtirilgap ko'rinishga ega; diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviedagi kabi katolistizmda ham farishta, ilohiy kuch, chirimaydigam marhum jasadlariga sng'inish odatlari sakdanib qolgan.

Katolistizm boshqa yo'nalishlardan farkdi o'laroq markazlashgan tizimga ega. Vatikan ana shunday markaz sifatida (maydoni 44 gektar) 1924 yildan boshlab Papa Piy XI ning Mussolini hukumati bilan tuzgan bitimiga muvofiq mustaqil teokratik davlat hisoblanadi. Rim Papasi cherkovning yakka rahbari bo'lib, u Iso Masihning erdagi noibi hisoblanadi. 1870 yili e'tiqod va axloq masalalarida uning bsnuqsonligi haqidagi akida qabul kilindi. 1978 yilda sobiq Polsha kardinali Korol Voytila 264-Rim papasi etib tayinlandi va u hozirga qadar Ioann Pavel II nomi bilan bu vazifani bajarmoqda.

Son jihatdan unchalik katta bo'lmagan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi tuzilgai, uning qoshida



jumhuriyatimizning boshqa hududlaridan ro'yxatdan o'tgan katolik diniy jamoalari ham o'z faoliyatlarini olib bormokdalar.

Xristianlikning Sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviening rinojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Koistantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Amerika cherkovlari shakllangan.

O'zining ahamiyatiga ko'ra pravoslav dunyosida beshinchi bo'lgan, lekin muxlislari soni jihatidan birinchi bo'lgan rus pravoslav cherkovi X-XI asrlarda vujudga kelgan. Uning paydo bo'lishi endigina shakllanayotgan fsodal munosabatlarni himoya qilish uchun, yangi g'oyaga muhtoj bo'lgan Kiev davlatiining ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondirish uchun kerak edi. Rusning xristianlashuvi darrov amalga oshgai ijtimoiy jarayon bo'lmay, bir necha asr davom etgan ziddiyatli tarixiy hodisa edi.

Pravoslaviening Markaziy Osiyo aholisi orasiga kirib kelishi XVI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Avval savdo-sotiq, keyin bu mintaqa xalqlarini mustamlakaga aylantirishdan iborat bo'lgan harbiy harakatlar jarayonida u kirib kelgan. 1870 yili Pokrovsk monastiri koshida missionerlik jamiyati tashkil qilingan. Jamiyat a'zolari mahalliy millatlarga mansub aholi orasida, garchi jiddiy natijalarga ega bo'lmagan bo'lsa ham, xristianlik bilan bog'liq katta targ'ibot ishlarini olib borganlar. Shu maksadda 1844 yili "Karomat ko'rsatuvchi Nikolayning xayot yo'li" nomli risolani qirg'iz tiliga tarjima qildilar va chop etdilar, maxsus diniy maktablar ochildi. 1872 yili Rus pravoslav cherkoviga karashli Turkiston (keyinchalik Toshkent, O'rta Osiyo) eparxial boshqarmalari ochildi.

Pravoslav cherkovi hozirgi kunda jamiyatimizning yuksalishi bilan bog'liq tadbirlarni qo'llab-quvvatlamokda, ayniksa dindorlarni axlokiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi o'zining rejalarini ishlab chiqmoqda. Bunda inson shaxsining kadr-qimmatini ulug'laydigan, oila asosini mustahkamlaydigan va mehnatga, butun jamiyatga nisbatan sofdil va vijdonlilik ruhida bo'lgan munosabatlarni qaror toptirish nazarda tutilgan. Cherkovning ichki tartibini qayta qurishni amalga oshirishga, cherkov hayotini yangilashga, ruhoniylar orasida uchraydigan muhofazakorlik va sustkashliklarni bartaraf qilishlarga ham katta e'tibor berilmokda. 1988 yilda bo'lib o'tgan rus pravoslav cherkovining ming yillik sanasini tantanavor, ulug'vor nishonlanishi, rus pravoslav cherkovining xalqaro obro'sini ko'tarilib borishiga ta'sir etdi. Muhim sanani nishonlash bilan bog'liq bo'lgan tantanalar, bayramlar va boshqa turli-tuman tadbirlar ruhoniylar uchun o'zlarining faqatgana ilohiyotchilik, cherkovning ichki hayoti va tartibi bilan bog'lanib kolmadi; balki jahonda, xususan Osiyo mintaqalarida tinchlik uchun kurash, irqiy kamsitishlarga barham berish, tabiatni muhofaza kilish, sog'liqni sakdash, demokratik jarayonlarni rivojlantirish, jamiyatda adolatli hayotni karar toptirish bilan bog'liq ko'pgana masalalarni muhokama qilish uchun foydalandilar. Ulug' bayram kunlari diniy e'tiqod va marosimchilik masalalarini hal qilishga Ham qaragildi.

Toshkent va O'rta Osiyo eparxial boshqarmasi (unga 22 diniy jamoa bo'ysunadi) ham mustaqil jumxuriyatlarda vijdon erkinligi talablariga rioya kiladigan tadbirlar o'tkazmokda, xalqlar o'rtasida osoyishtalik qaror toptirish uchun harakat *kstlmokda*.

Pravoslav cherkovi ko'p millatli mintaqada millatlararo va har xil yo'nalishdagi dinlar orasidagi munosabatlarga dindorlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish uchun ko'maklashishlarga aloxida e'tibor bermokda. Shuningdek u ilohiyotchilikka oid bo'lgan karashlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boshqa, shu qatorda islom bilan bir-biriga tutash bo'lgan umumiy alokalarni izlamokdalar; fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlar bilan musulmonlar diniy boshqarmalari o'rtasidagi muloqotlarni rivojlantirishga qaratilgan ko'pgana yirik tantanali anjumanlar chakirilishining tashabbuskori bo'lmoqdalar.

Bundan tashqari rus pravoslavie cherkovi xayriya shaklidagi faoliyatlarga, chunonchi, halok bo'lgan jangchilarga yodgorliklar o'rnatish, urushda jabr ko'rgan baynalmilalchi jangchilar sog'liklarini tiklash, tinchlik va bolalar uchun mo'ljallangan jamg'armalarii ko'paytirish va shu kabilarga katta e'tibor bermoqdalar.

Pravoslaviening ijtimoiy, siesiy qarashlarini va dindorlarning diniy ongaari bilan bog'liq hamma o'zgarishlar ularning dunyoqarash mavqelarini majburan o'zgartirishlariga olyb bormaydi.

Zero, rusga xristianlik kirib kelishining ming yilligini tantanali tarzda bayram qilinishining o'zi jamoatchilikning keng doiralari orasida muayyan taassurot qoldirdi.

Protestantlik - bu ham xristianlikdagi yana bir yunalish bo'lib, katolistizm va pravoslaviedan farqli o'laroq, diniy qarashlar jihatidan ham, cherkovlar orasidagi munosabatlar jihatidan ham bir xil bo'lmagan yo'nalishlarni faqatgina kelib chiqishi jihatidan bir-birlari bilan, XVI asrdagi yangilanish harakati bilan bog'liq bo'lgan kuppina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablarni yuzaga keltirilgan.

Protestantlik umumxristianlik asoslari va qarashlarini e'tirof etish bilan bir qatorda, u gunoxdan xalos bo'lishning yangi usullarini ilgari surdi. Iso Masihning kishilar gunohini yuvishga qaratilgan o'zini-o'zi qurbon qilishiga ishonch, dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoni bo'lishi mumkinligiga ishonch, Bibliyaning oliy nufuziga ishonch orqali xalos bo'lish ana shular jumlasiga kiradi. Shunday qilib protestantlik xudojo'ylikning asosiy talabini dinda odamning tashqi ko'rinishidan ichki hayotiga olib o'tdi va uni ixtiyoriy diniy ishonch bilan bog'ladi. Protestantchilik Bibliyaga siganishning o'ziga xos shaklini qaror toptirdi. Bu bilan protestant islohotchilari dastlabki xristianlikning oliy maqsadlarini, dindorlarni axlokyay jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish uchun ko'maklashishlarga aloxida e'tibor bermoqsta. Shuningdek, u ilohietchilikka oid bo'lgan qarashlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boshqa, shu qatorda islom bilan bir-biriga tutash bo'lgan umumiy aloqalarni izlamokdalar; fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlar bilan musulmonlar diniy boshqarmalari o'rtasidagi mulokotlarni rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina yirik tantanali anjumanlar chaqirilishining tashabbuskori bo'lmoqdalar.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qilgan (faqatgina lyuterashshkda non va vino bilan cho'kintirishlar sakdanib k.olgana). O'lganlarga bag'ishlab duo o'qish, aziz-avliyodarga sig'inish, ular sharafiga turli-tuman bayramlar o'tkazish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinishlar bekor kilingan. Ibodat uylari ortikcha bezaklardan, mehrob, sanam, haykallardan xoli qilingan; monostirlar va monaxlikdan ham voz kechilgan, ruhoniylarning uylanmaslik sharti bekor qilingan. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharxlash har bir xudojo'yning eng muhim burchi bo'lib qoldi.

Lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik, kalvinizm, stvingchilik protestantlikning ilk shakllari bo'lgan. Keyinchalik "so'ngti protestantlik" umumiy nomi bilan ma'lum bo'lgan bir qancha diniy oqimlar, tashkshyutlar paydo bo'lgan.

Markaziy Osiyoda ham protestantlik muxlislari uchraydi. Lyuteran jamoalari a'zolari Kirg'izistonda, qozog'istonda va Tojikistonning Janubiy tomonlarida, Turkmanistonda, O'zbekistonda, chunonchi Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida yashaydilar. Bular asosan nemis millatiga mansub bo'lgan dindorlardir. Toshkentdagi lyuteranlarga, diniy toat-ibodatlarini bajarishlari uchun, umumiy diniy ehtiyojlarini qondirish uchun ular nxyoriga 30-yillarda qurilgan Kirxa berilgan. Dushanbada ana shunday diniy maqsad uchun dindorlarning mablag'lari xisobiga va keng jamoatchilikning, jumladan xorijiy mamlakatdagilarning ishtirokida yangi Kirxa qurilgan. Bu jamoada diniy hayot bilan bog'liq cho'qintirish, marhumga janoza o'qish, balog'at eshiga etganlarni dindorlar safiga ko'shish va nikoh o'qitish marosimlari o'tkaziladi. Diniy bayramlar muntazam nishonlanadi, diniy targ'ibotlar, va'zlar o'kiladi, diniy muloqotlar tashkil qilinadi.

Markaziy Osiyoda boshqa protestant yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ular baptistlar, adventistlar, iegovistlar, pyatidesyatniklar, menonitlar deb ataladi. Bu sektalar hozirgi sharoitdagi tarixan o'zgarishlar ta'sirini o'zida muayyan tarzda ifoda etgan diniy jamoalar va guruxlardan iborat. Ular kelib chiqishiga ko'ra kuyidagi vaziyatlarga, eski rus sektantchilik shakllariga, protestantchilik harakatiga, pravoslaviyadagi eskicha marosimchilik va boshqa yo'nalishlarga, ya'ni 1917 yildan oldingi cherkovlar orasida ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarga borib taqaladi.

Eski an'anaviy rus sektantchiligiga Rossiyadagi krepostnoy sharoitlariga, uning g'oyaviy himoyachisi bo'lgan hukmron pravoslav cherkoviga, chorizmga nisbatan keng dehqonlar ommasining ijtimoiy noroziliklarini o'zida ifoda etuvchi diniy harakatlar asosida XVII asr oxiri va

XVIII asr boshlarida vujudga kelgan duxobarlar, molokonlar, xristoverlar, subbotniklar, ekopchilar, iegovist-ilinchilar va boshqalar kiradi. Ular sektantchilikning birinchi toifasini tashkil qiladi.

An'anaviy rus sektantchiligining muxlislari ularni chor hukumati va pravoslav cherkovi ta'qib etishi natijasida Stavropol o'lkasiga (keyinchalik u erdan Kanadaga), Sibirga, Kavkaz ortiga, Markaziy Osiyoga) ko'chib ketganlar. Markaziy Osiyoda xristian sektantchiliganing paydo bo'lishi va tarqalishi bu erlarni Rossiya chorizmi bosib olishi va pul-tovar munosabatlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'langan. Hozirgi kunlarda qozog'iston, O'zbekiston, qirg'iziston, Turkmaniston hududlarda son jihatdan uncha ko'p bo'lmagan molokan, duxobar, xristover mavjud. Toshkentdagi molokan birodarlari jamoasi va Jizzaxdagi jimturmas (prigun) molokanlar jamoalari respublikadagi eng katta jamoalar hisoblanadilar. Molokanlarning katta bo'lmagan guruxlari Samarqand, Xorazm, Farg'ona viloyatlarida ham bor.

Sektantchilikning ikkinchi toifasiga g'arb mamlakatlarida kapitalizm taraqqiyotining turli bosqichlarida vujudga kelgan va Rossiya imperiyasi hududida, jumladan, Turkistonda ham burjua munosabatlari shakllanish jarayonida va faol missionerlik harakatlari natijasida qaror topgan sektantchilik kiradi. O'z muxlislarining soni jihatidan eng kattasi - baptistlar (yunon. suv bilan cho'qintirish) birlashmasidir. O'zbekistondagi xristian sektalarining 65 foizdan ko'prog'ini baptistlar tashkil kiladi. Diniy ta'limot va marosimchilik borasnda baptizm an'anaviy protestantchilik asoslariga tayanadi va o'zining yangi asoslarini ham yaratadi; chunonchi, ular faqatgina balog'at yoshiga etganlarni yangitdan cho'qintirishadi va o'z saflariga qo'shadilar. Bu marosimni tabiiy suv havzalarida bajaradilar. Cho'qintirish, non va vinoni tatib ko'rish kabi sirli marosim sifatida emas, balki ramziy marosimlar, harakatlar sifatida qabul qilinadi. Ibodat uylarini jihozlashda xristianlikning ramziy belgilari ishlatilmaydi; ibodatlarning o'zi Bibliyani o'qishlar va sharxlashdan iborat bo'lib, targ'ibotlar va ashula aytishlar bilan qo'shib olib boriladi.

1944 yili sobiq SSSR dagi baptistlar jamoalari injilchi-xristianlar bilan birlashganlar. 1945-1947 yillarda bu birlashma ittifoqiga pyatidesyatniklar jamoasi, 1963 yili esa mennonitlar jamoalari ham qo'shildilar. Injilchi-xristian-baptist jamoalari sobik SSSR da Injilchi-xristian baptistlar kengashi tomonidan boshqarilib turildi. (Bu 1990 yilda injilchi-xristian baptistlarning ittifoqi degan nom oldi). 60-yillarda bularga karshi bo'lgan markaz tashkil topdi; injilchi-xristian baptistlar cherkovining kengashi degan nom oldi. Uzoq yillardan buyon bu markaz norasmiy ravishda faoliyat ko'rsatib kelmokda.

O'zbekistonda baptizm XIX asrning oxirlaridan beri mavjud bo'lib, uning Toshkentdagi jamoalari, shu jumladan, "Ettinchi kun" adventistlari Islohchi-adventist, pyatidesyatniklar, menonchilik, injilchi-xristian baptistlar kengashi, iegova shohidlari kabi protestantichi jamoalari xam mavjud.

Protestantlik boshqarmalarining Markaziy Osiyo rahbariyati o'z diniy faoliyatlarini yanada faollashtiradigan vositalarni muntazam tarzda izlamokda; jamoalarning tuzilishlarini mustahkamlaydigan jidstiy tadbirlar bilan shug'ullanmokda; targ'ibot-tashviqot ishlariga alohida e'tibor berib, diniy g'oyalarni, ibodatlarni hozirgi sharoitga moslashtirib, zamonaviylashtirmokda. Bu hol Markaziy Osiyo protestantlik yo'nalishlaridagi jamoalar va ularning muxlislari soni jihatdan birmuncha ko'payishiga, dindorlar orasidagi muayyan boshboshdoqlik kayfiyatlari yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmokda.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi protestantlik birlashmalari yangi mustaqil respublikalarda demokratik o'zgarishlarga muvofiklashishga intilyaptilar; islohot jarayonlarining rivojlanish to'lqinlarida targ'ibot ishlarini faollashtirmokdalar; dindorlarning ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtiroklarining o'zlariga ma'qul bo'lgan shakllarini belgilamoqdalar.

Ma'lumki, dinlar va dindorlar orasidagi o'zaro xamfikrlik va muloqotlar jamiyat taraqqiy etgan sari rivojlanib boradi. Dinlar orasidagi muloqotlar, hozirgi davrning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan masalaga aylanmoqda. O'rta Osiyo dindorlari orasidaga aloqalar, munosabatlarning yanada chuqurlashuvi ular rahbariyati va oddiy dindorlarning eng dolzarb ma'naviy-axloqiy muammolarini, tabiatni asrash va uni muhofaza qilish, bolalar va qariyalar haklda g'amxo'rlik, tinchlikni saqyaash va xayriya ishlari, jamiyatiing demokratik

jarayonlariga va uning ijtimoiy, siyosiy jihatlardan rivojlanishiga ko'maklashishlar bilan bog'liq masalalarni hal qilishga karatilgan hamkorliklar asosida rivojlanmoqsta.

**Xristianlikni O'zbekistonga tarqalishi.** Hozirgi kunda mamlakatimizda bir necha xristianlik oqimlari faoliyat olib boradi. Xristianlikning ham zardushtiylik, buddizm kabi O'rta Osiyo xalqlari tarixida o'ziga xos o'rni bor.

Bu din O'rta Osiyoga, xususan, O'zbekistonga ikki yo'l bilan kirib kelgan: bunga bir tomondan xristianlikka da'vat etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik faoliyati sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining bu hududga ko'plab ko'chib kelishi orqali oshdi. Bu dinni mahalliy aholi Missionerlar O'rta Osiyoning turli viloyatlariga milodning III asrlarida kirib kelganlar. Masalan, 280 yilda Taroz (Merke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik va missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (658 yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiyalar, monaviylar, buddistlar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lganlar. Ular Sosoniylar va Qoraxitoylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

Markaziy Osiyo territoriyasida islomning tarqalishi davrlarida islom bilan xristianlik o'rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar keskinlasha boshladi. Biroq X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) Marvda pravoslav metropoliyasi bo'lgan.

XIX asrning 70-yillari O'rta Osiyo mintaqasiga, pravoslavie bilan bir qatorda boshqa oqimlarning tarafdorlari ham kirib kela boshladi. Ular ortidan turli sektalarga mansub dindorlar: masalan, baptistlar, adventistlar, katoliklar va boshqalar ham paydo bo'ldi. 1879 yil 27 martda Rossiya imperatorining maxsus qonuni e'lon qilingach, bu jarayon yanada faollashdi. Rossiya armiyasi tomonidan birinchi jahon urushida asr olingan nemis, polyak, eston, shved, litvalik, latish va boshqa g'arbiy yevropalik askarlarning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi, ular e'tiqod qiladigan din yoki oqimning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bu, o'z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20-30 yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligida 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to'g'ri kelgan yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari e'tiqod jihatidan 10,1 ming pravoslav oqimiga mansub bo'lgan staroobryadchilar, 8,2 ming lyuteranlar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansub edilar.

Pravoslav yo'nalishi O'zbekiston hududiga Rossiya orqali kirib kelgan. 1871 yil 4 mayda Rossiya imperatori tomonidan Toshkentda Turkiston (hozirgi vaqtda O'rta Osiyo va Toshkent) yeparxiyasini ochishga qaror qilindi.

1880-yillarga kelib, Rus pravoslav cherkovi (RPCH) o'zining yangi ibodatxonalari sonini ko'paytirishga harakat qildi. Ularning aksariyati Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida qurildi.

1916 yil 16 dekabrda imperator buyrug'i bilan Turkiston kafedral sobori Verniydan (hozirgi Almati) Toshkent shahriga ko'chirildi.

Cherkovlar soni 1930-yillarga qadar O'zbekiston hududida O'rta Osiyo mintaqasining boshqa hududlariga nisbatan ko'p edi. 1920-40-yillarda O'rta Osiyo va Qozog'istonda xristian diniga mansub turli etnik guruhlar ko'payib bordi. Ikkinchi jahon urushi va undan so'ng O'zbekistonga Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Moldova va Boltiqbo'yi mamlakatlaridan ko'plab aholi evakuatsiya qilindi, pravoslaviega e'tiqod qiluvchi aholining soni taxminan 1 millionga yetdi.

1990 yil 20 iyuldan O'rta Osiyo va Toshkent yeparxiyasi yepiskop sifatida, 1991 yil 23 fevraldan e'tiboran arxiepiskop Vasiliy Zaxarovich Ikim (ruhoniyluk ismi – Vladimir) rahbarligida boshqarib kelinmoqda. Uning tasarrufiga O'zbekistondan tashqari Qirg'iziston,

Tojikiston va Turkmanistondagi rus pravoslav cherkovlari kiradi. Rus pravoslav cherkovining O'rta Osiyo va Toshkent yeparxiyasi O'zbekistonning 11 ta hududiy tuzilmasida o'zining ibodatxonalari va markaziy boshqaruv organi hamda diniy o'quv yurtiga ega.

Xristianlikning O'zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katolitsizmdir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlandi.

Vatikan davlati O'zbekistonning mustaqilligini 1992 yil 1 fevralda tan olib, shu yilning 17 oktyabr kuni diplomatik aloqalar o'rnatdi. 1994 yil 31 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Vatikan davlatining nuntsiy elchisi Marian Olesdan Ioann-Pavel II ning ishonch yorlig'ini qabul qildi. Shundan so'ng Vatikanning Toshkentdagi elchixonasi rasman o'z ishini boshladi. M. Olesning qarorgohi Qozog'istonning sobiq poytaxti Almatida bo'lganligi sababli Toshkentdagi elchixona rahbarligini hozirgi vaqtga qadar K.Kukulka bajarib kelmokda.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo'lib, uning «Echmiadzin» jurnali hamda maxsus diniy o'quv yurti mavjud. Kilikiya katolikosati, Quddus va Konstantinopol patriarxatlilari, AQSH, Janubiy Amerika, Yevropa, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqdagi yeparxiya boshqarmalari Echmiadzin katolikosatiga bo'ysunadi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda armanlar taxminan O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga bir tomondan koreyslarning o'z qarindosh-urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo'ldi. Xorijdan ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQShlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi markazlarining hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda.

Rossiyada hamda O'rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910 yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga yetgan. Jamoa 1912 yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 yili O'zbekistonda adventistlarning O'rta Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi.

1976 yil 26 avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1967 yili Toshkentda V.A. Shelkov boshchiligidagi adventist-islohotchilar paydo bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, ularning faoliyati hozirgi davrga qadar davom etib kelmoqda. Adventistlar respublikaning besh hududiy tuzilmasida 9 ta cherkoviga ega.

Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktyabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi.

1921 yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar qurultoyida O'rta Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi.

1946 yildan O'zbekiston hududida Yevangelchi xristian-baptistlar (YEXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948 yil oktyabr oyidan esa T. Pen kov Butunittifoq YEXB kengashining O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930-yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958 yilga kelib O'zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko'rsatgan.

1964 yilda bu jamoalar norasmiy O'rta Osiyo Yevangelchi xristian baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik «Osiyo janubi bo'yicha baptist birodarlar kengashi» deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan baptistlarning 1-qurultoyida Yevangelchi xristian baptistlar ittifoqi federatsiyasi Yevro-Osiyo YEXB ittifoqi nomiga o'zgartirildi. YEXBIF respublikaning 8 ta hududiy tuzilmasida o'zining cherkovlariga hamda markaziy boshqaruv organiga ega.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan To'liq Injil xristianlarining (Pyatidesyatniklik) asrimiz 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30-yillarga kelib ularning soni 950 kishiga yetdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo'lsalar-da, Toshkent jamoasi markaziy o'rin tutdi. 1945 yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to'liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 yildan e'tiboran rasmiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Respublikamizda mavjud bo'lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e'tirof qilingan ta'limotdir. U protestantizmdagi eng yirik yo'nalishlardan biri hisoblanib, tarafdorlari taxminan 75 million kishini tashkil etadi. Lyuteranlar diniy ta'limoti XVI asrda Yevropa Reformatsiyasida M. Lyuter va uning tarafdorlari, birinchi navbatda, Melanxtonning kuch-g'ayrati bilan qaror topdi.

1989 yildan e'tiboran Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va O'rta Osiyodagi Yevangelchi-lyuteranlar cherkovi tarkibiga birlashtirilib qayd etildi. Hozirgi vaqtga qadar uning rahbari Georg-Fridrix-Karl Krechmar hisoblanadi. Lyuteranlarning oliy huquqiy organi Bosh sinoddir.

Mazkur cherkov MDH mamlakatlarida 5 yeparxiyaga bo'lingan bo'lib, uning markazlari Moskva, Omsk, Odessa, Almati hamda Toshkentda joylashgan.

Yevangelchi-lyuteranlar O'zbekiston hududida 1877 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1884 yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 yilda arxitektor A.L. Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

O'zbekistonda yana bir cherkov Novoapostollik cherkovi bo'lib, u xristian dinining protestantlik yo'nalishiga mansub oqimdir. Novoapostol cherkovi O'zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlagan bo'lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlarida ro'yxatdan o'tgan. O'zbekistondagi Novoapostol cherkovlari Berlin-Brandenburg okrugi tasarrufidadir. Uning apostol-prezidenti Frits Shreder.

O'zbekistonda «Iegova shohidlari» protestant yo'nalishidagi diniy tashkilot ham faoliyat yuritmoqda. Mazkur diniy sektaga 1870 yilda amerikalik ishbiarmon CH.T. Rassel tomonidan asos solingan. Sektaning markazi Bruklin shahri Akioda joylashgan va 15 a'zodan iborat bo'lgan «Rahbar korporatsiya»gagina bo'ysunadilar.

Ayrim manbalar O'rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40-yillapida paydo bo'lganligini bildiradi. O'sha davrda ular o'zlarini «kanalistlar» deb atab kelganlar.

Iegova shohidlari nomi sifatida O'zbekistonda 1994 yildan Toshkent hamda Farg'ona viloyatlarida rasmiy ro'yxatdan o'tdi. 1998 yil yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilinganidan so'ng qayta ro'yxatdan o'tish uchun respublikaning 3 ta hududiy tuzilmasidagi tashkilotlari hujjatlarini joylardagi adliya bo'limlariga topshirgan.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Buddizm ta'limoti qachon, qaerda paydo bo'lgan?
2. Buddaviylikning qanday yo'nalishlari bor?
3. Xristianlik qachon va qaerda paydo bo'lgan?
4. O'zbekiston xududiga xristianlik dini qachon kirib kelgan.
5. Hozirgi zamon xristian sektalari haqida nima bilasiz?

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2010.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda yuragimizda. –T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Buddizm. Spravochnik. – M.: Respublika, 1992.
6. Vasilev L.S. Istoriya religii Vostoka. 3-izd. – M.: 1998.
7. Iz istorii drevnix kultur Sredney Azii. Xristianstvo.- T.:1994.
8. Iso Jabborov, Ruhiiy olam: jaholat va kamolot. -T.: O'zbekiston, 1998.
9. Osnovom religiovedeniya. Pod redakstiey I.N. Yablokova.Izd. vtoroe.-M.: 1998.
10. Frezer D.D. Folklor v Vetxovom zavete.-M.: Politizdat, 1985.

#### **5-mavzu: Islom**

##### **Reja:**

1. Islom dini kelmasidan oldin arab qabilalarining diniy e'tiqodlari
2. Islomning vujudga kelishi va ta'limoti.
3. Qur'onning jamlanishi. Hadislar va ularning tarbiyaviy.
4. Islom dinidagi mazhablar va siyosiy oqimlar.

##### **Tayanch so'zlar**

*Manba, Qur'on, «Juz», Sura, Rasul, Jabroil, Vahy, Mushaf, Sunna, Suhuf, Shariat, Fiqh, Oyat, Ijmo', Qiyos,*

**Islom dini kelmasidan oldin arab qabilalarining diniy e'tiqodlari.** Arabiston yarim orolining **Makka**, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o'z ichiga olgan qismini qadimdan Hijoz deb atashgan. Iqtisodiy va jug'rofiy omillar bu shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga imkon berdi. Milodning VI asriga kelib Arabiston yarim orolining janubi va shimolida hukm surib kelgan davlatlar qulagach, mazkur karvon yo'lining qoq o'rtasida joylashgan Makka shahri Arabiston shaharlari ichida eng yirigi va ahamiyatlisi bo'lib qoldi. Makkadagi Zamzam qudug'i qadim zamonlardan beri atrofidagi ko'chmanchi qabilalar va o'tkinchi savdogarlar e'tiborini qozongan. Nihoyat, rivoyatlarga ko'ra, Makkada qurilgan birinchi bino – Ka'ba bora-bora barcha arablarning muqaddas joyiga aylanganini hisobga olsak, Makkaning shuhrat qozonishi uchun omillar etarli bo'lganini ko'ramiz.

Antik avtor Ptolemeyning "Geografiya"sida bu shaharning ismi "Makoraba" deb berilgan. Albatta, shahar eramizning II-asrida yashagan mazkur geografdan ancha qadimiyydir. Antik avtorlar Arabistonning g'arbida arablar uchun ziyoratgoh bo'lgan bir qancha shaharlar mavjud bo'lganini,

ulardan sistiliyali Diodor esa nomini ko'rsatmagan holda (albatta Makkaga ishora ekanligi aniq) barcha arablar uchun muqaddas shahar borligini eslatganlar. Makkada Quraysh qabilasi hukmronlikka erishmasdan oldin u erda Huzoa qabilasi yashagan. Huzoa qabilasining a'zolari o'z imtiyozlarini osonlikcha Qurayshga berib qo'yishlarini tasavvur qilish qiyin. Tabiiyki, ular orasida urush chiqqan. At-Tabariyning yozishicha, bu urush Xuzoa qabilasi uchun qironli bo'lgan. Ularning ko'pchiligi Makkani tashlab ketishga majbur bo'lganlar. Qusay tadbirkorlik qilib, shimoliy arab qabilasi – o'gay ota urug'i Banu Uzra va Makka atrofida istiqomat qilgan Banu Kenona qabilalari bilan ittifoq tuzgan ko'rinadi. Xuzoa ham o'z navbatida Bakr qabilasi bilan ittifoqda bo'lgan. Ammo bu ittifoq faol natija bermagan.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun Qusay birinchi navbatda Quraysh qabilasining o'zini bir joyga to'plashi kerak edi. O'rta asr arab tarixchilari bu qabila tarkibiga kirgan 25 urug` (batn)ni sanab o'tadilar. Ammo Qusay Makkaga kelganda ulardan faqat 16 tasi mavjud edi. 6 urug` Qusay bilan birga Makka vodiysiga ko'chib o'tdi, qolganlari Makka tashqarisida qoldilar. Ba'zi urug`lar keyinchalik umuman boshqa rayonlarga ko'chib ketdilar va Makka hayotida ishtirok qilmadilar, ayrim urug`lar qisman Makkada joylashdilar. Quraysh qabilasini jamoat jam qilganligi uchun Qusay "mujammi" (to'plovchi) laqabini oldi. Qabila boshlig'i sifatida Qusay o'z qabiladoshlariga Ka'ba atrofidagi yerlarni bo'lib berdi. Uning o'zi urug'i bilan Ka'badan shimolroqda joylashdi; banu adi va maxzumlar – sharqroqdagi, taym, jumah, sahm va zuhra – janub va janubi-g'arbroqdagi erlarga o'rnatdilar. Ka'badan 100 metrcha g'arbda Qusay uchun maxsus qurilgan uy qabila oqsoqollari (al-malo) to'planadigan joyga aylandi va Dor an-Nadva (Majlislar uyi) nomini oldi.

Ka'badan sharqroqdagi soy bo'ylab ketgan yo'l shaharning bosh ko'chasiga aylanib qoldi. Bu yo'l ustida bozor paydo bo'lib, bora-bora u shaharning ikkinchi muhim markazi rolini o'tay boshladi. Dastlab Makkada bor-yo'g'i 2-3 quduq bo'lib, borgan sari ziyoratchilarning soni ortib boravergach, ularni suv bilan ta'minlash qiyinlasha bordi. Shaharda yangi-yangi quduqlar qazishga to'g'ri keldi. 530-540 yillari Qusayning evarasi Abd al-Mutallib qadimdan muqaddas hisoblangan Zam-Zam qudug'ini tozalattirdi. V-VI asrlarda Arabiston yarim orolidagi tuzumlarning barchasi (G'assoniylar, Laxmiylar, Kinda va Himyar davlatlari) inqirozga yuz tutganligi, so'ng umuman ularning tarix sahifasidan yo'qolib ketganligi, albatta, Makka uchun qo'l keldi. Arabistonga qo'shni buyuk davlatlar – Vizantiya va Eronning yarim orol janubi va shimolida o'z hukmini o'rnatgani ham ob'ektiv ravishda Makka foydasiga xizmat qildi. Ammo bu tashqi omillarning ahamiyati qanchalik katta bo'lmasin, asosiy rolni ichki omil – Makka shahrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon o'ynadi, deb o'ylaymiz. Makkaning keskin rivojlanishiga Qusay va uning avlodlari amalga oshirgan islohotlar katta hissa qo'shdi. Shahar idorasining markazi Dor an-Nadvada mujassamlangandi. Dor an-Nadva birinchi navbatda Quraysh qabilasi oqsoqollarining (Malo) maslahat kengashi rolini o'ynadi. Qusay urug'idan bo'lgan har qanday yoshdagi kishi boshqa urug'lardan esa faqat yoshi 40 dan oshgan kishi unga kirishi mumkin edi. Urush e'lon qilinganda Dor an-Nadva ustiga Quraysh qabilasining bayrog'i tikilardi. Shuningdek, mavsumiy karvonlar Dor an-Nadvadan yo'lga tushar, qaytilganda keltirilgan mollar uning hovlisiga qo'yilardi.

Dor an-Nadvadan so'ng Qusay Ka'ba va uning nazorati bilan bog'liq xizmatni eng muhim vazifalardan biriga aylantirdi (Sodin al-Ka'ba yoki Sadona); Ka'baga haj qiluvchilarni suv bilan ta'minlash vazifasi "as-Siqoya" degan nomni oldi. Hojilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash maqsadida Makka aholisiga soliq joriy qilinib, uni amalga oshirish vazifasi "ar-Rifoda" deb ataldi. Bunga avvaldan mavjud bo'lgan "riyosa", "qiyoda" va "al-livo" mansablarini qo'shmoq kerak. Shunday qilib, Qusay bir vaqtning o'zida ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatni to'pladi, deyish mumkin. Ammo bu mutlaq hokimiyat emas edi. Taxminan 480 yili Qusay vafot qilgach, shahar idorasi bilan bog'liq olti lavozim uning ikki o'g'li Abd ad-Dor va Abd Manoflarga o'tdi. Ammo shahardagi boshqa urug'larning ham nufuzi ortib borardi. Qabila birligini saqlash, urug`lar o'rtasida xusumat chiqishining oldini olish maqsadida "Malo" yana o'nta yangi lavozimlarni joriy qildi.

Islom vujudga kelishi arafasida shahar idorasi quyidagi 10 ta urug` vakillari o'rtasida taqsimlangandi:

1. Al-Abbos, Hoshim urug'idan, Muhammad payg`ambarning amakisi – siqoya;
2. Abu Sufyon, Umayya urug'idan – qiyoda;



3. Al-Horis, Novfal urug`idan – rifoda;
4. Usmon, Abd ad-Dor urug`idan – al-livo, sidona, hijoba;
5. Yazid, Asad urug`idan – mashvara;
6. Abu Bakr, Taym urug`idan – ashnoq;
7. Xolid b. Valid, Maxzum urug`idan – qubba, ainna;
8. Umar b. Al-Xattob, Odi urug`idan – sifora;
9. Safvon b. Umayya, Jumah urug`idan – aysor;
10. Al-Horis b. Qays, Sahm urug`idan – hukuma, al-amvol al-muhjara.

Makkada islom g`alaba qozongach, Muhammad (sav) Ka`ba xizmati bilan bog`liq “sidona” va “siqoya”dan boshqa hamma lavozimlarni bekor qildi.

Tipologik jihatdan Makka idora usulini qadimgi Afinadagi respublika tuzumi bilan qiyoslash mumkin. Qadimgi Afinada ham dastlab asosiy rolni bir qancha e`tiborli urug`lar (fil va fratriyalar) boshliqlaridan tashkil topgan aristokratiya o`ynadi. Ammo sudxo`rlarning qudratiga barham berilgach, etakchilik xalq majlisi (ekkesiya) qo`liga o`tdi. Barcha amaldorlar, hatto ularning eng yiriklari – arxontlar va strateglar ham ekkesiya tomonidan tayinlanar va uning oldida hisobot berardilar. Makkada ham V-VI asrlarda etakchilik oqsoqollar kengashi – Dor an-Nadvaga o`tdi. Ammo farq shundaki, Afina xalq majlisida ovoz berishda butun demos, ya`ni barcha erkin aholi qatnashgan bo`lsa, Makka Dor an-Nadvasida faqat “Malo” – zodagonlar, qabila va urug` boshliqlari qatnashdilar. Afinada ham, Makkada ham jamiyat ba`zi vaqtlarda u yoki bu urug` boshlig`iga yakka, chegaralanmagan hokimiyat taqdim qilganini ko`ramiz (Afinada – Solon, Klisfen, Makkada – Qusay, Hoshim va hokazo).

Albatta, Makka shahar-davlatining idorasi nizolarsiz, sip-silliq kechgani yo`q. Qusay vafotidan so`ng Makka urug`lari ikki lagerga bo`lindi: Abd Manof va Abd ad-Dor tarafdorlari. Har ikkala tomon alohida ittifoq – Abd Manof tarafdorlari “Hilf al-Mutayyibin”, Abd ad-Dor esa “al-Ahlof”ni tuzdilar. Aytishlaricha, “al-Mutayyibun” (muattar islilar degani) bir idishdagi xushbo`y moddaga qo`lni botirib, so`ng Ka`ba devoriga surganlar; “al-Ahlof” (qasam ichganlar degani) esa, qo`llarini qurbonlikka so`yilgan molning qoniga botirib, so`ng Ka`ba devoriga surganlar. Keyinchalik Makka shahrida ichki savdoni rivojlantirish, bu erga o`z moli bilan kelgan savdogarlarning xavfsizligini ta`minlash maqsadida yana bir ittifoq – “Hilf al-fudul” (minnatdorlik yoki burchdorlik ittifoqi) tuzildi. Qusaydan so`ng hamma quraysh urug`larining hurmat-e`tiborini qozongan shaxs – Hoshim bo`ldi. Bu martabaga u birinchi navbatda qadimgi Yunonistondagi singari polis fuqarolari foydasiga in`omlar qilish /liturgiya/ tufayli erishdi. Ma`lumki, Yunoniston polislarida liturgiya boy kishilarning burchi hisoblanardi. Makkada bu narsa boylar tomonidan vaqti-vaqti bilan qurbonlikka tuya so`yilib, yo`qsillarni boqishda o`z ifodasini topdi. Xalq ko`ziga ko`rsatib katta xarajat qilish, daromad olishdan afzal hisoblanardi. Ammo bunday xarajatlar bekorga qilinmasdi. Masalan, Makkaga ziyorat qilgan har xil qabila vakillarini “boqish” evaziga bu qabila erlaridan o`tadigan Makka karvonlarining xavfsizligi ta`minlanardi. Hoshimdan so`ng har bir urug`da unga o`xshagan nufuzli shaxslar paydo bo`ldi. Ularning ichida Hoshimning o`g`li Abd al-Muttalib ancha vaqtdan beri yaroqsiz holga kelib qolgan Zamzam qudug`ini qayta tikladi. Bu paytda Makka aristokratiyasi savdo yo`llaridagi badaviy qabilalar bilan yangicha munosabat o`rnatdilar; ilgari qabila boshliqlariga karvonning xavfsizligi uchun xaq to`langan bo`lsa, endi ular bilan savdodan olinadigan foydaga sheriklik haqida bitimlarga /“ilof” - ulfatchilik/ kelishildi. Bu esa badaviylarni oddiy qo`riqchilardan sheriklarga /kompan`onlarga/ aylantirdi. Qur`onning “Quraysh” surasi shu haqdadir.

Makkaning tinch-osoyshta hayotida bir voqea yuz berdiki, u aholining xotirasida o`chmas iz qoldirdi. U ham bo`lsa Janubiy Arabistonni egallab turgan habashlarning Makkaga qarshi yurishidir. Bu haqda Qur`oning “Fil” surasida zikr qilingan, voqea sodir bo`lgan yil esa arab adabiyotida «om al-fil», ya`ni «fil yili» degan nomni oldi. Habash askarida fillardan foydalanilgani makkalilarga qattiq ta`sir qilgan ko`rinadi. Shahar aholisinnig aksariyati shaharni tashlab, atrofdagi tog`larga qochib ketdi. Abd al-Muttalib va boshqa bir qancha nufuzli makkalilar habashlar bilan muzokara olib borishga harakat qildilar. Ammo bir qancha sabablar, jumladan, habashlar yollagan badaviy arablarning muqaddas hisoblangan Makka territoriyasiga qurol bilan kirishdan bosh

tortgani, so'ng habash otryadida chechak kasalligi tarqalgani Makkani omon saqlab qoldi. Makka aholisining obro'si bu voqeadan so'ng yanada ortib ketdi, quraysh qabilasi sharaflı "al-iloııı" – xudo yorlaqagan qabila nomini oldi. Makka zodagonlari ichida Abd al-Muttalib habash lashkarboshisi bilan uchrashganligi tufayli eng katta obro' qozondi. Abd al-Muttalib obro'sining ortganiga aniq bir dalil – Yamandan habashlarning quvilishi va Sayf b. Zu Yazanning taxtga o'tirishi munosabati bilan Makkadan Yamanga kelgan delegastiyaga Abd Shams urug'ining boshlig'i Umayya va Taym urug'ining boshlig'i Abdulla bilan birga kirganligidir. Bu voqea taxminan 576-577 yillari yuz bergan. Shundan bir yil o'tar-o'tmas, bo'lg'usi payg'ambar 8 yoshga to'lganida Abd al-Muttalib taxminan 80 yoshlarda vafot qildi. Abd al-Muttalibdan so'ng Makka zodagonlari ichida etakchilik rolini VII asr boshlarida umaviylar urug'idan Abu Sufyon o'ynaganini ko'ramiz. Abu Sufyon yirik savdogar edi. U janub, sharq va shimolga uyushtiriladigan karvonlarda faol qatnashib, katta boylik orttirdi. Umuman olganda, VII asrning boshlarigacha Makka zodagonlari o'z faoliyatlarini asosan shahardagi urug'larning birligini saqlash, qo'shni badaviy qabilalar bilan do'stona munosabatda bo'lish va nihoyat, Vizantiya va Eron mojarosida bertaraflik mavqeini egallagan holda Makka shahri va uning savdosi xavfsizligini ta'minlashga qaratdilar. Zero Makka boyligining asosini savdo tashkil qilardi.

VI asrda Makka Qur'onda zikr qilingan shimol va janub savdosida etakchilikka erishdi. Makka karvonlari qanchalik katta bo'lganini quyidagi raqamlar ko'rsatib turibdi: bir karvon 2,5 ming mol ortilgan tuyadan iborat bo'lgan; 1,5 ming tuyaga ortilgan boshqa karvon molining umumiy qiymati 50 ming dinorni tashkil qilgan. Makka savdogarlari Arabiston janubiga Hindistondan keltirilgan oltin, qalay, qimmatbaho toshlar, fil suyagi, sandal yog'ochi, ziravorlar, ipak, bo'z, purpur matolar, jez, mis, kumush idishlarni, Sharqiy Afrikadan keltirilgan xushbo'y va muattar buyumlar, tuyaquş pati, qora daraxt yog'ochi (abnus), teri va qullarni, Yaman mollaridan fimiam, ladan, atir, qimmatbaho toshlar, Soqotra orolidan aloe va shakarqamish, Bahrayndan la'l singari mollarni boshqa joylarga eltardilar. Shimoldan ular bug'doy, un, yog', vino va Finiqiya hunarmandlarining mahsulotlarini keltirardilar. Nihoyat Arabistonning o'zidan yog', xurmo, jun, momiq, teri kabi mahsulotlar bilan savdo qilindirdi. Makka ana shu mollarning hammasini tushirish va boshqa erlarga yuboriladigan punktiga aylangandi. Makkada Shom (Suriya), Vizantiya va Eron savdogarlari uzoq muddat istiqomat qilar va Makka zodagonlari bilan yaqin munosabatda bo'lardilar. "Sira" kitoblarida asli shomli bo'lib, Makkada qolib ketgan va keyinchalik islomni qabul qilgan shaxslarning ismlari ko'plab keltiriladi. Ba'zi mutaxassislarning fikricha, Makka hatto o'ziga xos bank markaziga aylanib, savdogarlar uzoqlarga yuborilgan mollarning haqqini shu erning o'zida olishlari mumkin bo'lgan. Shuningdek, yuk tushirish va ortish ishlari, mol-mulkni sug'urta qilish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgandi.

Shuni aytish kerakki, Makka karvonlari muayyan shaxslarning ishtiroki bilan chegaralanmagan, balki unda Quraysh qabilasining barcha erkagu-ayol a'zosi qatnashishi mumkin bo'lgan. Kimdir unga o'z moli bilan qatnashar, kimdir molini boshqa bir vakil bilan jo'natar, yana kimdir molining yarmini qarzga olardi. Makka karvonlari umumjamoa ishi hisoblansada, amalda ularni eng yirik savdogarlar boshqarardilar. 624 yili Badr jangiga sabab bo'lgan karvonning umumiy qiymat 50 ming dinorga teng bo'lgan holda makkalik Abu Uhayha b. Saidning bir o'ziga tegishli 30 ming dinorli moli bo'lgan. Taym urug'idan Abdulla b. Jud'on va Mahzum urug'idan al-Valid b. al-Mug'ira Makkaning eng boy kishilaridan hisoblangan. Umuman mahzum urug'i boshqa urug'lardan ko'ra boyroq bo'lgan ko'rinadi, hatto shu urug'dan Abdulla b. Abu Rabia degan kishi "Idl Quraysh" (Quraysh xurjinining bir tomoni) laqabiga ega bo'lgan.

Savdo bilan bir qatorda Makkada sudxo'rlik (ar-Ribo) avj olib ketdi. Katta daromad keltiruvchi mavsumiy Makka karvonlarida qatnashish istagi aholining o'rtahol va bechorahol tabaqalarini sudxo'rlarga murojaat qilishga majbur qilardi. Boy savdogarlar savdo bilan bir vaqtda sudxo'rlik ham qilardilar. At-Tabari ta'kidlashicha, Muhammad (s.a.v)ning amakisi Abbos o'z qarindoshlariga qarzga bergan ko'p puli bor edi. Hijraning o'ninchi yili – vidolashuv haji paytida Muhammad payg'ambar Abbos qarzlarning barchasini bekor qildi. Odatda sudxo'rlar 1 dinordan 1 dinor, ya'ni yuz foiz foyda olganlar, ammo, Qur'onning riboga oid oyatlariga qaraganda bu foyda 200 va hatto 400 foizgacha chiqib ketgandi. Qadimgi Afinadagi singari Makkada ham "pul va

sudxo'rluk" Makka jamiyatida sifat o'zgarishiga olib kelishi mumkin edi. Chunki patriarxal ukhad bilan rivojlangan pul-tovar munosabatlari bir-biriga mos kelmasdi. Baqara surasining 278-279 oyatlari aniq-ravshan shunga ishora qilyapti: "Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqingiz va agar chindan mo'min bo'lsangiz, riboning qolgan qismidan (ya'ni qarzni uzilmagan qismidan) voz kechingiz. Endi agar bu ishni qilmasangiz, Alloh va uning rasuli tomonidan urush (harb) bo'lishini bilib qo'ying. Agar tavba qilsangiz, mol-mulkingiz o'zingizda qoladi – mazlum ham, zolim ham bo'lmaysiz". Demak, Makka jamiyatida islom arafasida sudxo'rluk shunchalik ildiz otib ketgan va bu hol og'ir ijtimoiy oqibatga olib kelishi mumkin ediki, unga qarshi Alloh va uning rasuli tomonidan urush e'lon qilish haqida ogohlantirishga ehtiyoj tug'ildi.

Ribo bilan bir qatorda chayqovchilik (ihtikor) hali Makkaga yetib kelmagan mollar bilan ulgurji savdo qilish, yig'ilmagan hosilni tag-tomiri bilan sotib olish hollari ko'payib ketdi. Bunday hollarda kimdir asossiz katta boylik orttirar, kimdir, aksincha yo'qsillar safiga o'tib qolardi, ya'ni sinfiy tabaqalanish yanada kuchayardi. Shaharlilar va badaviylar o'rtasidagi savdoda ko'pincha badaviylar ziyon ko'rardilar. Bu hol badaviylarda shaharlilarga nisbatan adovatni kuchaytirardi. VI asrda Makkada pul-tovar munosabatlari qanchalik rivojlanganini o'sha davrda keng foydalanilgan istilohlar (terminlar)dan ham ko'rish mumkin. Pul birliklari sifatida dinor va dirham ishlatilgan. Dinor – oltin, dirham – kumush tanga bo'lib, ular Makkaga Shom, Iroq va Misrdan kelardi. Ibn Hishomning uqtirishicha, Makkada zarb qilinmasada, ammo u erda bu tangalarning katta zaxirasi bor edi.

Arabiston yarim orolining boshqa erlari kabi Makka aholisining ijtimoiy tarkibi ham urug`-qabilachilikka asoslangandi. Eramizning V asridan boshlab bu erda yashagan asosiy qabila-quraysh qabilasi edi. Makka aholisi uchta katta ijtimoiy toifaga bo'linardi: 1) asl qurayshiyalar (suraho), 2) boshqa yoqdan kelganlar (mavali) va 3) qullar (abid). Asl qurayshiyalar o'z navbatida ikki qismga ajralgandilar: Ka'ba atrofida yashaydigan urug`lar (quraysh al-bitah) va shahar atrofida yashaydigan urug`lar (quraysh az-zavohir). Quraysh al-bitah aholining eng boy va shahar idorasida asosiy rolni o'ynaydigan qismini tashkil qilar, quraysh az-zavohir esa kambag'al, yarim ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi ommadan iborat edi. Makkaning o'ziga xos mavqei tufayli quraysh qabilasi boshqa qabilalarga nisbatan ustun turardi.

Har yili haj mahalida ko'plab boshqa qabila a'zolari Makkada qolib ketar, ular quraysh qabilasining u yoki bu urug`i himoyasiga o'tardilar. Bunday kishilar mavla (ko'pligi mavali) deb atalardilar. Mavalining maqomi hilf (ittifoq) yoki jivor (qo'shnichilik) asosida hujjatlanardi. Mavali ham Makkaning erkin kishilari hisoblanib, ular savdo yoki boshqa xohlagan mashg'ulot bilan band bo'lishi mumkin edi. Ba'zi mavali katta boylik va e'tibor qozonganliklari ma'lum. Makka-Madina urushlari (622-630) paytida o'lgan va yarador bo'lganlarning ro'yxatiga qaraganda shahar aholisining nisbatida mavali deyarli asl qurayshilar soni bilan baravar bo'lgan. Makka aholisining taxminan 4/5 qismi asl qurayshilar va mavalidan iborat bo'lsa, qolgan 1/5 qismini qullar tashkil qilardi. Makkada ikki toifadagi qullarni – Afrikadan kelgan qora tanlilarni hamda Shom va Mesopotamiyada qul bozorlaridan sotib olingan oq-sariq tanlilarni uchratish mumkin edi. Makka zodagonlari qullar mehnatidan xo'jalikning deyarli hamma sohasi –savdo, dehqonchilik, hunarmandchilik va uy-ro'zg'or ishlarida foydalanganlar. Ibn Hishom uqtirishicha, hatto Ka'bani ta'mir qilishda bir vizantiyalik qul – me'mor ishlagan. Shuni aytish kerakki, Makkada qul ayollarni nikohsiz va mahrsiz to'g'ridan-to'g'ri sotib olib, ulardan tasalli uchun foydalanmoq keng avj olgandi. Ularning soni chegaralanmagan, agar ulardan farzand tug'ilmagan bo'lsa, hech qanday "taloq" rasmiyatisiz sotib yuborish mumkin edi. Bundan tashqari Makka aholisi orasida uncha ko'p bo'lmagan miqdorda nosora (xristian) va yahudiy dinlarida bo'lgan ajnabiy erkin kishilar ham bor edi. Ammo ular hech qanday uyushmani tashkil qilmagan va Makka siyosiy hayotida ularning deyarli roli yo'q edi.

Xulosa qilib aytganda, bir necha asrlik tarixni o'tagan Makka shahri islom vujudga kelish arafasida o'ziga xos idora uslubiga ega bo'lgan davlat birligini tashkil qilardi. Asrlar davomida diniy va savdo markazi sifatida ma'lum bo'lgan Makka VI asr oxiri va VII asr boshida janubiy va shimoliy Arabistondagi qadimgi davlatlar (Himyar, Hira va G'asson) qulagach, Arabiston yarim orolining siyosiy markaziga, Makka zodagonlari esa Arabiston bo'ylab gegemonga aylangandilar.

Shu narsa xarakterliki, Arabiston o'sha davr buyuk davlatlari hisoblangan Vizantiya va Eron bilan maydoni jihatidan ham teng kelardi (salkam 3 mln.kv.km.). Shunday vaziyatda arab yakka xudoligi – islom dinining targ'iboti aynan Makkada boshlangani tabiiy hol edi.

Makkadan taxminan 350-400 km. shimolda **Madina** shahri joylashgan. Qadimda Yasrib nomi bilan ma'lum bo'lgan bu shahar hosildor, sersuv vohadan iborat edi. Qadimgi Yasrib tarixi hali yaxshi o'rganilmagan. Yasrib tarixi hijradan taxminan bir asr oldin, ya'ni VI asr boshlarida ishonchli tus oldi, deyish mumkin. Bu paytda Yasrib bir necha qishloqlarga bo'linganligi haqida ma'lumotlar bor. Har bir qishloq o'z navbatida yana ikki qismga bo'linib, birinchisi – u yoki bu urug'ga qarashli erlar va uylarni o'z ichiga olgan bo'lsa, ikkinchisi – utm (ko'pligi otom) deb atalgan, devor va darvozalari bor qo'rg'onidan iborat edi. Katta urug'lar bir necha utmga ega bo'lishlari mumkin edi. Tashqi hujum xavfi tug'ilganda yoki urug' erkaklari urushga ketganlarida ayollar, yosh bolalar va qariyalar utmga berkinardilar. Bundan tashqari urug'ning g'allasi, qurol-yarog' va qimmatbaho buyumlari ham utmlarda saqlanardi. O'z utmiga ega bo'lmagan, ochiq mahallada yashaydigan mayda urug'lar ham yo'q emasdi. Ammo bunday urug'lar albatta boshqa yirik urug'ning homiyligida bo'lmog'i zarur edi. Yasrib aholisi asosan yahudiylar va arablardan iborat edi. Yahudiylar katta-katta guruh bo'lib yashardilar. Har biri ikki mingdan ortiq odamga ega bo'lgan uchta yahudiy qabilasi ma'lum: qaynuqo', nadiyr, qurayza. Arab adabiyotida bundan tashqari 20 dan ortiq mayda va nisbatan yirik yahudiy urug'larining nomi keltiriladi. Yasrib yahudiylari odatda ochiq joyda emas, balki mustahkam utmlarda yashaganlar. As-Samhudiyning ta'kidlashicha, yahudiylarga tegishli utmlarning umumiy soni – 59 ta bo'lgan. Yahudiy qabilalari Yasribning hosildor, obod qismlarini egallagandilar. Banu Nadiyr qabilasi Yasribning janubi-sharqiy qismidagi Vodi Muzaynab, Banu Qurayza – ulardan shimolroqdagi Vodi Mahzur, Banu Qaynuqo' esa mazkur ikkala qabiladan shimoli-g'arbroqda, shahar markaziga yaqin joyda istiqomat qilardi. Shuningdek, boshqa ko'p yahudiy urug'lari ham qulay erlarda yig'noq bo'lib yashardilar. Tarixiy manbalarga ko'ra eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida Hijozga ko'plab yahudiylar ko'chib kela boshladilar. Birinchi navbatda bu Rim imperiyasining O'rta dengiz sohilini istilo qilganligi, ayniqsa Yahudiya urushi /70 y./ deb nom olgan Falastin yahudlarining Rimga qarshi qo'zg'oloni qaqshatqich ravishda bostirilganligi tufayli bo'ldi. Yahudlar rim legionerlarining ta'qibidan qochib Hijozning bir qancha shaharlarida, jumladan Yasribda panohtopdilar. Albatta, yahudiy immigrastiyasi bir daf'ada yoki qisqa muddat ichida yuz bergan deb bo'lmaydi. Bu uzoq davom etgan jarayon bo'lishi kerak.

Yasribning islomdan oldingi arab aholisiga kelsak, ular asosan 2 ta qabilani tashkil qilardilar: banu Aus va banu Xazraj. Arab nasabchilarinnig uqtirishicha, bu ikki qabila o'zaro qon-qarindosh bo'lib, ular asli vatani janubiy Arabistondan yarim orolning boshqa rayonlariga tarqab ketgan Azd qabila turkumiga kiradilar. Aus va Xazraj qabilalari o'z navbatida 5 tadan yirik va bir qancha mayda urug'larga bo'linib, ularning umumiy soni 40 tadan ortib ketgandi. Bundan tashqari Yasrib atroflarida Aus va Xazraj bilan homiylik asosida bog'liq bo'lgan bir qancha mayda arab urug'lari yashagan. Aus qabilasi Yasribning sharqiy va janubiy qismini, Xazraj esa shaharning o'rta va shimoliy qismini egallagandi. Aus erlari unumli, dehqonchilik uchun qulay bo'lib, asosiy yahud rayonlariga tutash edi. Xazraj erlari esa, aksincha kam hosilli bo'lib, faqat Qaynuqo' erlariga yaqin edi. Bu holat ikkala arab qabilasi o'rtasidagi va Yasribning arab va yahud aholisi o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qilmay qolmadi. Ko'p sabablarga ko'ra va ularning ichida eng muhimi - aholisi yakkayu-yagona etnik unsurdan tarkib topgani tufayli Makkaning boshqaruvi islomdan oldingi 2-asr davomida barqaror shaklda bo'lgan bo'lsa, Yasribda, aksincha, bunday barqarorlik amri-mahol narsa edi. Bir qabila qo'lida hosildor erlarning to'planib qolishi, qolaversa, etnik-dinik qarama-qarshiliklar doimo nizo chiqishini taqozo qilardi.

“Ayyom al-arab” turkumiga kirgan bir qancha “kunlar” ana shu voqealar bilan bog'liqdir. Bu erda ham asosiy sabab er-mulk masalasiga borib taqaladi: nisbatan zaif Aus qabilasi hosildor erlarga ega bo'lib olgandi. Aksariyat to'qnashuvlarda Xazraj qabilasi yutuqqa erishardi. Voqealar shu zaylda ketsa, pirovard natijada Xazraj shaharda ustunlikni qo'lga kiritishi mumkin edi. Aus ikki qo'shni yahud qabilasi Qurayza va Nadir bilan ittifoq tuzishga urinib ko'rdi. Ammo Xazraj etarli darajada kuchli ekan, shekilli, urush bilan tahdid qilib, Qurayza qabilasidan 40 nafar o'spirinni

bandilikka oldi va ularning betarafligiga erishdi. Shundan so'ng Aus boshliqlari har yili Makkaga uyushtiriladigan haj marosimidan foydalanib, Quraysh qabilasi bilan Xazrajga qarshi ittifoq tuzishga urinib ko'rdi. Asosan savdoda hukmronlikni bermaslik uchun kurashib kelgan Makka zodagonlari bunday ittifoqni rad qildilar. Taqdirga tan berishdan boshqa iloj qolmagach, Aus bo'ysinishga majbur bo'ldi. Ausning tobelikka rozi bo'lmagan ba'zi urug'lari boshqa yoqlarga ko'chib ketdilar.

Shunday vaziyatda, chamasi Xazraj qabilasining boshliqlari qo'pol xatoga yo'l qo'ydilar: ular Yasribda to'la hukmronlikka erishish maqsadida ikki yahud qabilasi – Nadir va Qurayzaga urush bilan tahdid qilib, o'z erlarini bo'shatishlarini talab qildilar. Biroz vaqt o'tgach, Bayoda urug'ining boshlig'i bandilikdagi yahudiy bolalarini qatl qilishga buyurdi. Bunga javoban Aus qabilasi ikkala yahudiy qabilasi bilan ittifoq tuzdi. Xazraj ham badaviy arablar orasida ittifoqchilar qidirishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, bir-biriga zid ikki kuchli uyushma, ittifoq vujudga keldi. Tomonlar bir yarim oy mobaynida hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rdilar. Shu vaqt ichida har ikkala tomonning tarafdorlari birmuncha ortdi. Nihoyat, Qurayzaga qarashli Buos degan joyda to'qnashuv yuz berdi. Dastlab Aus tarafdorlari odatdagidek engila boshladilar. Ammo Xazraj kuchlarini boshqargan Amr b. An-Nu'monning kutilmaganda halok bo'lishi jang jarayonini o'zgartirib yubordi. Xazraj va uning ittifoqchilari jang maydonidan qochib, utmlarga berkina boshladilar. Ausiylar ularni biroz ta'qib qilgan bo'salarda, utmlarni qamal qilmadilar. Uning ustiga Aus qo'shinini boshqargan al-Hudayr b. Simak ham bir necha kundan keyin jangda olgan jarohatidan halok bo'ldi. Shunday qilib, Aus hijradan besh yil muqaddam yuz bergan "Buos" kunida o'z g'alabasini oxirigacha etkazmadi. Ular buni istamadilar ham, shekilli, zero Xazraj batamom mag'lub qilingan holda shaharda yana yahudiy qabilalari ustunlikka erishishlari mumkin edi. "Buos" kuni har ikkala tomon juda katta zarar ko'rdi: aholining yuqori tabaqalaridan ko'plab kishi qatl bo'ldi; yong'in va talon-taroj natijasida uylar va xususiy mulklar vayron bo'ldi. Bunday vaziyatdan chiqish uchun chora izlamoq darkor edi, Ayniqsa, betaraf mavqeda bo'lgan kichik urug'lar nizolardan manfaatdor emasdi. Umuman, "Buos" kundan so'ng ko'pchilik yasribliklar tinchlikka, ittifoqqa mayl bildira boshladilar. Aytishlaricha, Xazraj qabilasidan bir nufuzli kishini shaharning umumiy hokimi sifatida tan olish masalasida hamma qabila va urug' vakillari orasida muzokara ham ketardi. Shunday vaziyatda Yasribga Muhammad payg'ambar boshchiligida musulmonlarning hijrasi /622 yil/ yuz berdi.

Shuni unutmazlik kerakki, Yasrib atrofida ko'chmanchi arab qabilalari yashagan. Badaviylar o'xtin-o'xtin shahar aholisiga hujumlar qilib turardilar. Buni bartaraf qilmoq uchun shahardagi qabilalar badaviylarga "itova" to'lamoqlari yoki ular bilan hilf /ittifoq/ tuzmoqlari lozim edi.

Yasribning xo'jalik hayotini ko'p qirrali deb hisoblash mumkin. Yasrib aholisining ko'pchilik qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Erkin dehqon xo'jaligi bilan bir qatorda chorikorlik va ijarachilik ham mavjud bo'lgan. Chorikorlik va ijarachilikda erning unumdorligiga qarab, har xil miqdorda mahsulot bilan haq to'langan. Ba'zida erning bir qismini o'ziga va boshqa qismini er egasiga ishlab berish hollari ham bo'lgan. Chorikor va ijarachi dehqonlar aksariyat hollarda qarz olishga, uning evaziga o'z ulushlariga tegadigan mahsulotni o'sib turgan joyida /muzobana/ yoki ko'klayin /muhoqala/ sotishga majbur bo'lardilar. Qur'onning Madina suralarida savdoga oid ko'plab amr va farmonlar bor. Ayniqsa qo'shni badaviylar bilan faol savdo muomalasi mavjud edi. Badaviylar Yasribga tuya, qo'y, ot, jun, kigiz, yog` va pishloq keltirib sotardilar. Yasribdan esa ayollarga bezaklar va kiyim-kechaklar bilan qaytardilar. Yasrib temirdan qurol-yarog` va qishloq xo'jalik asboblari ishlab chiqarishda ham mashhur edi. Yasribda bir qancha bozorlar mavjud bo'lib, ulardan eng yirigi Vodi Bathon ko'prigi yonida joylashgan banu Qaynuqo' bozori edi. Bu bozor yahudiy Qaynuqo qabilasida ishlangan bezak va qimmatbaho buyumlar uchun ixtisoslashgandi. Yasribning shimoli-g`arbidagi Zubola degan joyda boshqa bozor bo'lib, u hijradan so'ng eng yirik musulmon bozoriga aylandi. Al-Baqi' - maxsus mol bozori edi. Katta bozorlarda har xil mol sotilar, ammo har bir mol uchun maxsus bo'lim ajratilgandi.

Bozorlarda oldi-sottidan tashqari sarroflik /pul almashish/ ishlari ham olib borilardi. Maxsus kishilar dallollik qilishar, ba'zida ular badaviylarning mollarini bozorga kirmasdan ko'tarasiga olib, so'ng bozorda yuqori narxda sotardilar. Nihoyat, Makka kabi Yasribda ham sudxo'rlik /ribo/

rivojlangandi. Sudxo'rluk sinfiy tabaqalanishni tezlashtiruvchi omil edi, chunki qarzdor kishi qarzini uzish uchun yana sudxo'rga murojaat qilishga majbur bo'lardi. Yasribda sudxo'rluk bilan arablar ham, yahudiylar ham shug'ullanardilar. Qur'onda ribo bilan shug'ullanuvchi yahudlar qoralangan. Yasrib Makkadan nisbatan rivojlangan hunarmandchiligi bilan ham farq qilardi. Bu erda asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, dehqonchilik uchun asbob-uskunalar tayyorlash taraqqiy qilgandi. G'o'r hurmo mevasidan vino va "fadix" deb atalgan ichimlikni arablar ham, yahudlar ham ko'plab tayyorlab, o'zlari ichardilar va boshqalarga sotardilar. Xurmo bargidan savatlar yasash tarqalgandi. Duradgorlar eshik-deraza va uy jihozlarini yasardilar. Yahudiylarning uylari jihozlarga boy bo'lgani ma'lum. Yasribning shimoli-g'arbida yulg'un daraxtzorlari va butazorlari mavjud bo'lganligi yog'ochdan har xil uy jihozlarini tayyorlashga imkon bergan. Shuningdek, arablar va yahudlar temirchilik bilan ham shug'ullanganlar. Ammo qimmatbaho bezak buyumlarini ishlash faqat yahud qabilasi banu Qaynuqo qo'lida edi. Yasrib yahudlari qurol-aslaha va sovutlar yasashda ham mashhur edilar. Bu ishda ular o'zlarini Dovud payg'ambarning vorislari deb faxrlanardilar. Bundan tashqari Yasrib ayollari yigiruv va to'qimachilik bilan shug'ullanardilar.

Agar shahardagi ichki ahvol barqarorroq bo'lganida Yasrib umuman Hijozda hukmronlikka erishishi mumkin edi. Shahar ahli buni tushunib etgan, ko'rinadi. Ichki nizolarni bartaraf qilishga qodir shaxs, ya'ni "hakam" Yasrib aholisi ichidan chiqmagach, ular tashqaridan bunday shaxsning kelishiga va shahar-davlat taqdirini o'z qo'liga olishiga rozi bo'ldilar.

**Qadimgi Arabiston dinlari** Arabiston yarim orolining katta qismida islom vujudga kelgunga qadar **ko'p xudolilik** hukm surardi. Arablarning eng qadimgi dinlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm va o'tmish ajdodlarga /salafarga/ sig'inishni kiritish mumkin. But-sanamlarga sig'inish – dinning yangi bosqichi bo'ldi. Ossuriylar shimoliy arab /"Aribi"/ qabilalariga hujum qilganlarida ularning sanamlarini ham asirga tushirganlari haqidagi ma'lumotga qaraganda miloddan avvalgi VIII asrdayoq har bir arab qabilasining o'z sanami bo'lgan. Badaviy arab qabilalari sanamlarini joylashtirish uchun maxsus ibodatxonalar qurganlar. Ikki qabila urushidan so'ng odatda mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlardi. Ba'zida g'olib qabila mag'lub qabilaning sanamini ham o'z sanami yoki sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli erlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Makka Arabistonning diniy markaziga aylangach, u erdagi Ka'ba sanamlarning panteoniga /to'plangan joyiga/ aylanib qoldi. Islom arafasida arablar orasida butparastlik shunchalik avjida ediki, hatto har xonadonning o'z sanami bor edi, deyish mumkin. Safarga otlangan kishi bunday sanamni qo'li bilan siypalab, so'ng yo'lga tushardi, safardan qaytgach esa, birinchi navbatda u yana sanamini silab-siypardi. Ibn al-Asirning uqtirishicha, 630 y. Muhammad (sav) Makkani "fath" etganida Ka'ba ichida 360 ta sanamni ko'rgan va ularni sindirib tashlashni buyurgan.

Ibn al-Kalbiyning arab ko'p xudoliligiga bag'ishlangan "Kitob al-Asnom" degan maxsus kitobi biz tahlil qilayotgan mavzu uchun eng muhim manbalardan hisoblanadi. Shu kitobda tilga olingan dastlabki 5 ta sanamning nomi /Vadd, Suvo', Yog'us, Yo'uq, Nasr/ Qur'onda ham zikr qilingan. /Nuh surasi, 22-23-oyatlar/. Ularning tasviri ko'pchilikka ma'lum edi: Vadd – erkak kishi, Suvo' – ayol kishi, Yog'us – sher, Yo'uq – ot va Nasr – burgut qiyofasida ifodalanardi. Qur'onda zikr qilingan eng qadimgi sanamlar jumlasiga Manot, Lot va Uzza ham kiradi / Najm surasi, 19/. Johiliya arablarining tasavvurida bu uchchala sanam ham ayol xudolar bo'lgan. Ibn al-Kalbiyning aytishicha, Manot hamma arablar uchun muhtaram hisoblangan. "Hamma arablar" deb Ibn al-Kalbiy Hijoz arablarini ko'zda tutayotgan bo'lsa kerak. Gerodotning kafolat berishicha, Lot shimoliy arablarning bosh xudolaridan biri bo'lgan. Tadmur malikasi Zeboning o'g'li Vahb al-Lot (Lot in'omi) deb atalgani shunga ishora. Nabotiyilar Lotni o'zlarining poytaxti Petraning «Ona xudosi» sifatida bilganlar.

Musulmonlar Toif shahrini fath qilganlarida Muhammad (sav) ning amri bilan Lot ibodatgohini buzib tashlaganlari - bu xudoga Hijozda ham e'tiqod qilinganining yorqin dalilidir. Uzzani Ibn al-Kalbiy eng keyin paydo bo'lgan ayol xudo deb beradi. Agar Manotni Yasribdagi ikki arab qabilasi - Avs va Xazraj, Lotni esa Toifdagi saqif qabilasi o'zlarining xususiy xudolari deb bilgan bo'lsalar, Makkada quraysh qabilasi Uzzani shunday o'rinda ko'rardi va unga qurbonliklar keltirardi. Payg'ambarning amakilari Abu Lahabning asl ismi Abdul – Uzza bo'lgani ham buni

isbotlaydi. G`atafon qabilasi Buss degan joyda Uzza sharafiga ibodatgoh qurgandi. Ibodatgoh sahnidagi uch xurmo daraxti ham muqaddas hisoblangan, nazr-niyozni shu daraxtlar ostiga qo'yilgan. Hijraning 8-yili Muhammad (sav) ning amri bilan bu ibodatgoh va daraxtlar yakson qilingan. Hirada ham Uzzaga ibodat qilinganligi ma'lum. Ular tong yulduzi (Zuhra)ni shu nom bilan ataganlar. Hira tarixidan al-Munzir Sh (505-554) asirga tushgan g`assoniylar podshosining o'g'li va bir qancha rohibani Uzza sharafiga qurbon qilgani ko'p manbalarda qayd qilingan.

Qurayshlarning Ka'ba ichkarisiga va atrofiga qo'yilgan sanamlari orasida eng mashhuri Hubal edi. U serdolik (qizil yarim qimmatbaho tosh)dan o'ng qo'lsiz inson shaklida yasalgan bo'lib, qurayshilar unga oltin qo'l ulagandilar. Bu sanam oldida 7 kamon o'qi turar, odamlar turli muammo bo'yicha shu o'qlarda fol ochardilar. Demak, Hubalga xizmat qilgan kohin shaxsiy masalalarda fatvo berish huquqiga ega bo'lgan. Uhud jangi paytida (625 y.) makkalilarning rahnomasi Abu Sufyon: «Hubalni yuqori ko'taringlar», - deb xitob qilgani boshqa sanamlar ichida Hubalning martabasi baland bo'lganini ko'rsatib turibdi.

Nabotiylar poytaxti Petradan topilgan yozuvlarda zu Shiro xudosining nomi bor. U balandligi 122 sm, eni 61 sm, silliqanmagan qora toshdan iborat bo'lib, oltin qoplangan asosga qo'yilgandi. Odamlar uzoq-uzoqdan u erga ziyorat qilar, qurbonliklar qilardilar. Epifaniy uqtirishicha, zu Shiro (Dusaris) bayrami kunini 25 dekabrda nabotiylar Petra va uning yaqinidagi Alusa degan joyda tantanalar bilan o'tkazardilar.

Ibn al-Kalbiyning «Kitob al-Asnom»iga kirmagan sanamlar ham bor. Ularning jumlasini 40 tadan ortiqdir. Qadimgi Yaman sanamlari Ibn al-Kalbiy e'tiboridan batamom chetda qolgan. Xayriyatki, ularning nomlari musnad - janubiy Arabiston yozuvlarida qayd qilingan. Yaman sanamlarining ham adadi ko'p - yuzdan ortiqdir; ammo sinchiklab qaralganda yozuvlarda ko'pincha xudolarning atoqli otlari emas, balki sifatleri ( taqvodorlik yuzasidan xudolarning otidan ko'ra sifatleri bilan atash - somiy xalqlarining qadimiy odatidir) zikr qilingan ko'rinadi. Qadimgi Yaman aholisining diniy tushunchasi shimoliy va markaziy Arabiston aholisining nisbatan ertaroq rivojlangan bo'lishi kerak, chunki miloddan oldinroq Yaman ko'p xudoligi asosan uch samoviy jism - Oy, Tong yulduzi (Zuhara) va Quyoshga sig'inishda o'z ifodasini topgandi. Mutaxassislar fikricha, qadimgi yamanliklar bu uch samoviy jismni Ota, O'g'il va Ona sifatida tasavvur qilganlar. Gap shundaki, hamma qadimgi yaman lahjalarida Oy - muzakkar ism (Main va Avsonda - Vadd, Saboda - Almaqah, Qatabonda -amm, ya'ni amaki, Hadramavtda - Sin), Zuhara yulduzi ham muzakkar (Astar), Quyosh esa - muannas ism (Mainda - «Nakrah», Saboda - «Zot Hamim», Qatabonda - «Zot Saxr») hisoblangan.

Qadimgi Babil, Suriya hamda shimoliy Arabiston aholisi odatda Quyoshni birinchi o'ringa, Oyni esa undan keyinga qo'ygan bo'lsalar, janubiy arablarda buning aksini ko'rayapmiz. Bu farqni birinchi navbatda tabiiy sharoitning har xilligi bilan izohlash mumkin. Shimolda Quyosh o'simliklarning tez rivojlanishiga yordam bersa, janubda aksincha, uning ko'zni qamashtiradigan nurlari saratonda aksariyat ekinlarni o'sishdan to'xtatadi, maysazor va gulzorlarni kuydiradi. Saboda uni Zot Hamim (Otashin) deb ataganlari bejiz emas. Oyni yo'li boshqa. Latofatli, oydin kechalari u karvonlarga, savdo va xunar ahliga yo'ldosh; beayov Quyoshdan loxas bo'lgan tanalar Oy nuridan yana jonlanadi. Bu narsa diniy tafakkurga ham ta'sir qilmay qolmadi.

Boshqa xudolarga nisbatan ota, amaki, mo'ysafid hisoblangan Oy, albatta, shu maqomga munosib sifatlarga ega bo'lmog'i lozim edi. Yozuvlarda unga tegishli «sodiq», «hakim» (donishmand), «alim» (bilag'on), muharram (muqaddas) kabi so'zlar uchraydi. Bir matnda Oy «Ota o'z aziz farzandlarini sevgani kabi mo'minlarni sevguvchidir» deyilgan. Bularning xammasi janubiy arablarda xudolar tushunchasi ruhiy-axloqiy darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi. Shuni qayd qilish kerakki, Main davlati qulagach (miloddan avval VI asr boshi), u erda Oy xudosini anglatgan «Vadd» xam yo'q bo'ldi. «Vadd» sanami Main savdogarlari orqali Arabistonning ko'p joyida ma'lum bo'lib, to islomgacha unga ibodat qilingan bo'lsada, janubiy Arabistonda sabolilar ustunlikka erishgach, Oy xudosi al-Maqah va Xavbas nomlarini oldi. Sabo' mukarriblari va maliklari Almaqah sharafiga ibodatgohlar qurdilar. Ularning eng yiriklari Sirvoh (Sabo' mukarriblarining poytaxti) va Ma'rib (Sabo' maliklarining poytaxti) shaharlarida joylashgandi.

Quyosh xudosi janubiy Arabistonda baraka va mo'l hosil keltiruvchi «Astarning onasi» (Umm Astar) sifatida ma'lum edi. Sirvoh shahridan topilgan sabo' yozuvida aytilishicha, Umm Astar ibodatgohiga bir yo'la to'rt farzand ko'rgan bir ayol to'rtta oltindan yasalgan timsol (haykalcha) in'om qilgan. Mainlilarda Nakrah va sabo'lilarda «Zot Hamim» deb atalgan Quyosh xudosi «nafrat» va «urush» maqsadlariga ham xizmat qilgan. Ossuriya, Bobil, Xanaan (Falastin), Tadmur va Habashistonda ma'lum bo'lgan «Astar» xudosi janubiy arablar ham ibodat qilganlar. Main yozuvlarida «Astar» tartibiga ko'ra negadir doimo Vadd va Nakrahdan oldin kelgan. Franstuz olimi Xalevi topgan ikki yozuvda esa Astartan ham oldin «El» yoki «Il» degan xudoning ismi mustaqil ravishda zikr qilingan. Juda ko'p mukarrib va maliklarning ismlari tarkibida ham «Il» bor: Kariba'il, Ilyafa' va hokazo.

Miloddan avval I asrda Janubiy Arabistonda Hamdon qayllarining nufuzi kuchayib, ular o'z xudolari «Tolib Riyomni» boshqa xudolardan ustun qo'ya boshladilar. Deyarli uch asr yozuvlarda zikr qilinmay qo'yilgan «Almaqah» faqat IV asrga kelib, yana paydo bo'ldi. Ammo bu safar uning «umri» qisqa bo'ldi: V asr o'rtalaridan boshlab Yaman yozuvlarida «Zu Samo», ya'ni «Osmon egasi» va «Rahmon» nomli xudolar paydo bo'ldi. Shuni aytish kerakki, bu ikkala xil topinishda ham yakka xudolik (tavhid) g'oyasi bor. «Osmon egasi» deganda qadimgi yamanlilar bitta osmonni yoki ko'plab osmonlarni ko'zda tutganmilar, bizga noma'lum. «Zu Samo» va «Rahmon» ismlari 10dan ortiq yaman (musnad) yozuvlarida zikr qilingan bo'lsada, ular bilan bog'liq ibodat va marosimlar haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi. Na bu ikki xudo sharafiga qurilgan ibodatgohlar haqida xabar bor. Lekin shu narsa ayonki, Almaqah, Tolib Riyom va boshqalar qabila xudolari sifatida ma'lum bo'lsa, Zu Samo muayyan qabila yoki jamoa xudosi emas, balki Yamanda qandaydir tanho xudoga topinishga da'vat qiluvchi aqida sifatida dunyoga keldi. Ammo yangi e'tiqoddagilar o'z yozuvlarida oldingi xudolarning ismini ham zikr qilishda davom etganlar.

Shu davrga tegishli satrlari qisman o'chib ketgan, ammo mazmuni tushunarli bir yozuvda aytilishicha, bir guruh «niyati buzuqlar» «Zu Samo» sanami turgan muqaddas joyga bostirib kirganlar, sanamni o'g'irlab, u erdagi bor narsalarni talon-taroj qilganlar hamda unga vasiyat qilingan vaqf erlarini egallab olganlar. Ammo bu xudoning obidlari (ya'ni unga ibodat qiluvchilar) kelib, o'g'irlangan narsalarni qaytarib oldilar, zarar etgan joylarni tuzatdilar va «Zu Samo» xudosi dan tavba va kechirim so'rab, qurbonliklar qildilar. Matnning oxiri «Zu Samo» o'z sha'bi (ya'ni xalqi)ning umrini «uzoq qilsin» degan ibora bilan tugagan. «Sha'b» so'zi bu erda shu xudo tarafdorlari va unga ibodat qiluvchilarni bildiriyapti.

Rahmon zikr qilingan yozuvlardan anglanishicha, doimo uning qudrati va quvvatidan madad so'ralgan. Masalan, bir maqbara atrofiga tosh devor qurilishi munosabati bilan quruvchilar «bi xeyli Rahmon», ya'ni «Rahmon qudrati bilan» degan yozuv qoldirganlar. Boshqa bir yozuvda «Rahmon - Samo egasi» deyilgan. Bu osmon xudosi demakdir. Boshqachasiga aytganda «Rahmon» «Zu Samo» o'rnini olgan bo'ladi. Keyinroq Rahmon «Osmon va Er egasi (Zu Samo va Ard) degan nomni oldi. Bu aqidaga e'tiqod qiluvchilarning tushunchasida Rahmon - butun borliqni boshqaruvchi yagona xudo edi.

Musnad yozuvlarining tadqiqotchisi A.G.Lundin bu aqidani janubiy Arabistonning noaniq monoteistik dini nomi bilan atab, uni III asrdan to VI asr o'rtalarigacha hukm surganini ko'rsatib berdi. V.V.Bartold fikriga qo'shilib, u aynan shu din xristian, yahudiy dinlari va Muhammad (sav) targ'ibotining o'rtasida vositachi rolini o'ynadi va islomning asosiy ideologik manbalaridan birini aynan shu aqidadan qidirmoq kerak, deb taxmin qildi. Shunday qilib, islom vujudga kelishi arafasida janubiy Arabiston aholisining e'tiqodida katta o'zgarishlar yuz berdiki, musnad yozuvlaridan bexabar bo'lganliklari uchun Ibn al-Kalbiy va boshqa arab axboriylari bu masalaga e'tibor bermaganlar. Umuman olganda, Arabiston yarim orolining janubida ham, shimolida ham aksariyat aholi har xil but-sanamlarga sig'inardi, ya'ni ko'p hudolikda edi.

*Arabiston yarim orolida yahudiylilik, xristianlik, zardushtiylik dinlarining tarqalishi* Islomdan oldin Arabistonning ko'p joylarida yahud jamoalari mavjud bo'lgani haqida ma'lumotlar ko'p. Yahudiylar bilan birga Arabistonga **yahudiy dini** ham kirib keldi. Islom vujudga kelgan paytda shimoliy Arabistondagi ko'zga ko'ringan savdo shaharlari - Yasrib, Xaybar, Dedan, Tayma, Fadak, Dumat al-Jandal, Tabuk, Eylat, Vodi al-qura aholisining katta qismini yahudiy jamoalari



tashkil qilardi. Qadimda janubiy Arabiston ham yahudiy dini keng tarqalgan joylardan hisoblanardi. Ma'lumki, mashhur karvon yo'li orqali Main va Sabo' savdogarlari G'azza shahrigacha borardilar. Isroil - Yahudiya podshosi Sulaymon (miloddan avvalgi X asr) va Sabo' malikasi haqidagi Tavrot va Qur'onda zikr qilingan qissa yahudlar va yamanlilar o'rtasida juda qadim zamonlardan beri aloqalar mavjud bo'lganiga ishoradir. Tarixiy adabiyotda habashlar bosib olmasdan oldin (525 y.) Yaman yahudiy dini hukmron bo'lgan mamlakat, hatto yahudiy mamlakati edi, degan fikrlar bor. Nihoyat, go'yo yahudiy dinida bo'lgan oxirgi Himyar podshosi Zu Navosning (517-525) ko'pchilik aholisi xristian dinida bo'lgan Najron shahriga qirg'inbarot keltirgani haqidagi ma'lumot ham axboriylar va xristian manbalaridan olingan.

Shuni aytish kerakki, Najron voqeasi sodir bo'lishi uchun Zu Navos yahudiy dinida bo'lishi shart emas edi. Tarixiy adabiyotda ko'pincha bu voqeaga yahudiy-xristian nizosi sifatida diniy tus berilsada, aslida bu siyosiy ahamiyatga molik, ya'ni Vizantiya va xristian Habashistonining Yamanga kun sayin kuchayib borayotgan tazyiqiga qarshi ko'rilgan chora edi. Himyar podsholigida yashab turgan yahudiy savdogarlari Zu Navosni bu ishga undagan bo'lishi mumkin. Beyt Arshamli Semionning Halab yaqinidagi Jobula cherkovi boshlig'iga 524 yil 20 yanvarda yozgan xatida Tabariya (Falastin) yahudlari Himyar davlatiga xristianlar orasida buzg'unchilik qilish uchun vaqti-vaqti bilan koinlar yuborayotgani aniq aytilgan. Semion shu xatida yirik xristian ruhoniylarini, jumladan Iskandariya (Misr) arxiepiskopini Himyar podshosi va a'yonlariga murojaat qilib, Tabariya va Falastinning boshqa shaharlaridan kelgan yahudiy ruhoniylarini zindonga tashlatishga da'vat qiladi. «Himyar shahidlari haqidagi xabarlar» kitobida ham Tabariyadan kelgan yahudiy arboblari Yaman yahudlarnikida yashagani qayd qilingan. Yaman habashlar tomonidan bosib olinganidan keyin ham u erda yahudiy dini saqlanib qoldi. Hatto islom g'alabasidan so'ng shimoliy Arabistondagi yahudlar quvg'in ostiga olingan bir paytda janubiy Arabistonda yahudlar daxlsiz bo'ldilar.

Yahudiy dini kabi **xristian dini** ham Arabistonga tashqaridan kirib keldi. Yahudiylar o'zlarini «xudo yorlaqagan xalq» deb hisoblab, ko'proq mahalliy aholidan xoli yashagan bo'lsalar, xristianlar aksincha boshqa erlardagi singari qadimgi Arabistonda ham keng mubashshirlik (xristian dinini tarqatish) ishlarni olib bordilar. Qur'on va islom arafasidagi johiliya she'riyatida xristianlar «nosoro» (nasroniylar) deb atalgan. Bu so'z «nazaret» nomidan olingan bo'lib, Iso Masihning kelib chiqqan joyiga ishora qiladi. Odatda, mubashshirlar tibb va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga qo'l solishga usta bo'lganligi uchun ko'pgina qabila boshliqlariga ta'sir qilganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki bu ishda ularning madadiga erishganlar. Cherkov tarixlarida mubashshirlarning mo'jizakor ishlari haqida rivoyatlar ko'p. Ular tabiat qiyinchiliklariga qaramay, badaviylar bilan birga yashab, birga ko'chib yuraverardilar. Bundaylarni «chodir rohiblari» deyishgan.

Ba'zi rohiblar u yoki bu vohada xonaqohlar (monastir) qurib, o'ziga xos manzilgohlar tashkil qilganlar. Bunday manzilgohlar arab savdogarlari va badaviylari uchun ochiq edi. Ular bemalol uzoq sahro yo'llaridan so'ng salqin gulzor chamanda dam olishlari, har xil ermak o'yinlari bilan va hatto vino ichish bilan dimog'larini chog' qilishlari mumkin edi. Ayni vaqtda «mehmonlar» rohiblardan xristian dini ta'limotlarini o'rganardilar. Qorong'u tunlari xonaqoh darvozasi oldida chiroq ushlab, karvon yo'lini yoritib turgan monax obrazi johiliya she'riyatidan keng o'rin olgan. Qul savdosi tufayli ham Arabistonga chetdan xristian dini kirib kelardi. Vizantiya viloyatlari va O'rta dengiz orollaridan keltiriladigan oq tanli erkagu-ayol qullar odatda manzil ishlarida va xunarmandchilikda mashg'ul edilar. Shahar boylari chiroyli xristian qizlarini o'zlariga joriyalikka olar, ona bo'lganlarini ozodlikka chiqarardilar. Masalan, Makkadagi banu Maxzum urug'ining boylarida Yunonistonli joriyalar ko'p bo'lgan. Hijoz shaharlariga xristianlar asosan Vizantiyaning viloyatlariga aylanib qolgan Falastin va Shomdan ko'chib kelganlar. Islom vujudga kelish arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma shaharlari va hatto Yasrib, Makka va Toifda ham talaygina falastinli va suriyali xristianlar bor edi. Shunisi xarakterliki, Dumat al-Jandal, Eylat shaharlarining janubida yahudlar yig'noq (kompakt) holda utmlarda yashagan bo'lsalar, xristianlar ko'p xudolikdagi arab aholi bilan aralash yashadilar. Al-Balazuri va at-Tabariylarning ta'kidlashicha, mazkur ikki

shaharning xokimlari xristianlardan bo'lgan. Makkada bir qancha xristianlar mubashshirlik va tabiblik bilan shug'ullanganligi ma'lum.

«Sira» kitoblarida dastlab xristian dinida, so'ng islomni qabul qilgan qullarning ismlari uchraydi. Masalan: Safvon b. Umayyaning quli Nastas (Anastas), Suhaybning quli Yuhanna va boshqalar. Aytishlaricha, Suhaybning o'zi ham asli vizantiyalik bo'lgan. Xristian dini Makka va Toif shaharlariga Laxmiylar podshohligining poytaxti Hira orqali ham kelgan. Makka savdogarlari u erga Xitoy, Hindiston va Eron mollarini istab borardilar. Hira mahalliy aholisining ko'pchiligi U-U1 asrlarda xristian dinida edi. Najron va Yamanning boshqa erlarida xristian dini shunday tez tarqaldiki, buning natijasida Himyar podshohligida ikki monoteistik din o'zaro raqobat qila boshladi. Avval aytilganidek, Yamandagi yahudiy-xristian raqobati zaminida ikki buyuk davlat - Vizantiya va Eronning xalqaro savdo yo'llarida o'z nufuzini o'rnatish uchun olib borgan kurashi yotadi. Habash istilosidan so'ng Yamanda cherkovlar soni ko'payib ketdi. Ularning ichida eng hashamatlisi Sanadagi «Qullays» (yunoncha «Eklessiya» so'zidan) nomi bilan mashhur cherkov edi. Bu cherkov buzib tashlangan Al-Maqah ibodatxonasi o'rniga qurilgandi. Zafor shahridagi xristian cherkovining qurilishini Habashiston negusi maxsus yuborgan missioner Girgenziyning faoliyati bilan bog'lashadi. 543 yili Marib to'g'onining ta'mir qilinishi munosabati bilan tuzilgan Abraxa yozuvida aytilishicha, ishlar bitgandan so'ng, shu erdagi cherkovda katta tantana bilan ibodat uyushtirilgan.

Birinchi navbatda Vizantiya va Eron imperiyalari chegaralariga yaqin erlarda istiqomat qilgan arab qabilalariga xristian dinining ta'siri kuchli bo'ldi. Axboriylar bunday qabilalarni «al-arab al-mutanassara» (xristianlashgan arablar) deb ataganlar; g'asson, laxm. tag'lib, ayyod, tannux, bakr, tayy, tamim shular jumlasidandir. Ammo xuddi shu qabilalar o'zlarining muayyan sanamlariga ega bo'lganini yuqorida ko'rdik. Demak, mazkur qabilalar a'zolarining hammasi emas, bir qismi xristian dinini qabul qilgan yoki xristian bo'lish bilan bir qatorda o'z sanamlariga sig'inishda davom etganlar. Arabiston xristianlarining bir necha diniy bayramlari bo'lgan. Youm sa'oniyn /yoki sha'oniyn/ fishdan /pasxa/ bir hafta oldin nishonlangan. Sa'oniyyidan 3 kun keyin – Xamis al-fish, pasxaning ertasi kuni esa – Bous, deyilgan. Pasxa nasroniylarning eng katta diniy bayrami hisoblanib, u tantanalar bilan, mash'alalar yoqib o'tkazilgan. Qizig'i shundaki, arab xristianlari jamoat bo'lib o'tkaziladigan tantanalarini forschadan siryoniy tiliga o'tgan “anjuman” so'zi bilan ataganlar. Bayram kunlari ular cherkovlarga va mozorlarga ziyorat qilganlar. “Bayram” ma'nosida Arabiston xristianlari asli oromiycha “iyd” so'zini /o'zbekchadagi hayit so'zi ham shundan/ ishlatganlar. Boshqa xristianlar singari Arabiston nasroniylari ham bolalarini cherkovda cho'qintirganlar.

Arabistonga kirib kelgan “tashqi” dinlardan yana biri – **majusiylilik** (zardushtiylik)dir. Zardushtiylik kohinlari mug` deyilgan, buni yunonlar va ruslar mag – magi, arablar esa majus shaklida qabul qilganlar. Almajus so'zi Qur'onda mustaqil din sifatida zikr qilinishiga qaraganda /Haj surasi, 17-oyat/ johiliya arablarida bu haqda aniq tushuncha bo'lgan. Hira va u orqali Eronga savdo ishlari bilan borgan arab savdogarlari albatta, “majusiylar” bilan muloqotda bo'lardilar. Ba'zi davrlarda Sosoniylar imperiyasi tarkibiga kirganligi va Eronga geografik jihatdan yaqin bo'lganligi tufayli Bahraynda /Sharqiy Arabiston/ majusiylar nisbatan ko'p bo'lgan. Arxeologlar ularga tegishli qabrlarni topganlar. Musulmon askari Bahraynga kelganda Sibxat Marzbon degan kishi boshliq majusiylarning bir qismi islomga kirgan, boshqalari esa juzya to'lash evaziga o'z e'tiqodida qolganlar. O'monda ham qadim zamonlardan fors jamoalari yashab kelardi. Bu erga islom kirib kelishi va keyinchalik shayxliklar vujudga kelishiga qaramasdan, ba'zi majusiylar juzya to'lab, o'z e'tiqodlarini yo'qotmadilar.

Yamandagi majusiylarga kelsak, ular asosan habashlarni haydashda qatnashgan fors askarlari va ularning avlodlaridan iborat bo'lgan. Bu toifa arablar orasida “al-abno” nomi bilan ma'lum edi. Islom g'alabasidan so'ng ular ixtiyoran bu dinni qabul qildilar va hatto Asvad al-Ansiy “rida” paytida /Muhammad payg`ambar vafotidan so'ng ba'zi arab qabilalarining islomdan qaytishi – 632-633-yillar/ payg`ambarlikni da'vo qilganida “al-abno” unga qarshi kurashdilar. Bu jamoalar ba'zi odatlari bilan atrofdagi arablardan keskin farq qilardilar. Lison al-arab qomusida “zamzama” degan so'zga “shivirlamoq” ma'nosi berilib, u majusiylarning ovqat tanovul qilish oldidan muayyan diniy iboralarni shivirlab o'qimog'i sifatida izohlangan. Xalifa Umar /634-644/ bu odatni man qilgan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirgi kunda ham arab mamlakatlarida ovqatdan oldin va undan keyin yuzga fотиha tortilmaydi.

**Islom dini vujudga kelishi va ta'limoti.** Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari, Habashiston, g'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy hamda Filippin aholisining bir qismi, Evropa qismida bo'lsa, Bolqon yarim orolida yashaydigan xalqlarning bir qismi dinga e'tiqod qiladi. Aholining ko'pchiligi mutloq musulmonlardan iborat bo'lgan 10 ta mamlakat, xatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etgan ba'zilar ham (Misr, Malayziya) 49 % i o'zlarini musulmon deb ataydilar. Ya'ni ularning ba'zilarida (Mavritaniya, Eron, Pokiston, Qamar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so'zi qo'shib aytiladi. Rasmiy statistika bo'yicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi musulmonlardan iborat 28 ta mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan. Er yuzi aholisining qariyb 1,5 milliardini islomga e'tiqod qiladi.

Shuningdek, islom Markaziy Osiyo, Kavkaz orti va Shimoliy Kavkaz, Volga bo'yi, g'arbiy Sibir va boshqa hududlarda yashovchi aholi orasida tarqalgan. Hozirda islomga e'tiqod qiluvchilarning soni oshib bormoqda. Ayniqsa e'tiqod haqidagi yangi qonunning qabul qilinishi, vaqtlı matbuot sahifalarida, radio eshittirishlarda va oynai jahon ko'rsatuvlarida din mavzuidagi chiqishlarning ko'payishi, bu haqida maxsus gazeta va jurnallarning keng tarqalganligi islomga bo'lgan e'tiborni oshirib yubordi.

Islom jahondagi ayniqsa Osiyo va Afrika qit'asi madaniyatining umumiy qiyofasida muhim iz qoldirgan. Bunga eng avvalo bu hududlarda arab tili va arab yozuvining keng tarqalganligi islom mafkurasi zaminida ishlab chiqilgan muayyan turmush tarzining hukmronligi musulmonlar ijtimoiy hayotining turli sohalari shariat tomonidan idora etilishiga imkon berdi. Shunga qaramay mahalliy madaniy an'analar yo'qolmay, ya'ni islom yo'nalishida rivojlangan va ko'pincha qadimiy musulmon an'analari sifatida qabul qilingan. Musulmonlar madaniy merosi milliy ozodlik harakati va rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillik uchun kurashi jarayonida asosiy masalalardan biriga aylandi va ijobiy ahamiyat kasb etdi. Islomning paydo bo'lishini tahlil etish davrning xususiyatlari, arab qabilalari o'rtasida hukmron bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni va ularning diniy-g'oyaviy hayoti bilan qisqacha tanishib chiqishni taqozo etadi. Arabiston yarim oroli noqulay iqlim sharoitiga ega bo'lgan qum sahrolardan va tog'lardan iborat bo'lib, uning aholisi V-VI asrlarda ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanar edi.

Yarim orolning cheksiz sahrolarida yashovchi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi arab qabilalari-bundan ham og'ir sharoitda yashar edilar. Ular taraqqiyot jihatidan ancha orqada qolgan, hali urug'chilik qabilachilik tuzimida edilar. Yarim orolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan va qadimdan Hijoz deb nomlangan joylar bu davrlarda birmuncha iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'lib asosan janubdan shimolga o'tgan qadimiy karvon yo'li bilan bog'liq edi. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganada VI asr Yamandan shimolga Suriya, Misr, Falastinga olib boradigan karvon yo'li faqat bu davlatlarning o'zlariga emas, balki janubda Yaman orqali Habashiston va Hindiston, shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va Eronni ham bir-biri bilan bog'laydigan o'z davri uchun yirik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'li edi. Hijozdagi ayrim aholi yashaydigan manzillar, yo'l ustida joylashgan Makka, Madina, Toyif shaharlari II asrda ancha rivojlangan. Bular shuningdek, ko'chmanchi arab qabilalarining savdo munosabatlariga jalb etuvchi markazlar sifatida ham xizmat qilar edilar.

Makka diniy markaz va savdo markazi sifatida arab qabilalari orasida e'tiborlisi edi. Makka markazida joylashgan Ka'ba islomda eng «muqaddas» hisoblanadi va «Allohning uyi» (Baytulloh) sajdagoh hisoblangan va hozir ham shunday. Undagi qoratosh (Hajar al-asvod) va uch yuz otmish sanam arab qabilalari e'tiqod manbaiga aylangan. Ziyoratga kelish oylari muqaddas hisoblanib, bu vaqtlar ichida qabilalarda urush va janjallar to'xtatilar edi.

V-VI asrlarda Makkada Quraysh nomli arab qabilasi hukmron bo'lib, qurayshlarning yuqori tabaqalari savdo-sotiq bilan ancha boyib ketgan, bu erda pul muammolari, sudxo'rlik keng rivojlangan. Shuningdek qul savdosi va qullarning mehnatidan foydalanish ham ancha kengaygan edi. Bu davrlarda Yamanni qo'lga kiritish uchun Vizantiya va Eron o'rtasidagi kurash avj olgan edi.

Yaman sasoniylar hukmronligiga o'tgan davrlar (572-628) Eron ko'rfazi orqali Hindistonga boradigan yo'l rivojlana boshladi va shu munosabat bilan Hijoz orqali o'tgan yo'l inqirozga uchraydi. Bu hol faqat Hijoz shaharlarigagina emas, balki barcha arab qabilalari hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi va umuman Arabiston bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulning boshlanishiga sabab bo'ldi.

Bunday vaziyatdan chiqish uchun Arabiston shaharlari va qabilalari o'rtasida mavjud bo'lgan tarqoqlik va kelishmovchiliklarga xotima berib, barcha arab qabilalarini bir davlatga birlashtirish, ularning tarqoq bo'lgan iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini yagona kuchga aylantirish zarur edi.

Ijtimoiy hayot taqozosi natijasida vujudga kelgan arab qabilalari o'rtasidagi markazlashishga intilish harakatlari arab jamiyatida VI asr oxiri VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar asosida yotar edi. Bu intilishni o'zida aks ettirgan mafkura islom dini vujudga keladi va markazlashtirilgan arab halifaligining kengayishi jarayonida bu din kuchli g'oyaviy qurol sifatida xizmat qiladi.

Arabchada «muslim» «o'zini Allohga topshirgan» degan ma'noni beradi. Qur'on vujudga kelmasdan ilgari, islom og'zaki targ'ib qilingan davrda bu so'z «Alloh ixtiyoriga topshirish» mazmunini bergan. Keyinchalik «islomni qabul qilish», «itoat etish» mazmunini kasb etgan. «musulmon», «muslim»ning bir oz o'zgartirilgan shaklidir. Ayollarning muslima deb tavsiflanganlarning sababini shundan ham bilsa bo'ladi.

Diniy nazariyada islom Alloh yuborgan so'nggi mujassam din ekanligi, Qur'on Allohning nozil qilgan kalomi bo'lib, Muhammad payg'ambarga vahy tarzida tushgan, tilovat ibodat hisoblangan. Ilk vahy-diniy ta'limotga ko'ra ramazon oyining yigirma ettinchi kuniga o'tar kechasi, milodiy hisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustiga o'tar kechasi boshlangan va 23 yil davom etgan. Vahy tusha boshlagan tun «Laylatul qadr» deb atala boshlagan. Bu hodisa Qur'onning 97-«al-Qadr» surasida ifodalangan. Muhammad (s.a.v.) payg'ambar targ'ibotlarini boshlagan dastlabki yillarda juda oz kishi u zotning izidan borgan. Shu bilan birga qurayshiylarning ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makka siyosiy hokimiyat tepasida turgan zodagonlar o'sha davrdayoq uning targ'ibotiga qarshilik ko'rsata boshlaganlar. Makkada ahvol jiddiylashgach, Muhammad (s.a.v.) Makka hukmdorlari bilan raqobatlashib kelgan qabilalarning vakillari bilan muzokaralar olib borgan va 622 yili ularning yordamida Madinaga hijrat qilingan.

Ilk islomni vujudga kelayotgan quldorlik tuzumi mafkurasi, deb baholash tarixiy va ilmiy jihatdan to'g'ridir. Biroq islom tarixidagi ayrim masalalar, voqealarni, xususan, hijraning sabablarini izohlab berish uchun bular etarli emas. Chunki, tarixiy manbalarga qaraganda, Makka zodagonlarining o'zlari birinchi navbatda quldorlar edilar. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) sahobalari, ansorlar esa, aksincha, qisman savdogorlar va o'rtahol kishilardan, ko'pchilik qismi kambag'al tabaqalarning vakillaridan iborat edi.

Misrlik munajjimlarning hisobicha islom dinida payg'ambar hisoblangan Muhammad (s.a.v.) 571 yil 21 aprelda Makkada quraysh qabilasining Hoshimiylar avlodidan bo'lgan Abdulloh va Omina xonadonida tug'ildi. Muhammad (s.a.v.) yoshligida etim qolgan, avval bobosi Abu Mutallib so'ng amakisi Abu Tolib qo'lida tarbiyalanadi. Balog'atga etgach savdogorlar orasida xizmat qilib, 24 yoshida beva boy ayol-Hadichaga uylangach, uning mablag'lari bilan mustaqil savdogorlik qila boshlab, juda ko'p davlatlarga borgan. Muhammad (s.a.v.) 610 yili qirqa kirganda Makkada yakka xudoga e'tiqod qilish to'g'risida targ'ibot yurgizgan.

U targ'ibot boshlagan dastlabki yillarda, nisbatan juda oz kishi (Hadicha, Abu Bakir, Talha, Zubayr, Usmon va qarindoshlari, ayrim savdogorlar) bu targ'ibot izidan borganlar. Shuning bilan birga o'sha davrdayoq qurayshlarning ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan badavlat zadagonlar bu targ'ibotga jiddiy qarshilik ko'rsata boshlagan. Mamlakatda ahvol jiddiylashganligini ko'rib Muhammad (s.a.v.) Madinadagi Aus va Hazraj nomli qabilalarning vakillari bilan muzokara olib borib Madinaga ko'chib ketgan.

622 yili yuz bergan bu ko'chish (arabcha «hijrat»)dan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlanadi. Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida «Muhojirlar» (ko'chib kelganlar), Madinalik qabilalardan islomni qabul qilganlar esa «ansorlar» (yordamchilar) deb nom olgan\*\*\*.

**Islom: Makka va Madina davri.** Payg`ambar Muhammad (s.a.v) Ularning hoshimiylar xonadonidan ekanligi, Makkada hukmron bo'lgan badavlat zodagonlar-ummaviylar xonadoniga mansubligi, bu ikki xonadon o'rtasida birmuncha vaqtlardan buyon siyosiy va iqtisodiy raqobat hukm surganligi tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum. Bunday sharoitda Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) hoshimiylar xonadonining ilgari obro'sini tiklash uchun harakat qilgan. Shuning uchun ham Makka zodagonlari bilan Muhammad o'rtasidagi qarama-qarshilikni, birinchi navbatda, badavlat quraysh qabilasi xonadonlarining ichki raqobati, ular o'rtasidagi xonadon obro'yi va islom targ`iboti uchun kurashning namoyon bo'lishi, deb tavsiflash mumkin.

Makka zodagonlari manfaatiga zid targ`ibot olib borgan Payg`ambar Muhammad (s.a.v.)ni ta'qib etish kuchaygan. Ayniqsa, o'zi majusiy bo'lsa-da, unga homiylik qilgan amakisi Abu Tolibning vafotidan keyin Muhammad payg`ambarning hayoti xavf ostida qolgan. U o'ziga sodiq barcha kishilar bilan Hijazning shimolida joylashgan, uning davrida «Madina» ya'ni shahar deb qayta nomlangan Yasrib shahriga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. Qur'on oyatlarining mazmuniga qaraganda, bu ko'chish ancha vaqt davom etgan. Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) orqasidan odamlar birmuncha vaqt davomida guruh - guruh bo'lib kelib turganlar.

Madina shahrida Muhammad targ`ibotini qo'llab-quvvatlagan va unga ergashgan muhojir va ansorlardan iborat musulmonlar jamoasi (Umma) vujudga kelgan. Bu jamoaga Madina arablarining a'zo bo'lib kirishi hijriydan keyingi yillarda davom etgan. Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) katta kuchga aylangan jamoaga rahbarlik qilar ekan, o'z tarafdorlariga rasul-Allahning elchisi, odamlarga ilohiy yo'l-yo'riq va qonunlarni etkazuvchi payg`ambar bo'lib tanila boshlagan.

Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) boshchiligidagi Madina shahri arablari makkaliklarni ham islomga bo'ysundirish, bu ikki shahar o'rtasidagi kelishmovchilikka chek qo'yishni asosiy maqsadlaridan biri qilib qo'ygan edilar. Shu munosabat bilan 624 yilda Badr quduqlari oldida, 625 yilda Uxud tog'i etagida janglar bo'lgan.

Makkaliklar 626 yilda madinaliklarga uzil-kesil zarba berish maqsadida Madina jamoasiga qarshi yirik safarga o'tlanishgan. Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) Madinani uzoq qamal sharoitiga tayyorlagan, shahar atrofiga chuqur handaqlar qazilgan va u erlarga kamonchi o'qchilar joylashtirilgan. Ammo Madinani qamal qilish uzoqqa bormagan, chunki bosqinchilarning ko'pgina otlari handaqlarga tushib ketgan, qishning sovug'i, izg'irin shamoliga qamalchilar bardosh berolmadilar, aksincha, ularning o'zlari o'rtasida nizo chiqa boshlagan. Madina qamalining bekor qilinishi, Madina jamoasini yanada jipslashtirgan, unga yangidan-yangi badavlat qabilalar kelib qo'shilgan. Natijada musulmonlar jamoasi tez kengayib va kuchayib borgan, u erda qabilalar birin-ketin islom dinini qabul qila boshlaganlar. Madinadagi musulmonlar jamoasi qisqa vaqt ichida kichik, lekin kuchli davlatga aylana borgan. Muhojir va ansorlar orasidan bir guruhi Muhammad payg`ambarga yaqin turar, uning maslahatchilari hisoblanar edi. Bular islom tarixida «sahobalar» yoki «ashoblar» deb nom olgan.

628 yili musulmonlar jamoasi uchun ayniqsa muhim bo'lgan bir voqea yuz bergan. Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) hali ham Ka'bani muqaddas deb e'tirof etishni namoyish qilish maqsadida bir guruh musulmonlar bilan birga, barcha qabilalar hajga boradigan mavsumda Makkaga jo'nagan. Ammo uning kelishidan shubhaga tushgan ummaviylar Makkadan ancha narida-Xudaybiya vodiysida uni to'xtatgan. Muzokaralar boshlanib, o'rtada shartnoma tuzilgan. Shartnomaga asosan madinaliklarga kelasi yildan boshlab hajga kelishga ijozat berilgan. Shartnoma tuzilgan vaqtda Muhammad va uning hamrohlari orqaga qaytib ketishini, makkaliklar esa, o'z navbatida, kelasi yildan boshlab madinaliklarning hajga kelishi uchun sharoit yaratib berishni o'z zimmalariga olganlar. Shunday qilib, «Xudaybiya sulhi» deb nom olgan bu hujjatda Makka zodagonlari Madina musulmonlar jamoasini mustaqil davlat sifatida birinchi marta e'tirof etishga majbur bo'lganlar.

\*\*\* Ислам энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2004, -Б. 173.

Bundan keyingi davr mobaynida Madina davlati yanada kuchaygan, atrofdagi arab qabilalariga qarshi yurishlar qilinib, ularning ko'pchiligi bo'ysundirilgan. Bu davlatning mavqei Makkaga nisbatan jiddiy ravishda kuchaya borgan. Natijada Makka zodagonlari Muhammad payg'ambar bilan kelishish yo'llarini izlay boshlaganlar.

629 yil oxirlarida makkaliklar rahbari Abu Sufyon maxfiy ravishda Madinaga kelgan va Muhammad payg'ambar bilan muzokara olib borib, agar u Makkaning diniy markaz bo'lib qolishiga rozi bo'lsa, shaharni musulmonlarga jangsiz topshirishga rozi ekanligini bildirgan. Muhammad payg'ambar bunga rozi bo'lgan va o'rtada hufyona shartnoma tuzilgan.

630 yil bahorida Madina qo'shinlari Makkaga yaqinlashganlar va hech qanday qarshiliksiz shaharga kirib borganlar. Zodagonlar Muhammad payg'ambarni peshvoz chiqib kutib olganlar. Shu vaqtdan boshlab u bilan Makka hukmronlari o'rtasidagi raqobat va qarama-qarshiliklar tugagan. Ular Muhammad payg'ambarning yaqin yordamchilariga aylanib, musulmonlar davlatida yuksak lavozimlarni egallay boshlaganlar.

Muhammad payg'ambar hijriy 11-yilning rabbi-ul-avval (632 yil iyun) oyida Madinada 63 yoshda vafot etgan. Bu davrda anchagina mustahkam musulmon davlati vujudga kelgan; u Yamanda Sino yarimoroligacha, Qizildengiz sohillaridan markaziy qum sahrolari-Sahroi Kabirgacha cho'zilgan katta hududni o'z ichiga olgan edi. Muhammad vafotidan keyin o'rinbosarlari-xalifalar davlatni boshqara boshlaganlar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixida «Arab xalifaligi» deb nom olgan. Muhammad vafot etgan birinchi kunlardan oq musulmonlar jamoasining yo'l boshchilari o'rtasida hokimiyat uchun kurash va o'zaro ixtiloflar boshlangan. Bu kurashda muhojirlar guruhi g'olib chiqqan va Muhammadning ilk Safdoshlaridan biri Abu Bakr xalifa deb e'lon qilingan.

Abu Bakr (r.a.) hukmronligining (632-634 yillar) dastlabki yillaridanoq bir qator arab qabilalari o'rtasidagi kelishmovchilikni tartibga solish uchun harakat boshlagan. Bundan tashqari, ayrim joylarda o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan mahalliy targ'ibotchilar rahbarligi ostida islomga qarshi diniy-g'oyaviy mustaqillik uchun kurash boshlagan. Vizantiyaning kuchsiz qo'shinlari jiddiy qarshilik ko'rsatishga ojizlik qilganlar. Xalifa Umar zamonida istilolar yanada kuchaygan; 634 yili Basra, 640 yili Quddusi Sharif olingan va Falastin, Suriya erlari to'la ravishda xalifalik qo'lga o'tgan. Shu vaqtning o'zida Mesopotamiya va Eronga ham yurishlar boshlangan. 637 yili arab qo'shinlari Sosoniylar poytaxti Ktesifonga bostirib kirganlar, 644-645 yillar Hindiston chegaralariga yaqinlashganlar. 639 yilda Misrga qarshi hujum boshlangan, shimoliy va shimoliy-sharqiy tomonga yurish boshlangan arab qo'shinlari 640 yilda Armanistonni bosib olganlar, 647 yilgacha arablar Shimoliy Afrika qirg'oqlarini Tunisgacha bosib olganlar.

Ulardan keyingi xalifalar-Usmon (644-656) va Ali (656-661) zamonlarida ham istilolar davom etgan. Kavkaz va Markaziy Osiyo tomoniga nisbatan harbiy yurishlar kuchaygan. Qisqa vaqt ichida Gruziya, Ozarbayjon, Eronning shimoliy qismi, Xuroson, Marv erlari arablar qo'l ostiga o'tgan va xalifalik qo'shinlari Amudaryo sohillariga chiqqan. Shunday qilib, 30 yildan ozroq muddat ichida arab xalifaligi yuqorida eslatilgan yurtlarni, o'sha zamondagi eng katta imperiya bo'lgan Vizantiyaga qarashli katta territoriyani ham bosib olgan, sosoniylar imperiyasini tomomila yiqitgan.

Natijada Amudaryo sohillaridan Shimoliy Afrikagacha, Tbilisdan va Darbanddan Yaman hamda Ummongacha cho'zilgan yangi imperiya vujudga kelgan. Osonlik bilan erishilgan g'alabalarning asosiy sababi ularga jiddiy qarshilik ko'rsatadigan kuchning yo'qligida, borlarining ham tarqoqligida edi. Qadimiy imperiyalar-Vizantiya va Eron o'zaro urushlar tufayli holdan toygan edi. Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo va Kavkazda ham yirik davlatlar yo'q edi; mayda feodal davlatlar o'zaro urushlar natijasida kuchsizlangan va tarqoq holda edi. Shuning uchun ham arab qo'shinlari nisbatan qisqa davr ichida ana shunday katta hududlarni bosib olishga muvaffaq bo'lgan edilar.

***Islom ta'limotining xalqlar madaniyatidagi o'rni.*** 630 yili Madina qo'shinlari Makkani qarshiliksiz egalladilar. Ummaviylar bilan raqobat tugab, ular Muhammad payg'ambarning yaqin yordamchilariga aylanadilar. Islom Arabiston yarim orolining asosiy hukmron diniga aylanadi.

Shunday qilib, Muhammad (s.a.v.) islom bayrog`i ostida arab qabilalarini birlashtirib yagona markazlashgan mamlakatni tashkil etadi.

Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyingi davrlarga kelib anchagina mustahkamlangan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat Yamanda Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrolarigacha cho`zilgan katta hududni o`z ichiga oladi. Payg`ambar vafotidan keyin xalifalar (yordamchilar) davlatni boshqaradilar va shu munosabat bilan musulmonlar davlati o`zining bundan keyingi tarixiga «arab xalifaligi» deb nom beradi. Muhammad (s.a.v.) vafot etgandan keyingi birinchi kunlardayoq musulmonlar jamoasi yo`lboshchilari hokimiyat uchun kurash boshlaydilar. Bu kurashda muhojirlar guruhi g`olib chiqadi va xalifalik davlatini choriyorlar boshqaradi. Abu Bakr hukumronligining dastlabki yillarida bir qator arab qabilalari o`rtasida Madina hukmronligiga qarshi o`z mustaqilligi uchun harakat boshlanadi. Bu voqealar diniy manbalar «ar-ridda» deb nom olgan. Islom tarixida Madina hukmronligiga qarshi bosh ko`targan qabilalar harakati «islomdan chiqish», «diniy qaytish» deb ta`riflangan. Dindan qaytgan kishilar qattiq ta`qib qilingan.

Keyingi xalifalar zamonlarida ham istilolar davom etadi. Kavkaz va Turon tomoniga yurish kuchayadi. Qisqa vaqt ichida Gruzin, Ozarbayjon, Eronning shimoliy qismi, Xurosan, Mavr erlari arab qo`l ostiga o`tadi va xalifa qo`shinlari Amudaryo sohillariga chiqadi.

Buning natijasida Amudaryo sohillarida Shimoliy Afrikagacha Tbilisi va Darbanddan Yaman va Usmongacha cho`zilgan imperiya vujudga keladi. Qisqa vaqt ichida arab qo`shinlarining bunday engil g`alaba qozonishining sababi nimada degan savol tug`ilishi tabiiy. Arab qo`shinlarining yaxshi tashkil qilingan yoki yuqori harbiy texnikaga ega bo`lgan deb aytish to`g`ri bo`lmaydi, chunki bu qo`shinlar badaviylar va boshqa har xil qabilalardan tuzilgan bo`lib, o`z zamonida ma`lum bo`lgan harbiy san`at va texnika darajasidan ham ancha orqada turar edi. Osonlik bilan erishgan g`alabalarning asosiy sababi bu davrda arab qo`shinlariga jiddiy qarshilik ko`rsatadigan kuchning yo`qligi edi.

O`rta Osiyo xalqlari hayotiga islomning kirib kelishi bilan kalom, ya`ni islom falsafasini va diniy talablarni bajarishda arab tili ustivorligi o`rnatilgan. So`ngra fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning turlariga ham arab tili ta`siri kuchli bo`lgan. Ammo mahalliy xalqlar islomdan ancha oldinroq o`z ona tillarida yozuvni, ma`rifatu-madaniyatini, ilm-fanni rivojlantirishga muvaffaq bo`lganlar. Bu jarayon keyinchalik islomning ta`sirida yanada rivojlantirilgan. Masalan, kishilarning turmush tarzi islom talabiga moslasha borgan, urf-odat va marosimlar diniy tus olgan, yoshlarga bilim berish uchun ko`plab madrasalar, qiroatxonalar tashkil etilgan.

Demak, O`rta Osiyo xalqlari hayotida ilm-ma`rifat va madaniyatning rivojlanishida islomning ijobiy rol o`ynaganini e`tirof etishimiz lozim. O`rta asrlarda shakllanib ijod etgan savodli kishi, olim, shoir, ma`rifatparvar mutafakkirlarning hayoti va faoliyatida islomning ijobiy roli bor desak xato qilmaymiz.

Islom O`rta Osiyo xalqlari turmush tarziga, madaniyatiga turli qirralarada o`z ta`sirini ko`rsatgan. Masalan, me`morchilik yodgorliklari - madrasa, masjid, maqbara va boshqa islomiy obidalarni qurishda, ilm-fan, madaniyat va ma`rifatni targ`ib qilishda ayniqsa musulmonlarni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash o`z ifodasini topgan. Ganchlardan turli shakllar yasab yopishtirish kabilar ham xalq ijodiy qadriyatiga mansubdir.

Islomda, eng avvalo, din asoslari-«arkon-ad-din» hisoblanuvchi besh asosiy amaliy va marosimchilik rukn talablarini bajarishni talab etilgan. Hozir ham shunday. Bular, birinchi, kalimai shahodatni bilish; ikkinchidan, har kuni besh vaqt namoz o`qish, uchinchidan har yili ramazon oyida bir oy ro`za tutish; to`rtinchidan, yiliga bir marta shaxsiy molidan zakot berish; beshinchidan, imkon bo`lsa, umrida bir marta haj qilishdan iborat. Islomga xos marosimlar va odatlar mana shu besh rukn bilan chambarchas bog`liqdir. Islomning bu amaliy va marosimchilik talablari xalqlar turmush tarziga kiritilib, o`ziga xos ma`naviy madaniyatning turiga, an`anaga aylantirilgan.


**Islom dinining asosiy manbalari.** Diniy manba tushunchasi shundan iboratki, jahon xalqlarining tarixiy taraqqiyotida vujudga kelgan va asrlar osha avloddan-avlodga o`tib, ularning e`tiqodiga aylangan har bir yirik dinlarning muqaddas yozuvlari (kitoblari) Alloh tomonidan in`om etilgan deb qaraladi. Ana shu muqaddas kitoblar dinlarning manbalari hisoblanadi.

Qur'on islomning muqaddas kitobi sifatida Allohning mo''jizali kitobi bo'lib, er yuzi musulmonlarining dasturamali, diniy ahkomlar manbaidir. Qur'on Muhammad Payg`ambarga vahy orqali tushgan tilovat ibodat hisoblanuvchi muqaddas kitobdir.

Ana shunday kitoblarni Alloh boshqa payg`ambarlarga ham o'z vaqtida nozil qilganligi haqidagi fikrlar ma'lum.

Qur'onda boshqa ilohiy yozuvlar bir yo'la tushgan deb hisoblansa, Qur'oni karim 23 yil mobaynida Alloh farishta Jabroil orqali Muhammad payg`ambarga vahy qilib yuborgan, so'ngra ular to'planib xalifa Usmon hukmronligi davrida mushaf qilingan.

Shunday qilib, islom dini shakllangan davrdan boshlab Qur'oni Karim islom dinining asosiy manbasi bo'lib kelayotir. Islom manbalaridan yana biri sunnadir. Sunna islomda Qur'ondan keyingi, uni to'ldiruvchi islom ilohiyoti va shariatning ikkinchi asosi sifatida e'tirof etilgan.



VII-IX asrlarda islom ta'limotining tobora keng yoyilishi bilan turli diniy jamoa va davlatlar o'rtasida diniy huquq, qonun-qoidalarni tartibga solish zaruriyati tug'ildi. Bunda Qur'on va hadislarga asoslangan shariat va uning manbalari-fiqh va qiyos vujudga keldi.

**Shariat** (arabcha to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik demakdir)-islom diniy huquq qonun qoidalari va me'yorlari majmuasidir. Ayni paytda shariat tushunchasi nafaqat islom diniy talablarini, balki diniy marosimlar, oila, nikoh va taloq masalalari, tijorat, iqtisodiy, mulkiy munosabatlar, musulmonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga xos ko'p masalalarni o'z ichiga oladi.

**Fiqh**-musulmon huquqi sifatida shariatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Fiqh shariatning g'oyaviy va amaliy harakatlari, tavsifi sifatida musulmonlarning turmush qoidalari va ijtimoiy qarashlarini ifodalaydi.

**Ijmo'**-(arabcha yakdillik bilan qabul qilingan qaror). Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma bo'lmagan huquqiy masalalarni hal etishda faqiya va mujtaxidlarning to'planib, yagona fikrdan hukm chiqarishi (fatvo berishi).

**Qiyos**-Qur'on va Sunnada uchramaydigan biror huquqiy masala, ulardagi shunga o'xshash masala orqali berilgan yo'l-yo'riqqa, ko'rsatmaga mantiqiy taqqoslash, o'xshatish yo'li bilan sharh, izoh etish asosida hukm yoki fatvo chiqarish.

Islom davlat dini bo'lib kelgan mamlakatlarda shariat talablariga amal qilib kelingan, hozir ham shunday. Hozirgi davrda O'zbekiston xalqlari orasida marxumning ettisini, yigirmasini, qirqini va boshqa marosimchiliklarini o'tkazish odati bor. Xolbuki, shariat bunday marosimlarni o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqida biron-bir ko'rsatma bermagan.

**Qur'onning jamlanishi, tarkibi va uning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri.** Qur'oni karim suralarining mushaf qilinishi va ichki tuzilishi bayonida, uning nozil bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Islom tarixiga ko'ra Qur'onning sura va oyatlari Muhammad payg`ambarga parcha-parcha tarzida vahy qilib borilgan; bu vahyning birinchi bayoni «Laylatur qadr» kechasi boshlanib, ularning vafotlarigacha, ya'ni 23 yil davom etgan. Islom dini, nur imon va hidoyatining boshlanishi bo'lgan ana shu tun diniy an'ana bo'yicha hijradan 12 yil oldin ramazon oyining 27-kuniga o'tar kechasi melodiy hisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustiga o'tar kechasi deb hisoblanib, Qur'onni vahy qilinishning boshlanishi to'g'risida 97-«Qadr» surasida ifodalangan. «Albatta Biz u (Qur'on)ni Qadr kechasida nozil qildik. (Ey Muhammad) Qadr kechasi nima ekanini Sizga ne ham anglatur?! Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir?!» (97,1-3).



Diniy ma'lumotlarda Muhammad payg`ambarga vahy kela boshlagandan so`ng, ularning qalblariga mustahkamlanib qolgan, Alloh ularga targ`ibot boshlashga da`vat qilganlari to`g`risida Qur`onda bor. Qur`onning 73-«Muzzammil» («O`ralib olgan») va 74-«Muddassir» («Burkalgan») nomli suralaridagi dastlabki oyatlarida o`z ifodasini topgan. Muzzammil-o`ralib olgan, ya`ni biron narsadan qo`rqan kishi arablar odati bo`yicha kiyim yoki to`shaklariga o`ralib olishga harakat qilar ekan. Payg`ambarimiz (s.a.v.) ham mushriklarning bergan aziyatlaridan xafa bo`lib yotganlarida, shu suraning oyatlari nozil bo`lgan deyiladi. Unda Rasul (a.s.)ga Alloh taolo tungi ibodat qoidalaridan ta`lim beradi. Tunni faqat uyqu bilan ham emas yoki faqat ibodat bilan ham emas, balki har ikkisiga ham ma`lum vaqt ajratish to`g`risidagi ko`rsatma beriladi.

Islom manbalarida rivoyat qilinishicha, Muhammad payg`ambar 40 yoshga etganlarida, ya`ni 610 yili Makka shahri yaqinidagi Hiro nomli g`orda yolg`iz qolib, ibodat bilan mashg`ul paytlarida, farishta Jabroil (a.s.) ularga birinchi bor Qur`on oyatlarini keltirganlar. Odatda Jabroil (a.s.) payg`ambar Muhammad (s.a.v.)ga oyatlarni o`qib berar, ular yodlab olib, o`z izdoshlariga etkazar edilar. Ular ham o`z navbatida shunday qilar edilar. O`sha davrlarda mutlaqo ko`pchilik, shu jumladan Muhammad payg`ambar ham o`qish, yozishni bilmaganliklari uchun yodlab olish u davrning birdan bir usuli bo`lgan. Bu vahy melodiy yil hisobida 22 yil, hijriy esa 23 yil davom etgan. Oyatlarda odamlarning savollariga javob berib, ularni to`g`ri yo`lga etaklagan, yuz bergan hodisalarni talqin qilib berilgan. Biron hukmning to`g`ri yoki noto`g`ri ekani bayon qilinabergan. Muhammad payg`ambar (s.a.v.) vafot etganlarida ularning safdoshlari Qur`onni yod bilganlar. O`sha paytda oz sonli kishilargina o`qish-yozishni bilganlar. Savodli musulmonlar yozish imkoni bo`lgan narsalarga Qur`on oyatlarini aniqlik bilan yozib borganlar.

Muhammad payg`ambar (s.a.v.) vafotidan so`ng Qur`oni karim suralarini to`plash va mushaf qilish xalifalar Abu Bakr, Umar ibn al-Xattob, Usmon, ibn Affon davrlarida amaga oshirilgan. Dastlabki jamlangan Qur`onni (Suhufni) xalifa Usmon (r.a.) barcha mushaflarni to`plab, taqqoslab chiqish va ularga bo`lajak Qur`onning yagona nusxasini tayyorlashga amir bergan va bu ishga bosh bo`lgan.

Usmon (r.a.) amrini bajarish uchun to`rt kishilik guruh belgilangan. Unga Zayd rahbarlik qilgan, uning tarkibiga Qur`onni yaxshi bilgan sahobalardan az-Zubayr, al-Os, ibn Hishomlar kiritilgan. Bular barcha nusxalar va topilgan suralarni qaytadan tekshirib, taqqoslash asosida yagona nushani tayyorlagan. Ilgarigi shaxsiy nushalarning barchasi yo`qotilgan. Yangiddan ko`chirilgan yagona nusha tarixda «Mushafi Usmoniy» deb nom olgan.

Mushaf qo`lyozmasi tayyor bo`lgandan keyin (651 yil) tez orada Usmon (r.a.) buyrug`i bilan undan yana 3 ta (ba`zi ma'lumotlarga ko`ra ettita nusxa) qo`lyozma kufiy alifbosida ko`chirilgan va o`qishda hamda ibodatda barcha erlarda Qur`onning yagona matnidan foydalanishni amalga kiritish maqsadida, bu nusxalar Kufa, Basra, Damashq va boshqa shaharlarga yuborilgan.

Hozirgi kunda Islom olamida 4 ta qadimiy Mushaf nusxalarining borligi ma`lum. Ulardan biri Madinada saqlanayotgan asl nusxa bo`lib, islom manbalarida u «Imom» nomi bilan tilga olingan. Ikkinchi nusxa Ka`bada, uchunchi nusxa Qoxiradagi Misr milliy kutubxonasida saqlanmoqda. To`rtinchisi Toshkentda O`zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanib, 1989 yil boshlarida O`zbekiston musulmonlari diniy idorasiga topshirilgan.

Endi Qur`onning ichki tuzilishi masalasiga e`tibor qilamiz. Qur`onda 114 ta sura, 6226 ta oyat borligi e`tirof etilgan. Ammo Qur`on matnlarini taqsimlanishiga asosan oyatlar soni 6204, 6232, hatto 6666 gacha belgilangan va uni kitob shakliga keltirishda muayyan usul qo`llangan.

Suralar Qur`onda o`z mazmuniy izchilligiga yoki o`qilgan vaqtiga qarab joylashtirilgan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmiga ega bo`lgan 2-«Baqara» surasida 286 oyat bor, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat.


Uzun suralar kitobining boshidan, qisqa suralar uning oxiridan o`rin olishi, tadqiqotlarda aniqlanishicha, qadimiy arablarning va umuman old Osiyodagi somiy xalqlarning an`anasi bilan bog`liq bo`lgan. Xilma-xil yozuvlar, rivoyatlar yoki adabiy asarlar to`planib kitob qilganda, katta hajmdagi asarlar birinchi o`rinda, kichiklari keyin joylashtirilgan ekan. Zayd Ibn Sobit ham Suhufni to`plab dasxat qilishda ana shu an`anaga amal qilgan bo`lishi mumkin.

Qur'on-ilk islom g'oyalarini o'zida aks ettirgan yagona yozuv bo'lgani sababli faqat islom tarixi bilan shug'ullangan olimlarga emas, balki islom tarqalgan xalqlar adabiyoti va madaniyati bilan shug'ullanganlarning barchasi ham bu kitobni tahlil qilishga katta e'tibor berganliklari tabiiy bir holdir.

Ammo, yuqorida aytib o'tilganidek, uning suralari mavzulari asosida yoki tarixiy-xronologik tartibda joylashmaganligi sababli, bu kitob g'oyat murakkab hisoblanadi. Shuning uchun XIX asr o'rtalaridan boshlab, manbalarda uchraydigan tarixiy voqealar va shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, ishoralarga, shuningdek, ishlatilgan iboralarga qarab suralarning yoki ayrim guruh oyatlarining vujudga kelgan davrini aniqlash, bilan ko'p olimlar shug'ullanganlar.

Nemis olimlaridan Noldeke va Grimme, rus olimlaridan I.Yu. Krachkovskiylarning bu sohadagi xizmatlarini alohida tilga olib o'tish kerak. Ular olib borgan tekshirishlar natijasida suralar xronologiyasi faqat umumiy tarzda aniqlangan.

Islomshunoslik va Qur'onshunoslikning oxirgi xulosalari asosida suralarning xronologik tarkibini quyidagicha biroz takomillashgan shaklda tasavvur qilish mumkin:



Biz bu o'rinda Qur'oni Karim suralarining xronologik tartibda masalasiga umumiy tarzdagina to'xtalib o'tdik. Bu g'oyat murakkab ilmiy masalani faqat maxsus tadqiqotdagina mufassal yoritish mumkin.

Qur'oni Karim tuzilishi haqidagi gapni davom ettirsak, undagi har bir sura, oyatlar yig'indisidan iborat. «Oyat» so'zi faqat Qur'onning o'ziga xos iborasi bo'lib, «mo''jiza», «hikmat», «ilohiy», «alomat, belgi», ma'nolarini anglatadi.

Oyatlarining hajmi ham har xil: ayrim oyatlar bir necha tugal fikrni bildiradigan katta bir jumladan (masalan, 2,255-Oyat-al-Kursiy) iborat bo'lgan holda, ayrim oyatlar faqat ikki so'zdan (gapning bir qismidan)gina iborat.

Masalan:

1. Osmon yorilganida,
2. yulduzlar (har tomonga) sochilganida,
3. dengizlar qo'shilib to'siqlar ochilganida,
4. qabrlar ag'darilganida (qiyomat qoyim bo'lganida),
5. (har bir) jon o'zi (dunyoda) qilib o'tgan va qoldirgan (barcha) narsalarni (amallarni) bilur! (82:1-5).

Qur'on-muqaddas kitob, uning mazmunini Alloh so'zlaridan iborat deb hisoblash ham Qur'onning o'zidagi ko'rsatmalariga asoslangan: «U (Alloh) bundan ilgari yuborilgan (kitoblar)ning to'g'riligini tasdiqlab, senga haqiqat kitobini yubordi», «Biz Nuhga, Yaqubga va uning avlodlariga, Isoga, Ayyubga, Yunusga, Xorunga, Sulaymonga qanday vahy qilgan bo'lsak hamda Dovudga Zoburni qanday yuborgan bo'lsak, senga ham o'shanday vahy yubordik», «Sening Qur'onni odamlarga parcha-parcha qilib o'qib berishing uchun biz uni bo'laklarga bo'lib senga yubordik».

Biz keltirgan va bundan boshqa ko'p oyatlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Qur'on o'zidan ilgari diniy yozuvlarni inkor etmaydi, balki ularni tasdiqlash va o'sha yozuvlardagi diniy yo'llanmalarni oxiriga etkazish uchun yuborilgan muqaddas kitob deyiladi. Islom ham o'zidan ilgari diniy e'tiqodlarning vorisi, Muhammad (s.a.v.) esa o'zlaridan ilgari o'tgan barcha payg'ambarlarning ishini yakunlovchi va oxirigi etgazuvchi rasul-elchi deb taniladilar.

Qur'oni karim islomda muqaddas kitob, barcha bilimlar manbai, qonunlar to'plami, mazmuni osmondan Xudo vahy qilgan deb e'tiqod qilinadi. Qur'ondagi har bir suraning nomi bor, bu nom sura boshlanishida sarlavha qilib berilgan.

Olimlarning fikricha, suralarning nomlari dastlabki vaqtda bir necha so'zdan tuzilgan jumladan iborat bo'lgan, keyinchalik qisqara borib, o'sha jumladan bironta so'z saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. shuning uchun 2-sura Baqara (Sigir), 16-sura Nahl (Asalarilar), 27-sura Naml (Chumolilar) deb nomlangan bo'lsa, bunga hech ham ajablanish kerak emas. O'sha suralarda tegishli rivoyatlar keltirilgan. Dastlabki shaklida «Ana shunday rivoyatlar haqida sura» tipidagi uzunroq nom bo'lgan va keyinchalik qisqargan bo'lsa, o'z-o'zidan tushunarli xoldir.

Qur'ondagi 29 ta suraning boshlanishida bir yoki bir necha alohida harflar bor. Ilohiyot kitoblarida va tafsirlarida bu harflar «al-huruf al-muqatta» (alohida, bir-biridan uzuq harflar) deb ataladi. Masalan, 3, 29, 30, 31, 32-suralarning boshlanishida-«alif», «lom», «mim», 10, 11, 12, 13, 14, 15-suralar boshida «alif», «lom», «ro», 19-surada-«Kaf», «Ho» (hoy havvaz), «Yo», «Ayn», «Sod» va hokazo. Diniy adabiyotda asosan «bu harflarning mazmuni sir, uni faqat Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) o'zlari bilganlar», ularga «Qur'onning siri» degan fikr aytilgan. Faqat yirik mufassirlarning bu harflardan ba'zilarini Allohning sifatleri deb ta'riflagan hollari uchraydi.

Qur'on matni sura va oyatlardan tashqari yana 30 ta «juz» (o'zbekcha «pora») larga bo'lingan. Shuni aytish kerakki, pora sura va oyatlarga o'xshab Qur'onning ilk tuzilishi bilan bog'liq emas, balki o'qishda qulaylik tug'dirish uchun keyinchalik Qur'on matnini hajm jihatidan teng bo'laklarga bo'lishdan iborat bo'lgan. Shu sababli eng uzun 2-sura poradan ko'proq bo'lgani holda, oxirgi qisqa suralardan 37 tasi bir porani tashkil etadi.

Qur'on yirik tarixiy va madaniy yodgorlik sifatida axloq, insof, vijdon, halollik kabi sohalaridagi umumbashariy ahamiyatga molik yo'l-yo'riqlar, qoidalari hozirda ham g'oyat zarur ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Qur'on mazmunida hayotning ko'p sohalariga taalmuqli masalalar o'z ifodasini topgan.

Unda arab xalqlarining adabiy ijodi tarixida yirik nasriy asar sifatida arab tilining o'sha davrlariga xos xususiyatlarini, so'z boyligi, iboralari va atamalarini, grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlarini o'zida ifoda etgan. Qur'on matnini tahlil qilish jarayonida arab yozuvi grammatikasi (sarf va nahv batafsil ishlab chiqilgan arab yozuvi) g'oyat mukammal shaklga kelgan. Shuningdek, Qur'on tili har bir arab mamlakati va elatlarining o'ziga xos lahjalari saqlangan holda barcha arablar uchun yagona bo'lgan adabiy tilning shakllanishiga asos bo'lgan. Hozir ham arab mamlakatlarida nashr etilayotgan kitoblar va vaqti matbuot yagona arab adabiy tilida bosiladi va u barcha arablar uchun tushunarlidir.

Qur'onning uslubi ham keyingi adabiyotga katta ta'sir o'tkazgan, undagi rivoyat va tasvirlar, o'xshatish, nasihat va maslahatlar faqat diniyгина emas, balki butun badiiy adabiyotga singib ketgan. Shuning uchun Qur'onni yaxshi bilmasdan arab xalqlari va umuman musulmon xalqlari madaniyati va adabiyotini chuqur o'rganish, tushunish ancha mushkul.

**Toshkentdagi «Mushafi Usmoniy» tarixi va Qur'on tarjimalari.** Ilk Qur'on nusxalaridagi arab yozuvi nomukammal bo'lib, ularni Qur'onni to'liq yod biluvchi usta qorilargina o'qiy olar edilar. Hammaga faqat Qur'onning shu nusxasidan ko'chirishga buyruq beradilar. Saqlangan ilk nusxalar *hijoziy* va *kufiy* xatlarida ko'chirilgan. Mutaxassislarining fikricha, Arab davlatining poytaxtini 749 yilda Suriyadan Iroqqa o'zgartirilishi *hijoziy* xatining yo'qolib ketishiga olib keldi. Qur'on yozuvining hozirgi ko'rinishi faqat X asrga kelib to'liq shakllangan. Qur'onning shu kunimizgacha saqlanib qolgan nodir nusxalari arab yozuvi rivojining bebaho yodgorliklari hisoblanadi.

Arab tarixchilarining xabar berishlaricha, xalifa Usmon Qur'onni mutolaa qilib o'tirganida fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. U kishining qoni Qur'on sahifasiga to'kilgan, degan naql xalq orasida keng tarqalgan. Bundan Kufadagi kitob savdogarlari foydalanib, ko'p nusxada «qonli» Qur'on nusxalari tayyorlab sotganlar. Hozirgi paytda jahon muzey va kutubxonalarida bunday nusxalar saqlanadi. Ulardan biri Toshkent shahrida O'zbekiston musulmonlar idorasida saqlanadi. Unda ham qon izlari bo'lib, shu nusxa aynan xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud.

Mazkur Qur'on 353 varaqdan iborat bo'lib, varaqlar o'lchami 68x53 sm., matn yozilgan qism hajmi 50x44 sm. Sahifalar kiyik terisidan ishlangan bo'lib, har biriga 12 qatordan chiroyli *kufiy* xatida yozuv bitilgan. Ko'p varaqlari yo'qolgan va keyinchalik qog'oz sahifalar bilan to'latilgan.

Tataristonlik mashhur olim Shihobuddin al-Marjoniyning (1818-1889) aytishicha, Qur'onni qayta tiklash Samarqandda joylashgan «Mug'ak masjidi» imomi Abdurrahim ibn Usmon al-O'tiz-Imoniy (vaf. 1838 y.) tarafidan bajarilgan.

Usmon Qur'onni ruslar O'rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xo'ja Ahror madrasasida saqlanar edi. Qur'onning Samarqandga keltirilishi haqida ham mutaxassislar orasida har xil taxminlar mavjud. Ulardan birida muqaddas kitobni Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy (976 yili vafot etgan, Toshkentda dafn qilingan) Bag'doddan olib kelgan, deb hikoya qilinadi. Avlodlar osha Abu Bakr Qaffol Shoshiy merosxo'rlaridan Xo'ja Ahror qo'lga o'tgan bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bir rivoyatda esa, Xo'ja Ahror muridlaridan biri Makkadan haj qilib qaytayotganida Istanbulga kiradi va sultonni og'ir hastalikdan davolaydi. Sulton minnatdorchilik bildirib, unga Qur'onni hadya qiladi.

Ko'pchilik arabshunos olimlarning fikricha, bu Qur'on Amir Temur (1370-1405) tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va Temurning mashhur kutubxonasiga kuydirilgan. Temuriylar davridagi (1405-1506) o'zaro kelishmovchiliklarda Temur kutubxonasi yondirilib yuborilgan. Tasodifan shu nusxa omon qolgan. Bu fikr haqiqatdan uzoqroq. Chunki Amir Temurning kutubxonasi haqidagi farazlar hali isbotlangani yo'q. Ikkinchi tarafdin, Amir Temur zamonida boshqa bir Qur'on nusxasi hukmdorlar diqqat-e'tibori markazida edi. Bu Samarqand jome-masjidi

(keyinchalik bu masjid Bibixonim masjidi nomini olgan) sahniga qo'yilgan Boysung'ur Qur'onidir.

Toshkent Qur'onini ilmiy jihatdan chuqur o'rgangan Sankt-peterburglik sharqshunos olim A.F.Shebunin fikricha, Qur'on Basradan Amir Temur tomonidan Samarqandga keltirilgan. Chunki, A.F.Shebunin Parij, Berlin va Makkadagi boshqa nusxalariga solishtirib, bizdagi Qur'onning Basra nusxasi ekanligini isbotlashga harakat qildi. Darhaqiqat, bu muqaddas kitob eski nusxalardan hisoblanib, u VIII asr oxiri-IX asr boshlarida yaratilgan.

1868 yilda rus askarlarining Samarqandga kirishi bilan Usmon Mushafiga e'tibor kuchaydi. Musulmonlar Qur'onni yashirincha Buxoroga jo'natmoqchi bo'ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o'lkasining boshlig'i general Abramov qulog'iga etib, «fan uchun bunday nodir, bebaho, qadimiy yodgorlikni qo'ldan chiqarmaslikning hamma chorasi ko'rilsin», deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur'onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanga etkazadi. U o'z navbatida, 1869 yil 24 oktyabrda Usmon Qur'onini Sankt-Peterburgga – Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar nazoratida jo'natdi.

Bu Qur'on nusxasi ustida tadqiqotlar boshlandi. Masalan, 1895 yili mazkur Qur'onning bir varag'i 2 ming nusxada chop etildi. 1905 yili esa Ilyos ibn Ahmad-shoh «Yosin» surasining fotonusxasini chiqardi. Shu yili S.I. Pisarev va F.I. Uspenskiy Qur'onni faksimile uslubida 50 nusxa chop etib, 25 nusxasini sotuvga chiqardi. Har bir nusxasiga 500 so'm baho qo'yildi. Ular faksimileni asl nusxasiga o'xshatish uchun hajmini ham o'shandayligicha qoldirdilar. Hozir bu faksimile nusxadan jumhuriyatda bir nechta bo'lib, biri O'zbekiston musulmonlarining diniy idorasi kutubxonasida, ikkinchisi – O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanadi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To'qumboev RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur'onini o'z egalariga, ya'ni musulmonlarning o'lka s'ezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR XKS tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur'on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podshoh kutubxonasining «Nodir qo'lyozmalar» bo'limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U.To'qumboev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo'natiladi. Qur'on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo'mi Usmon Qur'onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvda olib kelinadi. Komissiya tarkibida sharqshunos olim Sultonxo'ja Qosimxo'jaev, professor A.E. Shmidt va din peshvolaridan 3 vakil bor edi. Komissiya maxsus vagonda, qurolli kuchlar kuzatuvda Qur'onni Toshkentga keltirdilar. Shundan keyin Qur'on 1923 yil 18 avgustda Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo'ja Ahror jome' masjidiga topshiriladi. Lekin ko'p o'tmay Qur'onni Toshkent eski shahar muzeyiga keltiradilar va u maxsus po'lat sandiqda saqlana boshlanadi. Eski shahar muzeyi birinchi o'zbek muzeyiga aylantirildi. Muzey 1926 yilning 1 yanvarida ochildi. 1926 yilning faqat bir oyi ichida muzeyni 4000 kishi kelib ko'rdi.

Qur'oni karimga ko'plab olimlar tomonidan turli *tafsirlar* yozilgan. Qur'on XII asrdan boshlab Evropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlagan. XVIII asr boshlarida Evropa xalqlari tillaridan, XIX asr o'rtalarida arabcha asl nusxasidan rus tiliga tarjima qilingan. G.S.Sablukovning arabchadan dastlabki tarjimasi Qozonda uch marta (1878, 1894, 1907 yillarda) nashr qilingan. Akademik I.Yu. Krachkovskiy tomonidan amalga oshirilgan Qur'onning ilmiy izohlari bilan rus tiliga tarjimasi hanuzgacha mashhur. Bu tarjima uning vafotidan (1951 y.) keyin, 1963 va 1986 yillarda to'liq nashr etilgan.

Mamlakatimiz mustaqil bo'lganidan so'ng Qur'oni karimni o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. 1992 yilda Allovuddin Mansur tamonidan tarjima qilingan «Cho'lpon» nashriyotida ko'p nusxada chop etildi. Shuningdek, «Zvezda Vostoka» jurnali Qur'on matnlarini akademik I.Yu.Krachkovskiy tarjimasida falsafa fanlari doktori, professor, islomshunos olim M.A.Usmonovning tuzatishi va qisqa sharhi bilan «Qadimiy adabiyot

yangiliklari» – «Drevniy pamyatnik literatury» turkumi ostida 1990 yildan boshlab berib bordi.

Qur'onga o'zbek tilida tafsir yozish ishlari shu bilan to'xtab qolmadi. 2001 yilda taniqli olim Abdulaziz Mansur tomonidan Qur'oni karim ma'nolarining izohli tarjimasi nashr etildi. Islomning ilk davridan to shu kunga qadar Qur'oni karimga turli tillarda, har xil yo'nalishlarda minglab tafsirlar bitilgan. Ularda Qur'oni karimni turli davrlar va muhitlarda tushunish o'z aksini topgan.

**Islomdagi asosiy yo'nalishlar va mazhablar** Arabiston yarim orolida VII asrda vujudga kelgan islom dini qo'shni mamlakatlarga ham tez tarqala boshladi. Islom ta'limotini targ'ibot qilishdan tashqari, uning aqidaviy va marosimchilik talablarini turli yo'llar bilan xalqlar ongiga singdirishga harakat qilindi. Bu holat xalqlar tarixida islom istilosi deb ataladi.

Islom ta'limotining qabul qilgan xalqlar, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi uning ijobiy yo'nalishi shunda bo'ldiki, mahalliy xalqlarning urf-odatlari, an'analari bu dindagi bag'rikenglik tufayli moslashib borishga imkoniyat tug'ildi. Bu o'z navbatida xalqlar ma'naviyatining rivojlanishiga, islom madaniyatining keng yoyilishiga olib keldi.

Arabiston yarim oroli va qo'shni mamlakatlar xalqlarining yagona xalifalik davlatiga birlashtirgan islom dini bu tizimning mafkurasi sifatida qisqa vaqt davom etdi. Turli davlatlar va xilma-xil millatlardan tashkil topgan yirik xalifalik imperiyasi tizimi ichida ijtimoiy-iqtisodiy, davlatni boshqarish, xususan diniy masalalarda diniy ulamolar, davlat arboblari o'rtasida munozaralar boshlanib, islom ta'limotining talqin qilish bilan bog'liq yo'nalishlar dastlabki yillardanoq yuzaga keldi.

Ma'lumki, jahondagi barcha yirik dinlar o'z taraqqiyotining muayyan bosqichida turli yo'nalish va oqimlarga bo'lingan. Chunki mazkur din tarqalgan xududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kurashning kuchayishi muayyan dinga e'tiqod qiluvchi turli xalqlarning ijtimoiy manfaatlari va madaniy darajalari turlichaligidadir.

Islomda ham uning tarixiy taraqqiyotida bunday bo'linishlar bo'lgan. VII asrning ikkinchi yarmidayoq dastavval xorijiyalar (Al-xavorij, xaraja-dindan chiqmoq mazmunida) yo'nalishi shakllangan, so'ngra yana ikki yirik oqim-sunniylik va shialikka ajralgan. Yuzaki qaraganda, islomga e'tiqod qiluvchilar orasidagi ixtilof faqat diniy masalalar tufayli tug'ilganidek tuyuldi. Aslida esa bunday emas. Tarixdan ma'lumki, islomning shakllanishi, mustaqil dinga aylanish davri uzluksiz davom etgan jangu jadallar bilan o'tgan. Zero, Payg'ambar (s.a.v.) Muhammad davridan boshlab Ali davriga (661 yilga) qadar va undan so'ng islom Arabistondan tortib, Shimolda Ozarbayjonga, Sharqda Movarounnahr qadar, Janubda Arab dengiziga, g'arbda esa Tripolitaniyaga qadar yoyilgan. Arab istilochilari Movarounnahr (arablar O'rta Osiyoni shunday atama bilan-«daryo ortidagi erlar» deb ataganlar)ni bosib olishni VII asrning 70-yillardan boshlab faqat VIII asrning boshlariga kelganlagina to'liq tugallashga muvaffaq bo'lganlar. Chunki, mahalliy xalqlar arab istilochilariga qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Bu jarayonni tasdiqlovchi Muqanna, Sumbad Mug, g'urak, Divashti boshchiligidagi yirik xalq qo'zg'olonlari tarixdan ma'lum. Boshqa mamlakat va xalqlar hayotiga islomni kiritish va bosqinchilarga qarshi qo'zg'olonlar keyingi asrlarda ham davom etgan.

Islom IX-X asrlarda Tatariston, X-XII asrlarda Boshqirdistonga kiritilgan; Qozog'iston va Qirg'izistonda esa bu jarayon XIX asrda ham davom etgan. Dinning bunday keng miqyosda yoyilishida ishonirish, ma'rifat, targ'ibot yo'llari asosiy omillardan bo'lgan.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga islom yo'nalishlarini (asosan sunniylik) targ'ibot yoki arab istilosi orqali kiritilishi bilan bir vaqtda islom madaniyati, ma'naviyatini mahalliy xalqlar o'rtasida keng yoyilishi kuzatiladi. Bu xududda sunniylikning hanafiya mazhabi qonun-qoidalarini mahalliy xalqlar hayotiga singdirish sunniylikning boshqa mazhablarga nisbatan tezroq amalga oshdi. Imom A'zam asos solgan hanafiya mazhabi boshqa mazhablarga nisbatan, birinchidan, diniy bag'rikenglik (ya'ni boshqa mavjud dinlar va ularning urf-odatlari ham davom etish imkoniyati); ikkinchidan, mo'tadil mazhabligi (ya'ni mahalliy xalqlar, millatlarning xususiyatlariga mos kelishi, uning talablarini oddiy odamlarga mos kelishi); uchinchidan, bu mazhabga e'tiqod qiluvchilarning ortib

borishi va hozirgi vaqtda musulmonlarning ko'pchiligi hanafiya mazhabiga e'tiqod qilishi bilan ajralib turadi.

Islom evolyustiyasida vujudga kelgan yo'nalishlarning muhim jihatlaridan biri xalqlar ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirgan qonun-qoidalar va diniy e'tiqod talablaridir. Islom dinini qabul qilgan har bir musulmon uchun diniy marosimchilik talablarini bajarishdan tashqari hayotda halol, pok, vijdonli bo'lish, xalol va xaromning farqiga borish, boshqalarning mulkiga ko'z olaytirmaslik; oila qurish bilan o'z farzandlarini islom ta'limoti, talabi ruhida tarbiyalash, halol mehnat qilish bilan kun kechirish kabi axloqiy normalar mujassam bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, bu ta'limotda davlat, jamiyat ota-ona, vatanga muhabbat insonparvarlik, adolat, halolik mezonlari xalqlar ma'naviyati shakllanishining asosini tashkil qilgan. Bunday da'vatlar islom evolyustiyasining qaysi davrida bo'lmasin o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan aksincha islom diniga e'tiqod qilganlar ma'naviyatini shakllantirishga o'z hissasini qo'shib kelgan. Uning bu jihati, hozirgi fuqarolik jamiyat shakllantirilayotgan mamlakatimizda, jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirishga qo'shayotgan hissasi ijobiy baholanib muhim tarbiyaviy-axloqiy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon dinlari ichida eng kenjasi bo'lgan islom dini tez orada juda ko'p xalqlar va millatlar hayotiga kirib borib, ularning turmush tarzidan munosib o'rin olishidan tashqari ko'pgina sharqdagi davlatlarning boshqarish mafkurasiga aylandi. VIII-IX asrlarda islom evolyustiyasida turli yo'nalishlar, mazhablar vujudga kelishiga qaramay islom ta'limoti (uning asosiy manbalari Qur'oni karim va hadisi sharif)ga kishilarning hayotida, xususan ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarining shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Islom dinining umuman ta'limoti va ma'naviy-axloqiy jihatidagi ta'siri masalalarini o'rganishga qiziqish sharq xalqlaridan tashqari Evropa va Amerika olimlarining islom paydo bo'lgan dastlabki asrlardayoq vujudga kelgan bo'lsa, bu fenomenni fan sifatida o'rganish ancha keyin boshlangan. Masalan, Evropa, Amerika va Rossiyada islom, uning tarixi va manbalarini o'rganish XIX asrning 2-yarmida boshlangan. Lekin islom tarixi, ta'limoti, muqaddas yozuvlarini tahlil, tadqiq qilish Rossiyada ayniqsa, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Shimoliy Kavkazda keng ko'lamda ancha oldin amalga oshirilgan. Bu ish endi yanada kengroq miqyoslarda olib borilmoqda.

Evropalik olimlar islomshunoslik fanini yaratish, islom tarixi va manbalarini o'rganish yo'lida ko'p xizmat qilganlar. Jumladan, M.Myuller, E.Teylor, K.Tile, Sh.Dela Sosse, J.Freyzer va boshqalar. Ularning xulosalarida ayrim chekinishlar bo'lishiga qaramay, ular bu fanning rivojlanishiga muhim hissa qo'shganlar.

Rus sharqshunosligida ham islom tarixi, diniy manbalarni tadqiq qilish sohasida barakali ishlar olib borilgan V.R.Rozen asos solgan mashhur «Rus akademik sharqshunosligi»ning vakillari N.A.Mednikov, L.E.Shmidt, A.E.Krimskiy, V.V.Bartold, I.Yu.Krachkovskiy, E.E.Bertels, A.A.Semenov va boshqalar islomshunoslik sohasida qimmatli asarlar yaratilgan. Bu asarlar hozir ham islomshunoslik olimlar uchun boy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Islomning paydo bo'lishi va uning ta'limotini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish masalasi XX asrning 30-yillariga kelib jiddiy ravishda o'rta qo'yildi. Bu sharqshunoslik va umuman tarix fanining tiklanish davri edi. Asrlar davomida tarix fani va sharqshunoslik erishgan yutuqlar va yuzaga keltirgan xulosalarni ilmiy nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish va baholashdek juda mas'uliyatli va murakkab muammo hali ham to'la echilgani yo'q. Bunday sharoitda har bir muhim ilmiy masala bo'yicha xilma-xil fikrlarning mavjud bo'lishi tabiiy edi. Islomning paydo bo'lishi yo'nalishlari, mazhablari va ta'limoti yuzasidan ham juda ko'p fikr va mulohazalar o'rta qo'yilgan hamda muhokama qilinib, muayyan echimini topgan. Qo'llanmaning ushbu qismida ana shu fikr-mulohazalarning ob'ektiv, nisbatan asosli, aksariyat islomshunoslar tan olgan nuqtai nazarlaridan foydalanilgan. I.Karimov asarlarida bu din haqida, uning ma'naviy-axloqiy jihatlarini xususida olg'a surilgan fikr-mulohaza va dasturlar asos qilib olingan.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani singari ma'naviy, jumladan axloqiy nuqsonlar hukm surayotgan hozirgi davrda islomning mehr-shafqat, muruvvat, sahoovat, odamiylik, halollik xususidagi pand nasihatlaridan umuminsoniy qadriyatlar sifatida foydalanish g'oyat o'rindir. Zero,

hayotimizning ma'naviy jabhalari qayta qurilayotgan hozirgi davrda islomning regulyativ funkstiyasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan O'zbekiston musulmonlari idorasi turli xildagi xayri, ehson, saxovat jamg'armalarini tashkil etib, hojatmandlarning dardiga malham bo'lmoqda. Sho'rolar davrida vayron holatiga kelgan madaniy yodgorliklarni va tarixiy obidalarimizning davlat mablag'lari va umumxalq hashari yo'li bilan ta'mirlash ishlarini olib bormoqda.

Islom, uning dunyoviy vazifalarini ham bajaradigan ruhoniylari asrlar mobaynida jamiyatning ijtimoiy hayoti, fan, madaniy, maorifini o'z nazorati ostida ushlab, tarixiy an'analar, insonlarning turmush tarziga katta ta'sir o'tkazib kelgan. Yana u islomga e'tiqod qiluvchi turli millat va ellatlarga xos ijtimoiy tabaqalar vakillarining Alloh oldidagi tengligini tan olgan va ularni yagona xudoning bandalari sifatida tenglashtirgan. Bu diniy ta'limotlarning umumiyligini mustahkamlagan holda ijtimoiy munosabatlarning mavjud tizimini saqlash funkstiyasidir.

Hokimiyatni boshqarishda dindan vosita sifatida foydalanish qadimda ham bo'lgan. Masalan, dastlabki xalifaliklarda hali siyosiy, harbiy va diniy hokimiyat halifalarning qo'llarida bo'lgan; Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ham hokimiyat arab xalifaligi yohud Turkiya sultonining go'yoki o'rinbosarlari bo'lgan amir va xonlar qo'lida edi. O'rta Osiyolik amirlar va xonlar siyosiy, huquqiy, diniy va iqtisodiy hayotni o'zlaricha boshqarib borganlar. Xalq ommasiga ular o'zlarini xudoning erdagi soyasi, deb tashviqot qilib, hokimiyatni muqaddaslashtirganlar. «Amir soyai xudo xasb» degan ibora shunda paydo bo'lgan.

Islomning hayotga joriy etilishida uning ixtiyorida bo'lgan maorif va musulmon huquqi shariatda katta rol o'ynagan. U o'z ixtiyoridagi barcha vositalar yordamida hukmron tuzumni mustahkamlashga uringan. Yagona tilda yozilgan muqaddas yozuvlarda aytilgan fikrlar asosida, yagona tilda taot-ibodat ishlarini olib borish barcha musulmonlarni birlashtirgan. Barcha dinlarning arboblari o'z dinlarini birdan-bir to'g'ri din deb targ'ib etganlar.

Demak, qadimgi davrlarda bo'lgani singari hozir ham barcha dinlar bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir qancha funkstiyalarni bajarib kelmoqdalar<sup>†††</sup>.



<sup>†††</sup> Ислом энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2004, -Б. 114.



**Sunniylik mazhablari va ma'naviyat.** **Sunniylik**-bu islomda izchil, sobitqadam yo'nalish hisoblanadi. Musulmonlarning juda ko'pchilik qismi-92,5 foizi sunniylikka e'tiqod qiladi. Qolgan 7,5 foizini shialar, ibodiyalar va xorijiyalar tashkil qiladilar. Sunna arabcha odat, an'ana, xatti-harakat tarzi degan ma'nolarni bildiradi. Sunniylik degan so'z arabcha «Sunna»-«muqaddas rivoyat», ya'ni Muhammad to'g'risidagi rivoyatlar va uning hadislarini to'plami degan tushunchadan olingan. Yana Sunna farzdan farqli ravishda bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan ko'rsatmalar, amallaridir.

Sunniylar ummaviylar sulolasidan bo'lgan xalifalarning oliy hokimiyatga bo'lgan huquqini tan olganlar. Sunniylikda Sunna Qur'ondan keyingi asosiy muqaddas manba, hadislar to'plami deb qaraladi. U VII asr o'rtalarida shakllana boshlagan. Unda xalifalikdagi sinfiy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, islom mafkurasi atrofidagi kurash o'z ifodasini topgan. Uni to'plash, sharhlash va nashr qilishda vatandoshlarimiz Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy asosiy rol o'ynaganlar.

Sunniylik qisman Eron, Janubiy Iroq, Yaman, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo'yi, Sibir, O'rol, Kichik Osiyo, Misr va Shimoliy Afrika, Indoneziya, Malayziyada keng tarqalgan. Uning muqaddas shaharlari Makka va Madinadir. Unda to'rtta shariat maktabi-hanafiylar, molikiylar, shofi'iyalar, hanbaliylar mazhablari bor.

1. **Hanafiya** (Imomi A'zam) mazhabi. Bunga Abu Hanifa taxallusi Imomi A'zam-buyuk imom-(699-767) asos solgan. U eng yirik huquqshunoslardan biri bo'lib, shariat huquqini tartibga solgan, qiyosni tatbiq etgan, istihson tartib usulini (manbalar asosida chiqarish mumkin bo'lgan xulosa yoki hukmlardan musulmonlar jamoasi uchun maqbulrog'ini qabul qilib) ishlab chiqqan, mahalliy xalq huquq-qoidalarini-odatni shariat bilan keltirib qo'llanishni joriy etgan huquqshunoslikdan oqilona foydalanish unsurlarini kiritgan.

Istihson (arab.-yaxshilash, ma'qullash) shariatning chalkash, murakkab masalalariga qiyosini qo'llanishning yo'li bilan musulmon jamoasi yoki davlati uchun mumkin qadar yaxshiroq, foydaliroq, ma'qulrog'ini qo'llash tarzi hisoblanadi. Bu ikki yoki undan ortiqroq imkoniyati mavjud bo'lgan mantiqiy xulosalardan foydalirog'i, ma'qullarini ajratib olishdir.

Hanafiylar mahalliy zodagon va hukmdorlar qabul qilgan nizom va qonunlar, mahalliy urf-odatlariga tayangan odatiy an'analar hamda mahalliy elatlarning urf-odati asosida kelib chiqqan odat maqomiga keng tayanishlari islomning ko'chmanchilari orasida ham tez tarqalishga olib kelgan. Chunki bular o'zlarining ibtidoiy urf-odatlarini hisobga olgan islomni, xususan hanafiya mazhabini o'zlariga ma'qul topganlar. Abu Hanafiya fiqhning asoschisi va ulug'sifat ilohiyot mutaxassisi bo'lgan. «Agar diniy e'tiqod Zuhrogacha yiroqlashib ketsa ham, uni imom Abu Hanifa erga qaytarib keladi»<sup>\*\*\*</sup>, deyishardi. Uning «Al-Fiqh al-Akbar» asari boshqa mazhab muxlislari orasida ham mashhur bo'lgan. Olimning yozishicha, u huquqiy masalalarga oid 500 mingdan ortiq misollar yaratgan va diniy ibodat hamda huquq masalalariga oid 64 fatvo nashr etgan. Abu Hanifa zo'r taqvodor kishi bo'lib, zohidlikda yashagan. U haqda maxsus rivoyatlar yaratilgan.

Mujtahid imom Shofi'iy aytganidek, agar Imom A'zam biror narsani oltin deb atashni xohlasa, uni isbot etish uchun uning mahorati ham, iste'dodi ham etardi. Umuman hanafiya boshqa shariat mazhablariga qaraganda xristian va yahudiylarga nisbatan mo'tadillik nuqtai nazarida turgan.

Hanafiya mazhabi qonunlari Abu Yusuf Yoqub (vaf. 795), ash-Shayboniy (vaf. 804), Qodiriy (vaf. 1036) asarlarida ham ishlab chiqilgan. Hamyurtimiz Marg'ononiy ar-Rishton (vaf. 1157)ning fiqhga oid asarlaridan eng mashhuri «Hidoya fi-l-furur-Shariat sohalari bo'yicha qo'llanma» hanafiya mazhablari tomonidan qonunlar majmuasi (kodeks) sifatida foydalanilgan. Marg'ononiyning «Hidoya»si fors, ingliz va rus tillariga tarjima qilingan bo'lib, hozir ham Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Turkiya va b.) hanafiya mazhabi shariat sohasidagi asosiy qo'llanma hisoblanadi.

Hanafiya mazhabi sunniylik yo'nalishiga mansub bo'lgan musulmonlarning 47 foizini o'z ichiga oladi. Hozir ham respublika tuprog'idagi sunniylarning oila, nikoh, taloq va boshqa masalalarida shu mazhabga tayanadilar.

<sup>\*\*\*</sup> Керимов Г.М. Шариат и его социальная сухность.-М., Наук, 1978. -С. 15.

**2. Shofi'iy** mazhabi. Uning asoschisi imom ash-Shofi'iy (767-820) kuchli ilohiyotchi faqihlardan biri bo'lgan; Makkada yashagan, Yamanda qozilik qilgan. Ali avlodlari bilan yaqinlashganligi uchun 803 yilda qamoqqa olingan. Avf etilganidan so'ng Misrga kelib, Molikning shogirdi sifatida faoliyat boshlagan. 810 yildan Bog'dodda o'z ta'limotini targ'ib qilgan. Uning «Kitob al-umm» to'plami islom huquqini an'anaviy tartib-qoidalar bilan bog'lashga qaratilgan, fiqh asoslariga to'la tavsif berib, ijmo'dan foydalanishga alohida e'tibor qilingan.

Shofi'iya mazhabining usuli hanafiya va molikiya usullarining o'zaro murosasiga tarafdorlik qilishga uringan bo'lsa hamki, asosan molikiyaga moyil edi. Ular qiyosning qo'llanishida muayyan chegaraga yo'l qo'yardilar. Istihson usuli ko'p xulosaviy imkoniyatlarni yaratish va u shaxsiy (g'arazli) fikrlarga asoslangan hukmlarga olib borishidan hadiksirardilar. Shuning uchun ular qiyosga tayanib istihsoh-muayyan holatning qo'llanishiga muvofiq ravshan isbotini beruvchi, fiqh qoidasini ishlab chiqqanlar. Masalan, safarda bo'lgan shaxsning o'lik yoki tirikligini bilmasdan uning mol-mulkiga merosxo'rlik egalik qilishlari mumkinmi, degan savolga shofi'iyilar rad javobini berardilar. Bunga sabab meros egasining o'limi haqida isbotlovchi dalilning yo'qligidir. Suriya va Misrda shakllangan bu mazhab hozirgi vaqtda Indoneziya, Sharqiy Afrikaning ba'zi mamlakatlarida, janubiy arab sultonliklari musulmonlari orasida tarqalgan bo'lib, sunniylikdagi musulmonlarning 27 foizini tashkil etadi.

**3. Molikiya** maktabi. Asoschisi Molik ibn Onas (713-795) «Ashob al-Hadis» (Hadis tarafdorlari) oqimining yirik namoyandasi bo'lib, Muhammad davridagi diniy huquq tartibini yoqlab chiqqan. O'zining «Al-Muvatto'» (Ommaviy, Barchaga tushunarli) asarida Qur'on va Sunnani aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. U muhofazakor ilohiyotchi faqihlardan biri edi. Bu mazhab tarafdorlari o'zlarining nomotadilligi bilan ajralib turardi. Ular hanafiylarga nisbatan qiyosni qo'llashda ancha chek qo'yishardi. Ammo o'zlarining istisloh qoidalari bilan hanafiyaning istihsoniga yaqin turardilar. Hozirgi davrda Molikiya mazhabi Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan bo'lib, sunniylikdagi musulmonlarning 17 foizini tashkil etadi.

**4. Hanbaliya** mazhabi asoschisi imom Ahmad ibn Hanbal ibn Xilol ibn Asad az-Zuxayliy al-Shayboniy 780 yili Bog'dodda tug'ilib, shu erda 855 yil vafot etgan. Hadis to'plash niyatida Suriya, Hijoz Yaman, Kufa va Basraga ko'p sayohat qilgan va 40 mingdan ortiq hadisni jam etgan oyati jildlik «Musnad al-Imom Ahmad» (Imom Ahmadni tayanchi) asarini yaratgan. U mustahkam e'tiqodli sunniylik nuqtai nazaridan xalifa Ma'mun davrida davlat dini bo'lmish mu'taziylikka qarshi kurashgani uchun bir necha bor qamalgan va jazolangan. Uning huquq tartiboti o'ta torligi, diniy masalalarda Qur'on va Sunnaga qattiq rioya qilishligi, erkin fikr yuritish va talqin etishga, har qanday yangilikka qarshiligi, shariat tartib-qoidalariga rioya etishda qat'iy mutaassibliyi bilan ajralib turardi.

Hanbaliya mazhabi tarafdorlari avvallari faqatgina Qur'on va Sunnagagina tayanib, sha'riy hukmlar chiqarsalar, keyinroq qiyos va ijmoni qo'llanishda ham ular tanho Muhammadning safdoshlari bo'lmish sahobalarning hamjihatligidan kelib chiqqan hukmlarnigina inobatga olar edilar. Bunda ular tobe'iyatlarning ham, ulardan keyingi e'tiborli diniy arboblarning ham fikrlarini tan olmas edilar. Qur'on va hadislardan esa hech qanday dalil topolmagan taqdirda noiloj qiyosga murojaat etardilar. Bu mazhab diniy masalalarda hech qanday erkin fikrni tan olmay, shariat qonun va marosimlarini ijro etishda o'ta jiddiylik ko'rsatuvchi, dinning o'taketgan fidoyilari edilar. Ularning rasmiyatchiligi, o'taketgan mutaassibliyi, jonli tarixiy haqiqatdan uzoq turgan qarashlari, ijtimoiy hayot va turmush tarzidagi har qanday yangiliklarga zid ekanligi sababli-bu mazhab XII asrlargacha keng tarqalmagan. X asrda Eronda, XI-XV asrlarda Suriya va Falastinda Hanbaliyaning izdoshlari bo'lgan.

XVIII asrga kelib, ibn Hanbal ta'limoti hozirgi Saudiya Arabistondagi vahobiylarning shakllanishiga asos solgan. U erda Hanbaliyaning ilk islomga xos qonunlari hozir ham amalda.

Islom tarixida va hozirgi paytda ham yuqorida zikr qilingan mazhab sunniylar orasida teng huquqli hisoblangan va ulardan birortasi ham din asoslariga zid hisoblanmagan. Qohiradagi al-Azhor dorilfununida islom fiqhi to'rt mazhab bo'yicha o'rganiladi. Hanbaliya mazhabi sunniylikdagi eng kichkina, ya'ni 1,5 foizni tashkil etuvchi musulmonlar bo'lsalarda, ular «sof»

islom uchun kurashish bayrog`i ostida, XVIII asrdan to hozirgacha turli mamlakatlarda vahhobiylik harakati orqali katta zarar keltirmoqdalar.

Bundan ko`rinib turibdiki, islom huquqi vaqtiga, o`ringa, sharoitga qarab muayyan xildagi o`zgarishlarga uchragan, har xil sharhlarga duchor bo`lgan.

Yuqoridagi mazhablarning faoliyatida faqatgina sof huquqiy masalalar bilan cheklanmaganliklari tufayli bular shariat qonunlarining keng tarqalishiga olib kelgan. Ular qonunchilik tartib-qoidalar majmuiga nafaqat huquqiy masalalarni, balki diniy marosimchilik, savdo va soliq, xulq-atvor masalalarini ham kiritganlar. Islom huquqshunoslari shariat qozilaridan boshqa sudlovchi tashkilotlar bo`lmaganidan, musulmon huquqshunoslari barcha huquqiy va diniy masalalarni o`zlari hal etardilar.

Keyinchalik islom xududida rivojlangan davlatlarning mustaqil taraqqiyoti jarayonida ularning manfaatlarini qo`riqlovchi turli-tuman dunyoviy qonunlar vujudga kela boshlagan. Qur`onda turli-tuman joiz va taqiqlarning bir turkumi mavjud. Ular keyinchalik kengaytirgan va bu elementlardan qonunlar majmui yoki islom huquqi tarkib topgan. Amalda shariatning asosiy yo`nalishi hayotning turli masalalariga diniy nuqtai nazardan baho berishdir. Sof yuridik qarashlar unga keyinchalik kiritilgan.

**Shialik: sekta, mazhablar.** Shialik guruh, partiya, tarafdorlari degan ma`nolarni beradigan arabcha «shia» so`zidan kelib chiqqan. Shialik o`z ahamiyati va tarafdorlari soniga ko`ra islomdagi ikkinchi yo`nalishdir. U VII asrning ikkinchi yarmida musulmonlarning maxsus va siyosiy guruhi sifatida yuzaga kelgan. U choryorlarning to`rtinchisi Ali tarafdorlarini birlashtirgan. U juda ko`p sektalarga bo`linib ketgan. Bular orasida ismoiliylar hozir 35 millionga yaqin tarafdorga ega bo`lib, hozir ham islom doirasida katta rol o`ynamoqda.

Shialar Arabistonda paydo bo`lgan teokratik davlat-xalifalikdagi oliy hokimiyat uchun olib borilgan keskin kurash jarayonida kelib chiqqan. Xalifalikning barcha bosh lavozimlari 644 yildan boshlab quraysh qabilasiga mansub bo`lgan xalifa Usmon boshliq makkalik oqsuyaklar-muhajirlar qo`liga o`tgan.

Islomda jabr-zulm qoralansa-da, baribir, ular islomga bo`ysundirilgan boshqa xalqlardan tashqari musulmon arablarning o`zlarini ham qattiq ekspluatasiya qilishaveradi. Bundan norozi bo`lgan arablar Xalifa Usmonga qarshi qo`zg`alon ko`tarib, uni Madinada o`ldirishgan. Xalifalik lavozimiga Ali ko`tarilgan. Biroq, u o`z hokimiyatini quraysh oqsuyaklaridan himoya qilishga majbur edi. Ali tarafdorlari u payg`ambarning amakivachchasi va kuyovi bo`lganligi uchun musulmonlarning boshlig`i bo`lishi kerak, uning vafotidan keyin esa bu lavozim uning avlodlariga meros bo`lib o`tishi kerak, deb chiqishgan. Biroq taxt uchun kurashda Suriya hokimi Muoviya boshliq quraysh zodagonlari g`olib chiqqan. Ali tiriklik chog`idayoq Muoviya xalifa deb e`lon qilingan.

Mutaassib shialar Alidan boshqa barcha sunniy xalifalarning siyosiy hokimiyatni zo`ravonlik bilan qo`lgan olgan kishilar deb hisoblaydilar. Bular Alining avlodi bo`lgan 12 imomdan iborat o`z sulolalarini ularga qarshi qo`yganlar. Ular Alini, uning o`g`illari-Hasan va Husaynni hamda ularning avlodlarini shahid, deb hisoblashgan.

Islom tarqalgan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy o`zgarishlar natijasida turli davrlarda musulmonlarning har xil guruhlari, ayniqsa ko`proq sektalar paydo bo`la boshlagan. Bular sunniy va shia yo`nalishlaridan ajralib chiqqan bo`lib, musulmon sektalari deyiladi. Bularning islomdagi hanafiya, hanbaliya, shofi`iya, molikiya kabi mazhablar bilan aralashmaslik kerak.

Islom sektalari musulmonlarning diniy uyushmalari bo`lib, ularning soni juda ko`p, islom mamlakatlarining deyarli hammasida mavjud. Chunonchi, ahmadiy, alaviy, ibodiy, idrisiy, qodiriy, muridiy, rashidiy, tijoniy, hamoliy, shodiliy va boshqalar sunniylar yo`nalishidan ajralib chiqqan sektalardir. Xorijiy, ismoiliy, zaydiy, nizoriy, isnaashariy, druz, bahoniy va boshqa mazhablar esa shialar oqimidan ajralib chiqqan. Ularning ko`plari tarqab ketgan.

Islom paydo bo`lgan davrdan boshlab, uning turli mintaqalarga tarqalish jarayoni, xususan diniy ta`limotni talqin qilish bilan bog`liq davlatni idora qilish masalalari, hokimiyatni egallash harakati hamda xalifalik davrlarda vujudga kelgan ichki ziddiyatlar natijasida islomda yo`nalishlar va bir qancha mazhablarni shakllanishiga olib keldi. Ammo bu yo`nalish va mazhablar qaysi

mintaqalarda mavjudligidan qat'iy nazar islom manbalari bo'lmish Qur'oni karim va hadis sharifga amal qilgan. Bunday e'tiqodga ega bo'lgan har bir musulmon qalbida u Allohning bandasi ekanligini his qilib turgan, gunoh ishlariga qo'l urushdan o'zini tiygan, toat-ibodat orqali o'z ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga harakat qilgan.

Islomdagi yo'nalishlar va mazhablarning shakllanishi jarayonida vujudga kelgan diniy e'tiqod va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid ziddiyatlar tufayli sodir bo'lgan qurbonlar, talon-tarojlar, islomning tarixiy jarayoni bo'lib, vaqt o'tishi bilan ularning ko'pchiligiga o'z ta'sir kuchini yo'qota borgan, asosan musulmonlar tomonidan e'tirof etilgan yo'nalishlar, mazhablar hozirgi Sharqda ham Markaziy Osiyo mintaqasida ham saqlanib qolgan. Ularning aksariyati islom ta'limotiga amal qilib, asrlar osha musulmon xalqlari hayotida ijobiy rol o'ynab, uning ayniqsa ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini bu dinga e'tiqod qiluvchi kishi qalbiga ezgulik urug'ini sochmoqda.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Islomdagi bag'rikenglik (tolerantlik) nima?
2. Islomda qanday yo'nalishlar bor?
3. Islomdagi diniy-huquqiy mazhablar qaysi?
4. Islom ta'limotining ma'naviy-axloqiy jihati nimada?
5. O'zbekistonda sunniylikning qaysi mazhabi keng tarqalgan?
6. Shialik mazhablari qaysilar?

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2010.
2. Karimov I.A. Olloh qalbimizda yuragimizda. –T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Zakrullo A. «G'oyalar kurashi»-Toshkent Movarounnahr, 2000.
5. Hasanov A. Makka va Madina tarixi.-T.: 1992.
6. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Darslik / Mas'ul muharrir akad. Ibrohimov N.I. – T.: Mehnat, 2004. – 296 b.
7. Hasanov A., Komilov M., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q., Islom tarixi. Darslik. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
8. Yo'ldoshxo'jaev H. Rahimjonov D. Komilov M. Dinshunoslik ma'ruzalar matni. – T.: ToshDShI nashriyoti, 2000.
9. Mo'minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o'qitish va o'rganishning yagona konstepstiyasi. – T.: ToshDShI nashriyoti, 1999.

### **SEMINAR MASHG'ULOTLARDA FOYDALANISH UCHUN O'QUV MATERIALLARI**

#### **O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik**

##### **Reja:**

1. Diniy bag'rikenglik tushunchasi. O'zbekiston an'anaviy diniy bag'rikenglik o'lkasi
2. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyati.
3. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi"dagi qonun mohiyati.

##### **Tatyanch so'z va iboralar:**

*Vijdon erkinligi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi"dagi qonun, tolerantlik, diniy bag'rikenglik, BMT, konfessiya. Diniy bag'rikenglik, qiyosiy dinshunoslik, Islomda e'tiqod erkinligi, Qur'on va hadislarning talqini, milliy va diniy rangbaranglik, kitob ahli bilan muloqot, "jihod", islom – tinchlikparvarlik dini, YUNESKO hujjatlari, an'anaviy bag'rikenglik, milliy istiqolol mafkurasi va diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi.*

• **Diniy bag`rikenglik tushunchasi. O`zbekiston an`anaviy diniy bag`rikenglik o`lkasi.** «Bag`rikenglik», «sabr - toqatlilik» va uning ziddi «toqatsizlik» tushunchalari ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sostiologiya, filosofiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik va hokazolarda ishlatiladi. Lotincha tolerare, ya`ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma`nosini anglatgan bu so`z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsada, etimologik tahlil uning tom ma`nosini doim ham ochib beravermaydi.

Qiyosiy dinshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda 2 xil, bir-biridan keskin farq qilgan bag`rikenglik tushunchasi mavjud: formal, tashqi ko`rinishdagi bag`rikenglik va ichki-pozitiv (ijobiy) bag`rikenglik. Formal ravishdagi bag`rikenglik bu boshqa kishining diniy e`tiqodiga nisbatan oddiy toqatlilik ko`rsatish, uning e`tiqodiga qarshi kurashmaslikdir. Ichki (ijobiy) bag`rikenglik esa muayyan diniy e`tiqodda mustahkam bo`lgan holda boshqa dinlarni yaxshi bilishni ham taqozo etadi. Demak, ijobiy bag`rikenglik kengroq, to`g`riroq va hayotiy zarurat hisoblanadi. Islom, hinduiylik, xristianlik dinlaridan qay biriga mansub bo`lishidan qat`i nazar inson deyarli bir xil his-tuyg`ularni boshidan kechiradi. Buddaviylarning 5 ta, Qadimgi Ahdning 10 ta va Islomning asosiy o`gitlaridagi o`xshashlikni keltirish kifoya. Demak, dinlarning ichiga, barchasi uchun bir bo`lgan mutlaq mohiyatiga kirmoq darkor va shu asosda diniy hayot fenomen (hodisa)larini talqin qilmoq kerak. Bu o`z navbatida bag`rikenglik ruhidagi yondashuvni talab qiladi.

Maks Myuller barcha insonlar dinga-e`tiqodga muhtojlar, zero barchaga ideal kerak, degan. Dinlarning kelib chiqishi bir, ammo xudolarning oti har xil. Bu Aristotelning so`zlari. Ammo butun bashariyatni qo`ya turing, hatto bir xalq uchun ham yagona diniy ta`limot bo`lishi mumkin emas. Barcha dinlarda ezgulik bor. «Yaxshilik qil, yomonlik qilma» demagan bironta din yo`q. Eng quyi dinlarda ham haqiqat parchasi bor. Barcha dinlarni, hatto eng qadimgilarini ham bag`rikenglik ruhida o`rganmoq kerak, shunda o`zimizning dinimizni yaxshiroq idrok etamiz.

Rus tilida «terpimost» so`zi boshqachasiga aytganda «snisxoditelnost», ya`ni bag`rikenglik, kengfe`llik ma`nolarini anglatar ekan, diniy soha haqida gap ketganda ruslar «veroterpimost» so`zini ishlatishadi. O`zbek tilida «diniy bag`rikenglik» iborasi aynan shunga adekvat, ya`ni to`g`ri keladi. Diniy bag`rikenglik turli din vakillari e`tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat`i nazar ularning yonma-yon, o`zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Har kim o`z e`tiqodiga amal qilishda erkin bo`lgani holda bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini e`tirof etmog`i lozim.

**Islomda bag`rikenglik masalalari.** Islom o`zining ilk davridayoq bag`rikenglik dini sifatida namoyon bo`ldi. Jahon dinlarining ichida faqat Islomda e`tiqod erkinligi ochiq-oydin e`lon qilingan: Baqara surasining 256 oyatida «La ikraha fid-din» «Dinda zo`rlash yo`q»-deyilgan. Qur`onda payg`ambarlarning o`ziga xos shajarasi quyidagi tarzda keladi: «Allohga, bizga nozil qilingan narsa (Qur`on)ga va Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Yoqub va (uning) avlodlariga nozil qilingan narsalarga, Muso va Iso hamda barcha payg`ambarlarga Parvardigorlari tomonidan berilgan narsa (vahiy)ga imon keltirdik. Ularning orasida birortasini (tasdiqlashda) farq qilmaymiz va Uning o`zigagina bo`yin sinuvchilarmiz». (3,84).

**Ko`pincha Qur`on va hadislardagi ba`zi o`rinlarni, ayniqsa urush haqidagi, jihad to`g`risidagi ko`rsatmalarni noto`g`ri ravishda, jangarilik ruhida talqin qilishadi. Vaholanki, haqiqiy islom nuqtai nazaridan qaralsa, bunday urush faqat mudofaa maqsadida olib borilgandagina shar`iy (qonuniy)dir. Aks holda, hatto islom dinini tarqatish uchun bo`lganda ham urush muqaddas emasdir. Qur`on oyatlarini sinchiklab o`rgangan kishi shak-shubhasiz shunday xulosaga kelishi muqarrar. Bundan 100 yil avval ko`zga ko`ringan rus faylasufi V.S.Solovev shunday yozgan edi: «Yuqorida keltirilgan Qur`on matnlaridan Muhammadga nisbatan fanatizm, toqatsizlik, diniy zo`ravonlik kabi ayblar qanchalik nohaq ekanini ko`rdik. Umuman musulmonlarning muqaddas kitobida Muhammad**

**tomonidan dinni ongli ravishda suistemol qilinganligi haqida bironta so'z yo'q». Undan yarim asr avval xollandiyalik yirik islomshunos olim Raynxard Dozi ham aynan shu fikrni aytgan edi: «Evropada uzoq vaqt davomida hukmron bo'lib kelgan bu haqdagi (musulmonlarning islomni tarqatish yo'lida muqaddas urush-jihad qilishlari lozimligi) fikr to'g'ri emas. Qur'onda diqqat bilan qaralsa, barcha imonsizlarga qarshi urush olib borish haqida bironta ko'rsatma yo'q... Muqaddas urush faqat birgina holatda-musulmonlarga dushman hujum qilgandagina vojibdir, agar kimda-kim Qur'on ko'rsatmalarini boshqacha tushunsa, bunga ilohiyotchilarning noto'g'ri talqini aybdor».**

Qur'onga ko'ra odamlarning tili va rangidagi farqlar tushunuvchilar uchun Xudoning oyatlaridan (mo'jizalaridan)dir (30:22). Milliy va diniy rangbaranglik hamda e'tiqod erkinligini qaror toptirish masalalarida Qur'on to'lig'icha bag'rikenglik ruhi bilan sug'orilgan. Dunyodagi turli-tumanlik Yaratganning irodasi va hikmati bilan bog'liq. Alloh dastlab odamzotni bir ummat qilib yaratgandi, so'ngra ularni turli qabila, xalq va dinlarga ajratishni iroda qildi (2: 213; 49:13). Bunday rangbaranglikdan maqsad-umumiy farovonlik yo'lida insonlar bir-birlari bilan musobaqa qilmoqlari darkor (5:48; 2:148; 5:2). Boshqa jamoalar bilan hamjihatlikni chuqurlashtirish uchun musulmonlar ular bilan, ayniqsa, kitob ahli-yahudiylar va nasroniylar bilan muloqot qilmoqlari lozim (29:46). Qur'on bu dunyoni barcha xalq va din vakillari tinch-totuv yashaydigan zamin deb e'lon qildi (2:208). Dushman tinchlik-sulhni taklif qilsa, uni qabul qilish kerak (8:61). Dinlarning turli-tumanligi Yaratgan tomonidan o'rnatilgan ekan, uni bekor qilish yoki hammani bir din bayrog'i ostida zo'rlab birlashtirish mumkin emas (10:99). Shuningdek, 28:56; 12:103; 5:99; 16:35; 24:54; 29:18; 36:17; 88:21-22 oyatlarda Alloh payg'ambar Muhammad (s.a.v)ga bu xususda qayta-qayta ko'rsatmalar beradi. Nihoyat, (2:256) oyatida diniy e'tiqod masalasida zo'ravonlik tamoyili aslo mumkin emasligi aytilgan. Mazmunan uning davomi sifatida (18:29) oyat keladi.

Haqiqiy e'tiqod ichki imondan kelib chiqadi. Shunday ekan, uni zo'rlik bilan o'rnatib bo'lmaydi. «Dinda zo'rlash yo'q» oyatini, insonga tanlash ixtiyori berilgan va buning uchun uning o'zi javob beradi ma'nosida tushunish ham mumkin (17:15). Bundan tashqari qiyomatda e'tiqod masalasidagi bahslarni Allohning o'zi hal qiladi (22:17). Ungacha esa insonlar faqat xayrli ishlarda o'zaro musobaqalashmoqlari kerak. E'tiqod masalasida monopoliya bo'lishi mumkin emas (2:136; 5:69).

**Muhammad (sav) hayoti sinchiklab o'rganilsa, u zot hech qachon hech kimni islomga kirishga majbur qilmaganlari, biron marta u yoki bu harbiy harakat diniy e'tiqod tufayli bo'lmagani ayon bo'ladi. Payg'ambar olib borgan harbiy tadbirlarning beistisno barchasi sof mudofaa maqsadlariga xizmat qilgan. Badr (624 y.), Uxud (625 y.) va Xandaq (627 y.) janglarida makkalik mushriklar hujumkor, madinalik musulmonlar esa aksincha mudofaa mavqeida bo'lganlar. 628 yilda payg'ambar tinch maqsadda Makkaning ziyorati uchun otlanganda mushriklar bunga ruxsat bermadilar. Oqibatda Xudaybiya sulhi imzolandi va musulmonlar Madinaga qaytishga majbur bo'ldilar. 630 yilda ushbu sulh sharti buzilgach, Makkaga musulmonlarning yurishi (fath) yuz berdi va shahar deyarli qarshiliksiz olindi. Manbalarga ko'ra 630-632 yillardagi g'azotlar ham asosan mudofaa janglari yoki shartnoma buzilgani sababli sodir qilingan. Umuman olganda Qur'oni karimning 50 dan ortiq surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar mo'min-qobillik, tinchlikparvarlik va boshqa e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikenglikka da'vat etilganlar.**

*O'zbekiston diniy bag'rikenglik o'lkasi.* Xalqimizga azaldan xos bo'lgan xislat-bag'rikenglik biz uchun an'anaviydir. IX asrdan boshlab hozirgi O'zbekiston hududida islom dini sunna yo'nalishining hanafiy (Imom A'zam) mazhabi qaror topdi. Bu ham bejiz bo'lmasa kerak, zero

Imom A'zam mazhabi o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlariga nisbatan erkinlik berish bilan boshqa mazhablardan ajralib turadi. Hanafiylik ta'limotini takomilga etkazgan vatandoshlarimiz - al-Moturidiy, Abul Mu'in Nasafiy va al-Marg'inoniy kabi allomalar musulmonlar orasidagi g'oyaviy tarafkashlikka barham berish, islom dinining «ahli sunna va jamoa» yo'li barqaror bo'lib qolishiga katta hissa qo'shdilar. Nafaqat buyuk allomalar, balki O'rta Osiyo hukmdorlari ham bu yo'lda kurashdilar. Masalan, X asr o'rtalarida musulmon dunyosida shia yo'nalishi (Shimoliy Afrika, Misr, Suriya, Hijozda - fotimiylar, Yamanda-zaydiylar va hatto abbosiylar poytaxti Bag'dodda-buvayhiylar) ustunlikka erishgan bir paytda o'rtaosiyolik tohiriylar, somoniylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar hokimlar «ahli sunna va jamoa»ni qattiq turib himoya qildilar.

Buyuk bobomiz Amir Temur «ahli sunna va jamoa»ga doim sodiq, diniy aqidaparastlikka qat'iy qarshi bo'lgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sobiq «qizil imperiya» tarkibiga majburan kiritilgan O'zbekiston fuqarolarining aksariyatida «sovet kishisi»dan tashqari yana bir «narsa» bor edi. Bu «narsa» - etnik, til va irqiy mansublikdan qat'i nazar musulmonchilik edi. Jahondagi barcha musulmonlar hech bo'lmaganda ikki madaniy muhitda yashaydilar. Biri - ona Vatanning etnik tarkibi bilan bog'liq mahalliy madaniyati, ikkinchisi - islomga kirgach shakllangan musulmon madaniyati. Uzoq tarixga ega bo'lgan musulmon jamoalarida mazkur ikkala muhit bir-birlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglash, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash jarayoni kechayotgan hozirgi paytda umuman dinga va ayniqsa ota - bobolarimiz dini bo'lib kelgan islomga munosabat tubdan o'zgardi. «Ming yillar mobaynida, - deb yozadi Prezident I.A.Karimov - Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Diniy bag'rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini o'tagan. U turli e'tiqodlarning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo'lishiga, ularning tashuvchilari o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo'l ochgan». Bu esa, o'z navbatida, Yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qilgan. XIX asrda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan majburlab ko'chirilgan dehqonlar nochor ahvolga tushib qolganda musulmon aholi ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan. O'sha davr voqealarini ko'rgan ieromonax Xariton «mahalliy aholi nochor ko'chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo'ldilar, busiz ularning ko'pchiligi ochlik va muhtojlikdan o'lib ketgan bo'lar edilar», -deb guvohlik bergan.

Bunday do'stona aloqalardan xulosa qilib, Islom Karimov: «Musulmonlar va xristianlarning O'zbekiston zaminida birgalikda hamnafas bo'lib yashashi diniy-ma'naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag'rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishiga arzigulikdir», - deb ta'kidlagan edi. O'zbekiston hukumati oqilona, diniy bag'rikenglik siyosatini olib bormoqda. Respublikada islom bilan bir qatorda 16 diniy konfessiya emin-erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Fuqarolarning millati, irqi, dinidan qat'i nazar barcha uchun teng huquqlar Qonun orqali kafolatlangan.

1995 yilning oktyabrda bizning mintaqamizda birinchi bor Toshkent shahrida «Bir samo ostida» shiori ostida o'tkazilgan xalqaro musulmon-nasroniy konferenstiyasi fikrimiz dalilidir. 1996 yilning noyabrda shu erda Rus pravoslav cherkovining Toshkent va Markaziy Osiyo eparxiyasi 125 yilligi tantanalari o'tkazildi.

Milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda oliyjanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikr va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida

tengdirlar», - degan qoidaning mustahkamlab qo'yilgani bunday yutuqlarga siyosiy-huquqiy zamin yaratdi.

Yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi» Qonun talablarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan ayrim jiddiy muammolar ham odilona hal etildi. Masalan, respublikamizda an'anaviy hisoblangan ba'zi diniy jamoalar, ayniqsa, o'zining 100 yillik yubileyini nishonlagan Lyuteran cherkovlari jamoalari qonunda belgilanganidek, yuz kishilik tashabbuskorlar guruhni tashkil eta olmasliklari ma'lum bo'lib qolgan bir sharoitda ham maxsus hay'at qaroriga ko'ra, bu muammolar o'z echimini topgan. Chirchiq shahridagi Evangel-Lyuteranlar jamoasi 27 kishidan iborat bo'lgani holda ularga diniy tashkilot tuzishga va rasmiy ro'yxatdan o'tishga ruxsat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas, deyilgan. Shunga binoan, har bir diniy konfessiya o'z mafkurasiga ega bo'lishi mumkin. Lekin bu mafkura xalqqa tazyiq bilan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Jamiyatimizda diniy tashkilotlar faoliyati xalqimizda milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

Davlat va din munosabatlaridagi asosiy jihat- bu dinning siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy axloqiy jihatni o'z ichiga oladi.

1990-2005-yillar mobaynida yurtimizda din sohasidagi faoliyatni takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16 ta farmoni, Vazirlar Mahkamasining 48 ta qarori qabul qilindi. Prezidentning 1999 yil 7 aprel Farmoniga ko'ra respublikada chuqur diniy va dunyoviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti ta'sis etildi. Shuningdek, Universitet qoshida turli tashkilotlar mutassadilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Unda 1) respublika tumanlari hokimlari o'rinbosarlari (xotin- qizlar qo'mitalari raislari); 2) oliy o'quv yurtlari prorektorlari, professor-o'qituvchilari 3) «Kamolot» YoIH etakchilari; 4) «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi rahbarlari; 5) OAVda diniy-ma'rifiy mavzuni yorituvchi jurnalistlar; 6) ichki ishlar va adliya idoralari xodimlari; 7) mahalla oqsoqolari; 8) fuqarolar yig'inlari kengashlarining diniy-ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya bo'yicha maslahatchilari kabi turli soha vakillaridan 10 mingga yaqin kishi o'z bilim va malakasini oshirdi.

Ana shunday qarorlar sirasida, 2003 yilning 22 avgustida respublikamizda «Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 364-sonli qarori o'ziga xos o'ringa ega. Unga ko'ra: Toshkent islom instituti va o'rta maxsus islom bilim yurtlarida joriy etilgan ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda talabalarning qabul qilingan davlat me'yorlariga muvofiq diniy va dunyoviy bilimlar olayotganini inobatga olib, mazkur o'quv yurtlarining bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta'lim hujjati sifatida e'tirof etilib, ana shu hujjat (diplom)larga ega bo'lgan shaxslarga davlat oliy ta'lim tizimida o'qishni davom ettirish huquqi berildi.

Din va davlat orasidagi munosabat asosida dinning davlatdan ajratilishi tamoyili ham yotadi. Bu haqda Konstitutsiyada shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalar faoliyatiga aralashmaydi».

O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun 1991 yilda qabul qilingan bo'lib, 1993 yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi. So'nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o'zgartirish zarur bo'lib qoldi va 1998 yilning 1 may oyida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonun dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy havfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va



erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanish mumkinligini ta'minlaydi. Mazkur me'yor 1966 yil 16 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiqdir.

Aytish joizki, hozirga qadar YUNESKO tomonidan bag'rikenglikka doir 70 dan ortiq xalqaro hujjat, konvenstiya, kelishuv va protokollar qabul qilingan. Jumladan, 1995 yil 16 noyabrda YUNESKO Bosh konferenstiyasining 28-sessiyasida «Bag'rikenglik tamoyillari Deklarastiyasi» qabul qilindi. Deklarastiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar aks etgan. 1995 yil «Xalqaro bag'rikenglik» yili deb e'lon qilindi.

1998 yil 6 noyabrda Toshkentda o'tkazilgan YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida «Tinchlik madaniyati va YUNESKOning a'zo davlatlaridagi faoliyati» Deklarastiyasi qabul qilindi. YUNESKOning «Tinchlik madaniyati» konstepstiyasi BMT tomonidan ma'qullanib, 2000 yil «Xalqaro tinchlik madaniyati yili», 2001 yil esa «xalqaro madaniyatlararo muloqot yili» deb e'lon qilindi.

1995 yilda, shuningdek, YUNESKOning «Dinlararo va madaniyatlararo muloqot» Dasturi qabul qilindi. U diniy urf-odatlar va o'ziga xos madaniy qadriyatlar, ularning dunyo madaniyatida tutgan o'rnini yoritishga xizmat qiladi. Dastur doirasida Rabot (1995, 1998), Malta (1997), Toshkent (2000) shaharlarida dinlararo muloqot mavzusida xalqaro anjumanlar o'tkazildi.

2000 yil 13-15 sentyabrda Toshkentda o'tgan dinlararo muloqot YUNESKO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xilligini muhokama qildi. Unda 40ga yaqin davlatdan 80dan ortiq turli din va konfessiyalarga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdilar. Kongressdan so'ng 18 sentyabr kuni Buxoro shahrida «Tasavvuf va dinlararo muloqot» mavzusida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. Unda «tasavvuf»ga bag'rikenglikni targ'ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi Islom dinining noyob, o'ziga xos ko'rinishi degan ta'rif berildi. Aynan 2000 yil sentyabrda Toshkent islom universitetida dinlarni qiyosiy o'rganish bo'yicha YUNESKO kafedrasini ochildi. YUNESKO rahbariyati bu tashabbusni qo'llab-quvvatladi. Fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi eng nufuzli xalqaro tashkilotning Bosh direktori Koichiro Mastuura janoblarning shaxsan o'zi kelib kafedrani ochishi fikrimiz isbotidir. Kafedraning asosiy vazifasi dinlararo muloqot va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlashga ko'maklashishdir. Shuningdek, 2001 yil sentyabrda Toshkentda o'tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YUNESKO «bag'rikenglik tarmog'i»ning ikkinchi yig'ilishida bag'rikenglik tamoyillari o'zbek xalqining urf – odatlari bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlandi. 2004 yil 15 martda Parijda YUNESKO qarorgohida O'zbekiston va Fransiyada diniy bag'rikenglik mavzusida xalqaro anjuman tashkil etildi. 2006 yil 29-31 mart kunlari Parijda jahondagi madaniyatlararo va dinlararo muloqot yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan 15 ta YUNESKO kafedralari mudirlarining YUNESKO Bosh direktori Koichiro Mastuura bilan uchrashuvi bo'ldi va bu boradagi faoliyatni yanada takomillashtirish bo'yicha Bitim imzolandi. Bitimga Toshkent islom universiteti nomidan «Jahon dinlarini qiyosiy o'rganish bo'yicha YUNESKO kafedrasini»ning mudiri imzo chekdi.

O'zbekistonning an'anaviy diniy bag'rikenglik o'lkasi ekani, islom fani va madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etib, nufuzli xalqaro tashkilot – Islom konferenstiyasi tashkiloti (O'zbekiston unga 1996 yildan a'zo)ning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Boshqarmasi (ISESCO) Toshkent shahrini 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qildi.

Oxirgi o'n yil ichida yuz berayotgan bir tomondan etnik va diniy nizolar, ikkinchi tomondan islom va musulmonlarga nisbatan adovat (islamofobiya, diffamastiya), tabiiyki, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikka olib keladi, tinch taraqqiyot jarayonini izdan chiqaradi, insoniyat xavfsizligi va xalqaro barqarorligiga tahdid soladi. Uzoq davom etayotgan Afg'oniston, Chechnya, Bosniya, Falastin, Isroil, Olster, Hindiston va Steylon hamda Fransiya, Belgiya, Germaniyadagi diniy asosdagi nizolar shular jumlasidandir. Afsuski, G'arbda ba'zi ko'zga ko'ringan siyosiy arboblardan ham «Evropa va musulmon madaniyatlarining o'zaro hech qachon chiqishaolmasligi» haqidagi tezisini qo'llab-quvvatlaydilar.

Xalqaro hamjihatlik yo'lida har bir inson, jamoa va millatlar bashariyatning turli-tuman madaniyatlardan iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhimdir. Bag'rikengliksiz

demokratiya asoslari va inson huquqlarini mustahkamlab bo'lmaydi. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo'lmagani kabi, bag'rikengliksiz tinchlik bo'lmaydi.

### **O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyati *Vijdon erkinligi nima?***

Vijdon erkinligi fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. Vijdon erkinligi inson huquqlari masalasining eng muhim qirralaridan biridir. Shuning uchun ham birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948- yilda qabul qilingan «Inson huquqlari Deklaratsiyasi»da bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Xususan, Deklaratsiyaning 18- moddasida bunday deb yozib qo'yilgan: «Har bir inson... vijdon va din erkinligi huquqiga egadir».

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi ham inson huquqlari bo'yicha Xalqaro me'yorlarni tan olgan va mazkur masala xususida xalqaro hamjamiyat qabul qilgan hujjatlarga qo'shilgan. Shuning uchun ham davlatimiz Asosiy Qonuni— Konstitutsiyamizning 31- moddasida quyidagi satrlar bitilgan: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

Demak, bir kishi boshqasiga, sen u dinga, sen bu dinga e'tiqod qilasan yoki sening biror dinga e'tiqod qilishga haqqing yo'q, sen bedinсан, deb ayta olmaydi va u yoki bu aqidaga bo'ysunishga majbur eta olmaydi. Dindor kishini ikkinchi shaxs, «Diniy e'tiqodingizdan qayting», deb majbur qila olmaydi. Dinga isho-nish yoki ishonmaslik, dindor yoki dahriy (dinsiz) bo'lish har kimning shaxsiy ishidir.

Vijdon erkinligi deyilganda, ayni paytda fuqarolarning dinga mu-nosabatidan qat'i nazar, ularning teng huquqliligi, barcha dinlar-ning qonun oldida tengligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka nisbatan hech qanday majburiyatning yo'qligi, diniy tashkilotlar (masjid, cherkov, sinagog va—h. k.) uchun majburiy yig'imlar to'plashning taqiqlanganligi, diniy e'tiqodlar tufayli o'zaro adovat va nafrat qo'zg'atishning taqiqlanishi kabi masalalar ham tushuniladi

Ayni paytda, shu narsani alohida ta'kidlash zarurki, dinga e'tiqod qilish erkinligi faqat milliy xavfsizlik va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkin-ligini ta'miniash uchun zaruriyat tug'ilgandagina cheklanishi mumkin. Binobarin, vijdon erkinligi demokratiyaning tarkibiy qismi hamdir.

Vijdon erkinligining kafolatlari nimalardan iborat? Bu kafo-latlar ko'p qirralidir. Ular O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunida ta'riflab berilgan. Bular:

- ✓ avvalo, dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi;
- ✓ barcha fuqarolar uchun maorif va madaniyat eshiklarining ochiqligi;
- ✓ maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi;
- ✓ ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l o'yilmasligi;
- ✓ dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan muayyan sharoitlarning yaratib berilganligi.

***"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni mohiyati.*** 1991- yilda, milliy mustaqillikka erishish arafasidayoq, O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini demokratiyalash jarayoni boshlandi. Bu jarayon, ayni paytda, kun tartibiga dinga, diniy tashkilotlarga va dindorlarga ham munosa-batni o'zgartirish masalasini qo'ydi.

Bu masalalarda Respublikamizda jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Biroq, dindan o'z g'arazli maqsadlari yolida foydala-nishga urinish, dinni yagona hukmron mafkuraga aylantirish, is-lom davlatini vujudga keltirish yo'lida harakat qiluvchilar ham yo'q emas edi. Ana shunday sharoitda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonun qabul qilish hayotiy zaruratga ay-landi. Bu qonun mutlaqo yangi sharoitda dinning, diniy tashkilotlarning jamiyatdagi o'mini, davlat va din munosabati tamoyil-larini belgilab berishi lozim edi.

1991- yil 14- iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi ana shunday qonunni qabul qildi. 1998- yilda esa ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Bu qonun 23 moddadan iborat Qonunning 3- moddasi «Vijdon erkinligi huquqi» deb nomlangan. Bu moddada quyidagi qoidalar yozilgan: «Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o'z muno-sabatini

belgilayotgan paytda uni-u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. Bu ayni vatqtda belgilangan hayotiy qoidadir. Bu qoidani buzganlik uchun fuqaro O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 145-moddasiga ko'ra, eng kam ish haqin-ing 75 barobaridan 100 barobarigacha miqdorda jarima solish yoki 6 oygacha qamoq, yoxud 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qonunning 4- moddasi «Fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar teng huquqliligi» deb nomlangan.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Qonun talabiga ko'ra, rasmiy hujjatlarda (masalan, fuqaro pasportida) fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab huquqlari cheklanmaydi yoki ularga hech qanday imtiyozlar berilmaydi. Shuningdek, bir-biriga nisbatan dushmanlik va adovat qo'zg'atish, diniy yoki dahriylik his-tuyg'ulari uchun haqoratlash taqiqlana-di. Bundan tashqari, mazkur moddada hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib, qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mumkin emasligi ham qayd etilgan.

Qonunning «Ta'lim tizimi va din» deb atalgan 7- moddasida quyidagilar yozib qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi».

Bu qoidani quyidagicha tushunish kerak:

Respublikamizda davlat o'quv yurtlarida diniy ta'lim berilmaydi, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari o'quv rejalariga din dars sifatida kiritilmay-di. Chunki, bu o'quv yurtlari dunyoviy bilimlar beruvchi mas-kanlardir.

Lekin, fuqarolar mutlaqo diniy ta'lim olish huquqiga ega emas, degan ma'no kelib chiqmaydi.

O'zbekiston fuqarolari diniy ta'lim olishlari mumkin. Biroq, bunda albatta, qonunda belgilangan tartibga amal qilish shart.

Xo'sh, bu qonuniy tartiblar nimalardan iborat?

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunga ko'ra voyaga yetmagan bolalarni ularning ota-onalari yoki ular-ning o'rnini bosuvchi shaxslar rozilgisiz diniy tashkilotga jalb etish, diniy bilim berishga yo'l qo'yilmaydi. Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolarga umumiy majburiy o'rta ta'limdan keyin ruxsat etiladi.

Bu diniy o'quv yurtlari albatta davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi lozim.

Diniy o'quv yurtlarida ta'lim beruvchilar albatta, diniy ta'lim olgan bo'lishlari hamda diniy ta'lim berishga qonunda belgilangan tartibda ruxsat olgan bo'lishlari lozim. Bu belgilangan qoidalardan boshqa shakllarda diniy ta'lim berish qonun yo'li bilan man etiladi.

Belgilangan tartiblarning buzilishi qonunga muvofiq javobgar-likka tortilishgacha olib keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 145- moddasiga ko'ra voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda diniy bilim berganlar eng kam ish haqining 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorida jarima solinishiga yoki 2 yildan 3 yil-gacha axloq tuzatish ishlari, yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**Dunyoviy davlat tushunchasi.** Dunyoviy davlat — bu, din davlatdan ajratilgan davlat. Binobarin, din dunyoviy davlat ishiga, siyosatiga aralashmaydi. Ayni paytda, davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi. Ularning davlat qonunlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi.

Dunyoviy davlat — bu, o'z fuqarolari uchun vijdon erkinligi-ni e'lon qiladigan davlat. Bunday davlatning fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar qonun oldida teng bo'ladilar. Fuqaro-larning dinga qanday munosabatda bo'lishiga qarab, ular huquq-larining biron-bir tarzda cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu-ningdek, har bir fuqaroga diniy e'tiqodini ro'kach qilib, davlat qonunida unga nisbatan belgilab qo'yilgan majburiyatlarni baja-rishdan bosh tortishiga ham yo'l qo'yilmaydi. Dunyoviy davlat — bu, biror dinga imtiyoz berilmasligini, barcha diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligini e'lon qil-gan va uni amalda ham ta'minlaydigan davlatdir.

Dunyoviy davlat dinning davlatga, amaldagi qonunlarga qarshi targ'ibotiga yo'l qo'ymaydi, diniy qarama-qarshiliklar, toqatsiz-liklarning yuzaga kelishiga ruxsat bermaydi.

Dunyoviy davlat — bu, o'z ta'lim tizimini dindan ajratgan, o'quv dasturlari diniy fanlardan xoli bo'lgan hamda ta'lim mazmu-niga din singdirilmaydigan davlatdir.

Ayni paytda, dunyoviy davlat — o'z fuqarolariga qonunlarda belgilangan tartibda diniy ta'lim olishni ham kafolatlaydigan davlatdir. Diniy ta'lim olish tartiblari mazmuni bilan Siz 3- § da tanishdingiz.

Dunyoviy davlatda diniy tashkilotlarning faoliyati davlat hisobidan mablag' bilan ta'minlanmaydi.

Dunyoviy davlat — bu, inson yaratgan qonunlar bilan boshqa-riladigan davlatdir.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din dav-latdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi. Binobarin, davlat Konstitutsiyasi va qonunlari asosida uning amal qilish tartiblari belgilab beriladi.

***O`zbekistonda davlat va din munosabatlari.*** O'zbekiston — dunyoviy davlat. Demak, dunyoviy davlatda amal qiladigan davlat va din munosabati tamoyillari O'zbekistonda ham amal qiladi.

Ayni paytda, Respublikamizda davlat va din munosabati masalasida o'ziga xos jihatlar ham mavjud.

Xo'sh, demokratik jamiyat barpo etilayotgan O'zbekistonda davlat va din munosabati qanday bo'lmog'i kerak?

Bu savolga Prezident Islom Karimov quyidagicha javob beradi-lar: «Davlatning ishi — davlatniki, dinning ishi — dinniki bo'lishi lozim. Bu nozik va murakkab masalada munosabatlarning o'zaro hurmat va ishonch asosida qurilishi — yagona maqbul yo'ldir.

Davlat dindor fuqarolarning diniy e'tiqod va haq-huquqlarini qanchalik hurmat-ehtirom qilsa, dindorlar ham davlat qonunlari va siyosatini shunchalik hurmat va ehtirom qilishlari shart. Shundagi-na hech kimning hech kimdan ko'ngli qolmaydi».

O'zbekiston davlati o'z fuqarolarining diniy e'tiqodlarini hurmat qiladi.

Ayni paytda, dindorlar va diniy tashkilotlar O'zbekiston Res-publikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab qo'yilgan quy-idagi talablarga ham rioya etishlari lozim:

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish;
- ✓ dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borish, millatlararo adovat uyg'otish va fuqarolararo totuvlikni buzish vositasi sifatida foydalanmaslik; — diniy tashkilotlarning davlat ro'yxatidan o'tishi;
- ✓ diniy o'quv yurtlarida diniy fanlarni o'qitayotgan shaxs-larning diniy ta'lim olgan bo'lishlari va diniy tashkilot rah-bariyati ruxsati bilangina o'qitish ishlarini olib borishlari;
- ✓ dindorlardan majburiy pul yig'imi yig'maslik va to'lovlar undirmaslik;
- ✓ taqiqlangan g'oyalarni, adabiyotlarni, kino, foto va video mahsulotlarni tarqatmaslik va ishlab chiqarmaslik.

O'zbekiston davlatida yana quyidagilar man etilgan:

- ✓ diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakatlarini tuzish. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57- moddasida aniq ifoda qilingan. Ayni paytda, Respublikamizda chet davlatlarda tuzilgan diniy partiyalarning bo'limlari tuzilishi ham taqiqlanadi;
- ✓ terrorchilik, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek, boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalarning faoliyat ko'rsatishi;
- ✓ dindorlar va diniy tashkilotlarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tazyiq o'tkazishi;
- ✓ yashirin diniy faoliyat bilan shug'ullanish;
- ✓ davlat ro'yxatidan o'tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishi;
- ✓ diniy tashkilotlar xizmatchilarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodining ro'yxatga olinishi;

- ✓ diniy tashkilotlar xizmatchilarining hokimiyat vakillik organlari deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinishi.

Qonunning yuqorida qayd etilgan qoidalariga amal qilmagan fuqarolar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Diniy tashkilotlar fa-oliyati esa tugatiladi.

Davlat va diniy tashkilotlar qonunga og'ishmay amal qilsalar, jamiyatda siyosiy barqarorlik mustahkam bo'ladi va fuqarolar totuvligi tola qaror topadi.

**Mustamlakachilik davrida dinga munosabat.** Sho'ro mustamlakachiligi davrida ham garchand amalda bajarilishi ta'minlanmagan bo'lsada, fuqarolar uchun Vijdon erkinligi e'lon qilingan edi. Bu erkinlik, hatto sho'ro davlati Konstitutsiyasining alohida moddasida qayd etib ham qo'yilgan edi.

Amalda esa sho'ro davlati dinga qarshi muttasil kurash olib bor-di. Fuqarolar i dinga qarshi ruhda tarbiyalash siyosati yuritildi. «Din xalq uchun afyundir», — deb e'lon qilindi. Diniy tashkilotlar va din arboblarning faoliyati qattiq nazorat ostiga olindi.

Insoniyatga Ahmad al-Farg'oniy, Al-Forobiy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mashhur daho olimlar va shoirlarimizni, Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy kabi ulug' muhaddislarni tarbiyalab bergan islom madaniyati esa reaksion madaniyat deb qoralandi.

Biroq, sho'ro davlati jamiyatda dindorlarning kamayishiga erisha olmadi.

Dinlar va diniy tashkilotlar yashay berdi. Xususan, XIV asr-dan beri buyuk va hayotiy ta'limot bo'lgan islom dini insonlar qalbidan tobora chuqur joy oldi.

Buning sababi — islom dinining (boshqa dinlar kabi) insonlar o'rtasida ma'rifat tarqatganligida, insonlar o'rtasida xushax-loqlik — odob, aql-idrok, mehr-oqibat g'oyalarini targ'ib etgari-ligida, odamlarni rostgo'y, diyonatli bo'lishga da'vat qilganligida edi. Prezidentimiz Islom Karimov islom dini haqida bunday deb yozgan edilar: «Islom dini... biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik... Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar. Din xalq ma'naviyatining, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni, eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak».

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, O'zbekiston hukumati dinga va diniy tashkilotlarga, dindorlarga bo'lgan sho'rolar siyo-satini butunlay inkor etdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda vij don kinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o'zgarishlar amalga oshirildi.

Xo'sh, bu tub o'zgarishlar nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Birinchidan, vijdon erkinligi masalasining, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasida munosabat masalasining mustahkam huqu-qiy negizi yaratildi. Bu huquqiy negiz — O'zbekiston Respub-likasi Konstitutsiyasi hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonundir. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham-da «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda fuqarolar va diniy tashkilotlar uchun kafolatlangan huquqiy im koniyatlar to'la ro'yobga chiqarilmoqda. Dinning mavqei tiklan- mavqei tiklanyapti, barcha diniy uyushmalarga, jamoalarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratilmoqda. Uchinchidan, O'zbekiston hukumati musulmonlarning xoh-ish-istaklarini inobatga olib, islom dunyosining muqaddas yodgor-liklarini, tarixiy obidalarni diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazdi.

To'rtinchidan, yangi masjidlar ochildi, eskilari ta'mirlandi. Masjidlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Masjidlarning jamiyat ol-didagi mas'uliyati belgilandi.

Beshinchidan, din arboblari va ruhoniylar uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Diniy tash-kilotlarga o'z davriy nashriarini chop etish yo'lidagi to'siqlar olib tashlandi. Diniy adabiyotlarning chop etilishi sezilarli ko'paydi. Xususan, Qur'oni karim va hadislar o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

Oltinchidan, hamyurtlarimiz hajga va umraga — Makka va Madina ziyoratiga, diniy farzni ado qilishga borib kelmoqdalar. Birgina misol. Agar, 1980- yillarda butun sobiq sho'ro ittifoqi bo'yicha 25—30 kishi hajga borgan bo'lsa, 1991- yilda 1500 kishi, 2002 yilda esa 4 mingdan ortiq kishi haj safariga bordi. Bundan buyon ham ular sonining ko'payib borishiga shubha yo'q.

Yettinchidan, Respublikamizda muqaddas Ramazon va Qur-bon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilindi.

Sakkizinchidan, diniy tashkilotlar xalqaro aloqalarni kengaytirish imkoniga ega bo'ldilar.

To'qqizinchidan, Vazirlar Mahkamasi huzurida Diniy ishlar qo'mitasi tashkil etildi. Toshkent islom universiteti, Xalqaro Is-lom tadqiqot markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'ninchidan, mashhur diniy arboblarning xotiralari ulug'lanmoqda, ularning tavalludiga bag'ishlangan yubileylar va an-jumanlar katta tayyorgarlik bilan keng ko'lamda nishonlanmoqda.

Prezident Islom Karimov buyuk ajdodlarimizni ulug'lash masalasi xususida shunday degan edilar: «Xalqimizning tarixiy xotirasi ajoyib nomlarga boy. Ko'pgina allomalarimiz ma'naviyati keng va ayni vaqtda qismati og'ir bo'lgan siymolardir. Ular o'zlarini haqiqatga tashna va o'zi haqiqat bo'lgan xalqqa bag'ishladilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug' nomlari, xalq xotirasi va uning taqdiri munosib davom etishga haqlidir».

Nomi xalq xotirasida abadiy yashashga haqli va loyiq buyuk allomalarimizdan biri — muhaddislik ilmining yirik namoyan-dalaridan biri Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziydir, Sho'rolar davrida bunday ulug' bobokalonimiz borligini O'zbekiston aholisining asosiy qismi hatto bilmas edi. Vaholanki, bundan 1200 yil oldin At-Termiziy to'plagan hadislar ko'p asr-lardan buyon avlod-dan-avlodga o'tib kelmoqda. 1990- yilda bu ulug' zot tavalludining 1200 yilligi nishonlandi.

1993- yilning 16—18- sentabr kunlari tasavvuf ilmining sul-toni, islom dini sofligi yo'lida xizmat qilgan ta'limotning yaratuvchisi, buyuk bobokalonimiz Sayyid Bahouddin Naqsh-bandning 675 yillik yubileyi nishonlandi.

1389-yilda 73 yoshida vafot etgan Bahouddin Naqshband Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Orifonda dafn etilgan. Bui zot-ning mozori uzoq yillar davomida najotbaxsh muqaddas qadam-jolardan biri bo'lib kelgan edi. Sho'ro davrida esa bu joy tash-landiq holatga keltirilgan. El aziz tutgan ulug' alloma nomi xalq xotirasidan o'chirilishga mahkum etilgan edi. Biroq odil vaqt, hech qanday kuch xalqning tarixini va tarixiy xotirasini yo'qota olmasligini yana bir karra isbotladi.

1991- yilning dekabr va 1992- yilning oktabr oyida Prezident Islom Karimov avliyo maqbarasiga ziyoratga kelganlar. Ikkinchi ziyorat sanasi ulug' avliyo va muborak donishmand nomining abadiy tiklanishi, xotirasining xalqimizga qaytarilishi sanasi hisobla-nadi. Chunki, o'sha yilning 4- noyabrida Respublika Vazirlar Mahkamasi «Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish haqida» qaror qabul qildi.

Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi munosa-bati bilan o'sha kez-larda Movaroun-nahr musulmonlari idorasining nashri bo'lmish «Islom nuri» gazetasi bun-day deb yozgan edi: «Tasavvuf — bu, sodda qilib aytgan-da, islom dinimiz-ning asosiy manba-lari bo'lmish Qur'oni karim va Sunnati Nabaviyada kelgan ulug' insoniy fazilat-lami, odob va axloqni yuksak darajalarga ko'tarishga yordam beradigan, Allohning muhabbatini dunyo va barcha bor-liq muhabbatidan ustun qo'yishga o'rgatadigan, barcha razil sifat-lardan poklanishga olib keladigan bir ta'limot demakdir».

1993- yil — tasavvuf ilmining yana bir yirik namoyandasi Ahmad Yassaviy yili deb e'lon qilindi.

1993- yilning 23—24- oktabr kunlari O'zbekiston rahbariya-tining qarori bilan dunyo muhaddislarining imomi, sul-toni, ulug' yurt-doshimiz Imom al-Buxoriy tavalludining 1220 yilligi nishonlandi. Bu sanaga bag'ishlab «Imom Buxoriy hayoti va davri» mavzuida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi.

Toshkent islom institutining Imom al-Buxoriy nomi bilan atalishi, 4 jildli «Hadis», ya'ni «Al-Jome' as-sahiyh» («Ishonarli to'plam») to'plamlari, shuningdek, «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») kitobining o'zbek tilida nashr etilishi, 1992- yilda Prezidentimiz Islom Karimov Saudiya Arabistoniga borganida, bu davlat podshosi Fahd ibn Abdul Aziz hazrati oliylarining ehtirom ifodasi sifatida Yurtboshimizga hadya qilgan Ka'batulloh ustiga yopilgan Kisva — ka'bapo'shning bir

parchasini Prezidentimizning Imom al-Buxoriy masjidiga tortiq qilganligi buyuk allomaning yorqin xotirasiga ko'rsatilgan yuksak hurmat belgisidir.

Hadis ilmining sultoni, islom dinining beshigi — Makkai mukarrama va Madinai munavvara ahlining, din pesholari va olimlarning tahsiniga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriyning xoti-rasini ulug'lash ishi bu bilan cheklanib qolgani yo'q.

1998- yilda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi ni-shonlandi. Bu sanaga bag'ishlab ulug' alloma xotirasiga Samar-qand viloyatining Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik obidasi bunyod etildi. Al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligiga bag'ishlangan tan-tanalarda qatnashish uchun Samarqandga jahonning 40 ga yaqin davlatidan, YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlardan mehmonlar kelishdi.

Prezident Islom Karimov Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan marosimda nutq so'zladi. O'z nutqlarida Yurtboshimiz, jumladan, qu-yidagilarni ta'kidladi: «Buyuk vatandoshimiz bashariyatga tengsiz ma'naviy meros qoldi-rib ketdi. Bu merosning gul-toji — eng ishonchli hadislar to'plami — «Al-Jome' as-sa-hiyh» islom dinida Qur'oni karimdan keyin e'zozlanadi-gan ikkinchi manbadir. Butun dunyo musulmon-larining e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat lomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'idir.

Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va ezgulik yo'liga chorlab kelmoqda. Ozodligimiz sharofati bilan Al-Buxoriydek ulug' aj-dodlarimiz el-yurti bag'riga qaytmoqda. Allomaning o'lmas merosi har bir yurtdoshimiz xonadoniga kirib, ongu tafakkurimizni ravshan etmoqda. Qalblarimizni iymon nuri va mehr-oqibat tuyg'ulari bilan musaffo etmoqda. Ozodligimizning dastlabki yillaridanoq biz Imom al-Buxoriy maqbarasini ul zotning sha'n-shavkatiga munosib, yon-atrofi munavvar go'shaga, ziyoratga kelgan mo'min-musulmonlarga ruhiy-ma'naviy kuch ato etadigan qadamjoga aylantirishni niyat qilgan edik... Shu qutlug' kunda men bu muazzam yodgorlik majmuining shunchaki ziyoratgoh emas, balki go'zal O'zbekistonimizni butun dunyoga tanitadigan, yosh avlodimizni ezgulik ruhida tarbiyalaydiganinsonni hayt va avadiyat haqida o'ylantiradigan aziz maskan bo'lib qolishiga ishonaman».

2000- yilning 16- noyabr kuni Marg'ilon shahrida islom huquq-shunosligining ulkan namoyan-dasii nafaqat musulmon olami, ayni paytda butun dunyo e'tirof etgan, o'zining noyob aql-zako-vati bilan islom huquqshunosligi ilmida o'ziga xos maktab yarat-gan, bebaho merosi bilan yurtimizni dunyoga tanitgan buyuk bobolarimizdan biri — shayxul islom Burhonuddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi, 17- noyabr kuni esa Samarqand shahrida islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatguvchi" degan yuksak sharaf ga sazovor bo'lgan, kalom ilmining sultoni, yana bir buyuk bobomiz Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi. Shu munosabat bilan bu ikki shaharda buyuk bobolarimiz yodgorliklar majmuasi ochildi. Tantalarda ulug' bobolarimiz tavallud to'ylarining tashkilotchisi, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 1999-yilda Toshkent islom universiteti ochildi. Uning maqsadi: islom diniga oid boy va noyob ma'naviy-madaniy merosni chuqur o'rganish, uni asrab avaylash, kelajak avlodga yet kazish va bu sohada aholining bilim darajasini oshirish, respublikada ma'rifat li islom bo'yicha zamon talabiga javob beradigan yuqori malakali muta-xassislar tayyorlashdan iboratdir.

O'zbekistonda islomdan boshqa dinlar ham mavjud. Ularga ham qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan. Ularning qonunga mos istaklari ro'yobga chiqarilmoqda.

Masalan, 1995- yilda Vazirlar Mahkamasi Rus pravoslav cher-kovi Toshkent va O'rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimiring Mu-qaddas Uspenskiy kafedral sobori huzurida diniy-ma'muriy markaz ochish hamda 1996- yilda Yeparxiyaning 125 yilligini nishonlash to'g'risidagi takliflarini qo'llab-quvvatladi. Zero, diniy totuvlik ham jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir.

Prezident Islom Karimov bu tantana qatnash-chilariga yo'llagan tabrigida, jum-ladan, bunday deb qayd etgan edi: «Musulmonlar va xristianlarning O'z b e k i s t o n zaminida birgalikda hamnafas bo'lib yashashi — diniy-ma'naviy totuv-likning timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag'rikenglikning eng yaxshi na-munasi. Bu jarayonda Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasining ham hissasi borligi quvonchlidir».

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy e'tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?
2. Diniy e'tiqod erkinligi haqida Konstitutsiyaning qaysi moddasida so'z yuritiladi?
3. «Diniy tashkilotlar» deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Diniy tashkilotlarga kimlar a'zo bo'la oladi?
5. Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo'llaydi?

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2011.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahrir) – Toshkent: Adolat, 1998
3. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-T.: «O'zbekiston», 2000.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir.-T.: «O'zbekiston», 2005.
5. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi.-T.: «O'zbekiston», 2005.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiklol va taraqqiyot yo'li.- T.:O'zbekiston, 1992.
7. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 1998, 5-may.
8. Karimov I.A. O'zbekistonning qalbi yuragimizda. –T.: O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston, 2011.
11. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. T., 1968.
12. Abdusamedov A.I. Dinshunoslik asoslari. T.: O'zbekiston, 1995.
13. Mo'minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o'qitish va o'rganishning yagona kontseptsiyasi. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
14. A.Mo'minov, H.Yo'ldoshxo'jaev, B.Rahimjonov, M.Komilov, A.Abdusattorov, A.Oripov «Dinshunoslik» (darslik). - T.: 2002.
15. Readon B. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. T., 2002.
16. Jo'raev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. O'quv qo'llanmasi.-T.: 1998.
17. Mustaqillik izohli lug'ati. - T.: «Fan» 1998.
18. Falsafadan qomusiy lug'at. T.: "Sharq" 2004.
19. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T.: FAN, 1971.
20. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti-matbaa birlashmasi.-T. 2005.
21. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001.
22. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti (qisqartirilgan nashr). T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002.
23. As-Sa'olibiy, Abu Mansur. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-'asr. T.: FAN, 1976.
24. Sulaymon Boqirg'oniy. Boqirg'on kitobi. T., 1991.
25. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1997.
26. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy. T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1998.
27. Uvatov U. Muhaddislar imomi. T.: Ma'naviyat, 1998.
28. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T.: Istiqloq, 1999.
29. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T., 1992.
30. Husniddinov Z.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. T.: Movarounnahr, 2000.



31. Husniddinov Z.M. Mustaqillik sharoitida dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash jarayoni. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2000.
32. Eshonjonov B. Imom al-Buxoriy – buyuk faqih // Imom al-Buxoriy saboqlari. № 1, 2000, B. 16-18.

## **Missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlari**

### **Reja:**

1. Missionerlik va prozelitizm
2. Missionerlikning g'oyaviy aqidaviy asoslari.
3. Zamonaviy missionerlik tashkilotlari.
4. Missionerlik faoliyatida mintaqaviy xususiyatlar.

1. **Missionerlik va prozelitizm.** Missionerlik va prozelitizm din bilan bog'liq holda shakllangan va mutaassiblikka asoslangan hodisalar hisoblanadi.

Missionerlik so'zi lotin tilidagi «missio» fe'lidan olingan bo'lib, «yuborish», «vazifa topshirish», missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan ma'nolarni anglatadi. Missionerlik bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish bilan bog'liq nazariy va amaliy faoliyatni bildiradi.

Missionerlik o'ziga xos va uzoq tarixga ega. Jumladan, bunday harakat dastlab buddaviylik doirasida miloddan avvalgi III asrdan boshlab yoyilgan. Bugungi kunda esa missionerlik faoliyati bilan faol shug'ullanishga harakat qilayotganlar orasida bahoiylar, krishnachilar bilan bir qatorda yangi paydo bo'lgan sektalar borligini ham ta'kidlash zarur.

Missionerlikning uzviy qismi bo'lgan prozelitizm - to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishni anglatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etadi. Xususan, protestantlik zamonaviy missionerlikning asosiy homiysi bo'lib qolmoqda. Ularning faoliyati ko'plab davlatlarda katta muvafaqiyat keltirgan. Hozirgi kunda Janubiy-Sharqiy Osiyodagi an'anaviy ravishda buddaviylikka e'tiqod qilib kelgan ayrim mamlakatlar aholisining katta qismi yoki aksariyati xristianlikka e'tiqod qilishi ana shu zafarli yurishlarning natijasidir.

Din milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tilda gaplashadigan, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo'lgan, ammo turli dinlar yoki konfessiyalarga e'tiqod qiladigan millatlar hamon ichki birlikni ta'minlay olmayotgani, kichkina bir sabab qayta-qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani va mamlakatlar o'z taraqqiyotida o'nlab yillarga orqada qolib ketayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Livan aholisining 90 foizdan ortig'ini arablar tashkil etadi. Rasmiy til arab tili hisoblanadi. Ammo livanliklarning bir qismi islomga (sunniiy, shia, druz), qolgan qismi xristianlikka (maroniy, pravoslav, katolik) e'tiqod qilishi natijasida milliy birlikni ta'minlash qiyin kechmoqda. Mamlakatning amaldagi qonunchiligida davlat boshqaruv idoralariining diniy belgilar asosida shakllantirilishi mustahkamlab qo'yilgani esa, ko'pgina hollarda xilma-xil omillar ta'sirida uning to'laqonli faoliyatiga to'siq bo'lmoqda. Musulmonlar va xristianlar o'rtasida vaqti-vaqti bilan kelib chiqayotgan fuqarolar urushi esa bu birlikni ta'minlashni yanada mushkullashtirmoqda.

Turli millat va din vakillari istiqomat qilib kelgan Yugoslaviyaning parchalanib ketgani ham etnokonfessional ziddiyatlar qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligining hayotiy-amaliy ifodasidir.

Masalaning ana shu jihatiga e'tibor berilsa, missionerlik harakatlari ortida diniy zaminda millatni ichidan bo'lib tashlashga qaratilgan g'arazli siyosiy maqsadlar yotganini va u keltirib chiqaradigan fojialarni anglab etish mumkin. Bu, missionerlar o'z maqsadlariga erishadigan bo'lsalar ular faoliyat olib borayotgan mamlakatda nizo va janjallarning avj olishi, dushmanlik

hissiyotlarining paydo bo'lishi orqali dinlararo nizolarning kelib chiqishiga zamin yaratilishi, xalqning parokandalikka yuz tutishi va ma'naviy tanazzulning kelib chiqishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi

**2. Missionerlikning g'oyaviy aqidaviy asoslari.** Bugungi kunda faol missionerlik bilan turli yo'nalishdagi tashkilotlar shug'ullanayotgan ekan, bunday harakatlarning g'oyaviy-aqidaviy asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, xristianlar "Missionerlik har bir dindor uchun shart",-deb hisoblaydilar. Bunday fikrlarning asosi va manbaini «Injil»dan topish mumkin. Jumladan, "Injil"da Iso Masihning o'ziga 12 havoriyni tanlab olishi va ularni Isroilning qishloqlari bo'ylab da'vat qilish uchun yuborgani qayd etilgan. Bu haqda Markdan rivoyat qilingan "Injil"da «Iso shogirdlariga dedi: "Butun jahon bo'ylab yuringlar va hamma tirik jonga Injil Xushxabarini targ'ib qilinglar", Mattodan rivoyat qilingan «Injil»da esa "...barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh nomi bilan cho'qintiringlar. Men sizlarga buyurgan hamma narsalarga amal qilishni ularga o'rgatinglar..."», -degan da'vatlarni o'qish mumkin.

Bunday chaqiriqlarni «Injil»dan yana ko'plab topish mumkin. Ammo missionerlar o'z faoliyatini tashkil etishda asosan qayd etilgan dalillarga tayanadilar.

Shu o'rinda adolat yuzasidan bir fikrni alohida qayd etish lozim. Ko'pchilik hollarda muayyan dinda doirasida shakllangan u yoki bu ko'rsatmalar, aqidalar konkret tarixiy shart-sharoit bilan bog'liq bo'ladi va o'z davri uchun to'g'ri hisoblanadi. Vaqt, sharoit o'zgarishi bilan o'zining birlamchi ahamiyatini yo'qotgan bunday ko'rsatmalar o'sha davrdagi tarixiy vaziyatni tushunish va baholashda qimmatdorlik kasb etadi. "Injil"dan keltirilgan yuqoridagi so'zlar haqida ham shunday deyish mumkin. Zero, Iso Masih tomonidan qilingan bunday da'vatlar ko'p xudolilik o'rniga yakka xudolikni targ'ib qilish bilan bog'liq edi. Bugungi kunda jahon aholisining mutlaq ko'pchiligi yakkaxudolikka asoslangan o'z dinlariga e'tiqod qiladi. Shunday ekan, qayd etilgan ko'rsatmalarni missionerlik bilan shug'ullanish uchun g'oyaviy asos qilib olish tarix haqiqatiga zid ekanini ta'kidlash zarur.

**3. Zamonaviy missionerlik tashkilotlari.** Dastlabki xalqaro xristian missiyalari, 1910 yilda Shotlandiyaning Edinburg shahrida paydo bo'lgan edi. Bugungi kunda yuzlab shunday maqomga ega missiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni yanada rivojlantirish, etarli moddiy, ma'naviy va inson resurslari bilan ta'minlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Odatda, xalqaro missiyani tashkillashtirishda ma'lum bir konfessiyaning barcha shaxobchalari qatnashadi. Masalan, tashkilotning nashriyoti uni tegishli adabiyotlar bilan ta'minlasa, tadqiqot markazi muayyan mamlakat aholisi, uning hayot tarzi, urf-odatlarini, zaif tomonlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va diniy adabiyotlarni mahalliy tillarga tarjima qilish bilan shug'ullanadi. Missiyani moddiy-moliyaviy ta'minlashda ishlab chiqarish tuzulmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko'ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati beqiyosdir. Mana shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya istalgan mamlakatda tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Zamonaviy xalqaro missiyalar bugungi kunda o'z faoliyatini:

- yangi xalqaro missiyaning maqsad va vazifalarini e'lon qilib, keng ko'lamdagi tushuntirish ishlarini olib borish;

- xalqaro missiya tarkibida ma'lum mamlakatga yuboriladigan ko'ngilli nomzodlarni aniqlash;

- ko'ngilli nomzodlar orasidan bo'lajak xalqaro missionerlarni tanlab olish;

- tanlab olingan bo'lajak missionerlarni maxsus maktablarda o'zlari yuboriladigan mamlakat aholisi, ularning tili, urf-odatlarini, faoliyat olib borishning samarali vositalari va usullari bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish;

- tayyor bo'lgan missionerni tegishli moliyaviy manbalar va maxsus rejalar bilan ta'minlagan holda belgilangan mamlakatga jo'natishdek besh bosqichda amalga oshirayotganini alohida qayd etish zarur.

Qayd etilgan xususiyatlar ham zamonaviy xalqaro missiyalar o'z faoliyatini tizimli va tadrijiy tashkil etayotgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida missionerlikning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'plab xalqaro xristian missiyalari faoliyat olib bormoqda.

Missionerlik rivojiga "Ibodot Harakati-2000", "Jahon Ibodat Markazi" va "Xalqaro Havoriylar Koalitsiyasi" kabi o'nlab tashkilotlar o'ziga xos hissa qo'shib kelmoqda. Ularning ichida Patrik Djonstoun tomonidan asos solingan "Dunyo operastiyasi" missiyasi global miqyosda faoliyat yuritayotgan eng yirik missiya hisoblanadi.

Bugungi kunda muayyan moliyaviy imkoniyatlarga ega va o'zi mansub bo'lgan konfessiya ta'limotini dunyo bo'ylab yoyishga hissa qo'shishni muqaddas burch, deb biladigan alohida dindorlar tomonidan tashkil etiladigan "xususiy missiya"lar paydo bo'lganini ham qayd etish lozim. Odatda bunday faol dindorlar ma'lum mamlakatga kelib u erda o'z nomlaridagi missiya va parallel ravishda xayriya jamg'armasi tuzib, missionerlik bilan shug'ullanadilar. Hozirda MDH hududida Kanada fuqarosi Kennet Kouplend tomonidan tashkil etilgan "Kennet Kouplend", AQShlik ayol Joys Mayer tuzgan "Joys Mayer" missiyalari faoliyat yuritayotgani fikrimizning isboti bo'la oladi.

Xalqaro missionerlik tashkilotlari xristianlikdan boshqa dinlar doirasida ham mavjud. Jumladan, buddaviylik doirasida yuzaga kelgan Soka Gakkay, Foguanshang va Von kabi tashkilotlarni shu qatorga qo'shish mumkin. Ular o'z missionerlik faoliyatida asosan adabiyotlar tarqatish va xayriya tadbirlarini o'tkazish amaliyotidan foydalanadilar.

4. **Missionerlik faoliyatida mintaqaviy xususiyatlar.** Muayyan hududlarni e'tiqodiy ta'sir va tazyiq o'tkazish ob'ekti sifatida tanlab olish va ular bilan maqsadli ishlash missionerlik strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo ham xristian missiyalarining diqqat-e'tibori qaratilgan hududlardan biriga aylanganini alohida qayd etish lozim. Ushbu hududni o'zlashtirish uchun bir qator rejalar ishlab chiqilgan. 2000 yilga borib dunyodagi cherkovlar sonini 7 millionga etkazish ko'zda tutilgan "Tong - 2000" dasturi doirasida mintaqamizda cherkovlar sonini bir necha barobarga oshirish nazarda tutilgani ham fikrimizning isboti bo'la oladi.

Faol missionerlik bilan shug'ullanayotgan "Ettinchi kun adventistlari" jamoasi tomonidan Markaziy Osiyodagi faoliyatni kuchaytirishga qaratilgan maxsus bo'lim tuzilgani ham yaqin istiqbolda mintaqamizda "chin e'tiqodni" targ'ib qilish yo'lidagi harakatlar yanada kengroq ko'lam kasb etishi mumkinligidan dalolat beradi.

Missionerlar o'zlari faoliyat olib boradigan mamlakatga xos xususiyatlarni hamisha e'tiborga olishgan. Masalan, ijtimoiy mazmunga ega ko'plab tadbirlarga "o'z ulushlarini qo'shishga" va o'zlarining beg'arazligini iddao qilgan holda muhtoj oilalarga moddiy yordam berishga harakat qilishlari ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ayni paytda, missionerlar hududiy o'ziga xosliklarini inobatga holda faoliyat olib borishga harakat qilishini ham ta'kidlash zarur. Chunonchi, konkret vaziyat va sharoitni inobatga olib, missionerlar o'z hamkorlari bo'lgan xorijiy xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda "ichimlik suvining sifatini yaxshilash", "ekologik vaziyatni barqarorlashtirish", "bolalar va onalar salomatligini mustahkamlash", "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni oqilona tashkil etish" degan turli shiorlar va tamoyillar ostida ish olib borishga harakat qilishlarini alohida qayd etish lozim.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Missionerlik so'zining ma'nosi nima?
2. Missionerlik qanday omillar natijasida vujudga keladi?
3. Prozelitizm nima?
4. Missionerlik hharakatidan ko'zlangan asosiy maqsad nimalardan iborat?
5. Missionerlik harakati bilan qaysi tashkilotlar shug'ullanadi?

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2010.

2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) O’zbekistonning yangi qonunlari, 19. T., Adolat, 1998, 224-234-betlar, Xalq so’zi, 1998, 15-may, 2-bet.
3. Karimov I.A. Oллоh qalbimizda yuragimizda. –T.: O’zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O’zbekiston, 2011.
6. Mo’minov A., Yo’ldoshxo’jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Darslik / Mas’ul muharrir akad. Ibrohimov N.I. – T.: Mehnat, 2004. – 296 b.
7. Hasanov A., Komilov M., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q., Islom tarixi. Darslik. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
8. Yo’ldoshxo’jaev H. Rahimjonov D. Komilov M. Dinshunoslik ma’ruzalar matni. – T.: ToshDShI nashriyoti, 2000.
9. Mo’minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o’qitish va o’rganishning yagona konstepstiyasi. – T.: ToshDShI nashriyoti, 1999.
10. Islom va hozirgi zamon: o’quv qo’llanma. Mas’ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.

### **8-mavzu: Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari**

#### **Reja:**

1. Diniy fundamentalizm va ekstremizm mazmuni, vujudga kelishi sabablari.
2. Ilk islom davridagi mafkuraviy kurashlar
3. Diniy ekstremizm harakatlarini oldini olishning ma’naviy-ma’rifiy asoslari.

#### **Tayanch so’zlar:**

***Fundamentalizm, Ekstremizm, Terrorizm, Aqidaparastlik, Vahhobiylik, «Ixvonul musulimin», «Xizbut tahrir al-islomiy», «Akromiyalar», «Tavba», «Nur», «Al-Qoida», Xalqaro terrorizm.***

**Diniy ekstremizm** – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o’z aqidasiining shak-shubhasiz to’g’riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

**Fundamentalizm** – ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo’l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo’nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o’zgarmasligini himoya qiladigan, vahy va mo’jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so’zma-so’z talqinga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo’yadigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang’ich davrida belgilangan barcha yo’l-yo’riqlarni qat’iy va og’ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo’llaniladigan istilohdir.

Fundamentalizm iborasi ilk bor II Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoks oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an’anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaq mukammalligiga ishonishni mustahkamlashni, uni so’zma-so’z sharhlashga qat’iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib, 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assostiasiyasiga asos solindi.

Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa bu so’z islomga nisbatan qo’llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo’nalishdan biridir (qolgan ikkitasi – traditsionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy g’oyasi – «sof islom» prinstiplariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo’lini joriy etishdir.

XX asrning 80-90-yillarida butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. Bu davr jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy hayotdagi tabiiy mavqei tiklanayotgan, ikkinchi tomondan, mazkur asosda ayrim mafkuraviy ziddiyatlar tug'ilishi vaqti bo'ldi.

Asosiy qonunimizda yana shu narsa qat'iy qilib belgilab qo'yilganki, Konstitutstiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning Konstitutstiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi (57-modda).

O'rta Osiyodagi respublikalar o'z mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining emirilib, muayyan vaqt davomida hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji bo'ldi. Kommunistik mafkuraning ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lib, o'ziga xos mutaassibli va muayyan millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi sho'ro hokimiyatidan keyin bu hududda diniy fundamentalizm uchun qulay sharoit tug'dirdi.

Sobiq Ittifoqdagi hukmron partiyaning namoyandalari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi deb hisoblashi dinning chekinishi va hatto uning muayyan ma'nodagi muxolif kuchga aylanishiga olib keldi. Dinning doimiy ta'qib ostida bo'lib kelgani, islom dinining eng salohiyatli ulamolarning qatag'on qilinishi, minglab masjid va madrasalarning buzib tashlanishi diniy taassubni yo'qotishga emas, balki uning ildizlarini oziqlantiruvchi xatarli omillarning kuchayishiga olib keldi. Millatlar orasida o'zlikni anglash tuyg'usi, etnik jihatdan nasl-nasabini izlashga intilish kuchaydi.

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo'l bilan musulmonlarni islohotchi davlatga ishonchini yo'qotishga urinishda o'zini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Binobarin din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga etkazishga yordamga kelgan.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash mumkin. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon, u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan».

Keyingi yillarda milliy va diniy qadriyatlarining tiklanishiga katta e'tibor berilishi bu narsa hukumatimizning ustuvor siyosatga aylandi. Ko'plab diniy bayramlar ommaviy nishonlanmoqda, televidenie va matbuot tomonidan xalq ehtiyojida bo'lgan diniy masalalar tez-tez yoritila boshlandi. Fuqarolar o'rtasida diniy ilm va an'analarga o'rganish qiziqish kuchaydi. Biroq bundan foydalangan ba'zi shaxslar o'z manfaatlarini yo'lida chet ellik yurtimizga suqulib kirmoqchi bo'lgan ekstremistik oqimlar «da'vatchi»lariga aylandilar. Ular xorijliklar tomonidan istaganlaricha mablag` va diniy adabiyotlar bilan ta'minlandilar. Bu harakatlar tezda o'z natijasini berdi. Farg'ona vodiysi va Toshkent shahrida avj olgan «vahhobiychilik» harakati, jumhuriyatimizning deyarli barcha shahar va qishloqlariga etib borishga ulgurgan «Hizb at-tahrir al-islomiy» kabi guruhlarning keyingi yillarda Vatanimizning turli joylarida uyushtirgan fitna-fasod harakatlari shundan darak beradi.

Modomiki, biz yoshlarimizni, Prezidentiz aytganidek Imom Buxoriylar, Naqshbandiylar va Yasaviylar ta'limoti asosida tarbiyalar ekanmiz, biz ularni turli islom niqobi ostidagi g'arazli

guruhlar bilan buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga ham tavsiya etgan musaffo islom o'rtasini ajrata oladigan darajada bilimli qilishimiz zarur bo'ladi.

**Vahhobiylilik.** Vahhobiylilik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining al-Uyayna degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mucnaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilardi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Kurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliigi bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Dir'iya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Sa'ud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylilikdek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani kufirda yoki shirkda ayblashlari va unga qarshi "jihod" e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Sa'ud esa bu jihodni amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792 yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vahhobiylilik bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylilik ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeyiliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini bid'atchilikda, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi "jihod" olib borishga fatvo berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib qilsalar-da, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylilik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylilik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat olib boradilar. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, etim-esirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgalar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

**Al-Ixvon al-muslimun.** XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy islohotlar» nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislomizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislomizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abduh (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etdi va unda panislomizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Al-

Afgʻoniyning gʻoyalarini keyinchalik «Musulmon birodarlar» (al-Ixvon al-muslimun) radikal shakllarida rivojlantirildi.

Al-Ixvon al-muslimun – 1928 yili Misrning Ismoiliya shahrida Misrlik shayx Hasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilot. Hasan al-Banno Jamoliddin al-Afgʻoniy, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan taʼsirlanib, panislomizm gʻoyasida jihod, islomiy millatchilik, islomiy davlat taʼlimotlarini ishlab chiqdi. Al-Ixvon al-muslimun bu taʼlimotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qurʼon va shariatda ifodalangan qoidalarga toʻliq rioya qiluvchi, «islomiy adolat» printsiplari oʻrnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi.

Al-Ixvon al-muslimun oʻz tarixida bir necha bosqichlarni bosib oʻtdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va maʼrifatchilik bosqichi deb atasa boʻladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qoʻllash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Koʻplab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda al-Ixvon al-muslimun orasida boʻlinish yuz berib, ular 3 yoʻnalishga ajralib ketdi:

«Moʻtadillar» – Hasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;

«Islom demokratlari» – «islom sostializmi» taʼlimoti tarafdorlari;

«At-Takfir va-l-hijra», «al-Jihod», «Hizb at-tahrir al-islomiy» kabi terror uslubini qoʻllovchi tashkilotlar.

**Hizb at-tahrir.** Hizb at-tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tugʻilib oʻsgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida taʼlim olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi – avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy daʼvosi – Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili usmoniy xalifa ikkinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan gʻayriqonuniy chetlatilgani boʻldi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Partiya dasturi 187 banddan iborat boʻlib, asosiy maqsadi – hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yoʻl – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy taʼlim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom taʼlimotini oʻrgatish yoʻlida madaniy-maʼrifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

Gʻoyaviy-fikriy kurash;

Jamiyatda gʻoyaviy inqilobni amalga oshirish;

Hokimiyatga faqatgina umma-jamoaning toʻliq roziligidan soʻng kelish.

Hizb at-tahrir tarafdorlari koʻpgina musulmon davlatlari, jumladan, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda oʻz faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zallumdir.

Hizb at-tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (halqa) alohida-alohida boʻlib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning oʻquv ishiga mushrif rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar – amir boʻlib, u mushrifga mashgʻulotlarni oʻtkazishda bevosita yordam koʻrsatadi. Mushrif bir vaqtning oʻzida bir necha guruhda taʼlim ishlarini olib borishi mumkin. Oʻqish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashgʻulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir boʻlayotgan voqealarni diqqat bilan oʻrganadilar.

Oʻzbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlangʻich boʻlinmalari tashkil etila boshlagan. Partiya safiga kiruvchilar oʻz partiyalari haqidagi maʼlumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka oʻz mushrifi buyurgan vazifalarni soʻzsiz bajarishga Qurʼon bilan qasam ichadilar. Partiya mutasaddilari oʻz tarafdorlarini koʻproq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

Etarli taʼlim olgan shaxslar keyinchalik oʻzlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning taʼlimi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda «Islom nizomi» va «Izzat va sharaf sari» kitoblari boʻyicha oʻqitiladi, «al-Vaʼy» jurnalidagi maʼlumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda «Demokratiya – kufr nizomi», «Siyosiy ong», «Xalifalikning tugatilishi», «Hizb at-tahrir tushunchalari», «Islomiy daʼvatni yoyish vazifalari va sifatleri» kabi

kitoblari o'qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko'zlab, Qur'on oyatlari va hadislarini noto'g'ri talqin qilib, dindorlar ongiga ta'sir qilish mo'ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiy lashtirilgan islomga targ'ib etib, ularni fuqaroviy bo'ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari – Yusuf qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Hizb at-tahrirni ohod hadislariga, qabr azobiga, sirot ko'prigiga ishonmasliklari uchun ularni Ahl as-sunna va-l-jamoa safidan chiqqan deb hisoblaydilar.

**Akromiylar.** Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati to'xtatilgan noan'anaviy, ham islom ta'limotiga, ham Konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo'lgan guruh «Akromiylar»dir.

Akromiylar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi – 1963 yilda tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom nomi bilan bog'liq. A. Yo'ldoshev Hizb at-tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g'oyalari asosida 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylarni «Imonchilar» deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga noqonuniy chiqish kabi g'arazli maqsadlarni ko'zlaydilar. Biroq ular tahrirchilardan farqli o'laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo, Andijonda, so'ng Farg'ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar – «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu guruh a'zolari, asosan, hunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zarurat tug'ilganda «birodarlari»ga «jamoa banki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. quda-andachilik faqat «birodarlar» o'rtasida amalga oshirilgan.

**Diniy ekstremizm harakatlarini oldini olishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari.** Xalqaro terrorchi kuchlar qaytadan birlashib, bosh ko'tarayotgan, o'ta makkor va yovuz uslublarni qo'llayotgan bugungi kunda hayotning o'zi xalqaro hamjamiyat, jumladan mintaqamizdagi davlatlardan bu xavfli baloga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish zarurligini alohida ta'kidlamog' lozim. Bir yoqadan bosh chiqarib, bunday urinishlarga keskin zarba berish, har qanday tajovuz va terrorchilik xurujlarini oldini olish, ularning mafkuraviy zaminini yo'qotish va avvalo, yoshlarimizni qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashni ham taqozo etmoqda. Muayyan kuchlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan kompaniyasi, gohida esa ularning terroristik tabiatga ega zo'rvonlik usullariga o'tishlari ta'sirida diniy ongning radikallasuvi sharoitida, yoshlarimiz ongida huquqiy sohada ham ommaviy choralarga kuchli ehtiyoj seziladi.

Diniy ekstremizm harakatlarini oldini olish faqat bizning mintaqamizdagina emas, balki Sharqdagi islom mamlakatlarida ham jiddiy ahamiyatga molik masala bo'lib qoldi. Masalan, arab sharqini turli davlatlarida islom ekstremizmiga barham berishga oid jiddiy choralar ko'rilgan:

-1977 yil 2 iyuldan e'tiboran Misr Arab Respublikasida barcha diniy-siyosiy partiyalar taqiqlangan.

-1980 yil 7 iyulda Suriya Arab Respublikasida «Musulmon birodarlari» partiyasi a'zolarini qatl etish to'g'risida qonun qabul qilingan.

-1981 yil 31 martda Iroqda «Islom da'vati» partiyasi a'zolarini qatl etish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, diniy tashkilotlar faoliyati «uy va masjid» doirasida cheklangan.

-1981 yil Tunisda mamlakatda islom aqidaparstligi g'oyalari targ'ib etmaslik hamda maktab va jamoa erlarida dinga xos liboslarni kiyib yurmaslik to'g'risida qonun qabul qilingan.

Jazoirida «Siyosat bilan faqat siyosiy arboblarni shug'ullanadi» shiori e'lon qilingan.

XX asr oxiriga kelib dunyoda, ayniqsa, uning jo'g'rofiy-siyosiy xaritasida katta o'zgarishlar bo'ldi. Yangi-yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lib, jahon hamjamiyatiga kelib qo'shildilar. Shu bilan birga, bu asrning oxiri o'ziga xos tarzda diniy qadriyatlarga qaytish davri ham bo'ldi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin xalqimizning ma'naviy va madaniy merosiga, tarixiga munosabat tubdan ijobiy tomonga o'zgardi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning mustaqillikka erishgan mamlakatlariga islom ta'limoti nomidan ish ko'rish, o'z davlati siyosatini



islom vositasida «tahlil» qilishga urinish, shu yoʻlda turli xil fitnalar uyushtirish, buzgʻunchilik harakatlari ham kuchaydi. Mazkur mamlakatlarda turli ekstremistik oqimlarning maqsadlari va kirdikorlarini ommaga tushuntirish, bunday oqimlar faoliyatini cheklash va taʼqiqlashga eʼtibor kuchaytirildi. Jumladan, 2005 yil boshlarida Qozogʻistonda «Xizb-ut tahrir» tashkiloti faoliyati taʼqiqlab qoʻyildi.

Oʻzbekistonda 2000 yilda «Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashni kuchaytirish toʻgʻrisida» Davlat dasturi qabul qilindi. Uning asosida oʻsha yilning dekabr oyida Oʻzbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash toʻgʻrisida»gi Qonuni qabul qilindi. Nyu York va Vashingtonda 2001 yil 11 sentyabrda sodir etilgan terrorchilik harakatlaridan soʻng AQSh boshchiligida tuzilgan xalqaro terrorizmga qarshi kurash koalitsiyasi tarkibiga Oʻzbekiston Respublikasi ham kirdi.

Oʻzbekiston Respublikasi va Amerika Qoʻshma Shtatlari hukumatlarining 2001 yil 7 oktyabrdagi Qoʻshma Bayonoti va ikki mamlakat hukumatlari oʻrtasidagi xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida imzolangan bitim oʻzaro majburiyat va kafolatlarning huquqiy asosi, umumiy manfaatlarining amaliy ifodasidir. Ayniqsa, Shanxay hamkorligi davlatlari sammiti doirasida Toshkentda aksilterror markazning ijroiya qoʻmitasining ish boshlashi yana bir bor Oʻzbekistonning xalqaro miqyosidagi obroʻ-eʼtibori ortib borayotganligini, jahon siyosatining faol ishtirokchisiga aylanganligini, u tanlagan siyosiy yoʻlning toʻgʻriligini hamda oʻz xalqi manfaatlaridan kelib chiqib saʼy-harakatlar olib borayotganligining yorqin dalili boʻldi.

Islom Karimov BMTda soʻzlagan nutqida (1993), EXHTning Istambul sammitida (1999) davlat rahbarlari bilan uchrashganida terrorizm va uning manbalari, bazalari, faoliyatini bartaraf etish boʻyicha amaliy takliflar bilan chiqdi va «Terrorchilikka qarshi kurash boʻyicha xalqaro markaz» tuzish taklifini oʻrtaga tashladi.

2000 yilning sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasi «Ming yillik sammiti»da Prezidentimiz mintaqamiz xavfsizligini taʼminlash bilan bogʻliq boʻlgan xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni taʼminlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga eʼtiborni qaratdi.

Bugungi kunda terrorizm xavf solishi mumkin boʻlmagan davlatning oʻzi yoʻq. Shunday ekan dunyoning barcha davlatlari bir-birlariga yordam berib, bir-birlarining yordamlariga suyangan holda terrorizmga qarshi kurashmoqdalar.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000-2004 yillar davomida koʻp marta uchrashdilar va xavfsizlikni taʼminlash masalalarini muhokama qildilar. Jumladan, 2000 yil aprel oyida Toshkentda, 2000 yil avgust oyida Bishkekda, 2001 yil Ostonada, 2004 yil oktyabr oyida Dushanbeda boʻlib oʻtgan uchrashuvlarda mintaqada xavfsizlikni taʼminlashga asosiy eʼtibor qaratildi. Xususan, «Terrorchi guruhlar faoliyatini toʻxtatish, ularning rahbarlari roʻyhatini tuzish, rahbarlarni tutib jazolash» haqida muhim hujjatlar qabul qilindi.

2005 yil 13 mayda Andijonda sodir boʻlgan voqealar diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning Oʻzbekiston mustaqilligi va yurtimiz tinchligiga jiddiy havf tugʻdirayotganini koʻrsatdi. Jahonning koʻpchilik ommaviy axborot vositalarida taʼkidlaganidek, Andijondagi yuz bergan fojiani bartaraf etish uchun koʻrilgan chora tadbirlar Oʻzbekiston rahbariyatining diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilik muammosiga nisbatan kurashi qatʼiy ekanligining isbotidir. Horiyning koʻpchilik mutahassislari Andijondagi ekstremistik harakatlarni qattiq qoraladilar.

Maʼlumki, uzoq tarix davomida xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati, oʻzaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanish, yaxshi qoʻshnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati eʼzozlanib kelingan. Ushbu qadriyatlarining qaror topishida islom dinining asoslari Qurʼon va hadislarda olgʻa surilgan, real, dunyoviy qarashlar, fikrlar ham muhim oʻrin tutadi. Shu sababli oʻzbek xalqining ilm fan xazinasi, milliy maʼnaviyati, maʼnaviy qadriyatlarining qaysi tomonga nazar tashlamaylik, ularning zamirida chuqur ijtimoiy, axloqiy ahamiyat kasb etadigan insonparvarlik gʻoyalari mavjudligini koʻramiz.

Shuningdek, Turon zaminida shaxs umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan. Ushbu jarayonda din inson maʼnaviyatini rivojlantirishning muhim omili boʻlgan. Agar islom dini misolida olib koʻradigan boʻlsak, Qurʼon, hadislardagi gʻoyalarda va shariat ahkomlarida

shakllangan musulmonlarning taqdiri huquqlari deb tan olingan fikrlari orqali kishilarda imon, e'tiqod orqali dunyoviy muammolarni hal etishga kerak degan da'vati islom ta'limotida katta o'rin olgan.

Afsuski, bugungi diniy ekstremizm bundan 40-50 yil ilgari diniy ekstremizm va fundamentalizmdan bir necha barobar xavflidir. Chunki, din niqobi ostida aqidaparastlik g'oyalar bilan qurollangan ekstremizm g'iyohvand moddalar tarqatish, qurol-yarog` savdosi, xalqaro terrorizm bilan qo'shilib ketdi. Eng yomoni, ekstremistlar va aqidaparastlar maqsadlarini qorishtirmoqchi bo'layapti va bunday g'oyalar bilan yoshlarni ongini zaharlashga harakat qilmoqdalar.

Bugungi kunda insoniyat terrorizm mamlakatlar xalqlari uchun katta tahdid solayotganini tushunib etdi. Shuningdek, uning islom diniga hech qanday aloqasi yo'qligini, islom tinchlik va mehribonlik dini bo'lgan, odamlarga rahm-shafqatli va adolatli bo'lishni, muhabbat va birodarlikni buyuradigan din ekanligi to'g'risidagi haqiqatni butun dunyo tushunib etdi. Islom dinini niqob qilib qabih ishlarni amalga oshirayotgan bir guruh mutaassiblar er yuzidagi bir yarim milliardga yaqin musulmonning dunyoqarashini belgilay olmaydi. Diniy ekstremizm qanday ko'rinishda bo'lmasin, qanday nom bilan atalmasin uning asosiy maqsadi hokimiyat tepasiga chiqish ekanligini, diniy ekstremizm haqiqiy islom diniga zarracha aloqasi yo'qligini yoshlar tushunib olishlari ham bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Islomning chinakam axloqiy asoslarini anglab etgan kishining shafqatsizlik, vahshiylik, kuch ishlatish tarafdori bo'lishini tasavvur qilish qiyin. Xuddi shuning uchun ham Islom ta'limoti ekstremizm va terrorchilik balosini tag-tomiri bilan tugatish yo'li hisoblanadi. Islom dini jaholatning har qanday ko'rinishiga qarshi bo'lib, odamlar qalbiga tartibsizlik, dushmanlik, buzg'unchilik, yovuzlik va nafrat urug`ini sohadigan kimsalarning hatti-harakatlarini hech qachon qo'llab quvvatlamaydi. Butun dunyoda terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurash yo'lida zudlik bilan qo'yilishi kerak bo'lgan birinchi qadam bu jamiyatda ma'rifat, ma'naviy, axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yish, ma'rifiy islomdan foydalanishdir.

Islom ma'rifati-ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lib, u e'tiqod erkinligi sifatida daxlsizdir. Ammo diniy ekstremizm mazhabparastlik, aqidabozlik-o'ta xavfli hodisa. Bizni oqil va orif etadigan, fazilatimizga fazilat qo'shadigan ta'limotlarni olishimiz, jaholat va tubanlikka, ayirmachilik va madaniyatsizlikka tortadigan oqimlar, illatlardan uzoq turushimiz, jamiyatimiz yakdilligiga rahna soladigan guruhlar ta'siriga berilmasligimiz va yoshlarni ham shu ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Islom hech qachon qirg`inga, birodarkushlikka, qon to'kishga da'vat etmaydi. Odam o'ldirma, nohaq qon to'kma, birovning haqini ema, zino qilma singari muqaddas tushunchalar islom axloqining asosiy ustunlaridan sanaladi. Payg`ambar Muhammad sallolohu alayhi va salam: «Islomning eng ishonchli narsasi imondur». Va shu bilan barobar: «Musulmonni so'kmoq-gunohdir, unga qurol ko'tarmoq-kufrdir, uni g'iybat qilmoq-ulug` gunohdir, mo'minning qoni haromdur»<sup>§§§</sup>-degan. O'zini sof dindor hisoblayotgan aqidaparastlar va vahobbiylar-chi, nimaga birodarkushlikdan, nohaq qon to'kishdan qo'rqqmayotirlar? Chunki ulardagi hokimiyatga, davlatga egalik qilishga intilish hissi qalb ko'zlarini ko'r qilib qo'ygan. Ular allaqachon nafs quliga aylanib qolishgan. Ular uchun din, namozxonlik bir bahona, niqob. Bu guruh shu niqobdan foydalanib, qanchadan-qancha gunoh ishlarga, jinoyatlarga qo'l urayapti.

Bizning yo'limiz aniq-ravshan: din inson ruhiyati, qalbini poklaydi. Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilganidek, har kim istagan diniga e'tiqod qilish yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi mumkin. Ammo endi milliy qadriyatlarimizni «dinni tozalash», «sof dinga qaytish» niqobi ostida tashviqot olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar sodir etish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo'yganlardan asrab-avaylashimiz lozim. Ularning bu kirdikorlari va qilayotgan noma'qul ishlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu yosh mustaqil davlatimizga ochiqdan-ochiq tajovuzi mustaqilligimizni ham xavf ostiga qoldiradi.

---

<sup>§§§</sup> Ахлоқ одобга ҳадис намуналари. Т., Фан. 1990, Б. 57-63.

Shuni ham anglab etish kerakki, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o'ziga xos va mos yo'li bo'lgani kabi madaniy-ma'naviy rivojlanishda ham o'z yo'limiz bor. Bu o'ziga xoslikni dinga bo'lgan munosabatda ham ko'ramiz. Ya'ni, mo''tadil dindorlik, islom ma'rifatini rivojlantirish, hazrat Naqshband vasiyatlariga rioya qilish, kishilarimizning ichki-botiniy olamini poklab, Allohni dilda saqlab aqlu tafakkur, ilmu urfon bilan kamolot kasb etish, o'z merosiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam olg'a borishga erishish ezgu maqsadimizdir. Bu maqsad bizni chinakam ma'rifat sari etaklaydi. Haqiqiy ma'rifat dini sifatida islom ma'naviyati bizni shunga da'vat etadi.

#### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Fundamentalizm ilk bor qaysi din doirasida paydo bo'ldi?
2. Diniy ekstremizm deganda nimani tushunasiz?
3. Islomda qanday radikal oqim va guruhlar mavjud?
4. Ekstremistik guruhlarining maqsadlari nimalardan iborat?
5. Markaziy Osiyo mintaqasida qaysi ekstremistik guruhlar o'z noqonuniy faoliyatini olib boradilar?

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2010.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) O'zbekistonning yangi qonunlari, 19. T., Adolat, 1998, 224-234-betlar, Xalq so'zi, 1998, 15-may, 2-bet.
3. Karimov I.A. Olloh qalbmizda yuragimizda. –T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston, 2011.
6. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Darslik / Mas'ul muharrir akad. Ibrohimov N.I. – T.: Mehnat, 2004. – 296 b.
7. Hasanov A., Komilov M., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q., Islom tarixi. Darslik. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
8. Islom va hozirgi zamon: o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.
9. Zohidov Q., Mahmud M. Islom madaniyati demokratiyaga zid emas / Guliston. 2000. 6-son. B. 38-39.
10. Churakov M.V. Narodnoe dvizhenie v Magribe pod znamenem xaridjizma. M.: Nauka, 1990.

## MUNDARIJA

**Kirish** .....

## Glossariy

- **Avesto**-zardushtiylikning muqaddas kitobi.
- **Al-Hajar al-asvod**-(arab. «Qora tosh») Ka'baning janubiy-sharqiy burchagida yerdan 1,5 m balandlikda o'rnatilgan muqaddas tosh.
- **Ansorlar**-arab. yordam beruvchilar.
- **Arofat**-arab. tanimoq, bilmoq fe'lidan.
- **Axriman** – zardushtiylikning yovuzlik isohi.
- **Axura-mazda**-zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohi.
- **Aqidaparastlik**-diniy aqidalarni asos qilib olib, kelishlar yangi va qolbigama'lum mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirish.
- **Akromiyalar**-1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topgan diniy guruh, rahbari Akrom Yo'ldoshevdir. U xizb-ut tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g'oyalari asosida «Iymonga yo'l» risolasini yozgan.
- **Al-Qoida**-Afg'onistonda XX asr oxirgi choragida vujudga kelgan radikal guruhlar uyushmasi.
- **Al-Azhar**-Qohiradagi diniy va dunyoviy o'quv yurtlari kompleksi.
- **Animizm**-(lotincha-animus-jon; ruh demakdir) qadimgi zamon dinlaridan biri.
- **Arab istilosi**-islom dini paydo bo'lgan davrlarda arab lashkarlarining qo'shni mamlakatlarga dinni targ'ibot qilish uchun bostirib kirishi shunday deb atalgan.
- **Astrologiya** – ilmi nujum, yulduzlarga qarab fol ochish bilan shug'ullanuvchi soxta ta'limot.
- **As-sahih**-ishonchli ma'noni anglatadi. Dunyoga mashhur Imom Buxoriyning hadislarini shunday nomda-«Sahih Buxoriy» deb ataladi.
- **Ashuro**-(arab.-o'n kunlik)-shialarda o'tkaziladigan motam marosimlari kunlari.
- **Aqida** – (arab.-e'tiqod qilinadigan tushuncha)-dindorlar uchun majburiy hisoblangan, shakl keltirmasdan e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablar.
- **Badaviylar**-(arab.-sahroi)-qadimda sahro va qumli erlarda yashagan arablarni shu nom bilan atashgan.
- **Baytulloh**-(arab.-Allohning uyi)-Islomda Makka shahridagi Ka'baga berilgan nom.
- **Vahy**-iloh bilan insonlarning payg'ambarlar orqali muloqat yo'li.
- **Vajib**-(arab.-majburiyat, burch)-shariat ahkomi bo'yicha mamlakat hukmdori (xalifa, podsho)ning amrini bajarish musulmonlar uchun majbur ekanligini anglatadi.
- **Var'a**-(parhez) uning uch-til, ko'z, qalb var'alari mavjud.
- **Vahhobiylik**-islomdagi diniy-siyosiy oqim.
- **Vuqufi zamoniy**-inson o'zi yashayotgan zamon, jamiyatda kechayotgan hadislardan vaqif bo'lishi.
- **Vuqufi adadiy**-insonga Alloh tomonidan umr, hayot bir marta berilishi, uni bir daqiqasini ham bekorga o'tkazmaslik.
- **Vuqufiy qalbiy**-har bir solih Alloh-taoloni qalbida saqlashi, ya'ni ichki qalb bilan zikr qilib yashashlari.
- **Jadidchilik**-(arab. «usuli jadid»-yangi usul)-XX asrning boshlarida islomni isloh qilishga va ilm-ma'rifatni yoyishga intilgan harakat.
- **Johiliya**-(arab. «jahula»-bilimsizlik ma'nosini bildiradi). Islomda «yagona Allohni tanimaslik» ma'nosini anglatadi. Arablarning islomdan oldingi hayoti.
- **Jabroil**-islomda to'rt bosh farishtadan biri, diniy aqidaga ko'ra habar beruvchi farishta hisoblanadi.
- **Juz**-(arab.-jon solig'i)-dastlab arab xalifalikdagi, keyinchalik O'rta Osiyoda musulmon bo'lmagan fuqarolardan olinadigan jon solig'i.

- **Zam-zam**-Makka shahrida Ka'ba yaqinidagi buloq. Islomda Ka'bani va «Zam-zam» bulog'ini ziyorat qilish, qurbonlik qilish amalda «Zam-zam» buloq suvini xojilar va musulmonlar muqaddas hisoblab, uni iste'mol qiladilar.
- **Zuhd**-var'aning davomi hisoblanib, taom va ichkilikdan, mol-dunyodan parhez qilish tushiniladi.
- **Islom madaniyati**-islom dini paydo bo'lganidan keyin shakllangan va rivojlangan madaniyat.
- **Ilohiyot** – (arab.-xudo to'g'risidagi ta'limot) xudo, uning sifatleri belgilari va sifatleri to'g'risidagi diniy ta'limot.
- **Islom falsafasi** - Qur'oni karimga asoslangan falsafiy ta'limot.
- **Islom ma'naviyati** – islom ta'limotiga asoslangan urf-odat, marosimchilik, an'analar, odob – axloq noromalaridan iborat ma'naviy-madaniy tizim.
- **Ijmo'** – (arab.-yakkilik bilan qabul qilingan qaror)-islomda faqih va mujdahidlarining to'planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi.
- **Ipak yo'li** - Qadimda Sharq va g'arbni bog'lagan karvon yo'li.
- **Imom** – (arab. – oldinda turuvchi)-islom dinida musulmonlarning boshlig'i. Imom-xatib deb ham yuritiladi.
- **Isnod** - (arab.-aynan-«tayanch») –hadisshunoslikda qo'llanilgan tushuncha, har bir hadisning tarkibiy qismi.
- **Ka'batulloh** - (arab.–Ka'ba-kub)-islom dinining eng muqaddas ibodatxonasi.
- **Klerikalizm**-mamlakatning siyosiy va madaniy hayotda cherkov ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan oqim.
- **Kesh**-qadimda Qarshi shahri shu nom bilan atalgan.
- **Madrasa**-(arab.-dars o'qitiladigan joy)-islomda o'rta va oliy diniy o'quv yurti.
- **Mu'taziliylar**-(arab.-ajralib chiqqanlar)-ilk islomda ilohiyot oqimlaridan birining tarafdorlari.
- **Mutakallimlar**-islomda din falsafasi – kalom tarafdorlari.
- **Makka**-Saudiya Arabistondagi shahar. Xijoz viloyatining ma'muriy markazi.
- **Madina**-(arab.-shahar) Madina an-nabiy-payg'ambar shahri.
- **Muxojirlar**-(arab.-ko'chib kelganlar)-islom tarixida Makkada dinni qabul qilib, 622 yilda Muhammad bilan birga ko'chib o'tgan musulmonlar.
- **Modernizm**-dinni hozirgi zamon voqealigiga moslashtirishni yoqlab chiquvchi oqim.
- **Monoteizm**-(qad. yunon. «mono»- «yagona», «teo»-xudo) yakkaxudolik.
- **Me'roj**-(arab.-parvoz, ko'tarilish)-islomda Muhamma(s.a.v.)dning osmonga, Alloh oldiga qilgan parvozi.
- **Magiya**-(qad. yunon. «magus», arab. «majus») sehrgarlik.
- **Movarounnahr**-arablar ikki daryo oralig'idagi bizning xududni shunday deb ataganlar.
- **Masjid**-musulmonlarning jamoa bo'lib, ibodat qiladigan joyi.
- **Manba**-har qanday ilmiy yoki diniy yo'nalishlar, tadqiqotlarning asosi, ashyoviy-dalillar tizimi.
- **Mushaf**-(arab.-sahifalarni jamlanishi)-Qur'oni karim sahifalarini jamlab kitob holiga keltirilishi.
- **Molikiya mazhabi**-islomdagi shariat mazhablaridan biri.
- **Mazhab**-(arab. «yo'l») islomdagi shariat qoidalari tizimi va yo'nalishi.
- **Muhaddis**-islomda hadisshunoslik ilmi bilan shug'ullanuvchi olim.
- **Musnad**-(arab.-asoslangan, dalillangan)-hadis to'plamlarining ilk turi.
- **Muvatto**-Ibn Molik asarining nomi.
- **Mujdahid**-(arab.-intiluvchi, harakat qiluvchi)-O'rta asrlarda islomda ijthod huquqiga ega bo'lgan.
- **Mandub**-(arab.-tavsiya etilgan) shariatda bajarilishi lozim va savob deb etiladigan, lekin gunoh bo'lmagan harakatlar.

- **Muboh**-(arab. Umumiy hech kimga taaluqli bo'lmagan) shariatda ijozat berilmagan xatti-harakatlar.
- **Makruh**-(arab. – rad etilgan, qoralangan) shariatda qat'iy taqiqlangan, ammo nomaqbul hisoblangan hatti-harakatlar.
- **Maxzura**-(arab.-man etilgan narsa) musulmonlar uchun qat'iy taqiqlangan xatti-harakatlar.
- **Ma'rifat**-ziyo tarqatish
- **Nestorianchilik** - Vizantiyada 5-asrning boshlarida xristianlikda vujudga kelgan oqim.
- **Oyat**-(arab. «belgi», «mo''jiza») Qur'on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlar».
- **Panislamizm**-19 asrning oxirida O'rta Sharqdagi musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqim.
- **Panteizm**-xudo bilan tabiat bir deb hisoblaydigan diniy-falsafiy ta'limot.
- **Patriarx**-qabila yoki urug` boshlig`i, dinda katta ruhoni.
- **Politeizm**-ko'p xudolik (ko'p xudolikni tan oluvchi din)
- **Payg`ambar**-(fors.-payg`am-xabar, bar-keltirmoq, xabar keltiruvchi) ilohiy kuchlardan vahy (ko'rsatma) olgan shaxslar nomi.
- **Rukn** – (arab.-asos, ustun) islomda eng muhim 5 ta amaliy marosimchilik talablari rukn-arkoni ad-din deb ataladi.
- **Rasul**-(arab.-elchi) islomda Rasul Akram tushunchasi bo'lib Muhammad (s.a.v.) Xudoning erdagi elchisi hisoblanadi.
- **Rizo**-qalbdan harakat qilish, qazo amriga taslim bo'lish.
- **Sutxo'rlik**-islomdan oldin arablarda pulni foiz hisobiga berib foydalanish. Bu islomda qat'iy qoralangan va taqiqlangan.
- **Tariqat**-shariatdagi to'rt bosqichdan biri.
- **Tavba**-sufiylikda-qaytish, ya'ni kamolatga, axloqiy sifatlarga qaytish.
- **Tavakkul**-barcha ishlarni xudodan deb bilish, unga suyanish.
- **Fiqh**-(arab. «tushunish») shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.
- **Faqih**-fiqh ilmining bilimdoni.
- **Fetishizm**-(franst. «fetiko»)-yasalgan tumor, but, sanam degan so'zlardan olingan) moddiy buyumlarda ham g'ayritabiiy xususiyatlar borligiga ishonish.
- **Farz**-shariatda bajarilishi majburiy bo'lgan amal.
- **Faqr**-qashshoqlik, benavolik, sufiylar nazdida ulug`vor ilohiy mohiyat kasb etish, bandalikni sidqidildan bajo etish.
- **Xalifalik**-ilk islomdagi davlat tizimi.
- **Xijoz**-Makka yaqinidagi shaharning nomi.
- **Xaj**-musulmonlarning Makka va Madinaga safar qilib, islomning besh amaliy marosimchilik amallaridan birini ado etish, xaj amallarini bajarishdir.
- **Sunna**-islomda payg`ambar amallari, urf-odat, yaxshi xulq haqidagi rivoyatlar to'plami.
- **Suhuf**-(arab. «suhuf»-varaqa).
- **Sura**-(arab. «devor», «to'siq») Qur'onni tashkil etuvchi qismlar.
- **Sunniylik**-islomdagi yo'nalishlardan biri.
- **Sahoba**-(arab. «suhbat» so'zidan olingan) Islomda payg`ambarni ko'rgan, u bilan muloqatda bo'lgan har bir musulmon «sohobiy» deyilgan.
- **Tasavvuf**-islomda vujudga kelgan sufiylik ta'limoti yoki tasavvuf falsafasi deb ham yuritiladi.
- **Teologiya**-ilohiyot haqidagi fan.
- **Traditionizm**-an'anaviylik, odat, rasm bo'lib qolgan an'analarga amal qilish.
- **Totemizm**-(hind. «O totem»-uning urug`i). Totemizm ibtidoiy g'oyat sodda diniy so'zdan kelib chiqqan.
- **Hanif**-islomdan oldingi davrda yakkaxudolikni targ`ibot qiluvchi kishi.
- **Hanbaliya mazhabi**-islomning sunniy yo'nalishidagi mazhablardan biri.
- **Hanafiya mazhabi**-islomdagi sunniy yo'nalishdagi to'rt mazhabdan biri.

- **Hadis**-(arab. «yangi; so'z») Muhammad payg`ambarning aytgan so'zlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.
- **Hurfiylik**-fanda va dinda erkinfikrlilikni yoqlovchi oqim.
- **Shofe'iy mazhabi**-islomdagi sunniylik yo'nalishining mazhablaridan biri.
- **Shialik**-(arab. «shia»-partiya) islomdagi yo'nalishlardan biri, Ali tarafdorlari.
- **Shariat**-islomdagi diniy-huququiy qonun-qoidalar majmui.
- **Yasrib**-Madina shahrining oldingi nomi.
- **Qabila**-qadimgi urug`-qabilachilik davrida odamlar guruh-guruh bo'lib yashaganlar, katta va kichik qabila shaklini olganlar.
- **Qadriyatlar**-insoniyatning tarixan yuzaga keltirgan ma'naviy-madaniy boyliklari qadriyat hisoblanadi. Diniy qadriyatlar esa har bir dinning muqaddas kitoblari, ta'limotlari bilan bog`liq holda izohlanadi.
- **Qur'on**-(suryoniy «kerain»-«muqaddas yozuv») islom dinining muqaddas kitobi.
- **Qiyos**-islomda shariat manbalaridan biri. O'xshash masala orqali mantiqiy taqqoslash yo'li bilan hukm yoki fatvo chiqarish.



## Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

### Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 40 b.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) // O'zbekistonning yangi qonunlari, № 19. –T.: Adolat, 1998. 224-234-betlar.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston. 1997.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.
6. Karimov I.A. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 1998, 5-may.
7. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – 158 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. –176 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: «O'zbekiston», 1997.
10. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda.-T.: 1999.
11. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. T.: «O'zbekiston», 2005.-48 b.
12. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.: «O'zbekiston», 2005.-160 b.
13. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston».-96 b.

### Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasini. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.
2. «Avesto» kitobi-tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai mazmunidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. T.: 2000.
3. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. T.: O'zMU, 2004.-208 b.
4. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. –T.: 1992.
5. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Jome' as-sahih (ishonchli to'plam), 4 jildlik T.: Qomuslar bosh taxririya, 1991-1999.
6. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy. A. Abdullo tarjimasini. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
7. Ahmad Yassaviy Hikmatlari. T.: g'ofur g'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-256 b.
8. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. T.: 1968.
9. Buyuk siymolar, allomalar: O'rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar. K. 1. T.: «O'zbekiston», 1995.-101 b.
10. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. «Toshkent Islom universiteti» nashriyoti-matbaa birlashmasi. T.: 2005.
11. Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. T.: «O'zbekiston», 1990.

12. Ishoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida). «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2-son, 1992.
13. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. T.: Yozuvchi, 1996.-272 b.
14. Mahmud Shayx Ismoil. Toshkentdagi Usmon mushafining tarixi. T.: 1995.
15. Mahmudov T. «Avesto» haqida. T.: 2000.
16. Mo'minov A. va boshq. Dinshunoslik (darslik). T.: «Mehnat», 2004.
17. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy. T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1998.
18. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T.: 1992.
19. Otamurodov S., Xusanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari. T.: 2002.
20. Falsafa qomusiy lug'at (mas'ul muharrir Q.Nazarov). T.: 2004.

#### **Elektron ta'lim resurslari:**

1. Xalq so'zi gazetasi – [www.infoXS.Uz](http://www.infoXS.Uz)
2. Turkiston gazetasi – [www.turkistonsarkor.uz](http://www.turkistonsarkor.uz)
3. Ma'rifat jurnali – [www.ma'rifat-inform.uz](http://www.ma'rifat-inform.uz)
4. Jamiyat va boshqaruv jurnali – [www.rzultacademyfreenet.uz](http://www.rzultacademyfreenet.uz)
5. Moziydan sado jurnali – [www.moziy.dostlink.net](http://www.moziy.dostlink.net)
6. Tashqi ishlar vazirligi – [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)
7. Ziyonet – [www.ziyone](http://www.ziyone)